


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 5 **2024**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yusupova Quvonchoy Mayliboy qizi
LINGVOPOETIKANING TARIXIY IDROKDAGI O'RNI.....8
2. Умарова Дилфуза Батыралиевна
ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-ЯЗЫКА И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА РУССКИЙ ЯЗЫК.....12
3. Mahmudov Raufjon Bahodirovich
OGANIY TARIXIY ASARLARIDA "BEK" SO'ZI BILAN BOG'LIQ SO'ZLARNING
ETIMOLOGIYASI.....16
4. Рузметова Озада Рузметовна
РАЗВИТИЕ ПРОБЛЕМАТИЧНОГО МЕТОДА ОБУЧЕНИЯ КАК ЧАСТЬ СОВРЕМЕННОЙ
МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВ.....23
5. Nizomova Shohista Shodiyevna
RAUF PARFI SHE'RIYATIDA MAKON VA ZAMONNING RAMZIY OBRAZLARDA IFODA
ETILISHI.....29
6. Latifova Maftuna Yashin qizi
O'XSHATISH HODISASINING TADQIQI XUSUSIDA.....33
7. Tilavova Munisxon Alijon qizi
TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN BA'ZI ANTONIM
BIRLIKLARNING LINGVOMA'NAVIY XUSUSIYATLARI HAQIDA BA'ZI
MULOHAZALAR.....38
8. Halimova Sabina G'olibjon qizi
O'LMAS UMARBEOV HIKOYALARINING O'ZIGA XOSLIGI.....43
9. Hojiyeva Nigina Hayot qizi, Mutalibova Saodat O'lmas qizi
O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MEVA NOMLARINING QO'LLANISHI.....47

IQTISODIYOT

1. Qabulov Baxrom Quzibayevich
AUDITORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.52

PEDAGOGIKA

1. Хакимов Зоҳид Абдуллаевич
НЕЙРОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ.....59
2. Ibadullayeva Nigora Egamberganovna, Ibadullayev Saburjan Egamberganovich,
Safasheva Surayyo Sadikovna
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BADIY
TA'LIMGA INTEGRATSION YONDASHUV.....65
3. Xakimov Zoxid Abdullayevich
NEYRODIDAKTIK O'QITISH TEXNOLOGIYASI KOMPONENTLARI.....70

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**
KO'ZI OJIZ O'QUVCHILAR BILAN ISHLOVCHI TARBIYACHILARDA KASBIY
SO'NISHNI NAMOYON BO'LISHI.....75
- 2. Qurbonova Shaxloxon Baxadirovna**
SIL XASTALIGI BILAN OG'RIGAN KEKSA YOSHDAGI BEMORLARGA PSIXOLOGIK
YORDAM IMKONIYATLARI.....80
- 3. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Kasimova Xulkar Atabayevna**
SUBYEKTIV FAROVONLIK VA UNING TARKIBIY QISIMLARINI NOGIRONLIGI
BO'LGAN TALABALARDA NAMOYON BO'LISHI.....84
- 4. Bekchanova Kuvanch Roximovna**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KO'NIKMASI
RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....90
- 5. Kabulova Saboxat Baxodirovna**
KASBIY SULOLALI PROFESSIONAL O'QITUVCHI VA SHIFOKORLARNI OTA-ONALARI
BILAN IDENTIFIKATSIYALANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....95
- 6. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna**
MUKAMMALLIKNI IZLASHNING INSON RUHIY SALOMATLIGIGA TA'SIRI.....100
- 7. Niyazova Nilufar Farhadovna**
SOS BOLALAR MAHALLALARI O'SMIR YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARIDA
GENDER IDENTIKLIKNING NAMOYON BO'LISHI.....104

TARIX

- 1. Davletov Sanjarbek Rajabovich, Davlatov Kamronbek Sanjarbek o'g'li**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLATLARARO MUNOSABATLAR SOHADAGI
DAVLAT SIYOSATI.....108
- 2. Нуруллаева Нодира Кадамовна**
СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ
ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....113
- 3. Rahmonov Kamol Jamolovich**
HAMKORLIK STRATEGIYALARI ASOSIDA LOYIHALASHTIRILGAN MUSTAQIL
TA'LIMNING AMALIY AHAMIYATI ("O'ZBEKISTON-YAPONIYA DAVLATLARI
HAMKORLIGI" MAVZUSI MISOLIDA).....117
- 4. Salayev Umrbek Kadambayevich**
JANUBIY OROLBO'YI HUDUDI BRONZA DAVRI TURAR-JOYLARIDA ARXEOLOGIK
IZLANISHLAR NATIJALARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALARI.....123
- 5. Yakupov Aydos Kiyasatdinovich**
QORAQALPOQ XALQIDA OILADA KELINLARGA TEGISHLI ODOB VA
AN'ANALAR.....128

6. Atamuratova Dilafruz Rashidovna, Madaminov Jayxunbek Xushnudbekovich 1940-YILLARDA XORAZM MATBUOTIDA IJTIMOIIY MASALALAR BAYONI (DAVRIY NASHRLAR ASOSIDA).....	134
7. Muborak Madrimovna Matyakubova, Nazokat Farhod qizi Ahmedova XIVA ADABIY JARAYONLARIDA TARJIMONLIK, XATTOTLIK VA KITOBAT SAN'ATINING RIVOJI (XIX ASR IKKINCH YARMI XX ASR BOSHLARI).....	139
8. Xujamatov Intizom MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHADAGI O'ZGARISHLAR.....	146
9. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XIVA XONLIGINING 1900-1916-YILLARDAGI QOZIKALONI.....	150
10. Matyakubova Shahodat Xamidjanovna ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA XORAZM DAVLATI IJTIMOIIY TURMUSH TARZINING YORITILISHI (AFRIG'IYALAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRI MISOLIDA).....	155
11. Qurbonov Abdullajon Atanazarovich QUYI AMUDARYO XUDUDI ILK O'RTA ASR TURAR-JOYLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLARNI O'RGANISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI.....	162

FILOLOGIYA

Yusupova Quvonchoy Mayliboy qizi-
Urganch davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida doktoranti

LINGVOPOETIKANING TARIXIY IDROKDAGI O'RNI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ogahiyning “Riyozi-d-davla” asarida qo'llanilgan semantik, sintaktik birliklar lingvopoetikasi batafsil misollar bilan yoritilgan. Asarda muallif tomonidan qo'llanilgan badiiy poetik vositalar izohlanilgan. Jumladan, asar nasriy qismlaridagi ichki ohangdoshlik, ohangdoshlik uzvlari, mavzu-semantik uyg'unlik, qofiyadoshlik, sintaktik funksiyalar, tarixiy asarlar murakkab sintaksisiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, tarixiy asar, Ogahiy, ichki ohangdoshlik, semantika, qofiyadoshlik, sintaktik funksiya, tarkibiy moslik, mutarodif juftlik, lingvistik tahlil, murakkab sintaksis va boshqalar.

Yusupova Quvonchoy Mayliboy qizi –

Doctoral Student at the Department of Uzbek Linguistics,
Urgench State University

THE PLACE OF LINGUOPOETICS IN THE HISTORICAL PERCEPTION

ABSTRACT

In this article, the linguopoetics of semantic and syntactic units used in Ogahi's work "Riyazu-d-davla" is covered with detailed examples. The artistic and poetic tools used by the author are explained in the work. In particular, internal harmony in the prose parts of the work, melodic elements, thematic-semantic harmony, rhyming, syntactic functions, complex syntax of historical works are specially discussed.

Key words: Linguopoetics, historical work, Ogahiy, internal assonance, semantics, rhyming, syntactic function, structural compatibility, homonymous pair, linguistic analysis, complex syntax, etc

Юсупова Кувончой Майлибой кизи-
кафедра узбекского языкознания, докторант
Ургенчский государственный университет,

МЕСТО ЛИНГВОПОЭТИКИ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВОСПРИЯТИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на подробных примерах рассматривается лингвопоэтика семантических и синтаксических единиц, используемых в произведении Огахи «Риязу-д-давла». В произведении раскрываются художественно-поэтические средства, использованные автором. В частности, особо обсуждаются внутренняя гармония в прозаических частях произведения, мелодические элементы, тематико-смысловая гармония, рифма, синтаксические функции, сложный синтаксис исторических произведений.

Ключевые слова: Лингвопоэтика, исторический труд, Агахи, внутреннее ассонанс, семантика, рифма, синтаксическая функция, структурная сочетаемость, омонимическая пара, лингвистический анализ, сложный синтаксис и др.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

“Riyozi-d-davla”ni tarixiy-adabiy asarga aylantirgan xususiyatlaridan biri unda soʻzlarning ichki ohangdoshligidan unumli foydalanilganidir. Masalan, quyidagi parchaga diqqat qaratamiz: “Ul Hazratning baloraki muboraki xunafshonligʻi biymidin kuffori zalolattiynatning toraki jurʻat muoriki (nashrda jurʻati maoriki tarzida xato oʻqilgan) muxolafatda majruhu maqtul va sinoni zafarnishoni jonsitonligʻi vahmidin ashrori sharoratfitratning bunyoni istiqomati mayodini muxosamatda maqmuʻu maqluʻdur...”

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI

Parchada dastlab eski oʻzbek tilida qofiyadoshlari juda kam boʻlgan balorak soʻzi matn mazmuniga muvofiq muborak soʻzi keltiriladi. Unga qofiyadosh yana bir soʻz taborakni boshqa oʻrinlarda ishlatgani bois muarrix eski oʻzbek tilida juda kam qoʻllangan muorik (jangchi) soʻzini ishlatadi. Bu soʻz kam isteʼmolligi bois Muhammad Muʼinning “Farhangi forsiy”siga ham kiritilmagan. Uning “Farhangi Dehxudo”dagi izohi “Muntahou-l-arab”, “Aqrabu-l-mavirid”, “Nozimu-l-atibbo” kabi lugʻatlar asosida berilgan. Shu tarzda muarrix ichki ohangdoshlikning quyidagi paradigma asosida shakllantiradi:

Ul Hazratning

- 1) baloraki muboraki xunafshonligʻi biymidin
- 2) kuffori zalolattiynatning toraki jurʻat muoriki muxolafatda majruh-u maqtul va 2) sinoni zafarnishoni jonsitonligʻi vahmidin
- 3) ashrori sharoratfitratning bunyoni istiqomati mayodini muxosamatda maqmuʻu maqluʻdur.

Ushbu koʻrinish parcha bir necha ohangdoshlik uzvlari borligini koʻrsatadi: 1) “...baloraki muboraki xunafshonligʻi biymidin – sinoni zafarnishoni jonsitonligʻi vahmidin”; 2) kuffori zalolattiynatning toraki jurʻat muoriki – ashrori sharoratfitratning bunyoni istiqomati”; 3) “muxolafatda majruhu maqtul – muxosamatda maqmuʻu maqluʻ(dur)

Birinchi ohangdosh juftlikda muarrixning poetik mahoratini yaxshiroq tasavvur qilishimiz uchun uni quyidagi shaklga solib koʻramiz:

baloraki muboraki xunafshonligʻi biymidin

↑ ↑ ↑ ↑
sinoni zafarnishoni jonsitonligʻi vahmidin...

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bunda har bir uzvdagi soʻzlar ohangdan tashqari oʻzaro bir necha jihatdan moslanganini koʻramiz:

Birinchi, mavzu jihatdan moslik. Koʻrinib turibdiki, har bir juftlikda toʻrttadan soʻz boʻlib, ular oʻzaro mavzu-semantik jihatdan mos, yaʼni balorak – sinon juftligi harbiy termin; muborak – zafarnishon juftligi asliy sifat; xunafshonligʻ – jonsitonligʻ juftligi mavhum ot: biym – vahm juftligi mavhum ot. Bulardan balorak بلاراك – javharli poʻlat turi... Balorak javharli poʻlatning bir turi boʻlib, undan shamshir yasaganlar. Uning balolak, palorak, palolak shakllari ham ishlatilgan[1]. Sinon “Muntaxabul-lugʻot”da sinon soʻzi “charxtosh, nayza uchi, hassa uchi va har bir narsaning oʻtkirli” [2] deb izohlangan hamda “Gʻiyosul lugʻot”da ham “Muntaxab”dagi maʼlumot qayd etilgan[3]. Alisher Navoiy asarlarida sinon “narsa uchi” maʼnosidan tashqari nayza maʼnosi

berilgan[4]. Tarixiy harbiy tizimida sinonvar – “nayzador, nayza bilan qurollangan jangchi” so‘zi ham bor[5].

Ikkinchidan, qofiyadoshlik. Ko‘rinib turibdiki, to‘rtta juftlikdan uchasi o‘zaro qofiyadosh.

Uchinchidan, sintaktik vazifalari bir xil, ya‘ni baloraki muborak hamda sinoni zafarnishon forsiy izofaga kirishgan va uzv bir butun holda murakkab to‘ldiruvchi vazifasini bajarmoqda.

To‘rtinchidan, tarkibiy moslik, ya‘ni undagi har so‘z o‘z juftiga mos tarkibga ega. Masalan, balorak – sinon juftligi forsiy izofa tarkibida muzof, muboraki – zafarnishoni juftligi muzofun ilayh hamda o‘zbekcha uchinchi shaxs birlik qo‘shimchasi shaklida, xunafshonlig‘i – jonsitonlig‘i juftligi belgisiz qaratqich shaklida, biymidin – vahmidin juftligi esa uchinchi shaxs birlik egalik, chiqish kelishigi qo‘shimchalarini olgan holatda.

Beshinchidan, mutarodif juftliklar keltirilishiga erishilgan: biym – vahm juftligi.

Ushbu parcha aslida murakkab qo‘shma gapning bir qismi sanaladi. Jumlaning davomi ham xuddi yuqoridagi kabi tartibda davom etadi:

1) “...selobi mahobati latmasidin munofiqlarning zamiri shaqovattaxmirlari butxonasi havas olamida xayoli mahol koshonasidek xarobu munhadim va

1) oftobi salobati sha‘sha’sidin mushriklarning vujudi lozimu-t-tahqirlari nishonasi adam dashtida zarraning timsoli gumonasidek noyobu mun‘adim,

2) dini mubin muborizlarining bozuvi jalodati aning neruyi himmatidin zafarparvar va

2) shariati matin bahodirlarining livoyi shijoati aning havoyi shavkatidin nusratpaykar,

3) xurshidi zuhurining lam‘oti anvori jahon tiyra zulumotin ravshan va

3) bahori huzurining fuyuzoti azhori olam xiyr marza‘otin gulshan qildi.

Ko‘rinib turibdiki, 1 raqami bilan belgilangan uzvlar 14 ta so‘zdan; 2 raqami bilan belgilangan uzvlar 9 ta so‘zdan; 3 raqami bilan belgilangan uzvlar 8 ta so‘zdan iborat juftlik hosil qilgan. Ularning har birida yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, to‘rt jihatdan moslik to‘la saqlangan.

Mazkur uchta juftlik ichida eng kichigi misolida ko‘radigan bo‘lsak, quyijagi manzara namoyon bo‘ladi:

xurshidi zuhurining lam‘oti anvori jahon tiyra zulumotin ravshan [qildi]

↑ ↓ ↑ ↓ ↑ ↓ ↑ ↓ ↑ ↓ ↑ ↓ ↑ ↓

bahori huzurining fuyuzoti azhori olam xiyr marza‘otin gulshan qildi.

Ushbu juftlikda 8 ta so‘zdan (oxirgisi qo‘shma fe‘l) barchasi mavzuiy-semantik jihatdan bir-biriga mutanosib, 7 tasi o‘zaro qofiyadosh, barchasi sintaktik jihatdan muvofiq, tarkibiy (morfologik) jihatdan to‘la muvofiq, olam – jahon, tiyra – xiyr juftliklaridan mutarodiflar ishlatilgan. Shu bilan birga (bu mutanosiblik yuqoridagi misolda yo‘q edi) arabiy ayrim o‘zlashmalarning vazniy mutobiqligiga ham e‘tibor berilgan, ya‘ni zuhur – huzur; lam‘ot – fuyuzot; anvor (nurlar) – azhor (gullar); zulumot – marza‘ot juftliklari o‘zaro mutavozin (vazndosh)dir.

Faqat e‘tibor berish kerakki, oxirgi (3-juftlikning ikkinchisi) qismdagi qildi fe‘li har uchala juftlik – jami 6 ta qismdagi oxirgi so‘zlarga tegishli bo‘lib, qo‘shma fe‘l hosil qilgan, ya‘ni gapda 6 ta fe‘l-kesim mavjud: munhadim qildi, mun‘adim qildi, zafarparvar qildi, nusratpaykar qildi, ravshan qildi gulshan qildi.

Shu tarzda jumla umumiy holatda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: “”Ul Hazratning baloraki muboraki xunafshonlig‘i biymidin kuffori zalolattiynatning toraki jur‘at muoriki muxolafatda majruhu maqtul va sinoni zafarnishoni jonsitonlig‘i vahmidin ashrori sharoratfitratning bunyoni istiqomati mayodini muxosamatda maqmu‘u maqlu‘dur, selobi mahobati latmasidin munofiqlarning zamiri shaqovattaxmirlari butxonasi havas olamida xayoli mahol koshonasidek xarob-u munhadim va oftobi salobati sha‘sha’sidin mushriklarning vujudi lozimu-t-tahqirlari nishonasi adam dashtida zarraning timsoli gumonasidek noyob-u mun‘adim, dini mubin muborizlarining bozuvi jalodati aning neruyi himmatidin zafarparvar va shariati matin bahodirlarining livoyi shijoati aning havoyi shavkatidin nusratpaykar, xurshidi zuhurining lam‘oti anvori jahon tiyra zulumotin ravshan va bahori huzurining fuyuzoti azhori olam xiyr marza‘otin gulshan qildi”.

XULOSA

Ogahiy tarixiy asarlari murakkab sintaksisi ba’zan unda bayon qilingan fikrni to’la idrok qilishga monelik qiladi. Shuning uchun har jumlani yuqoridagi kabi qisqacha lingvopotik tahlil qilish ularni hozirgi o’zbek adabiy tili darajasida anglashga imkon yaratadi. Natijada jumlaning hozirgi o’zbek adabiy tilidagi mazmuni taxminan quyidagi ko’rinish oladi: “Ul Hazratning javohirlar bilan bezalgan muborak shamshirining qon to’kishidan qo’rqib, qon-qoniga zalolat singgan kofirlarning jur’at boshi muxolafat maydonlarida majruh-u qatlga mahkum va zafarnishon nayzalari jon olishi vahmidan yovuztabiat yomonlarning hayotlari bunyodi dushmanlik maydonlarida mag’lub bo’lib, biror ishga yaramay qolgandir. Mahobati seli tarsakisidan munofiqlarning yomonlik aralashgan vujudlari butxonasi havas olamida mahol, xayol koshonasidek xarob-u tag-tagidan to’kilgan va salobati quyoshi shu’lasidan mushriklarning tahqirga loyiq vujudi nishonasi yo’qlik dashtida zarra kabi ko’zga tashlanmas, g’olib din kurashchilarining jasurlik bilagi himmat kuchidan zafarparvar va mustahkam shariat bahodirlarining shijoat bayroqlari uning shavkati havosidan g’alabaga eltuvchidir, porlab turgan quyoshining yolqinlaridan taralgan nurlar jahonning tim qorong’i zulmatini yorug’ va huzuri bahorining fayzlari butun olam gulshanining so’lg’in ekinzorlarini sarsabz qilib, yashnatdi” [6].

Ko’rinadiki, tarixiy asar linvopoetikasi birinchi navbatda asar mazmuni idrokida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Radjapova U.B. “Lahjatu-l-lug’ot” asari o’zbek tarixiy leksikasi tadqiqida muhim manba: Filol...fanlari bo’yicha fals...d-ri (PhD) diss.. – Urganch, 2023. – B. 61.
2. Мунтахабул-луғот. Когон матбааси. 1906. – С. 236.
3. Ғиёсиддин Муҳаммад Рампурий. Ғиёсул-луғот. Когон матбааси. 1906. – С. 276.
4. Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. –Тошкен: Фан, 1993. – Б.252.
5. Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 129.
6. Muhammad Rizo Ogahiy. Riyozi-d-davla. Nashrga tayyorlovchi, so’z boshi va izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni Abdulla O’rozboyev. – Urganch: Quvanchbek-Mashxura, 2021. – B. 365.

Умарова Дилфуза Батыралиевна
старший преподаватель кафедры Ташкентского
архитектурно-строительного университета
кафедры Зарубежных языков

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-ЯЗЫКА И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА РУССКИЙ ЯЗЫК

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается воздействие интернет-языка и социальных сетей на современный русский язык. Интернет-язык, формируемый в интернете и социальных сетях, оказывает значительное влияние на лексическую, грамматическую и стилистическую составляющие русского языка. Мы проанализируем причины возникновения интернет-языка, а также последствия, которые он влечет для русского языка.

Ключевые слова. Интернет-язык, социальные сети, русский язык, лексика, грамматика, коммуникация, изменение языка.

Umarova Dilfuza Batyraliyevna –

Toshkent arxitektura-qurilish universitetining
Chet tillari kafedrasida katta o'qituvchisi

INTERNET-TILI VA IJTIMOYIY TARMOQLARNING RUS TILIGA TA'SIRI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining zamonaviy rus tiliga ta'sirini o'rganadi. Axborot texnologiyalari rus tilining leksik, grammatik va stilistik tarkibiy qismlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maqolada rus tilini o'rganishni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadigan omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, rus tili, lug'at, grammatika, muloqot, ko'p tillilik.

Umarova Dilfuza Batyraliyevna –

Senior Lecturer of the Department of Foreign Languages
at Tashkent Architectural and Construction University.

THE INFLUENCE OF INTERNET LANGUAGE AND SOCIAL NETWORKS ON THE RUSSIAN LANGUAGE

ABSTRACT

This article examines the impact of Internet language and social networks on the modern Russian language. Internet language, formed on the Internet and social networks, has a significant

impact on the lexical, grammatical and stylistic components of the Russian language. We will analyze the reasons for the emergence of Internet language, as well as the consequences that it entails for the Russian language.

Keywords. Internet language, social networks, Russian language, vocabulary, grammar, communication, language change.

ВВЕДЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ

С началом XXI века интернет и социальные сети стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни, кардинально изменив способы общения. Вместе с ними возник и так называемый интернет-язык - особая форма устного и письменного общения, характеризующаяся использованием специфичного жаргона, многочисленных аббревиатур и вкраплений эмодзи. Этот новый способ коммуникации прочно обосновался в повседневной речи, в значительной степени повлияв на лексическую и грамматическую структуру традиционного русского языка. Явление интернет-языка вызывает много дискуссий среди лингвистов и педагогов. С одной стороны, он способствует скорости и экономии средств общения, а также способствует расширению лексического запаса за счет англицизмов и новых понятий. С другой стороны, существует беспокойство, что он может привести к обеднению языка, утрате некоторых его форм и снижению уровня грамотности.

МЕТОДЫ И УРОВЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ

Интернет-язык - это динамичная и эволюционирующая форма языковой коммуникации, появившаяся в результате активного взаимодействия людей в цифровой среде. Он характеризуется уникальными чертами, обусловленными спецификой интернет-общения, такими как скорость обмена информацией, отсутствие формальностей и повсеместная доступность общения.

1. Аббревиатуры и акронимы: Интернет-язык часто использует краткие формы для экономии времени и пространства. Некоторые из них, такие как "лол" (англ. "laughing out loud") или "имхо" (англ. "in my humble opinion"), стали универсальными и понятными широкому кругу пользователей.

2. Англицизмы: Заимствования из английского языка, такие как "фолловер" (англ. "follower"), "лайк" (англ. "like"), активно интегрируются в русскую речь, особенно среди молодежи. Это связано с доминированием английского языка в мировой сети и культурным обменом, происходящим в онлайн-среде.

3. Эмодзи и мемы: Графические элементы, такие как эмодзи, играют важную роль в передаче эмоций и намерений, замещая или дополняя текстовую информацию. Мемы, как культурные единицы, также становятся неотъемлемой частью интернет-языка, помогая в создании коллективного смысла и идентичности.

Формирование интернет-языка. Интернет-язык развивается благодаря множеству факторов, включая технические ограничения, такие как количество символов в сообщении, а также стремление пользователей к максимальной эффективности и скорости взаимодействия. Большое количество пользователей и разнообразие культур способствуют формированию общего языка общения, который объединяет людей по всему миру. Упрощение и стандартизация языковых конструкций способствует более легкому восприятию и пониманию информации в постоянно изменяющихся условиях коммуникации. Эти изменения, с одной стороны, адаптируют язык к современным условиям, а с другой - вызывают беспокойство относительно влияния на традиционные языковые формы и нормы. Важно понимать природу этих процессов, чтобы с одной стороны, видеть их положительные аспекты, а с другой - контролировать потенциальные негативные последствия.

Влияние на лексику. Интернет и социальные сети оказывают значительное влияние на лексическую составляющую русского языка, вливая в него новые слова и выражения. Это влияние происходит по нескольким направлениям.

Внедрение англицизмов. Одним из самых заметных явлений является интеграция англицизмов в повседневную речь. Слова, такие как "лайк" (like), "пост" (post) и "фолловер"

(follower), стали привычными для пользователей социальных сетей и часто употребляются не только в интернет-контексте, но и в обычной разговорной речи. Эти англицизмы нередко адаптируются к русской морфологии и словообразованию, приобретая русские окончания и склонения[1].

Сокращения и акронимы. Еще один важный аспект интернет-языка - это активное использование сокращений и акронимов. Такие формы, как "лол" (от англ. "lol" - laughing out loud), "имхо" (от англ. "In My Humble Opinion"), стали частью языкового стандарта молодежи. Подобные сокращения ускоряют процесс общения и делают его более насыщенным. Однако этот процесс может иметь и негативные последствия. Упрощение языка и широкое использование сокращений могут способствовать снижению уровня грамотности среди пользователей. Сокращения часто приводят к тому, что люди начинают менее тщательно относиться к правописанию и пунктуации, полагаясь на быструю и неформальную передачу содержания.

Новая лексика и культурные влияния. Социальные сети также способствуют появлению новой лексики, связанной с культурными и технологическими новшествами. Например, терминология, касающаяся блогинга, стриминга, лайфхаков и других процессов, сначала появляется в интернете, а затем проникает в общий обиход. Эти нововведения отражают изменения в образе жизни и мышления современных людей, что также влияет на развитие языка в целом. Таким образом, интернет-язык оказывает значительное влияние на лексику русского языка, обогащая её новыми словами и терминами, но также создавая определенные риски для традиционных языковых норм. Важно осознавать баланс между инновацией и сохранением языкового наследия для поддержания языкового богатства и культурной преемственности.

Влияние на грамматику. Интернет-язык значимо трансформирует традиционные грамматические нормы, что проявляется в изменении привычных правил и структур, характерных для письменной речи. Эти изменения, обусловленные спецификой общения в цифровой среде, вызывают озабоченность специалистов относительно сохранения грамотности, особенно среди молодого поколения [2].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Изменения в использовании пунктуации и заглавных букв. Одной из ключевых особенностей интернет-языка является опущение знаков препинания и заглавных букв, что нередко встречается в сообщениях, отправляемых через чаты и мессенджеры. Это связано с необходимостью быстрой передачи информации и минимизации усилий при наборе текста. Например, отсутствие точек и запятых делает текст более потоковым, иногда затрудняя его восприятие и понимание.

Исключение заглавных букв при написании, как правило, оправдывается стремлением к упрощению и неформальности общения. Это значительно отличается от стандартных правил, где заглавные буквы используются для выделения имен собственных и начала предложений.

Влияние на синтаксическую структуру. Интернет-язык также склонен к упрощению синтаксических конструкций, где длинные и сложные предложения заменяются короткими или обрывочными фразами. Это ведет к фрагментации сообщений, что, с одной стороны, упрощает и ускоряет общение, но с другой, может влиять на полноту и точность передачи смысла.

Последствия для грамотности. Такое упрощение грамматических норм может приводить к постепенному снижению уровня грамотности, особенно у молодых пользователей, которые большую часть коммуникации осуществляют через цифровые платформы. Это создает потенциальные сложности при обучении и использовании классического языка в академической или профессиональной среде. Для противодействия этим тенденциям важно развивать у молодежи осознанное отношение к языку, балансируя между неформальным стилем общения в цифровой среде и необходимостью владения стандартными правилами грамматики. Образовательные системы могут сыграть ключевую

роль, адаптируя программы и методы преподавания, чтобы сохранить и развить грамматические умения у нового поколения.

ВЫВОДЫ

Анализ тенденций языковых изменений под влиянием интернета и социальных сетей демонстрирует значительное влияние на русский язык, затрагивая как лексическую, так и грамматическую составляющие. Интернет-язык вводит новые слова, заимствования и сокращения, которые делают коммуникацию более гибкой и быстрой. Это обогащение лексики позволяет выразить современные реалии и технологические достижения, но в то же время вызывает ряд вопросов относительно сохранения традиционных языковых норм.

Положительные аспекты:

1. Обогащение лексики: Внедрение новых слов и понятий расширяет словарный запас и помогает адаптировать язык к текущим культурным и технологическим изменениям.

2. Упрощение коммуникации: Сокращения и упрощения синтаксиса ускоряют и упрощают общение, делая его более доступным.

Потенциальные риски

1. Снижение грамотности: Упрощение языковых конструкций и игнорирование грамматических правил могут привести к утрате навыков использования стандартного языка, особенно среди младшего поколения.

2. Двуязычие и смешение языков: Появление большого количества заимствований и англицизмов может размывать границы между языками и усложнять их разделение.

- Образовательная адаптация: Важно учитывать эти изменения в образовательных программах, чтобы помочь студентам сохранять базовые языковые навыки и владение традиционными нормами.

- Развитие критического мышления: Поощрение осознанного использования языка в различных контекстах, развивая способность переходить между формальным и неформальным стилем.

- Исследования и мониторинг: Продолжение исследований для понимания долгосрочного влияния интернет-языка на развитие языка и грамотности.

Таким образом, задача состоит в том, чтобы найти баланс между инновацией и сохранением языкового наследия, позволяя русскому языку развиваться в условиях цифровой эпохи, не теряя своей основы.

Iqtiboslar / References / Сноски

-
1. Мещеряков, Б. Г. (2018). Интернет-язык и его влияние на культуру речи. Издательство МГУ.
 2. Прохоров, Ю. Е. (2017). Русский язык в контексте новых медиа. Лингвистический журнал.
 3. Иванова, Л. Н. (2018). Социолингвистические аспекты развития интернет-языка. Язык и общество, 5(3), 102-110.
 4. Кравцов, П. С. (2019). Молодежный сленг в эпоху цифровых коммуникаций. Социальные и гуманитарные исследования, 4(1), 25-31.

Mahmudov Raufjon Bahodirovich-
Xorazm Ma'mun akademiyasi bo'lim boshlig'i
filologiya fanlari doktori, dotsent

OGAHIIY TARIXIY ASARLARIDA "BEK" SO'ZI BILAN BOG'LIQ SO'ZLARING ETIMOLOGIYASI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda uchraydigan "bek" davlatchilik atamasining tarixiy ildizlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: davlatchilik atamasi, tarixiy manba, solnoma, leksik ma'no, etimologiya, turkiy tarixnavislik.

Рауфджон Махмудов Баходирович -

Начальник отдела Академии Маъмун Хорезма,
доктор филологических наук, доцент

ЭТИМОЛОГИЯ СЛОВ, СВЯЗАННЫХ СО СЛОВОМ "BEK" В ИСТОРИЧЕСКИХ РАБОТАХ ОГАХИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье определяются исторические корни термина государственности «бек», встречающегося в источниках тюркской историографии Хорезма.

Ключевые слова: термин государственности, исторический источник, летопись, лексическое значение, этимология, турецкая историография.

Raufjon Maxmudov Bahodirovich-

Head of the Department at the Khorezm Ma'mun Academy,
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

THE ETYMOLOGY OF WORDS RELATED TO THE WORD "BEK" IN HISTORICAL WORKS OF OGAPIY

ABSTRACT

This article defines the historical roots of the term of statehood "bek", found in the sources of the Turkic historiography of Khorezm.

Keywords: term of statehood, historical source, chronicle, lexical meaning, etymology, Turkish historiography.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda tarixiy ildizlari qadimgi turkiy til bilan bog'langan bir qancha davlatchilik terminlari mavjud. Mavzuiy jihatdan ularni davlat

boshqaruvchisi tushunchasi bilan bog‘liq terminlar, ichki siyosat bilan bog‘liq terminlar, tashqi siyosat bilan bog‘liq terminlar, harbiy terminlar kabi guruhlariga ajratish mumkin. Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalarda davlatchilik terminologiyasida turkiy qatlamning o‘rni va ahamiyati katta ekanligi quyidagi tahlillardan yana bir bor o‘z isbotini topishi shubhasiz.

Bek – beg, bey, big, biy, bi kabi fonetik variantlari ham mavjud bo‘lgan mazkur davlatchilik termini haqida turli bahsli mulohazalar mavjud. Terminning ma‘nosi – turkiy xalqlarning ba‘zilarida xonliklar davrida davlat arboblarga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs [39, 213], amaldor. Alisher Navoiy asarlarida ham biz ushbu atamani ayni ma‘noda qo‘llanishi kuzatamiz [25, 261]: “Turkning ulug‘din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidan bahramanddurlar, andoqkim o‘z xirad ahvoliga ko‘ra ayta olurlar, balki ba‘zi fasohat va balog‘at bila ham takallum qilurlar [26, 8]”.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Temuriylar davrida ham beklar davlat boshqaruvida asosiy amaldorlar hisoblangani barchamizga ma‘lum. Mazkur holat Xiva xonligiga ham oid ekanligi tarixiy ma‘lumotlar bilan tasdiqlangan. Shu sababdan Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid barcha asarlarda bek atamasi faol qo‘llangan. “To‘qquz ming qo‘y va to‘qquz yuz yilqi o‘lturtdi, bulg‘aridin to‘qson to‘qquz hovuz qildirdi, to‘qquzig‘a araq va to‘xsonig‘a qimiz to‘lturtdi, barcha navkarlarini chaqirib kelturtdi, ul olti o‘g‘lig‘a ko‘p nasihatlar aytib (etib) va **beklar** o‘rgatib yurtlar va shaharlar va ellar va in‘omlar berdi [24,10]”.

Ushbu davlatchilik atamasining tarixiy ildizlari qadimiy turkiy tilga borib taqaladi. Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga oid manbalarda ushbu davlatchilik terminini turli fonetik variantlarda qo‘llanganini kuzatish mumkin. Xususan, “Devoni lug‘atit turk”da **bäg**, “At-tuhfa”da **bi**, **biy**, “Abushqa”da **big**, **bek** shaklida qo‘llangan. Turkiy tillarda esa ushbu davlatchilik atamasi **beg** (oltoy), **bæg/bäg** (uyg‘ur), **bey/bej** (turk, turkman, gagauz, qrim tatar), **bəy/bāj** (ozar), **bek** (qo‘miq, qirg‘iz, qozoq, nog‘ay, qoraqalpoq, o‘zbek, uyg‘ur), **bij/pij** (oltoy tili va oltoy dialektida), **piy**, **bi**: (yoqut) kabi turli shakllarda uchraydi.

Tahlillardan ko‘rinadiki **bek** davlatchilik atamasining turkiy tillarda, turli qadimiy manbalarda, turli lug‘atshunos olimlar asarlarida xilma-xil fonetik variantlari mavjud: **bek>beg>bey**, **big>biy** fonetik qatori, **bey>biy**, **biy>bi>bi** fonetik qatorini bemalol tovush o‘zgarishi qonuniyatlari bilan izohlash mumkin. **p** bilan boshlanuvchi shaklni jarangsiz undoshdan so‘ng qo‘llangan o‘rinlarda qo‘llangan bo‘lishi mumkin. Lekin buni ayrim tadqiqotchilar xitoy tilidagi **piek**, **paik>päk**, **päk** manjur tilidagi **piäk**, ushbu so‘zlar esa qadimgi xitoy tilidagi **b’iäk>b’iek** – qonuniy, to‘g‘ri ma‘nosidagi asos bilan bog‘lashga harakat qiladilar. Xususan, G.Ramstedt va V.Kotvisz turkiy tillardagi **beg** mo‘g‘ul tilidagi **begi** bilan mos kelishi manjur tilidagi **bejle**, **bejse** (boshqaruv tituli nomi)ning ta’siri tufayli ekanligini ta’kidlaydi [13,16].

G.Ramstedt bu haqidagi dastlabki tadqiqotlaridan birida mo‘g‘ul tilida ham mavjud bo‘lgan **beji-le**, **beji-ce** usmon turkchasidagi **bej**, **beg**, qirg‘iz tilidagi **bi** bilan bog‘lab tahlil qilgan va uni xitoy tilidan o‘zlashgan so‘z sifatida ko‘rsatgan. U manjur tilidagi **bejile** xitoy tilidagi asl shaklini saqlab qolganini [33,552], sinokoreysdagi **paik>päk**, **päk** (to‘rtinchi darajali zodagon, hududiy boshqaruvchi unvoni) qadimgi turkiy tildagi **bäg** bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [19,59-82].

Ramstedtning fikrini qo‘llab-quvvatlagan B.Karlgren arxaik xitoy tilidagi **pick** > qadimgi xitoy tilidagi **piäk** > manjur tilidagi **pi** – boshqaruvchi, shahzoda bilan bog‘laydi. Ayni damda arxaik **b’iek** > qadimgi xitoy tilidagi **b’iäk** > manjur tilidagi **pi** – qonuniy, to‘g‘ri ma‘nosidagi so‘z ham ushbu davlatchilik terminiga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [12,853].

G.D.Sanjeyev turkiy va mo‘g‘ul tilidagi **beg** davlatchilik terminini negidaldagi **bögin** – xo‘jayin, tungusdagi **bügin** – sardor, xalxasdagi **bělě** – knyaz bilan bog‘laydi [36, 687]. G.Klauson esa mazkur atamaning xitoy tilidan o‘zlashganini qo‘llab-quvvatlab, turkiy tillardagi **be:g** so‘zi, taxminan, xitoy tilidagi **po** – mingboshi so‘zi bilan bir asosdan hosil bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini aytadi [6, 322-323].

Ushbu davlatchilik terminining tarixiy ildizlari haqida turli tilshunos olimlar xilma-xil fikrlarni ifodalagan. Xususan, Sh.Rahmatullayev o'zining etimologik lug'atida ushbu so'z dastlab katta, yirik ma'nolarini anglatuvchi sifat bo'lganligini, undagi **ä/ə/i** unlilari keyinchalik **e** unlisiga almashganini, ma'no taraqqiyoti natijasida sifat otga aylanganini ta'kidlaydi [34, 43].

Keyinchalik turkiy tillardagi **beg/bey** haqida bahs-munozara davom etib, xitoy tilidan o'zlashgan deya takidlanib kelingan davlatchilik atamasi eroniy tillar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida ilmiy mulohazalar o'rta tashlandi. Xususan, V.Bang turkiy **beg/bey** ni o'rta fors tilidagi **bag** – iloh, qirol [1, 34-35] bilan bog'lashga harakat qiladi. K.Brokelman ham shu nuqtayi nazardan yondashib turkiy tillardagi **bäg** ni fors tilidagi **baya** bilan bog'lashga harakat qiladi [4,18]. K.Menges esa turkiy tillardagi **beg** ni qadimgi fors tilidagi **baga** bilan bog'laydi [37, 100].

Eroniy tillar bilan bog'liq holda tahlillarni davom qildirar ekanmiz E.Benvenistning fikrlarini ham nazardan chetda qoldirmaslikni ma'qul topdik. Chunki E.Benvenist turkiy tillardagi **beg/bey** ga fonetik jihatdan ancha yaqin bo'lgan so'g'diy tilidagi **βγ** – iloh, xo'jayin ma'nosidagi asosni bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [2, 216]. Mug' tog'lari bitiklarida **βγ** – iloh, xo'jayin ma'nosidan tashqari joy nomining ekvivalenti sifatida ham istifoda etilgani seziladi [38, 196]. Mug' tog'i bitiklarining yana bir o'rnida **βγ** – hokim, podshoh ma'nosida ham qo'llanadi [38, 25]. Lekin, aytish zarurki, so'g'd tilidagi har ikki ma'nodagi **βγ** ham qadimgi turkiy tilning hamda qadimgi fors tilining so'g'd tiliga ta'siri natijasidir. Buni garchi har xil ma'noda so'g'd tilining turkiy tillarga ta'siri sifatida baholagan bo'lsalar-da, aslida teskari jarayon yuz bergan. G.Doerfer ham har ikki talqinni tahlil qilib ko'radi va turkiy tillardagi **beg** ni parfiyon tilidagi **bag** bilan, ayni damda, o'rta fors tilidagi **bag** asosi bilan bog'liqligini tahmin qiladi [9, 828]. Lekin keyingi fikrlarida har ikki tildagi **bag** ning tarixiy ildizlari ayni turkiy tildagi **beg/bey/biy** bilan bog'liqligini, aslida ular turkiy tildan o'rta fors tili va boshqa eroniy tillarga kirib borganini ta'kidlaydi [9, 829].

Bizning fikrimizcha, ham, xitoy, fors, so'g'd yoki boshq tillarda uchrovchi beg/bey/biy bilan o'zaro ma'nosi bog'liq, o'xshash bo'lgan turli fonetik variantdagi so'zlarning barchasi turkiy tillarning ta'sirida paydo bo'lgan. Mazkur o'zlashma ma'lum davrlarda, ya'ni turkiy qabilalar, xoqonliklar ta'siri kuchli bo'lgan paytda ushbu tillarda iste'molda bo'lgan, keyinchalik esa iste'moldan chiqib ketgan. Shu sababdan mazkur tillarning hech birisida keyindi davrlarda ushbu so'zning ma'lum fonetik variantlarda yoki shakliy o'zgargan holda, yoxud komponent holida yashab qolganini kuzatmaymiz. Bu esa so'zning turkiy til lug'at qatlamiga oid ekanligining yana bir isboti. Qolaversa, turkiy tillar fonetikasiga xos yana bir qonuniyat: sof turkiy tilga xos bo'lgan so'z turli fonetik variantlarda qo'llana oladi: bog'/bov – o'simlik bog'lami; tog'/tov/dog' – yer yuzasining tevarak-atrofidagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi [40,163]. bek davlatchilik atamasining beg/bey/biy kabi fonetik variantlarda qo'llanishi ham uning asl turkiy qatlamga mansubligining yana bir belgisi bo'la oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aynan turkiy tillarning ta'sirida mazkur davlatchilik atamasi qadimgi xitoy, fors, so'g'd kabi turli tillarga kirib borgan. Keyingi davrda rus tiliga ham aynan turkiy tillar orqali o'zlashgan, rus tilida ham mazkur atama bir necha ma'nolarni kasb qilgan. M.Fasmer rus tiliga ham o'zlashgan ushbu so'zni turkiy so'z ekanligini va chig'atoy tilida **bäg** (Xiva, Buxoro, Qo'qon), ozar tilida bäk, bäj, turk tilida bäi, tatar tilida bej shaklida qo'llanishini va o'zlashma chig'atoy tili orqali rus tiliga kirib kelganligini ta'kidlaydi [41, 141].

Turkiy tillardagi bek/beg/bey davlatchilik atamasi bulg'or tilida beg, bej shaklida uchraydi va barshchina [35, 50] ma'nosini ifodalaydi. Shu asosda beg-lik so'zli ham hosil qilingan va barshchina boshqaruvidagi hudud, unvon, munitsipalitet (o'z-o'zini idora qilivchi hudud) ma'nosini anglatadi. Turkiy tillar ta'sirida ushbu so'z bir necha yevropa tillari leksikasida ham turli fonetik variantlarda uchraydi. Xususan, rumin tilida beg, bek, bej; bejlik – barshchina, serb tilid begoglija<beg oglu, polyak tilida bej, venger tilida beg – dvoryan kabi tillardagi o'zlashmalar

shular jumlasidandir. Ushbu tillarning ayrimlari turkiy tillar oilasiga mansub bo'lsa, ayrimlari hind-yevropa tillari oilasiga mansubdir.

Nok navlaridan birining nomi bo'lgan **bergamot** so'zi ham ayni biz tahlil qilayotgan bek/beg bilan bog'liqdir, chunonchi bergamot – **beg** va **armudu** so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda **bek noki** ma'nosini anglatadi. **Bek armudu** birikmasi turkiy tillardan fransuz tiliga **bergamotte**, italyan tiliga esa **bergamotta** shaklida kirib borgan, olmon tilida esa **Bergamo** [41, 151] tarzida istifoda etiladi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqadiki, bek so'zining tarqalish areali ancha-muncha keng bo'lib, u bir necha boshqa so'zlarning ham yasallishiga asos bo'lgan va yasalmalar ham ko'plab turkiy hamda qardosh bo'lmagan tillar leksikasiga kirib borgan.

Buni biz Vullers, Yagodin, Bartold, Rubinchik kabi lugatshunoslarning arab, fors, rus, turkiy tillar ishtirokidagi ikki yoki uch tilli lug'atlarida bek/beg/ bey davlatchilik atamalarining **بی، بیگ، بیگو، بیگو** kabi shakllarda amaldor, qabila boshlig'i (turkiy xalqlarda), sarkarda, bek (podshohdan past afandidan yuqori bo'lgan unvon), shahzoda, knyaz kabi ma'nolarda izohlanganini uchratamiz. Bundan xulosa chiqadiki, arab, fors yoki boshqa shu kabi tillarga ham bek/beg so'zi o'zlashgan hamda mazkur tillarda bugun ushbu davlatchilik atamasining bir necha ma'nolari mavjud.

Turkiy va ushbu davlatchilik atamasi o'zlashgan turkiy bo'lmagan tillar leksikasida ma'no taraqqiyoti natijasida bugun **bek/beg/bey/biy** turli ma'nolarni ifodalay olish imkoniyatiga ega. Quyida ana shu ma'no qirralarini tahlil qilib ko'ramiz:

1) hukm qiluvchi (qozi zamonaviy dunyoda sudya sifatida), yuqori tabaqa (feodal, ekspluatatorlar) vakili – turk, ozar, qirg'iz, no'g'ay, qoraqalpoq, uyg'ur, tuva, to'falar, oltoy, qozoq (shuningdek, bir necha asar, lug'atlarda: “At-tuhfa”, “Abushqa”, “Uygur sözlüğü” [5], “Eski türk yazıtları” [16] va boshqalar;

2) sardor, sarkarda, qabila oqsoqoli [23] – (“Древнетюркский словарь”), urug' boshlig'i, kichik urug' harbiy boshlig'i, Xiva xonligida otaliqqa bo'ysunuvchi harbiy boshliq (odatda, qoraqalpoq urug'lari boshlig'i – biy), Xiva xonligida ma'lum kichik hudud (tuman) boshqaruvchisi (qoraqalpoqlarda bek, bey), turkman qabila oqsoqoli; boshliq, oliy, boshqaruvchi (“Древнетюркский словарь”), kichik davlat hukmdori [21]; viloyat yoki shahr hukmdori [28], O'rta Osiyo xonliklari davrida biror shahar yoki tuman boshqaruvchisi [11];

3) knyaz – turk, qorachoy, qo'miq tillarida (feodal yoki savdogar yoki kichik korxona boshqaruvchisi unvoni), qirol, podshoh kabi yakka hukmdor, monarx ma'nosini ifodalash uchun ham istifoda etilishi mumkin [7];

4) janob, ega, sohib – oltoy, turk, gagauz, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, tatar, xakas kabi tillarda ushbu ma'nolarda qo'llanadi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida, (“Древнетюркский словарь”), “Опыт словаря тюркских наречий” [32] asarida, “Диалект кумандинцев” [27] kabi asarlarda bek/beg/bey davlatchilik atamasining tahlil qilinayotgan ma'nolari izohlanadi.

5) xo'jayin, boshliq – uyg'ur [31], oltoy, xakas kabi turkiy tillarda atamaning ushbu ma'nosi faol qo'llanadi. Hudud (okrug) boshlig'i, ma'lum mansab, amal egasi, mahallay amaldor, amaldor [14], yuqori harbiy amaldor (temuriylar davrida beklardan iborat qo'shin), xalq sudyasi [32, 1737] (qozoq va qirg'iz xalqlarida) kabi ma'nolarda ham istifoda etiladi.

6) Shahzoda [8] – podshoh yoki biror boshqa yuqori amal sohibining farzandi [23] ham, odatda, bek unvoni bilan chaqirilgan yoxud ismiga -bek komponenti qo'shib aytilgan. Keyinchalik bek komponenti kichraytirish-erkalash ma'nolarini kasb qilgan. Dastlab esa ushbu komponent va yuqori amaldorlar farzandlariga, podshoh farzandiga va bishqa shu kabi amaldorlar farzandlari, merosxo'rlari ismigagina qo'shib aytilgan;

7) zodagon – turk, qirim tatar, qoraqalpoq tillarida, zoti oliy zodagon, yuqori tabaqa vakili [29].

8) unvon – (zodagonlar unvoni [32] – o'zbek tilida), Moldaviya, Valaxiya va Samos orollarida ham knyaz unvoniga tenglashtirilgan holda bek/beg davlatchilik atamasi qo'llanadi. Qolaversa, xakas tilida eng yuqori amaldorlardan biri nomi, turk tilida posho bilan tenglashtirilgan

unvon, ozar va tatar tillarida dvoryan bilan tenglashtirilgan unvon nomi, armiya va harbiy dengiz floti komandiri, kema kapitani (turk tilida), chet el elchisi unvoni (turk tilida), saf sardori [31] (uyg'ur tilida) qozoq tilida shashka o'yinida damkaga chiqqan tosh, turk tilida tuz (karta o'yinida) ham bek nomi bilan ataladi;

9) ma'lum, mahshur, obro'li, boy odam [21] – kichik korxona rahbari, savdogar (ozar, gagauz tillarida), usta (gagauz tilida), xulosa qilishda aqli bo'lgan, notiq kishi [32, 1737] (qirg'iz va qozoq tillarida);

10) er, turmush o'rtoq – Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida, “Древнетюркский словарь”, “Türkische Turfan-Texte” [18] kabi bir necha lug'atlarda bek/bek davlatchilik atamasining mazkur ma'nosi ham mavjudligi ta'kidlangan. Qolaversa, erkak, xotin (begim, begoyim shaklida), kuyov, aka, jiyan, yoshi katta erkak kishi kabi bir necha qarindoshchilikni anglatuvchi so'zlar o'rniga qadimda **bek aka** birikmasi qo'llangan.;

11) ari malikasi – gagauz tilida bek/beg atamasining ushbu manosi ham mavjud [37, 99].

Ko'rinib turibdiki, bek so'zining turkiy tillardagi ma'nolari juda keng va rang-barang. Bugungi kunda turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida ismlarga qo'shilib, kichraytirish-erkalash, ulug'lash, yuqori tabaqaga mansublik, ismni qisqartirish kabi ma'no va fonetik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bugungi kun o'zbek tilidagi –bek konponentining semalari alohida o'ziga xos tadqiqotni talab qiladi.

bek/beg davlatchilik atamasining ayollarga nisbatan qo'llanish holati ham mavjud bo'lib, bunda, odatda, **begim** yoki **begoyim** shakllari keng istifoda etilgan. Ayni holatni biz Xorazm turkiy tarixnavisligiga oid manbalardan biri bo'lgan “Chingiznoma”da uchratamiz: “Ulkim Sayin xon o'g'lonlari Berdibekxonda tamom bo'ldi ersa, Jonibek xonning onasi Tay-Duali **begim**: “Emdi yurt taqi xonliq Shaybon xon o'g'lonlarig'a tegar”, – teb Manqutay o'g'li Xizrxonni undatib eltib Saroy viloyatinda xon qildi [38^b-39^a]”.

Begim aslida **bek/beg** davlatchilik atamasining eng qadimiy shaklidir. **beg-ym** yoki **bejim** [23, 239] – **بيگيم** sharqiy turkiy tillarda shu shaklda istifoda etilgan. Ba'zi tilshunoslar bek+im so'zida ikki unli orasiga tushgan k jarangsiz undoshi g>y fonetik hodisasiga uchraganini va keyinchalik biyim (bijim) **بييم** = **بيگيم** shakli [17, 192] yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Qutbning “Husrav va Shirin” asarida **bigim** [22, 30], “Эсрапнаме” **bəgym** [30] shaklid qo'llanib, **ona qirolicha** ma'nosini ifodalaydi. Mazkur asarlarda boshqa o'rinlarda **bigim** – malika, zodagon ayol, xonim ma'nolarida qo'llanganini kuzatamiz.

XULOSA

Begim, bijim so'zidagi -(y/i)m affiksi haqida A. fon Gaben [10, 55], K. Brokelman [3, 242] kabi olimlar tegishlilik, egalik qo'shimchasi deya fikr yurtiganlar. G. Ramstedt esa am o'zagi **ayol, urg'ochi** [20, 9] ma'nosini ifodalashi haqida to'xtaladi.

-im, -ym, -um affiksining ayol, urg'ochi ma'nolarini ifodalashi ma'lum darajada to'g'ri. Xususan, **xon-im** (o'zbek tilida), **xan-ym** (qadimgi uyg'ur tilida) **xonning xotini** ma'nosini anglatgan. Hozirgi o'zbek tilida **xonim** ma'lum darajada zodagon ayol ma'nosini saqlab qolgan bo'lsa-da, xonning xotini ma'nosidan biroz uzoqlashgan. **Beg-im, beg-üm** bekning xotini ma'nosini anglatgan. Chunonchi, Nodirabegim, Oyshabegim kabi ismlardagi begim komponenti aslida ayni bekning, podshohning, oliy martabali zodagonning xotini ma'nosini ifodalagan. Bir necha turkiy tillarda **tar-ym** so'zi ham uchraydiki, so'zning ma'nosi **tarxonning xotini** ma'nosini anglatadi. Chuvash tilida **ar-ym** so'zi uchraydi va u turmushga chiqqan xotin, erga teggan ayol mazmunini anglatadi. Turli turkiy tillarda **ar, er, ere** – erkak, er, yigit ma'nolarini ifodalashi barchamizga ma'lum. **Eme** [15, 78] qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga oid qadimiy yozma manbalarda muannas jinsni ifodalovchi ko'rsatkichlardan yoki komponentlardan biri sifatida istifoda etilgan, ammo ushbu komponentdan tashqari ham qadimgi turkiy tilda muannas jinsni ifodalovchi vositalar mavjud bo'lgan.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Bang V. Manichäische Erzähler. Le Miséon, 44, 1-2. Louvain. 1931. –P. 34-35.

2. Benveniste E. Essai de grammaire Sogdienne. Deuxième partie. Morphologie, syntaxe et glossaire. Paris. 1929. –P. 216.
3. Brockelmann C. Mitteltürkischer Wortschatz nach Mahmīd al-Kāšgarīs Dīvān lugāat at-Turk. Budapest-Leipzig. 1928. –P. 242.
4. Brockelmann C. Osttürkische Grammatik der islamischen Letteratsprachen Mittelasiens. Leiden. 1954. –P. 18.
5. Caferoğlu A. Uygur sözlüğü. I-III, Istanbul. 1934-1938.
6. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-thirteen-century Turkish. Oxford, 1972. –P. 322-323.
7. Deny J. L'armeno-comen et les "Ephémérides de Kamieniec (1604-1613)". Weisbaden. 1957.
8. Deny J., Tryjarski E. "Histoire de Sage Hikar" dans la version arméno kiptchak/ RO, T.XXVII, 2 Warszawa, 1964.
9. Doerfer G. Türkische und Mongolische elemente im Neupersischen unter besonderer Berücksichtigung älterer Neupersischer geschichtsquellen, vor allem Mongolen und Timuridenzeit. Bd. II: Türkische elemente im Neupersischen Wiesbaden, 1965. – P. 828.
10. Gabain A. von. Alttürkische Grammatik. 2 Aufl. Leipzig, 1950. –P. 55.
11. Houtsma M.Th. Ein türkisch-arabisches Glossar. Leiden, 1894.
12. Karlgren B. Phonetics in Chinese and Sino-Japanese. Stockholm, 1940. –P. 853.
13. Kotwicz W. Contributions aux etudes altaïques. A – B. –CO. 1932. RO, 1953. XVI.
14. Ligeti L.U. Un vocabulaire Sino-ouïgour des Ming. Le "Kao-tch'ang-kouan yi-chou" du bureau des traducteurs. AO (Budapest), t.XIX.fasc. 2,3, 1966.
15. Menges K. Titles and organizational terms of the Qytan (Liao) and Qara-Qytaj (S'i-Liao). –RO. 1953. 17. –P. 78.
16. Orkun H.N. Eski türk yazıtları. IV. Istanbul. 1941.
17. Pavet de Courteille M. Dictionnaire turk-oriental. Paris. MDCCC. X. –P. 192.
18. Rachmati G.R. Türkische Turfan-Texte, VII. APAW. Jahrgang. 1936, philos. Hist. K1. N.12. Berlin, 1937.
19. Ramstedt G.J. Alte türkische und mongolische Titel. JSFOu, 1951. 55. –P. 59-82.
20. Ramstedt G.J. Studies in Korean etymology. Helsinki, 1949. –P. 9.
21. Türkçe Sözlük. Dördüncü baskı. Ankara. 1966.
22. Zajaczkowski A. Najstarsza wersja turecka Husräv u Šīrīn Qutba, t.III. Słownik. Warszawa, 1961. –P. 30.
23. Zenker J.Th. Dictionnaire Turc-Arabe-Persan. T.1. Leipzig, 1866.
24. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. Нашрга тайёрловчи Қ.Йўлдошев. Т.: Фан. 1995. –Б. 10.
25. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Фан. Том I. Т.: 1983. –Б. 261.
26. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Том XVI. – Тошкент. Фан. 2000. –Б. 8.
27. Баскаков Н.А. Диалект кумандинцев (куманды-кижи). Грамматический очерк, тексты, переводы и словарь. М. 1972.
28. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира. XII-XIII вв. М. 1963.
29. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарский наречий. Т. I. СПб., 1869; Т. II. СПб., 1871.
30. Гəһрəманов Ч. Эсрарнаме. Бақы, 1964.
31. Малов С.Е. Уйгурские наречие Синьцзяна. М., 1961.
32. Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий, I-IV. СПб., 1893-1911.
33. Рамстедт Г.И. Этимология имени Ойрат. – Зап русского географ. общ-ва, СПб., 1909, 34. –С. 552.
34. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Т.: Университет. 2000. –Б. 43.
35. Русско-узбекский словарь. В двух томах. Том I. Т.: УзСЭ. 1983. –С. 50.

36. Санжеев Г.Д. Манчжуро-монгольские языковые параллели. Изв. АН СССР. 1930. №8. –С. 687.
37. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». М. Наука. 1978. –С. 100.
38. Согдийские документы с горы Муг, вып. II. М. 1962. –С. 196. 10-я строка снизу.
39. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. –Б. 213.
40. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. –Б. 163.
41. Фасмер М.Р. «Этимологический словарь русского языка». Перевод с немецкого и дополнения О.Н.Трубачева. В 4 томах. I том. –М.: Прогресс. 1986. –С. 141.
42. Чингизнома. 38^б-39^а.

Рузметова Озада Рузметовна-
НОУ «Университет Маъмуна»
преподаватель кафедры
языка и литературы
azadaruzmetova3@gmail.com

РАЗВИТИЕ ПРОБЛЕМАТИЧНОГО МЕТОДА ОБУЧЕНИЯ КАК ЧАСТЬ СОВРЕМЕННОЙ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВ



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Исходя из изменений которые непрерывно стремятся к новшествам в образовании появляются новые стили и тактики обучения которые находят свое место в современной методике обучения. Данное исследование предлагает информацию об одной из современных и эффективных стратегий обучения и преподавания: Обучении, основанном на проблематичном методе обучения (ПМО), который нашел широкое применение в образовательных учреждениях по всему миру из-за ряда положительных свойств. Проблематичный метод обучения пользуется спросом благодаря своей тесной связи с критическим мышлением и способностями развить в учащихся умение решать проблемы и препятствия возникшие на пути изучения темы. В данной статье рассматриваются преимущества, которые можно считать основными причинами его широкого использования а также инструкция по внедрению на уроках русского языка.

Ключевые слова: Проблематичный метод обучения, критическое мышление, способности к решению проблем, команда, сотрудничество, обучение ориентированное на студента, реальная жизнь.

Ruzmetova Ozada Ruzmetovna-
"Ma'mun universiteti"

Tillar va adabiyot kafedrası o'qituvchisi
azadaruzmetova3@gmail.com

ZAMONAVIY TIL O'QITISH USULLARINI MUAMMOLI O'QITISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

ANNOTATSIYA

Ta'limda doimiy innovatsiyalarga intilayotgan o'zgarishlar asosida zamonaviy o'qitish uslublarida o'z o'rnini topadigan yangi uslub va o'qitish taktikasi paydo bo'lmoqda. Ushbu tadqiqot zamonaviy va samarali ta'lim va o'qitish strategiyalaridan biri haqida ma'lumot beradi: bir qator ijobiy xususiyatlari tufayli butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalarida keng qo'llanilgan Muammoli ta'lim (MO). Muammoli o'qitish tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog'langanligi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishda duch keladigan muammo va to'siqlarni yechish ko'nikmasini shakllantirish

qobiliyati tufayli talabga ega. Ushbu maqolada uning keng qo'llanilishining asosiy sabablari deb hisoblanishi mumkin bo'lgan afzalliklar, shuningdek, rus tili darslarida amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish qobiliyati, jamoa, hamkorlik, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, real hayot.

Ruzmetova Ozada Ruzmetovna-

" Mamun University "

teacher of the department

Language and literature

azadaruzmetova3@gmail.com

DEVELOPMENT OF A PROBLEM BASED TEACHING METHOD AS A PART OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY

ABSTRACT

Based on the changes that constantly strive for innovation in education, new teaching styles and tactics appear that find their place in modern teaching methods. This study provides information about one of the modern and effective strategies for learning and teaching: Learning based on the problematic method of learning (PBL), which has found wide application in educational institutions around the world due to a number of positive properties. The problematic method of learning is in demand due to its close connection with critical thinking and the ability to develop in students the ability to solve problems and obstacles that have arisen on the way to learning a topic. This article discusses the advantages that can be considered the main reasons for its widespread use, as well as instructions for implementation in Russian language lessons.

Keywords: Problematic method of learning, critical thinking, problem solving skills, team, cooperation, student-centered learning, real life.

ВВЕДЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ

Формирование современных, профессиональных и практических навыков в образовательном процессе считается наиболее проблемным моментом в некоторых учебных заведениях. Именно поэтому сегодня преподаватели стараются использовать на своих уроках современные методики. Одним из таких методов является «Проблемно-ориентированное обучение». ПМО зародилась в 1960-х годах в Медицинской школе Университета Макмастера (Канада). Это метод обучения, при котором в класс привносятся некоторые контекстные проблемы, которые могут помочь преподавателю стимулировать студентов к обучению. Проблемы в основном представляют собой тематические исследования, симуляции, ролевые игры, использование иллюстрированных проблем, которые охватывают проблемы с несколькими решениями, проблемы, основанные на задачах или проектах. Эта модель в процессе преподавания и обучения представляет значимые и аутентичные проблемы.

«Проблемно-ориентированное обучение» направлено на развитие у студентов способности к систематическому решению проблем, что напрямую улучшает навык критического мышления учащихся. В целом критическое мышление - это способность человека мыслить ясно и рационально, которая помогает уловить логическую связь между различными типами идей. В основном критическое мышление требует от человека умения рассуждать. Критическое мышление характеризует человека как активного ученика, а не просто получателя информации. Человек с развитым критическим мышлением будет анализировать и решать проблемы систематически, а не полагаясь на интуицию или инстинкт.

Современные теории проблемных методов обучения выделяют два типа ситуаций: психологические и педагогические. Первые относятся к деятельности ученика, вторые - к организации учебного процесса. Педагогические проблемные ситуации создаются путем

активизации деятельности ученика, постановки учителем вопросов или подчеркивания новизны, важности, красоты или других характерных качеств объекта познания. Создание психологических проблемных ситуаций носит сугубо личностный характер. Ни слишком трудные, ни слишком легкие познавательные задачи не являются для учащихся проблемными ситуациями. Проблемные ситуации могут создаваться на всех этапах учебного процесса, включая объяснение, подкрепление и контроль. Учитель создает проблемную ситуацию, инструктирует ученика о ее решении и организует поиск этого решения. Сложность управления проблемным обучением заключается в том, что создание проблемных ситуаций - это личностный акт, который требует от учителя дифференцированного и индивидуального подхода.

Совместное обучение как образовательная стратегия является привлекательным для многих преподавателей, поскольку оно обеспечивает структуру обучения, которая поддерживает активное групповое обучение, основанное на убеждении, что эффективное обучение происходит, когда обучающиеся одновременно конструируют и совместно конструируют идеи посредством социального взаимодействия и самостоятельного обучения. Его реализация может различаться в зависимости от учреждения и программы, но в целом его можно рассматривать как итеративный процесс, состоящий из этапов: первоначальный анализ проблемы, этап самообучения и, наконец, этап отчетности. Наставники, также известные как гиды, выступают в качестве наставников, поддерживая обучение учащихся, особенно в компонентах анализа проблем и отчетности. ПМО направляет и облегчает исследовательскую деятельность студентов, поскольку они придают смысл своим идеям посредством обсуждения и обмена.

Проблемное обучение помогает учащимся работать с примерами из реальной жизни или с когнитивными задачами, похожими на те, с которыми они могут столкнуться в реальной жизни. Цель проблемного обучения – помочь учащимся развить навыки решения проблем, лидерские качества, навыки критического мышления, навыки самостоятельного обучения, а также способность работать совместно в группе или группе.

Исследования показывают, что, хотя учащиеся обычно предпочитают проблемное обучение, при сравнении условий проблемного обучения с традиционными методами прямого обучения или обсуждения проблемное обучение не оказало существенного влияния на обучение. Было показано, что проблемное обучение обеспечивает более сложный, мотивирующий и приятный подход к образованию, а данные показывают, что учащиеся, занимающиеся проблемным обучением, демонстрируют долговременную память и лучшую способность применять новые знания в новых условиях. Однако исследования, оценивающие эффективность проблемного обучения для учащихся начальных классов, остаются ограниченными.

Исследования также показывают, что проблемное обучение наиболее эффективно в сочетании с прямым обучением. Это происходит потому, что учащимся необходимо приобрести базовый уровень знаний и навыков, прежде чем они смогут успешно участвовать в исследовании или обучении решению проблем.

МЕТОДЫ И УРОВЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ

Критическое мышление имеет ряд преимуществ: понимание связи между различными идеями, построение релевантных аргументов, признание ценности и релевантности аргументов и идей, а также признание ошибок в рассуждениях. Сегодня существует множество методов, направленных на мотивацию учащихся, их достижений и навыков творческого мышления, но только некоторые из них влияют на критическое мышление учащихся. Этапы обучения в проблемном обучении в основном следующие: разделение учащихся на группы, планирование задания, подготовка отчета, разработка и презентация процесса и последний этап - анализ и оценка данной деятельности на основе навыка решения проблем.

Существует ряд преимуществ, которые дает ПМО в процессе работы:

Критическое мышление стоит на первом месте среди всех плюсов ПМО, оно развивается благодаря вопросам, ситуациям, кейсам, во время работы учащиеся стараются использовать все свои знания и задавать вопросы в каждой ситуации, чтобы найти правильное решение в данной ситуации или кейсе. Следует учитывать, что этот навык не будет улучшен, если работать с учеником редко, только при постоянной работе мы сможем добиться успеха [2]

Развитие переносимых навыков также является важным навыком, который может быть получен в результате ПМО, так как учащийся чувствует различные ситуации в классе, он может перенести все возможные решения и ситуации в реальную жизнь. Это также полезно тем, что студент будет заранее подготовлен к различным жизненным ситуациям. [2]

Следующим плюсом PBL могут стать коммуникативные навыки. Навыки правильного общения и обсуждения гарантированы PBL, так как в процессе работы, хотя бы они того или нет, им приходится разговаривать друг с другом в группе, команде или даже в парной работе, принимать во внимание различные мнения и идеи друг друга. [3]

Навыки командной и групповой работы сегодня высоко оцениваются, и учитель, выбравший для работы ПМО, выведет учеников на более высокий уровень. Учащиеся должны общаться друг с другом, обсуждать, дебатировать, отстаивать свою точку зрения или мнение, этот процесс имеет такие этапы, как выслушивание друг друга, проявление терпимости, обучение тому, как быть частью команды или как взаимодействовать в паре.

Метод постановки задач ПМО относится к трем тесно связанным методам обучения: сценариям, ролевым играм и симуляциям. Кейсы представляются студентам в письменной форме. Разыгрывая ролевые игры, учащиеся импровизируют сцены на основе определенных описаний персонажей. В настоящее время для моделирования часто используются компьютерные программы. Независимо от того, какой метод используется, суть метода остается той же: реальных задачи.

При условии, что учащиеся имеют определенный базовый уровень владения иностранным языком, чувствуют себя комфортно в среде обучения и достаточно мотивированы, реализация языковой учебной деятельности. Решение проблем начинается с предъявления соответствующей проблемы. Важно тщательно выбирать задачи и представлять их учащимся таким образом, чтобы это мотивировало, воодушевляло и бросало вызов их знаниям и навыкам. Цель постановки проблемы – стимулировать потребность учащихся в решении проблем. Для этого предлагается использовать документальные фильмы, сборники пресс-публикаций, образовательные мероприятия или презентации специалистов в данной области. [2]

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Как было упомянуто ранее В. Океню, решение проблемной ситуации в процессе обучения состоит из трех этапов: постановка проблемы, решение данной проблемы, проверка решения. В процессе работы на уроках эти этапы являются базовыми для построения удачного урока основанном на решение проблематических ситуаций на основе тем русского языка.

Если В. Океню в своих работах выделяет три ключевые этапа то И. А. Лернер в отличии от него указывает на большее количество этапов которые по своей последовательности делятся на 5 следующих этапов:

- 1) Процесс осознания проблемы, способ решения которого неизвестен на первых этапах;
- 2) расчленение задачи на данное и искомое (осознание вопроса и имеющихся данных);
- 3) выявление зависимости между данными и вопросом;
- 4) осуществление решения;
- 5) проверка решения [4, с. 143].

Много примечаний было сделано до сегодняшнего дня авторами работавшими над данной темой. Примерно такой же путь решения проблемной ситуации намечает и А. М. Матюшкин, правда, исходя из его примечаний на этот раз этапы делятся на равные 4 этапа:

- 1) использование известных способов решения - этап "закрытого решения проблемы";
- 2) возникновение проблемной ситуации и расширение области поиска новых способов решения - этап "открытого решения проблемы" и нахождение нового решения;
- 3) реализация найденного принципа;
- 4) проверка правильности принятого решения [4, с. 144].

Нильсон (2010) перечисляет следующие результаты обучения, связанные с PBL. Хорошо разработанный проект ПМО предоставляет студентам возможность развивать навыки, связанные с: [7]

1. Работой в командах.
2. Управлением проектами и выполнением руководящих ролей.
3. Устной и письменной коммуникацией.
4. Самосознанием и оценкой групповых процессов.
5. Самостоятельной работой.
6. Критическим мышлением и анализом.
7. Объяснением концепций.
8. Самостоятельным обучением.
9. Применением содержания курса к реальным примерам.
10. Исследованием и информационной грамотностью.
11. Решением проблем в разных дисциплинах.

Создать проблему. В идеале это будет реальная ситуация, напоминающая то, с чем студент может столкнуться в своей будущей карьере или жизни. Кейсы часто являются основой курсов ПМО. Основными этапами для учителя который собирается создать проблемный метод обучения при помощи специально созданных заданий является: [5]

1. Заблаговременно установите основные правила, чтобы подготовить учащихся к эффективной работе в группах.
2. Познакомьте учащихся с процедурами групповой работы и выполните несколько разминочных упражнений, чтобы они могли попрактиковаться в оценке своей работы и работы своих коллег.
3. Подумайте о том, чтобы попросить учащихся брать на себя разные роли или делиться работой друг с другом. Кроме того, проект может потребовать от студентов взглянуть на различные точки зрения, например, на взгляды государственных чиновников, владельцев местного бизнеса и т. д. д.
4. Определите, как вы будете оценивать задание. Рассмотрите возможность интеграции самооценки и оценки коллег в оценку задач.

ВЫВОДЫ

Из этой статьи ясно, что современные системы обучения включают в себя не только знания из книг и материалов, но и жизненные знания; основная роль PBL заключается в обучении через проблемы и примеры, взятые из реального мира. Как уже говорилось в этой статье, уроки, проводимые в рамках PBL, более эффективны, увлекательны и совместны как для каждого участника, так и для преподавателя, проводящего урок. Командная работа, работа в группах и парах, критическое мышление, навыки общения и дискуссии, ответственность перед другими и передаваемые навыки могут быть легко адаптированы для студентов в процессе непрерывного обучения.

Кроме того, мы считаем важным, что такой подход позволяет студентам использовать полученную или найденную информацию и данные для формирования собственных позиций по обсуждаемым профессиональным вопросам и, сравнивая свою позицию с позициями других студентов, формировать свою позицию. собственная позиция. позиция. уведомление. Этот аналитический метод имеет большой потенциал для использования на курсах иностранных языков. Он имеет как лингвистические преимущества, как показано в

исследовании роли естественных и смысловых взаимодействий в классе при изучении иностранного языка, так и эмоциональные преимущества в виде мотивации, повышающей вовлеченность учащихся и поощряющей их самостоятельность в самостоятельном обучении за пределами школы. школьной среды класс. Однако для достижения этих преимуществ учителя и администраторы должны гарантировать, что учащиеся понимают основы проблемного обучения и участвуют в эффективном обучении. Применение метода, описанного выше, может существенно улучшить качество приобретаемых знаний и навыков. Но в то же время образование[4]

Иктибослар / References / Сноски

1. Кобышева, А. В. Английский язык. Современные методы обучения / А. В. Кобышева. - Минск: ТетраСистемс, 2007. - 352 с
2. Сравнительное исследование влияния проблемно-ориентированного обучения и традиционного подхода к обучению на усвоение знаний студентами. Факультет технического и профессионального образования имени Алиаса Масака и Сулеймана Ямина, Университет Тун Хуссейн Онн, Малайзия, 86400 Джохор, Малайзия
3. 2. ШАНКАР П. Р. ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ: ОБЗОР. Журнал клинических и диагностических исследований [периодический онлайн] 2010 октябрь [цитируется: 2010 31 октября]; 4:3249-3254.
4. Проблемно-ориентированное обучение в «обучающемся университете»: взгляд с места событий
5. ДВЕНАДЦАТЬ СОВЕТОВ. Двенадцать советов по построению проблемно-ориентированных учебных кейсов СЭМИ А. АЗЕР¹, РЭЙ ПЕТЕРСОН², ЭНТОНИ П. С. ГЕРРЕРО³ и ГУДРУН ЭДГРЕН⁴ Университет короля Сауда, Саудовская Аравия, 2 Университет Аделаиды, Австралия, 3 Гавайский университет Медицинская школа Джона А. Бернса, США, 4 Университет Лунда, медицинский факультет, Швеция
6. Рибейро, Луис Роберто К., Плюсы и минусы проблемно-ориентированного обучения с точки зрения учителя, Журнал университетской практики преподавания и обучения, 8(1), 2011.
7. Нильсон, Л. Б. (2010). Преподавание в лучшем виде: научно-исследовательский ресурс для преподавателей колледжей (2-е изд.). Сан-Франциско, Калифорния: Jossey-Bass.

Nizomova Shohista Shodiyevna -

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA MAKON VA ZAMONNING RAMZIY OBRAZLARDA IFODA ETILISHI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatida makon va zamonning ramziy obrazlarda ifoda etilishi she'rlarida inson his-tuyg'ularining berilishi haqida fikr yuritilgan. O'zbek she'riyati bir-biridan ajoyib ramzlarga, o'xshatishlarga boy, ayniqsa, zamon va makon tasviri she'riyatimizda o'ziga xos obrazlilikni yaratgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy she'riyat, obraz, badiiy obraz, an'ana, qadriyat

Низомова Шохиста Шодиевна -

Бухарский государственный педагогический институт

доцента кафедры узбекского языка и литературы

ВЫРАЖЕНИЕ ПРОСТРАНСТВА И ВРЕМЕНИ В СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗАХ В ПОЭЗИИ РАУФА ПАРФИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается выражение пространства и времени в символических образах в поэзии Рауфа Парфи, а также выражение человеческих чувств в стихотворениях. Узбекская поэзия богата прекрасными символами и сравнениями. Особенно неповторимую образность в нашей поэзии создал образ времени и пространства.

Ключевые слова: современная поэзия, образ, художественный образ, традиция, значение.

Nizomova Shohista Shodiyevna -

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor of the Department of

Uzbek Language and Literature

THE EXPRESSION OF SPACE AND TIME IN SYMBOLIC IMAGES IN RAUF PARFI'S POETRY

ANNOTATION

In this article, the expression of space and time in symbolic images in Rauf Parfi's poetry is discussed, as well as the expression of human feelings in the poems. Uzbek poetry is rich in wonderful symbols and similes. Especially, the image of time and space created a unique imagery in our poetry.

Key words: modern poetry, image, artistic image, customs, value.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

O'zbek adabiyotida iste'dodli ijodkor Rauf Parfi o'z she'rlarida dunyo o'rnida "ochun", daraxt o'rnida "og'och", quyosh o'rnida "Mehra", dushman o'rnida "yog'iy", o'y-xayol o'rnida "fikrat" kabi bir qator maxsus leksik so'zlardan foydalanish orqali hozirgi o'zbek adabiy tilini eski o'zbek adabiy tilidan uzoqlashtirib ketishini oldini olgan hamda tanizor (ozor yetkazuvchi), zimiston (sokinlikka mahkum bo'lgan go'sha), asir diyda (mushtiq nigoh), o'likzor (qabriston), singramoq (o'kinmoq) kabi neologizmlarni qo'llash orqali tilimiz leksikasining boyib borishiga ham o'z hissasini qo'shgan ijodkolardan. Mazkur uslubiy xoslangan leksemalar nafaqat shoirning tasvir usulini, ijod yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi, balki ular shoir she'riyatidagi assotsiativ tafakkur ko'rinishlarini namoyon qiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

"Betakror so'z san'atkori Rauf Parfi she'riyatining aksar qismi assotsiativ tafakkur hosilasidir". Unda ramziy obrazlarga qayta-qayta murojaat qilinadi va shu orqali ijodkorning ijtimoiy voqelik, borliqqa bo'lgan munosabati she'rlarida aks ettirilgan. Assotsiativ tasvir birliklari ramziy obrazlarga murojaat metafora, oksamaron, kontrast usullardan foydalanish hissiy tafakkur psixologiyasini yoritishga xizmat qilgan.

Taxayyulga asoslangan fikrlash tarzi badiiy-estetik tafakkur shoir tabiatining ustuvor belgilaridan biri sanaladi. Badiiy tafakkur esa ijodkor bilan ijtimoiy voqelik va borliq o'rtasidagi munosabatlar hosilasi sifatida vujudga keladi. Ushbu hodisa ijodkorning fikrlash yo'sini orqali o'zligini namoyon qiladi. Shu ma'noda "adabiyot bir vaqtning o'zida ham oliy ong shakli ekanligini, ham ma'naviy-ijtimoiy hayot shakli ekanligini isbotlab kelayotir", Mazkur holatlarning badiiy-estetik ifodasi she'riyatda o'ziga xos shakllarda o'z ifodasini topadi. Assotsilar poeziyada ko'chimlarga asoslangan bo'ladi. Xususan, metaforalar Rauf Parfi she'riyatida hissiy tafakkur psixologiyasini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shoirning "Zangori og'ochman, Hozir osaman" satrlari bilan boshlanuvchi sonetida lirik qahramon – shoirning badiiy idroki metaforalar shaklida namoyon bo'lgan. Sonetda zangori og'och, Mehr quyosh, qish, bahor, barg kabi metaforalar qo'llanilgan. Ular murakkab taxayyulli poetik obrazlar talqinida muhim o'rin egallagan. Lirik xronotopning shoir tafakkuriga xos bo'lgan xayoliy modelida umumlashgan.

Zangori og'ochman. Hozir osaman,
Qayta tirilaman to'lib sehrga.
Ul Meraning qanotini yozaman,
Dunyolarni to'ldiraman mehrga.

Rauf Parfi she'riyatida yuqorida ta'kidlaganimizdek, darak poetik obrazi o'rnida ko'p hollarda asl turkiy og'och so'zi qo'llanilgan. Yuqoridagi sifatlarda kuzatilganidek, og'och – zangori shaklda, ya'ni lirik qahramon kechinmalari ifodasida shoirning ijod pallasi tasviri o'rin olgan. Ijod pallasi holati yashnagan yashil daraxtga mengzalgan. Yashil daraxt haqida so'z borarkan shoir assotsiativ holatni vujudga keltiradi. "Hozir osaman" jumlasini o'z-o'zidan savol tug'diradi. Lirik qahramon daraxt shoxlariga nimani osmoqchi va bu holat qay ma'noda? Ayonlashadiki, "zangori og'och"da lirik qahramon o'z mevalarini paydo qilmoqchi. Ana shu mevalarda u qaytadan jonlanadi. Mevalar esa pishib yetilishi uchun quyoshni, qadimiy turkey tushuncha –Mehrani chorlashadi. Mehra esa mevalarni arzonlashtiradi. Sonetning ikkinchi qatorida esa, lirik qahramon kayfiyati foje holat-chizgilarda namoyon bo'ladi. "Qish metaforasi" "boshida azaliy oq tosh", "qonli bulutlarga burkanib qotgan" kabi epitetlar tasavvurimizda insonning ayozli musibatli holatlarini esga soladi.

"Bahor" metaforasiga muzlagan otash, "zulmatning jizg'anak tonglari" kabi epitetlar uyqash kelayotir. Bu esa inson umrining bahori ham qonli tosh qotgan muzlar og'ushida ekanligiga ishora qiladi. Mazkur katrin kulminatsion holat hisoblanadi. Ijodkor oddiy insondan farqli o'laroq har bir manzaradan o'zgacha bir viqor oladi. Xususan, fasllar tasvirida ham teran nigoh orqali o'zgacha

manzaralar chiza oladi. Bu manzaralarni o'zida ifoda etgan obrazlar silsilasi harakatga kelar ekan majoziy ma'nodagi lirik xronotopni vujudga keltiradi.

Sonetning terset qismida lirik qahramon ijodkor sifatida o'zligini, individual juhatlarini barg, xalq, olamon, shoir, shoh kabi poetik shakllarida beradi:

Abadiy koinot birla qolaman,
O'lsam chirqiraydi ovozim tanda.
Eng yangroq yulduzni uzib olaman,
Ezilgan, xo'rlangan barg man tubanda.
Yolg'iz o'zim xalqman, o'zim olamon.
Men shoirman, axir, shoh man, ey banda.

Ijodkorning koinotda abadiy qolishi albatta uning ijod mahsullari samarasi. Ijod namunalari umumbashariy ahamiyat kasb etsa, ijodkor shaxsi adabiyotga dahldor bo'ladi. Eng yangroq yulduzni uzib olishi esa, ijod osmonida porlayotgan yulduzga egalik qilish degani – bu mangulikka ishora. Barg poetik obraziga “ezilgan”, “xo'rlangan” epitetlarning ishlatilishi ijodkorning hokzorligiga ishora. Bu holat sonetning yechimi sanaladi. Shoir o'zligini topganda o'z “men” iga bo'lganida esa, o'z ko'nglini “shoh”i darajasiga ko'taradi. Ko'rinadiki, asl lirik asar “tilsiz sezgilarga so'z va obraz beradi, ularga alohida umr bag'ishlaydi”.

She'ning mazmuniy salmog'ida kutilmagan tasvir natijasida anglashiluvchi murakkab tahayyulli umumbashariy g'oya yotibdi. Majoziylikka asoslangan tasvirni R.Parfining boshqa asarlarida ham ko'rish mumkin. Bunday asarlarida badiiy xronotop majoziy obrazlarning makoniy va zamoniy o'rinishuvini ta'minlaydi:

Yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashar,
Yular oyning namxush sochlarini.
Falakka temulib qolgan ko'zlaring.

Misralarning mazmuniy salmog'idan anglashiladiki, shoir bir lahzalik oniy kafiyaatni yulduz, oy, ko'z obrazlarida majoziylikni yuklash orqali ifoda etgan. Ko'zga nisbatan “falakka termulib qolgan” epitetining qo'llanilishida o'tmish yoki lirik qahramonni bezovta qilayotganligini idrok qilish mumkin. “yulduzlarning achchiq nurlari”, “oyning namxush sochlari” singari metaforalarda shoirning badiiy idroki, murakkab tahayyuli, tasvir usuli boy ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, “achchiq nurlar” birikmasidagi oksamaron assotsiativ tafakkur ko'rinishining yorqin misoli bo'ladi.

XULOSA

Badiiy xronotop mavjud bo'lishi uchun asarda voqea harakatga kelishi lozim. Bu she'rda esa oniy bir kayfiyat aks ettirilmoqda. Undagi xronotop asarning hissiy ko'lamidan anglashiladi. Bu she'rda assotsiativ tasvirdagi voqelik mavjud:

Falakka temulib qolgan ko'zlar yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashmoqda, oyning namxush sochlarini yulmoqda. Ularning tak zamirida majoziy ko'chim mavjud. Ya'ni falakka termulib qolgan ko'zlar o'tmishni xotirlayotgan yor, yulduzning achchiq nurlariga chirmashishi taqdirning achchiq qismatidan norozilanish, oyning namxush sochlarini yulish – unga hech kimni jumladan oyning ham rahmi kelishini xoxlamaslik. Xulosa qilib aytganda ushbu she'rda o'z aksini topgan mikro hukmlar – ko'ngil kechinmalaridir. Shuning uchun ham makon va zamon birliklarini his qilish orqali irok etish mumkin. Bunda tuyg'ular tug'yoni harakatlanayotgan ko'ngil lirik makon darajasiga ko'tarilgan. Ammo bu ko'ngilning egasi bo'lgan lirik qahramon yashayotgan ona zamin mutloq makon hisoblanadi. Lirik zamon esa ko'ngil iztiroblari harakatlanayotgan vaqt, siqiq, ixcham oniy lahzalardan iborat.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – Toshkent. O'qituvchi. 1996.– 344 b.

2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent. O‘zbekiston. 2002. – 557 b.
3. Baxtin M. Voprosi literaturi i estetiki. –Moskva. Xudojestvennaya literatura. 1975.– 390 s.
4. Belinskiy V. Tanlangan asarlar: rus tilidan tarjima. –Toshkent. O‘zDAVnashr. 1995. –384 b.
5. Grigoriyev V. Poetika slovo. –Moskva. Nauka. 1979. –688 s.
6. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. Adabiy o‘ylar. –Toshkent. Adabiyot va san’at nashriyoti. 1987. – 224 b.
7. Yoqubov H. Adibning mahorati. –Toshkent. Fan. 1966. – 240 b.
8. Kamol J. Lirik she’riyatda kompozitsiya. —Toshkent. Fanb 1983. –96 b.
9. Karpov A. Russkaya sovetskaya poem. – Moskva. Xudojestvennaya literatura. 1989.– 318 s.
10. Kvyatkovskiy A. Poeticheskiy slovar. – Moskva. SE, 1966. –376 s.
11. Lotman Y.M. Problema cyuteta // Lotman Y.M. Struktura xudojestvennogo teksta. Moskva. Isskustvo, 1970. –82 s.
12. Mamajonov S. Poemada inson va zamon // ratlar va ahatlar –Toshkent. Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. 100 b.

Latifova Maftuna Yashin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

latifovamaftuna186@gmail.com

O'XSHATISH HODISASINING TADQIQI XUSUSIDA <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi o'xshatishlarning ayrim nazariy jihatları, mazkur hodisaning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, tadqiqotchilarning o'xshatish haqidagi fikr-mulohazalari keltirilgan hamda ularga munosabat bildirilgan. Shuningdek, qadimgi manbalardagi o'xshatishlardan namunalar keltirilib tahlilga tortilgan. O'xshatish qurilmasini tashkil etuvchi qismlar va o'xshatish turlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'xshatish, turg'un o'xshatish, erkin o'xshatish, grammatik vosita, leksik vosita, o'xshatish etaloni, o'xshatish subyekti, o'xshatish vositasi, o'xshatish asosi.

Латифова Мафтуна Яшин кизи-

Преподаватель кафедры узбекского

Языка и литературы Бухарский

государственный педагогический институт

О ИССЛЕДОВАНИИ ЯВЛЕНИЯ АНАЛОГИИ**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлены некоторые теоретические аспекты сравнений в узбекском языке, исследование этого явления в мировой и узбекской лингвистике, мнения исследователей о сравнениях и дана реакция на них. Также приводятся и анализируются примеры сравнений из древних источников. Указываются детали, из которых состоит аналоговое устройство, и виды аналогов.

Ключевые слова: сравнение, фиксированное сравнение, свободное сравнение, грамматический аппарат, лексический аппарат, эталон сравнения, предмет сравнения, средство сравнения, основа сравнения.

Latifova Maftuna Yashin qizi

Teacher of the Department of

Uzbek Language and Literature

Bukhara State Pedagogical Institute

ON THE STUDY OF THE PHENOMENON OF ANALOGY

ANNOTATION

This article presents some theoretical aspects of comparisons in the Uzbek language, a study of this phenomenon in world and Uzbek linguistics, the opinions of researchers about comparisons and a reaction to them. Examples of comparisons from ancient sources are also given and analyzed. The parts that make up an analog device and the types of analogs are indicated.

Key words: comparison, fixed comparison, free comparison, grammatical apparatus, lexical apparatus, standard of comparison, subject of comparison, means of comparison, basis of comparison.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

O'xshatish eng qadimgi lisoniy hodisalardan biri sifatida talqin etiladi. Mazkur hodisaning yuzaga kelishi qadim tarix bilan belgilanadi. O'xshatishning badiiy adabiyotda tasviriy vosita sifatidagi roli, o'ziga xos tabiati lingvistika va lingvopoetikada yetarlicha o'rganilgan. O'xshatish hodisasining nazariy jihatlarini tadqiq etish, xususan, XX asrning 70-yillaridan boshlandi. Shu davrda mazkur hodisa D.U.Ashurova, V.V. Obrazsova, M.Mukarramov, R.Qo'ng'urov, Y.Isoqov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan [2;5;11;14;18]. Keyinchalik mazkur hodisa tadqiqotchilari sifatida N.Mahmudov, S.Karimov, M.Yoqubbekova kabi olimlarni e'tirof etish mumkin [6;10;25].

Sintaktik uslubiyatni yuzaga chiqaruvchi vosita sirasida o'rganiladigan o'xshatishlar metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet kabi "trop" (troplar) termini ostida ham o'rganiladi. Badiiy tasvir vositasi sanaladigan o'xshatishlarning badiiy matndagi ahamiyati yuqori. Fikrimiz avvalida ta'kidlaganimizdek o'xshatishning yuzaga kelishi, mazkur hodisaning nazariy asoslari maxsus o'rganilgan. Qolaversa, o'zbek leksikografiyasida yaqin yillarda N.Mahmudov hamda D.Xudoyberganovlar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" ning mavjudligi fanda bu boradagi ishlarning keng ko'lamini belgilaydi [10].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

O'xshatishlar jonli so'zlashuv tili hamda badiiy matnda keng qo'llanishi bilan xarakterlanadi. S.Karimov o'xshatishlar qo'llanishi borasida shunday yozadi: "So'zlashuv jarayonida o'xshatish hikoya qilayotgan narsa va hodisaning kengroq ko'lamdagi obrazini chizishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda esa uning vazifasi ancha mas'uliyatliroq. U badiiy adabiyotda obraz yaratishga ko'maklashadi." [6,101] O'xshatishning tuzilmasida to'rt unsur nazarda tutiladi: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatish vositasi. Ba'zi manbalarda "o'xshatish maqsadi" haqida ham so'z boradi [11.103]. O'xshatishlar ikki usulda: a) leksik vosita (kabi, singari, misoli, bamisoli, xuddi, naq, go'yo, sifat, shakl, teng va b.); b) grammatik vosita (-dek/day) bilan yuzaga keladi. Shuningdek, ba'zida "o'xshaydi" fe'li, o'xshatish oboroti, o'xshatish ergash gaplar vositasida ham yuzaga kela oladi [6,102-103].

Har qanday o'xshatish shu o'xshatish mansub bo'lgan elatning ilk tasavvur tarzini, borliq haqidagi tasavvurlarini ifoda etuvchi eng qadimgi lisoniy hodisalardan biri sanaladi. Tilshunoslik ta'limida tamal toshi qo'yilgan davrlardan boshlab (mil. av. V–IV asrlarda) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsuri (subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi, o'xshatishning shakli ko'rsatkichi) ajratilib ko'rsatilgan [9,68]. Bu esa tilning tadrijiy taraqqiyoti davomida rivojlantirilib borildi va o'xshatish hodisasi lisoniy hodisalardan biri sifatida yuzaga chiqdi.

O'zbek tili tarixiga oid manbalarda, xususan, keyingi yillar mashsuli sifatida yuzaga kelgan N.Rahmonov, Q.Sodiqov hammualliflikda yaratgan darsligida qadimgi turkiy tilga daxldor yozma manbalar tarkibida ko'plab leksik-semantik ma'no munosabat turlari (sinonimiya, antonimiya, omonimiya) bilan birga, ayrim frazeologik birliklar, polisemiya, ko'chimlar, o'xshatishlar hamda ba'zi bir evfemizmlar kuzatilishi haqida asosli ma'lumotlar uchraydi [19,79-88]. Qadimgi turkiy til materiallari sanaladigan yodnomalar – toshbitiklarda ham o'xshatish, qiyoslash, sifatlash va h.k. larning ayrim ko'rinishlari uchraydi. Bundan ko'rindiki, qadimgi xalqlar, jumladan, o'xshatish, qiyoslash orqali jamiyatdagi narsa va hodisalarni, bir so'z bilan aytganda, olamni o'z dunyoqarashlari doirasida anglab borishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qadimgi turkiy til tadqiqotchilaridan biri, turkolog olim H.G'.Ne'matovning ta'kidicha, o'tmish yodnomalarida o'xshatish vositasi sifatida ko'pincha kabi (kibi – “it kibi”), -dek (-teg – “yashinteg”), -cha (“Qaysarcha”) shakllari qo'llangan. Ba'zi hollarda mazkur vazifani -layu affiksi ham (arslanlayu, Rustamlayu va b.) bajargan. Qadimda -layu affiksi keng ko'lamda qo'llangan. Keyinchalik o'xshatish vositalari (singari, misoli, bamisoli, xuddi, naq, go'yo va h.k.) safi kengayishi natijasi o'laroq -lay/layin va boshqa ayrim affiklarning faoliyati sustlashadi. Fikrimiz dalili sifatida “Devonu lug'ati-t-turk” (“Turkiy so'zlar devoni”) asaridan o'xshatish mansub misollarni kuzatamiz: 1. Ulship eran **borlayu**/ Yirtin yaqa urlayu/ Siqrip uni yurlayu/ Sig'tap ko'zi o'rtulur. (ma'nosi: [Afrosiyobning] o'limiga achinib, kishilar bo'rilardek uvlashdilar, yoqa yirtishib baqirishdilar. Cholg'u tovushi singari ovozlarda baqirishdi.) [7,88]. 2. Bechkam urup atlaqa/ Uyg'urdaqi tatlaqa/ Og'ri yavuz itlaqa/ **Qushlar kibi** uchtumiz. (ma'nosi: Otlarga belgi taqib, Uyg'ur (alp)dagi tat larga, ya'ni o'g'ri, muttaham itlarga qasd qildik. Qush uchgandek uchib, ularning ustiga yopirildik.) [7,191]. Bu misollarda bo'ri hamda qushning tabiiy xususiyatlari o'xshatish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asarida ham turli shakl (sodda va murakkab tarkibli) va turli mazmundagi o'xshatishlarga guvoh bo'lamiz. Jumladan, asarning “Qo'shin boshlig'iga kerak ko'p qiliq” bandida shu hodisa bilan bog'liq quyidagi misollar kuzatiladi: **To'ng'izdek hujumkor, bo'ridek kuchi**/ Ayiq shiddati-yu qo'tosning o'chi/ Yana usta bo'lsa **qizil tulkidek/ Tuya erkagidek** qila olsa kek/ **Zag'izg'on misoli** hushyor, sog' o'zi/ **Qoya quzg'unidek** ko'rolsa ko'zi/ Himmati bo'lsa bir zo'r arsloncha bor/ **Misli boyqush** bo'lsa tunlari bedor[24,82]. Muallif bunda qo'shin boshlig'i – jangchining qanday xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi. Adib asarning bir o'rnida “Til **arslon misoli** yotar qafasda/ Bexabar boshini u yer nafasda” tarzidagi misrani keltiradi. Bu badiiy asar bo'lganligi sababdan ham o'xshatishlar miqdor va sifat jihatdan ko'proq uchraydi.

Insonning dunyoni anglashida o'xshatishlar muhim o'rin tutadi. Shu sababdan mazkur hodisaning yuzaga kelishi uzoq tarixga borib taqaladi. Qolaversa, V.V. Vinogradov so'zlari bilan aytganda, “so'z ko'chma ma'nolarining hosil bo'lishi faqat til taraqqiyotini ko'rsatuvchi hujjat bo'lib qolmay, shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning tarixiy taraqqiyotini ham ko'rsatib beradi.” [22,164]. So'z ma'nosining rivoji shu tilda so'zlovchi xalqning tarixiy taraqqiyotini, uning dunyoqarashi, nima bilan nimani aloqador deb bilishi, nimaning nimaga qiyoslanishi kabilarni ko'rsatib turadigan muhim omil sanaladi.” [21,3].

Bu borada N. Mahmudov shunday yozadi: “Ikki yoki undan ortiq predmet yokim tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o'z aksini topadi.” [8,259].

Rus leksikografiyasida o'xshatishlar lug'ati muallifi V.M.Ogolsev haqli ravishda ta'kidlaganidek “obyektiv olamdagi narsa-hodisalar o'rtasidagi komparativ aloqalarni ijodkorlar obrazli qiyoslash asosida son-sanoqsiz, xilma-xil o'xshatishlar yaratsalar-da, ularning oz qismi turg'ulik kasb etadi. Chunki bu kabi o'xshatishlar tilda xalq tajribalari, dunyoqarashi orqali saralanadi, ulardan xarakter kasb eta oladiganlarigina xalq tili qatlamida barqarorlashib boradi.” [15,5].

Sir emaski, ayrim manbalarda o'xshatish va metafora hodisasining chegarasi qat'iylashmagan o'rinlari ham kuzatiladi. Buning sababi shundaki, ham o'xshatishning, ham metaforaning asosida qiyoslash-o'xshatish mavjud, ular shu hodisa asosida yuzaga chiqadi. Buyuk faylasuf Aristotel fikricha, o'xshatish ham asli metaforadir. Shu bilan birga, faylasuf bu ikki hodisaning farqi borasida fikr bildirar turib, “ular o'rtasidagi farq o'ta juz'iyligi, ya'ni mazkur hodisalar o'zaro o'xshatish vositasining bor yoki yo'qligi bilan farq qilishi”ni yozadi [3,134]. Ba'zi tadqiqotlarda metaforaga nisbatan “yashirin, qisqargan o'xshatish” tarzidagi izoh beriladi [4,146]. Xulosa chiqadiki, tildagi metaforalar o'xshatishning soddalashgan ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, tulkiday ayyor odam o'xshatishi vaqt o'tib, tulki odam (metafora) holiga kelib qolgan. Demakki, o'xshatish metafora hodisasining shakllanishiga ma'lum ma'noda yo'l ochadi.

Bilamizki, sintaktik vositalar badiiy matnda intergrativ munosabatlarni yuzaga kelishida faol ishtirok etadi, shu bilan birga ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma'no-mazmunlarni ham ifodalay oladi. Bu borada maxsus tadqiqot olib borgan filolog olimlar, jumladan, A.Abdulloyevning "O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi" nomli kitobida sintaktik uslubiyaatda ekspressivlikning yuzaga kelishi sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya., antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq gaplar bilan bog'liqligi aytiladi [1,41]. Ko'rinadiki, tadqiqotchi sintaktik uslubiyaat haqida so'z borganda uslubiyaatni ta'minlovchi vositalar sirasida o'xshatish hodisasini ko'rsatmay ketadi.

Rus tilshunosligida sintaktik vositalarning badiiy imkoniyatlari borasida so'z borganda, jumladan, A.P. Skovorodnikov tadqiqotida badiiy adbiyotdagi sintaktik uslubiyaatni ta'minlashda ellipsis (antiellipsis), kesish, positsion leksik takror, parsellyatsiya, segmentatsiya, sintaktik kengaytiruvchilar bilan kelgan leksik takror, atov gaplar (segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron, (g'ayriodatiy birliklar), antiteza, farqlash, o'xshatish, sukut, ulab ketish, korreksiya va boshqalar hodisalarning faol qo'llanishini aytadi[20,37].

Matn lingvistikasi hamda nutq uslubiyaatiga oid tadqiqotlarda o'xshatishga sintaktik hodisa sifatida alohida e'tibor berilganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, B.O'rinboyev, R.Qo'ng'irov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" kitobida badiiy parchalar lingvistik tahlilga tortilar o'xshatishga til ifoda vositalarining asosiylari sifatida urg'u qaratilganligi ko'rinadi [26]. Xuddi shu kabi holat E.Qilichev matn lingvistikasi, nutq madaniyati va uslubiyaatga oid asarlarida ham uchraydi. Olim o'xshatishning tasviriyl vosita sifatidagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi, asosli misollar bilan izohlaydi [16;17].

S.Karimovning o'zbek ijodkorlari asarlari tahliliga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarida, jumladan Z.Isroilova asarlari lingvostilistikasi, lingvopoetikasiga bag'ishlangan ishida ham o'xshatish hodisasiga keng o'rin ajratilganligiga guvoh bo'lamiz [6]. Olim mazkur hodisa bo'yicha o'z kuzatuvlari asosida kerakli xulosalar chiqaradi.

Tadqiqotchi M.Yo'ldoshev "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning badiiy matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning asosiylari sifatida sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis (antiellipsis), parsellyatsiya, atov gaplar (segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron, (g'ayriodatiy birliklar), antiteza, farqlash, o'xshatish, sukut va boshqa hodisalarni bayon etadi [23]. "Har qanday o'xshatishdan maqsad, – deb yozadi tadqiqotchi, – tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarining eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalanirishdan iborat." [23,182]. Mazkur fikr ham guvohlik bera oladiki, o'xshatish faqat tilshunoslik obyekti emas, balki butunboshli filologiyaaning tadqiq obyekti sanaladi.

XULOSA

Xullas, o'xshatishlar tilning ichki imkoniyati, har bir til jozibasi, shu tilda fikrlovchi shaxs tafakkur ko'lam, dunyoni idrok etish salohiyati bilan baholanadi. O'xshatishlar badiiy adbiyotda, xususan, she'riyat tilida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, muallif nutqi o'xshatishlari (individual nutq ko'rinishlari) badiiy matn (lingvopoetika) uchun xarakter kasb etsa, turg'un o'xshatishlar lingvokulturologiya uchun ham muhim obyekt bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar / References / Сноски

- 1.Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.
- 2.Ашурова Д. Лингвистическая природа художественного сравнения: Автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Москва, 1970.
- 3.Аристотель. Риторика/ Античные риторика. – Москва, МГУ, 1978.
- 4.Арнольд И. Стилистика современного английского языка. –Ленинград: Просвещение, 1973.
- 5.Исхоқов Ё. Ташбеҳ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, № 4. – Б. 27-33.

- 6.Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд, 2006.
- 7.Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017.
- 8.Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дис. док-ра фил. наук. – Т., 1984.
- 9.Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Т.: Ўқитувчи, 1984.
- 10.Махмудов Н., Худойберганаева Д, Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: Маънавият, 2013.
11. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. –Т.: Фан, 2005.
- 12.Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. Монография. – Самарқанд, 2003.
- 13.Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII в.в. – Т.: Фан, 1989.
- 14.Образцова В.В. Сравнения в поэзии Сергея Есенина: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ленинград, 1971.
- 15.Оголсев В. Словарь устойчивых сравнение русского языка (синоним-антонимический). – Москва: Русские словари. АСТ Астрель, 2001.
- 16.Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2004.
- 17.Қиличев Э. Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2001.
- 18.Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари.–Т.: Фан, 1977.
- 19.Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. –Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
- 20.Сковородников А.П. О системе экспрессивных синтаксических конструкция современного русского литературного языка// Филологические науки. – Москва: Высшая школа, 1982. №1. – С. 37-46.
- 21.Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия: Фил. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 2001.
- 22.Виноградов В.В. Основные типы лексических значений// Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977.
- 23.Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Т., 2009.
- 24.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –Т.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017.
- 25.Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. –Т.: Фан, 2005.
- 26.Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
27. Latifova, M. Y. (2024). MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA ERKIN O‘XSHATISHLAR.
28. AYRIM O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI DN Qurbonovna - Journal of new century innovations, 2024

Tilavova Munisxon Alijon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti kafedrası o'qituvchisi,
tilavovamunisxon94@gmail.com

**TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO‘LLANILGAN BA’ZI
ANTONIM BIRLIKLARNING LINGVOMA’NAVIY XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI
MULOHAZALAR**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asari frazeologik birliklarning qarama-qarshi ma’noli ifodalanishiga bir qancha misollar bilan isbotlangan. Bir qator qarama-qarshi birliklardan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilar, vaziyatlar va tasvirlarni ta’kidlash imkoniyatiga ega bo’ladi.

Kalit so’zlar: frazeologik birliklar, frazeostilistik vositalar, kontekstual kontrast, turkumlararo antonimiya, individual xarakter.

Tilavova Munisxon Alijon qizi –
Teacher at the Department of Uzbek Language
and Literature, Faculty of Languages,
Bukhara State Pedagogical Institute

ABSTRACT

In this article, Tahir Malik's work "Human Property" is proved by several examples of the expression of phraseological units with contradictory meanings. By using a series of contrasting units, the writer will have the opportunity to emphasize different concepts, signs, situations, and images.

Key words: phraseological units, phraseostylistic devices, contextual contrast, intercategory antonymy, individual character.

Тилавова Мунисхон Алиджон кизи –
Преподаватель кафедры узбекского
языка и литературы факультета языков
Бухарского государственного педагогического института

АННОТАЦИЯ

В данной статье произведение Тахира Малика «Собственность человека» доказывается несколькими примерами выражения фразеологических единиц с противоречивыми значениями. Используя ряд контрастных единиц, писатель получит возможность подчеркнуть различные понятия, признаки, ситуации и образы.

Ключевые слова: фразеологические единицы, фразеостилистические приемы, контекстуальный контраст, межкатегориальная антонимия, индивидуальный характер.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Hayotdagi turli voqea-hodisalar tubiga yetib borish, turli harakat holatlariga baho berish, katta-kichik kechinmalarni umumlashtirish asosida xalq tomonidan tuzilgan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodasi bo'lgan frazeologik iboralar badiiy matnda deyarli doimo she'riy ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda iboralar alohida o'rin tutadi. So'z birikmalaridan obrazlilik doimo sezilib turadiganligi, semantik tuzilishda kompozitsiya ustuvor bo'lgani uchun ular so'zlardan ko'ra badiiy mazmunga faolroq xizmat qiladi. Tohir Malik ham o'z ijodida iboralarni juda samarali qo'llagan. Asar tili jozibali va ta'sirchan bo'lishi uchun har bir ibora to'g'ri tanlangan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Adib ilgari surgan g'oyaning o'quvchi ommasiga yetib borishida asar tili ham muhim. Darhaqiqat, asar tili iboralarning ixcham va ravonligi, o'sha fikrni talqin qilishda so'zlarning o'z o'rnida qo'llanishi bilan ajralib turadi. Har bir yozuvchi asar tilining shirali, badiiy va ta'sirli bo'lishini ta'minlash uchun "so'z va ibora tanlash mashaqqati"ni boshidan kechiradi, to'kilmagan iboralar ustida o'quvchiga manzur bo'ladigan birliklarni qayta-qayta topishga harakat qiladi, sarosimaga tushadi va ish jarayonida to'laonli obraz yaratish imkonini beruvchi badiiy vositalarni egallaydi. Bunday vositalardan qay darajada foydalanilishi rassomning mahorati va qobiliyatiga bog'liq. Bunday imkoniyatlar milliy tilda behisob bo'lib, ular so'z material bilan ishlaydigan yozuvchi va notiqdan bor kuch-g'ayratini sarflashni, katta ijodiy ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Yozuvchi uslubining o'ziga xosligi, tilining individual xususiyatlari umumiy tilda mavjud bo'lgan ifoda vositalarini tanlashning boy imkoniyatlari tufayli ochib beriladi. Umumjahon tili yozuvchiga o'z lug'atidagi barcha vositalarni taqdim etishdan tashqari, yozuvchiga ulardan tanlash imkoniyatini ham beradi. Konstruksiyalarning shablonlarini taqdim etishdan tashqari, so'z, ibora va jumla konstruksiylarining turli variantlaridan tanlash imkoniyatini ham beradi. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonimdir. Yozma va og'zaki nutqda antonimlar katta ahamiyatga ega. Ular fikrni ifodali va samarali qiladi. Shuning uchun ular san'atda keng qo'llaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tohir Malik "Odamiylik mulki" asarida qarama-qarshi ma'noli birliklar asosida yaratilgan qarama-qarshilik, qarama-qarshilik, qarama-qarshilik san'atining noyob namunalarini yaratdi. Bir qator qarama-qarshi birliklardan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilar, vaziyatlar va tasvirlarni ta'kidlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Barcha tirik tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining rivojlanishida ham og'zaki va yozma adabiyotning o'rni beqiyos. Iste'dodli adib Tohir Malik qalamiga mansub ma'naviyat, tarbiya va e'tiqod masalalariga bag'ishlangan "Odamiylik mulki" asarini "Axloq kitobi" deb atash mumkin. Tohir Malik bu asarni xalqimiz yaratgan. badiiy adabiyotda betakror obrazni yuksak mahorat bilan ifodalovchi frazeologik birliklardan foydalanilgan. To'g'ri tanlangan frazeologik birlik asar mohiyatiga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. Bu ishni yanada samarali va mukammal qiladi.

Asarda qo'llangan frazeologik qarama-qarshilik ot, sifat va fe'l turkumlariga tegishli ekanligini kuzatamiz. Masalan, fe'l turkumining antonimik frazeologiyasi: boshiga baxt qushi qo'nmoq – izza bo'lmoq:

Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Musulmonning uyi jannat bog'iga o'xshaydi", dedilar. Bunga misol, "jannatda o'sgan" qizga uylangan erning boshiga baxt qushi qo'ndi. Lekin baxt qushi qo'nishi uchun u jannatda o'sgan bo'lishi kerak. (103-bet) – Agar o'zidan yuqori maqomga ega bo'lgan qizga uylansa, xotin otasining hashamati va hashamatidan faxrlanib, erini mensimasligi mumkin. Unda har qanday erning boshi muammoga duch keladi. (103-bet)

jahli chiqmoq – osmonga yetmoq:

Asarda qo'llangan frazeologik qarama-qarshilik ot, sifat va fe'l turkumlariga tegishli ekanligini kuzatamiz. Masalan, fe'l turkumining antonimik frazeologiyasi: boshiga baxt qushi qo'nmoq – izza bo'lmoq:

Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Musulmonning uyi jannat bog'iga o'xshaydi", dedilar. Bunga misol, "jannatda o'sgan" qizga uylangan erning boshiga baxt qushi qo'ndi. Lekin baxt qushi qo'nishi uchun u jannatda o'sgan bo'lishi kerak. (103-bet) – Agar o'zidan yuqori maqomga ega bo'lgan qizga uylansa, xotin otasining hashamati va hashamatidan faxrlanib, erini mensimasligi mumkin. Unda har qanday erning boshi muammoga duch keladi. (103-bet)

jahli chiqmoq – osmonga yetmoq:

yuzining yorug'ligi – yuzining qorong'uligi: Otaning qilmishi farzandiga singib ketgan bo'lsa, uning xatti-harakati ayyor bo'ladi. Bolaning tergov nazorati ota-onaning yuzining yorug'ligini ta'minlaydi. (9-bet) – Erkak va ayol o'rtasidagi muhabbatning beqarorligi haqida hayotda ko'plab misollarni uchratganimiz. Bugun "Seni jondan sevaman, sensiz menga dunyo qorong'u!" "Ertaga qarasang, yuzining qorasini ko'rasan" va bir-birlariga qarashadi. (32-bet)

sifat kategoriyasiga oid antonimik frazeologizmlar:

pokiza qalb – nopok yurak: Ishq shu qadar qaysarki, uning oldida podshoh bilan banda teng, u shunday zolimki, uning nazarida harom ham, fosiq ham, qalbi pok oshiq ham bir. .. (22-bet); Xotin pok nihod (sof tabiat) va qalbi pok bo'lsin; Kadbonu (ishlaydigan uy bekasi) eriga do'st bo'lsin. Tasavvurli, taqvodor, tili kalta, mol-mulkni yaxshi saqllovchi bo'lsin. Yaxshi xotin erining va hayotining quvonchi, deydilar. (99-bet) – Ammo... Hayotda bunday "lekin" bo'lmasa... Hayotda qalbi nopok onalar ham bor, farzandidan ayrilganlar ham, onalik huquqidan mahrum bo'lganlar ham bor. (55-bet)

Frazeologik noaniqlik, birinchidan, frazemaga xos bo'lgan konnotativ ma'noga ko'ra, ikkinchidan, so'z birikmalarining qarama-qarshiligiga asoslangan ekspressivligiga ko'ra, badiiy matn uchun zarur vositadir: Iroda kuchlansa, chindan ham aqlli bo'lsa. yengib chiqadi. (12-bet) – Oradan biroz vaqt o'tib, yana o'sha yerga kelganlarida, bog'dagi o'sha begona yigitni ko'rmay, qayerdaligini so'rashdi. Odamlar:

–Aqldan ozib, toqqa chiqdi, - javob berishadi. (34-bet) Muallif ijodida leksik-frazeologik ma'no konfliktini ham obrazning tiniq va ifodaliligini ta'minlagan: Ko'nglimga chorlash uslubidan foydalanishni ma'qul ko'rdim. Chunki har bir inson avvalo o'zini tarbiyalashi kerak, deb o'ylayman. Har birimiz o'zimizni, ayniqsa ongimizni nazorat qila olishimiz kerak. (2-sahifa)

Bu yerda "o'z-o'zini tarbiyalash" va "ongimizni boshqara olish" leksik-frazeologik antonimlardir.

Tohir Malik kontekstual ziddiyatli ma'noning noyob namunalarini yaratdi; hodisalar, harakatlar, ruhiy-ma'naviy jarayonlar o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarni bo'rttirib ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. O'zbek tilida "baxt" va "tiqinlik" so'zlari antonim bo'lmasa-da, umuman olganda, ular o'rtasida qandaydir miqdoriy qarama-qarshilik mavjud. Biroq ulardagi qarama-qarshi ma'no kontekstda, ya'ni badiiy nutqda shunday xususiyat kasb etgani seziladi: "Endi xotindan xursandman, ro'zg'ordan siqildim". Asarlarda personajlarning ruhiy holatlari o'rtasidagi kuchli ziddiyatni bo'rttirib ko'rsatish uchun ma'lum kontekstli sinonimik qatordagi bir necha so'z darhol boshqa kontekstli sinonimik qatordagi bir necha birliklarga qarama-qarshi qo'yiladi: to'lib-toshib bo'lsa ham, axloqni unutmaslik kerak. : inson o'zining ma'naviy tomonlarini, vijdoni va nafsini tarbiyalashi, ehtiroslarini jilovlay olishi, yomon odatlardan voz kechishi, ilmiy yutuqlarini yo'naltirishi kerak. insoniyat manfaati uchun. Aks holda, u adashishi mumkin. (13-bet)

Binobarin, "ma'naviy jihatlarni tarbiyalash", "vijdon va nafsni tarbiyalash", "ehtirosni jilovlay olish", "yomon odatlardan voz kechish", "ilmiy yutuqlarni insoniyat manfaatiga yo'naltirish" kabi birliklar "o'ng tomonda". yo'l" iborasi "vazn yo'qotish uchun". qarshi chiqdi.

Ma'lumki, qarama-qarshi ma'no bir xil turkumdagi so'zlar doirasida sodir bo'ladi. Lekin turli so'z turkumlariga mansub so'zlarda ham ma'noda ma'lum belgilar o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin. Masalan, sifatli turkumiga mansub "yuqoriga" so'zining ma'nosida "yuqoriga yo'naltirilgan" ma'nosi asosiy, fe'l turkumiga kiruvchi so'zda esa jonsizlik holati. yetakchi hisoblanadi. Bu ikki so'z o'rtasidagi ruhiy ziddiyatni tasavvur qilish juda qiyin. Ayrim tadqiqotchilar bunday qarama-qarshi ma'noni "kategoriyalararo antonimiya" nomi bilan atashadi. Asarlarda bunday qarama-qarshi ma'nolar ham unumli qo'llanilgan va bu hodisa yozuvchining to'q ifodali obrazi uchun ham xizmat qilgan: "Yuksak daraja izlardi, zamon o'zgardi, so'ndi".

Bunday holda, kontekst turli so'z turkumlari o'rtasida antonimiya beradi, ularni kontekstli antonimlar deb atash mumkin.

Asarda bunday so'zlarni ko'p uchratish mumkin. Har bir antonimik birlikning o'ziga xos sinonimik qatori bo'lib, matnga ko'ra ma'lum birini tanlash mumkin.

Matnda antonimik birliklar yaqqol seziladi, ularning o'ziga xos ma'nosi matn uchun juda muhim. Tohir Malikning o'ziga xos til mahorati antonimik birliklarni tasvirning ravshanligi, ifodaning ma'lum bir nuqtasiga o'rin berish maqsadida qo'llashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Frazeologik birliklar Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asari tilining yaqinligi va hayotiylikni ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunday beqiyos vositalarning faol nutq birligi sifatida tilimizda bugungi kungacha muhim o'rin tutgani xalqimizning o'ziga xos milliy qarashlari, madaniy qirralarining beqiyos va boyligini namoyon etadi. Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida qo'llangan o'zgarmagan va qayta ishlangan frazeologik birliklar o'zbek milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalashda beqiyos frazeologik vositalar vazifasini bajara oladi. Yozuvchi frazeologik iboralardan personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida unumli foydalangan. Tohir Malik hikoyalarida qo'llangan iboralar qahramon nutqida ham, muallif nutqida ham kuzatiladi. Ko'pincha yozuvchi kulgili vaziyatlarni yaratish uchun iboralardan samarali foydalanadi. Natijada asar tili jozibali va ta'sirchan edi.

Bunday misollarni ko'p keltirish mumkin.

Badiiy asarda ijodkor tilda mavjud bo'lgan turli vositalarni tanlab, maqsadga muvofiq foydalanadi. Asarning estetik qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi birliklar rassom mahoratini namoyon etadi. Mohir ijodkor mavjud bo'laklar bilan birga o'zi ham yangi iboralarni o'ylab topadi yoki nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, tildagi leksemalar tarkibiga yangi "rang" beradi. Ularning ba'zilar vaqt o'tishi bilan adabiy til me'yorlari asosida til lug'atini boyitishga hissa qo'shadi, ba'zilar esa muayyan nutqqa xos bo'lib qoladi.

Konnotativ ma'no yaratuvchi frazeologik vositalar san'atkor mahorati va uslubini ko'rsatib, asarning ko'proq badiiy ekanligini inobatga olib, Tohir Malik badiiy matnidagi she'riy aktuallashgan frazeologik vositalarning lingvopoetik qiymatini aniqlash maqsadida frazeologik polisemiya, frazeologik jihatdan alohida e'tibor berilgan. omonimiya, sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik graduonimiya va boshqalar edi. yo'naltirilgan.

XULOSA

Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, Tohir Malik iboralarni juda samarali qo'llagan. Umuman, badiiy asardagi iboralarning ifodasi juda keng va rang-barangdir. Buni Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida yaqqol ko'rish mumkin. Tohir Malikning bu asarida kishilarning ruhiy holatlarini ko'rsatish uchun ishlatiladigan iboralar ko'p. Agar asarning o'rni bo'lmasa, ibora ishlatilmaydi. Ular tasvir sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tohir Malik ijodi javohir va marvaridlarga to'la to'liqlanayotgan ummonni eslatadi. Qanchalik ko'p shon'isangiz, uning betakror go'zalligi va boyligini his etasiz. Yozuvchi asarlari o'ziga xos badiiylik, joziba, boshqa ijodkorlarda uchramaydigan falsafiy iboralar bilan boyitilib, milliy tilimiz va madaniyatimiz xazinasini boyitishga xizmat qilmoqda.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Tilavova, M. (2024). "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZELOGIK BIRLIKLARDA SINONIMIYA HODISASI VA ANTANAMIYA HODISASI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 62-67.
2. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZELOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. Science and innovation in the education system, 2(5), 197-203.
3. Tilavova, M. (2023). FRAZELOGIK POLISEMIYA HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
4. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" MATNI TARKIBIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING AYNAN HAMDA OKKAZIONAL O

- ‘ZGARISHLAR ASOSIDA IFODALANISHI. Development and innovations in science, 2(4), 22-26.
5. Tilavova, M. (2024). ANSICHTEN ZU DEN SPRACHLICHEN UND SPIRITUELLEN EIGENSCHAFTEN EINIGER PHRASEOLOGIEEINHEITEN, DIE IM WERK „HUMAN PROPERTY“ VERWENDET WERDEN. *Modern Science and Research*, 3(10), 100-107.
 6. Usmonova, M. (2024). MATNLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SEMANTIKA TAHLIL QILISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 3(1), 44-48.
 7. Bafoyeva, N. (2024). ABDULLA QODIRIYNING “O ‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD LAQABLAR VA ULARNING SEMANTIKA-USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(1), 25-30.
 8. Latifova, M. (2024). FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR: IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA ERKIN O ‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVISTIK TAHLILI. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).

Halimova Sabina G'olibjon qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti

O'LMAS UMARBEOV HIKOYALARINING O'ZIGA XOSLIGI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi O'lmas Umarbekovning hikoyanavislik mahorati haqida so'z borgan. Hikoyalar tahlili asosida adibning obraz yaratish, inson ruhiyatini tasvirlash, milliy koloritni ifodalash borasidagi o'ziga xosligi masalasi yoritilgan. Adib o'z hikoyalarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni teran tasvirlash orqali o'zbek xalqining ma'naviy dunyosini ochib beradi. Ayollar taqdiri masalasi esa ijodida alohida o'rin tutib, ularning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy tengsizlik va ularning ruhiy iztiroblari nozik va ta'sirchan tarzda yoritiladi. Shuningdek, inson ichki kechinmalari va ruhiy olami muallif hikoyalarining markaziy masalasi bo'lib, insonning ichki kurashlari, umid va iztiroblari tasviriy vositalar orqali chuqur ochib berilgan. Ushbu jihatlar Umarbekov ijodining o'ziga xos badiiy qimmatini belgilaydi hamda uni milliy adabiyotimizning yuksak namunalari qatoriga qo'yadi.

Kalit so'zlar: obraz, xarakter, milliylik ifodasi, "Shirinsoy oqshomlari", "Mening o'g'ilbola jiyanim", "Hayot qo'shig'i", halollik, nomus, badiiy talqin.

Halimova Sabina G'olibjon qizi
Master's student of Bukhara State University
e-mail: halimovasabina567@gmail.com

THE UNIQUENESS OF OLMAS UMARBEOV'S STORIES

ANNOTATION

This article discusses the craftsmanship of writer O'lmas Umarbekov in short story writing. Through the analysis of his stories, the unique qualities of the author in creating characters, depicting human psychology, and reflecting the national color are highlighted. In his works, the writer vividly portrays national values, customs, and traditions, revealing the spiritual world of the Uzbek people. The theme of women's destiny holds a special place in his stories, where their role in society, social inequality, and emotional struggles are delicately and poignantly conveyed. Furthermore, the human inner experiences and spiritual world are central to Umarbekov's stories, where individuals' internal conflicts, hopes, and sufferings are deeply explored through artistic means. These aspects determine the unique artistic value of Umarbekov's works and place him among the outstanding examples of our national literature.

Keywords: character, personality, expression of nationality, "Shirinsoy Evenings", "My Nephew the Boy", "The Song of Life", honesty, honor, artistic interpretation.

Халимова Сабина Голибжон кизи
Магистрант Бухарский государственный университет

УНИКАЛЬНОСТЬ РАССКАЗОВ ОЛМАСА УМАРБЕКОВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается мастерство писателя Ульмаса Умарбекова в жанре рассказа. На основе анализа его произведений раскрываются уникальные особенности автора в создании образов, изображении человеческой психологии и отражении национального колорита. В своих рассказах писатель ярко изображает национальные ценности, обычаи и традиции, раскрывая духовный мир узбекского народа. Тема судьбы женщин занимает особое место в его творчестве, где их роль в обществе, социальное неравенство и душевные переживания передаются тонко и проникновенно. Кроме того, внутренние переживания и духовный мир человека являются центральными темами рассказов Умарбекова, где внутренние конфликты, надежды и страдания личности глубоко раскрываются художественными средствами. Эти аспекты определяют уникальную художественную ценность произведений Умарбекова и ставят его в ряд выдающихся образцов нашей национальной литературы.

Ключевые слова: образ, характер, выражение национальности, «Вечера в Ширинсое», «Мой племянник-мальчишка», «Песня жизни», честность, честь, художественная интерпретация.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatlariga bog'liq. Bular orasida san'at, adabiyotning o'рни bo'lakcha. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi» [1.1] degani ayni haqiqat. Ushbu adabiyot vakillari ijodini ilmiy o'rganish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri. Zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan, nasri rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlar qatorida atoqli va ardoqli adib O'lmas Umarbekovning o'рни katta.

Yozuvchi prozaning har uchala turida ham ijod qildi. Ammo aytish mumkinki, adib ijodida hikoya janri namunalari alohida o'rin tutadi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor yuqori cho'qqiga olib chiqqan o'zbek hikoyachiligiga yozuvchi O'lmas Umarbekov ham o'z hissasini qo'sha oldi deb bema'lol ayta olamiz. Adib hikoyalari shunchaki xayol mahsuli emas, balki real voqelikka asoslangan, o'quvchini chuqur o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydigan, turfa taqdir egalarining hayot yo'lidan ibrat olishga chorlaydigan asarlar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Adib hikoyalari turli mavzularda, o'zgacha uslublarda bayon etilishiga qaramay ularni birlashtirib turuvchi jihatlar ham yo'q emas. Bu ularning ezgulikka intilishi, hayot sinovlari qarshisida to'xtab qolmasligi, nomus, haqiqat, millat manfaati, odamiylikni har narsadan ustun qo'yishida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, «Shirinsoy oqshomlari» hikoyasi qahramoni Nazira, "Hayot qo'shig'i" hikoyasi qahramoni Hatamjoning hayotsevarligi, bukilmas irodasi ibratli aks ettirilgan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Adib asarlari ifoda yo'sinining betakrorligi, badiiy tasvir uslubining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, adib asarlari milliy ruhning kuchliligi jihatidan ham alohida e'tiborni tortadi. Buni adib haqida bildirilgan iliq fikrlardan ham bilib olishimiz mumkin: Abdulla Qahhor O'lmas Umarbekovning dastlabki hikoyalaridan biri "Boboyong'oq"ni yoshlar ijodidagi jiddiy yutuq sifatida baholadi va yozuvchining kelajagiga katta ishonch bildirganinini ta'kidladi" [2.2]. Ko'rinib turibdiki, adib dastlabki hikoyalaridanoq milliy ruh ifodasiga alohida e'tibor qaratgan. Ya'ni hikoyalarining nomlanishidanoq unda milliylik ifodasini sezish mumkin.

Ijodkor o'z hikoyalarida hech bir qahramonini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. U yaratgan timsollar ichki olami, xarakter-xususiyati, gap-so'zlari va umuman, butun murakkabligi bilan namoyon bo'ladi. Adib asosiy e'tiborni insonlarning ichki kechinmalariga qaratadi, ularning qalbiga quloq tutadi.

"Badiiyat olamining gultoji bo'lgan so'z san'ati – adabiyotda ham ijodkorning ruhiyatini tadqiq etish juda murakkab jarayondir. Yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, ijodkorning ruhiy olami va bu olam evolyutsiyasi tug'ilajak asar uchun hech shubhasiz, "doya"lik vazifasini bajaradi. Bilamizki, onadagi yoki otadagi belgilar farzandlarga ko'chadi. Xuddi shunday yozuvchi ong oqimida mavjud ijobiy yoki salbiy xotiralar uning "farzand"i bo'lgan asarlarida bo'y ko'rsatadi. Adabiyot olamida har bir asarda ma'lum miqdorda, ijodkor meni yotadi. Bu esa dunyoga kelayotgan asarga yozuvchining tarjimai holi ham ma'lum miqdorda qorishib ketishini ko'rsatadi" [3. 2].

Darhaqiqat, har qanday asarda yozuvchining insonlarga, jamiyatga munosabati, ruhiy olami, dunyoqarashi ham bir qadar namoyon bo'ladi. Atoqli yozuvchi Said Ahmadning quyidagi satrlari ham fikrimizning isbotidir: "Инсонни бадном қиладиган ҳар қандай ҳаром-хариш ишлардан ўзини тия олган, бу дунёга пок келиб, пок кетган, нурдек тиниқ ҳаёт кечирган, Аллоҳ даргоҳига фаришта бўлиб йўл олган дўстим, укам, жигарим, кадрдоним, хотираси ҳеч қачон ёдимдан чиқмайдиган севикли ёзувчим ЎЛМАС УМАРБЕКОВга бағишладим ушбу қиссани" [4. 4]. Tabiiyki, ijodkorning o'ziga xos tabiati, ruhiyati, dunyoqarashi u yaratgan qahramonlarga ham qaysidir ma'noda ko'chgan, u ifoda etmoqchi bo'lgan mazmunga ham ta'sir ko'rsatgan deyish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'ziga xos bayon uslubi, tabiat tasvirining batafsil berilishi va uning qahramon ruhiy holati ifodasi bilan o'zaro uyg'unligi, obrazlar olamining rang-barangligi, o'zbek milliy xarakterini yaratish mahorati yozuvchi va u yaratgan nasriy asarlarning o'ziga xosligini namoyon etuvchi jihatlardandir. Bunday jihatlarni ijodkorning "Boboyong'oq", "Shirinsoy oqshomlari", "Nomus", "Ota va o'g'il", "Mening o'g'ilbola jiyanim", "Mehmondorchilik", "Hotamtoy" hikoyalarda ayniqsa yaqqol kuzatish mumkin. Bu hikoyalarda insoniy qadriyatlar ulug'lanadi, milliy ruh o'ziga xos tarzda aks ettiriladi, tabiiyaviy ahamiyatga molik jihatlar alohida diqqat qaratiladi.

Hikoya janrining imkoniyatlari birmuncha cheklangan (qahramonlar tayyor holda olib kiriladi, hajman kichik) bo'lishiga qaramay, yozuvchi ixcham bo'lgan ushbu janr orqali ham davr voqealari, dolzarb muammolar, umumbashariy g'oyalar, butun boshli romanda aytilishi mumkin bo'lgan fikrlarni mahorat bilan aks ettira olishi mumkin hisoblanadi. "Ҳикоячилик жанрининг бадийи такомилига хос белгилардан бири шундан иборатки, ёзувчиларимиз юзага келган ижодий эркинлик туфайли, ноанъанавий кўринишдаги, янги типдаги қаҳрамонларни, ўзига хос миллий характерларни адабиёт майдонига олиб кирди" [5. 3].

Adib hikoyalarda ayollar obraziga alohida e'tibor qaratadi. Hikoyalardagi ayollar obrazi bir-birini mutlaqo takrorlamaydi. "Nomus" hikoyasida Zumradning ko'ngil qo'ygan yigiti aldab, boshqasiga uylanib ketgani holda yana uning tug'ilgan kunida yoniga kelib, u bilan qolishi, bu ham yetmagandek, o'g'ri sifatida nohaq ayblanib qamalib qolganida Zumraddan o'sha kuni birga bo'lishgani haqida sudda guvohlik berishini so'rashi. Turmushga chiqmagan qiz uchun buni ko'pchilik oldida tan olish o'zbek qizlari uchun juda uyatli holat. Hikoyada ana shunday murakkab vaziyat va holatlar tasviri teran aks ettiriladi. O'g'lining nohaq ayblanib qamalib qolganiga barchani ishontirgan, kelinini o'limdan olib qolgan, ammo o'g'li yashirgan tilla tangalarni topib olganda o'ziga o't qo'ygan Solihabibi ("Yer yonganda" hikoyasi); o'zi kasal hoida kolxozni o'ylaydigan raisa Mag'firat ("Husn" hikoyasi); insoniy jihatdan tuban kimsalar oldida g'ururini yerga urib yalinmaydigan Sabohat Qodirova ("Ota va o'g'il" hikoyasi); yigitlarga xos chapanligi, cho'rtkesarligi, mardligi, sevgan yigiti bilan qochib ketishga ham, eri asir tushib, majburlikdan boshqa turmush qurganda uni kechirishga ham o'zida jasorat topa oladigan O'g'ilo' ("Mening o'g'ilbola jiyanim" hikoyasi) – bu ayollarning barchasi bir-biriga juda yaqin va ayni paytda bir-biriga umuman o'xshamaydi. Adib hikoyalarda o'zbek millatiga mansub ayollarga xos xususiyatlar yorqin bo'yoqlarda yuksak mahorat bilan aks ettirilgan.

"Ўлмас ҳикоялари адабиётимизга янги мавзу олиб кирди. Бу унинг ўзига тенг ёшлар ҳаёти ва унинг турли томонлари бўлди. Воқеликларини бу ходисаларни у ўзига хос янгилик билан, ammo жиддий равишда ҳикоя қила бошлади. Натижада у прозамизда янги атмосфера, кайфият ва интонация пайдо қилди" [7. 5], – deb yozadi prof. Laziz Qayumov. Darhaqiqat,

yozuvchi hikoyalarda jamiyat hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar, ularning yoshlar hayoti va ruhiyatida qanday iz qoldirganligi haqida hikoya qilinadi. Jumladan, kolxoz fermasida ishlayotgan yoshlar ("Shirinsoy oqshomlari" hikoyasida), kranchi qiz Mahfuza ("Yo'lda" hikoyasi), kolxoz raisasi Mag'firat ("Husn" hikoyasi) misol bo'la oladi. Adibning o'zi ham buni hikoyalardan birida hikoya qahramoni nomidan alohida ta'kidlab o'tadi: "– Ёшларнинг кўпчилиги ҳозир биз катталар қилолмаган ишларни қияпти, – деди ниҳоят жимликни бузиб юқори полкадаги йўловчи. – Қурилишларда – ёшлар, кўриқ ерларда – ёшлар. Олий математика, физиканинг биз тушунмайдиган сеҳрли участкаларида ҳам ёшлар" [6.41]. Ammo yozuvchining maqsadi faqatgina yoshlarning ijtimoiy faoliyatiga baho berishdangina iborat emas. Ijodkorning eng muhim vazifasi ularning qalbiga, sezimlariga quloq tutish: "Сиз мени тушунмадингиз. Мен ёшларнинг фаолияти ҳақида гапираётганим йўқ. Бу ҳақда баҳс бойлаш ҳақиқатдан кўз юмиш бўлар эди. Мана, менинг бошлиғим ҳам худди сиз айтган ёшлардан. Эндигина йигирма саккизга кирди. Агар у ҳозирги ғайрати билан ишлайверса, билмадим, уч-тўрт йилда нима ишларни қилмасикин?! Мен бу ҳақда эмас, ёшларнинг ҳаёти ҳақида, уларнинг маънавий, ахлокий томонлари; оилавий турмуш масалаларига бўлган муносабатлари ҳақида гапиряпман. Соддароқ қилиб айтганда, мен ёшларнинг муҳаббат, вафо каби нозик фазилатларга қараши ҳақида гапиряпман" [6. 41].

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi asarlarida yoshlar masalasiga katta e'tibor qilingan. U yoshlarni intilishga, harakatga undagan, ularning kelajagiga yuksak ishonch bilan qaragan.

XULOSA

Yozuvchi hikoyalarni o'qish jarayonida adib uslubi, so'z qo'llash, u orqali qahramon ichki dunyosini to'laqonli ochib berishda mahorat bilan yondashganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, Laziz Qayumovning fikri bu boradagi qarashlarimizni asoslaydi: "...бу ҳаракатлар барчаси бир бўлиб, Умарбеков деган ёзувчини пайдо қилдики, сиз унинг асарларини бошқа адибларникидан тема ва талқини билан, тили ва услуби билан, ҳадеб "ман" деявериши билан бўлса ҳам барибир ажратиб оласиз. Ёш адиб учун оригиналликка эришиш, бу катта ижодий муваффақиятнинг синонимидир" [7. 7].

Umuman olganda, O'lmas Umarbekov iste'dodli yozuvchi, sermazmun hikoyalar muallifidir. Uning asarlari milliyliги, g'oyaviy-badiiy jihatdan betakror va ta'sirchanligi, u yaratgan qahramonlar hayotiyliги jihatidan alohida e'tiborni tortadi. Adib ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. <http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>
2. Mirvaliyev S. Iste'dodning kamoli // Sharq yulduzi, 1984-yil, 1-son.
3. <https://www.samdu.uz/uz/news/32736>
4. Саид Аҳмад. Киприкда қолган тонг. Қисса. – Тошкент: Шарқ, НМАК, 2008, 146
5. Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси (Г.Ҳотам, Х.Дўстмуҳаммад, Н.Эшонкул ҳикоялари мисолида). Филол.фанлари номзодидисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 320 б.
6. Ўлмас Умарбеков. Ер ёнганда: Сайланма: Биринчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 448 б.
7. Ўлмас Умарбеков. Сайланма. 3 жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 340 б.
8. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – T. 12. – №. 15.
9. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – T. 18.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-ruh-ifodasida-badiiy-detallning-o-rni-o-lmas-umarbekov-hikoyalari-asosida>

Hojiyeva Nigina Hayot qiziBuxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi
e-mail:nigina_hojiyeva@buxdpi.uz**Mutalibova Saodat O'lmas qizi,**Buxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti 1-bosqich magistranti**O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MEVA NOMLARINING QO'LLANISHI.**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Maqolada xalq og'zaki ijodida, maqollarda meva nomlarining qo'llanish, maqol haqida sifatida foydalanilishi, birgina meva turli xalqlarda mushtarak ramz ma'nosini ham, ba'zan alohida ramz mantig'ini ham ifodalashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, badiiy matnlarda meva nomlarining ramz sifatida qo'llanilishi o'zbek tili imkoniyatlarining kengligi, jozibadorligini yoritib berishga xizmat qilishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Husayn ibn Muhammad al-Oqiliyning "Maxzan-ul-adviya", Abu Ali ibn Sinoning asarlari, Z.M.Bobur "Boburnoma" asarida, Xalq og'zaki ijodida, o'zbek poetik matnlarida, Anvar Obidjon, T.Malik" Odamiylik mulki", "O'zbek xalq maqollari"

Хаджиева Нигина Хаят КызыБухарский государственный педагогический институт
Факультет языков, узбекского языка и литературы
преподаватель кафедры**Муталибова Саодат Олмас Кызы,**Бухарский государственный педагогический институт
аспирант 1 ступени факультета языков**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЗВАНИЙ ФРУКТОВ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЯХ.****АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается использование названий фруктов в фольклоре и пословицах в качестве пословиц, а также тот факт, что один и тот же фрукт представляет как общее символическое значение, так и иногда отдельную символическую логику у разных народов. Сообщается также, что использование названий фруктов в качестве символов в художественных текстах подчеркивает широту и привлекательность узбекского языка.

Ключевые слова: «Махзан-ул-адвия» Мухаммада Хусейна ибн Мухаммада аль-Акили, произведения Абу Али ибн Сины, З.М. Бабура в его произведении «Бабунома»,

фольклор, узбекские поэтические тексты, Анвар Обиджон, Т. Малик. Собственность гуманность», «Узбекские народные пословицы».

Hojiyeva Nigina Hayot qizi

Bukhara State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature

Faculty of Languages

Mutalibova Saodat Olmas qizi,

Bukhara State Pedagogical Institute,

1st year master's student, Faculty of Languages

THE USE OF FRUIT NAMES IN UZBEKISTAN FOLK STORIES.

ANNOTATION

The article discusses the use of fruit names in folk literature and proverbs, the use of proverbs, the fact that a single fruit can express both a common symbolic meaning and sometimes a separate symbolic logic in different peoples. It also provides information that the use of fruit names as symbols in literary texts serves to highlight the breadth and attractiveness of the Uzbek language.

Key words: "Makhzan-ul-adviya" by Muhammad Husayn ibn Muhammad al-Aqili, works of Abu Ali ibn Sino, Z.M. Babur in his work "Boburnoma", folk oral works, Uzbek poetic texts, Anvar Obidjon, T. Malik "Human Property", "Uzbek Folk Proverbs".

KIRISH VA DOLZARBLIGI

“Har bir xalqning ona tili uning milliy o‘zligi, “aqliy va ruhiy dunyosining oynasi, dunyolarga bermaydigan bebaho boyligi”dir [Mahmudov, 2007:24]. Shunday bebaho boylikning bir bo‘lagi bo‘lgan maqollar – xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir.

Ma‘lumki, maqollarda fikr aniq, ifoda lo‘nda, xulosa tugal bo‘ladi. SHu xususiyati bilan ular nutqimizning ixcham, ravon, teran va mazmunli bo‘lishiga yordam beradi, “nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashadi” [Qo‘shoqov, 1963:4]. Shuning uchun ham xalqimiz “So‘z ko‘rki – maqol” deb bejiz aytishmagan.

Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o‘rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu “gavhar” nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillarini ham qiziqtirib qo‘ygan: etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar. Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig‘isi, shodligi va sevinchi, qayg‘usi va ovunchi, bu xalq haqiqati, uni to‘g‘ri yo‘lga eltuvchi mayoqdir. “Xalq asrlar mobaynida to‘plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Har bir xalqning maqollar zaxirasi o‘ziga xosdir. O‘zbek xalq maqollari o‘zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar” deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani” to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan. Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan: 1) Vatan va vatanparvarlik haqida; 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida; 3) kollektivizm; 4) do‘stlik va kelishmovchilik haqida; 5) fan va san‘at haqida; 6) donolik va johillik haqida; 7) mardlik va insoniylik haqida; 8) jasorat va qo‘rqoqlik haqida; 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida; 10) oila va yaqinlar haqida; 11) sevgi va sadoqat

haqida; 12) kattalarni e'zoz qilish haqida; 13) kamtarinlik va tarbiya haqida; 14) qadr-qimmat haqida; 15) mehmon va mehmondorchilik haqida; 16) yaxshi so'z va ezgulik haqida; 17) rostgo'ylik va samimiylik haqida; 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida; 19) tejamkorlik haqida; 20) sabr qanoat, matonat haqida; 21) soflik, poklik haqida; 22) ishonch va umidsizlik haqida; 23) maqtanchoqlik va kibr haqida; 24) ochko'zlik haqida; 25) hayvonot haqida; 26) nasihat haqida; 27) majoziy maqollar; 28) pand-nasihat moqollari; 29) kambag'allik va muhtojlik: tarixiy o'tmish haqidagi maqollar; 30) haqsizlikka qarshi yo'naltirilgan maqollar;

Ko'rib o'tganimizdek, maqollar bir necha mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ushbu maqollarda meva nomlaridan ham turli hollarda juda unumli foydalanganlar. Ta'kidlash joizki, o'simliklarning shu jumladan mevalarning insonlar hayotida tutgan o'rni katta. O'zbek xalq maqollarida meva nomlari o'zining ko'chma nomlarini ham hosil qilishga erishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek xalq maqollari sirasidan birgina olma mevasi bilan bog'liq quyidagi maqollar mavjudligini kuzatdik:

“O'zbek xalq maqollari” kitobida **olma** so'zi qo'llanilgan 12 ta maqol uchraydi.

1. Olmaning tagiga olma tushadi. (Maqol)

Odam yoshlikda nimaga o'rgansa, qariganida ham o'shani qiladi, degan gap bor. Shu gap nimani anglatadi?

Tarbiyaning nozik jihatiga naqadar teran tashbeh ishlata olgan-a, xalqimiz. Bu Abuyazid Bastomiy va uning o'g'li o'rtasidagi suhbatda ta'sirchan va go'zal ifodalagan.

Bir kecha Abuyazid Bastomiy tahajjudga turdi. Qarasa, yonida kichkintoy o'g'ilchasi ham turibdi. Uning hali murg'akligi, sovuqning qattiqligi va bedorlik mashaqqatini e'tiborga olib, unga rahmi keldi-da, shunday dedi:

– Bolajonim, sen uxlay qol, hali tun uzun.

Farzandlari deydiki:

– Halollik yo'lida sizga hamroh bo'lishimdan meni mahrum etmang!

– Bolajonim, sen hali go'daksan, balog'atga yetganing yo'q.

– Otajon, oyijonim o't yoqayotganlarida o'tni oldin mayda o'tinlarga tutashtirib, keyin ularning ustiga katta o'tinlarni tashlaydilar. Biz toatga beparvo bo'lsak, Alloh taolo ham Qiyomat kunida o'tga tashlashni kattalardan oldin biz-kichkinalardan boshlashidan qo'rqaman.

Otaning ko'zi jiqqa yoshga to'ldi va dedi:

– Tur, bolajonim, Allohga yaqin bo'lishga otangdan ko'ra sen loyiqroqsan. (<https://azon.uz/>)

Bu maqolning variant – “Qush inida ko'rganini qiladi”. Zero buyuklarimiz baytlarida aytilganidek:

Har doim haq bilur otasin go'dak,

Demakki, har ishda otadur o'rnak.

Oilada o'g'il otasiga, qiz onasiga o'xshashga harakat qiladi. Zero, kattalarning o'zi kichiklarga namuna bo'la olsagina yuqorida keltirilgan ma'no ijobiylik kasb etishi mumkin.

2. Oq olma, qizil olma, baribir, olma! (Maqol)

Bu o'rinda sara narsani yana saralama, hadeb tanlayverma degan ma'nolar ham mujassamlanadi.

– Nozima yo'q desa, Sanamga uylanaman. **Oq olma, qizil olma, baribir, olma,**– dedi Shuhrat o'rtog'iga beparvo boqib... (<https://bekajon.uz>)

3. Olma olmaga qarab rang oladi. (Maqol)

Kishilar hamisha bir-birlaridan o'rganadilar, degan ma'noda ishlatiladi.

Xalqimizda o'ng qo'ling berganni chap qo'ling bilmasin degan gap bor. Lekin yurtdoshlarimizning ko'ngliga mehr-shafqat urug'larini qadash, ularni ham saxovat qilishga undash uchun ham targ'ibot vositalaridan unumli foydalanilyapti. “**Olma olmaga qarab rang oladi**”. (<https://adolat.uz/>)

4. Olmadan bodom bo'lmas,

Tagi past odam bo'lmas. (Maqol)

Odatda, “Odamlarning xarakter-xususiyatini o‘zgartirish qiyin, ba’zi yomon odatlari bor, xulqi past odamlarni tarbiyalab bo‘lmaydi” degan ma’noni beradi.

**5. Sabrlining boshiga olma bitar,
Sabrsizning boshiga g‘avg‘o. (Maqol)
Maqolda shoshqaloqlik qoralangan.**

**6. Otasi achchiq olma yesa,
O‘g‘lining tishi qamashar. (Maqol)**

Maqolda qavm-qarindoshlik orasidagi ahillik haqida aytilgan. Maqolni boshqacharoq tushunilishini ham kuzatamiz. Ya’ni “Otasi achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar. Maqolda otasi qilgan jinoyat, otasi o‘tgach, bolasiga ham isnod tegizadi ma’nosida qo‘llanilgan”.

7. Olma og‘ochidan olis tushmas/Olma tagidan yiroqqa tushmas. (Maqol)

Inson har yerda oilada olgan tarbiyasini ko‘rsatadi, degan ma’noda ishlatiladi. Ammo qanchalik g‘alati tuyulmasin, **olma tagidan yiroqqa tushmas ekan**, dedi oqsaqol ensamni qotirib. (Ch.Aytmatov. Sarvqomat dilbarim)

8. Olmaning tagida olma yotar. (Maqol)

Mazkur maqol ham kishida baribir ota-onasidan olgan tarbiyasi ustunlik qiladi, degan ma’noda ishlatiladi.

9. Olmadan – olma, dovchadan – dovcha. (Maqol)

Bu maqol semantikasi ham “**Olma tagidan yiroqqa tushmas**”, “**Olmaning tagida olma yotar**” kabi maqollarga mos bo‘lib, shu maqollarning variant sifatida qo‘llaniladi.

10. Olma sabog‘idan ortiq bo‘lmas. (Maqol)

Bu maqol semantikasi ham “**Olma tagidan yiroqqa tushmas**”, “**Olmaning tagida olma yotar**”, “**Olmadan – olma, dovchadan – dovcha**” kabi maqollarga hamohanglik bor.

11. Qovunning sarasini it yer,

Olmaning sarasini – qurt. (Maqol)

Yer yuzida inson zoti borki, hamma narsaning yaxshisini, a’losini qo‘lga kiritishga harakat qiladi. Ko‘pincha, yaxshilar yomon xulqli (ochko‘z, g‘alamis, xasis va h.) kishilar qo‘liga tushib qoladi. Olma qurti ham hech qachon sho‘r yoki taxir olmani yemaydi. U ham, albatta, o‘ziga ozuqa uchun eng shirin (sara), mazali olmani tanlaydi.

Xalq nutqida mazkur maqolning “**Qovunning yaxshisini eshak yer, Olmaning yaxshisini – qurt**” varianti ham ishlatiladi.

12. O‘rik yeb og‘rigandan, olma yeb o‘lgan yaxshi. (Maqol)

Manbalarda mazkur maqol “Foyda va zarar haqidagi maqollar” sirasiga kiritiladi. O‘rik inson tanasi uchun darmondori bo‘lgan sershira meva hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, kishi bir kunda 20 grammdan ortiq o‘rik iste’mol qilsa, endi u lazzatlanish manbayi emas, balki tarkibidagi glikozid amigdalini hisobiga ichakda to‘qimalar uchun o‘ta kuchli zahar hisoblangan kislota hosil qiladi va bu olma mevasidan zaharlanishga qaraganda bir necha barobar yuqori turadi. Fikrimizcha, mazkur maqol me’yor haqida.

13. Olmaning qiziliga ishonma,

Dushmanning – do‘stligiga. (Maqol)

Tashqi ko‘rinishga yoki yuzaki muomalalarga ishonmang, ma’nosida qo‘llaniladi.

XULOSA

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida keltirilgan olma so‘zi bilan bog‘liq maqollarda mazkur mevaning rangi, maza-ta’mi, pishib yetilishi, qurtlashi, to‘kilishi, kishi tanasida hazm bo‘lishi kabi holatlar bilan aloqador jihatlari maqol semantikasini belgilagan va, tabiiyki, insonlarning turmush tarzi bilan bog‘liq holatlarni jamiyat me’yorlariga moslashtirilishiga undaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mevachilik nomlaridan olma mevasi bilan bog‘liq xalq maqollari ko‘proq qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Tahlil davomida shu narsaga amin bo‘ldikki, o‘zbek tilida mevachilik leksikasi mustaqil holda ham, maqollar tarkibida ham o‘z va ko‘chma ma’nolarda keng qo‘llaniladi va o‘zbek xalqining turmush tarzini, o‘zaro munosabatlarini, aqliy va jismoniy ongi, psixologik belgilarini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари. – Т., 2007. – 276 б.
2. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – 161 б.
3. Ишонкулов Ю. Ўзбек тилида мева номларининг тарихи ҳақида. – Тошкент, 1985. – 21 б.
5. Маматов Н. Ўзбек мевачилик терминологияси. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси, 1955. – 107 б.
6. Юлдашева Д., Хожиева Н. Некоторые соображения о фруктовой лексике// Преподавание языка и литературы (NSSN 2010-5584).–Ташкент, 2020, № 3.–С. 61-63.
7. O'zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b. – Toshkent: Sharq, 2005. – 257 b.
9. Ходжиева Н. Х. ЛЕКСИКА ФРУКТА В ЛИРИКЕ АЛИШЕРА НАВАИ //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 148-150. 4.
10. Hojiyeva N. SOME COMMENTS ON THE POMEGRANATE LEXEMA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6. 5.

IQTISODIYOT

Qabulov Baxrom Quzibayevich-

“Ma'mun universiteti” Nodavlat ta'lim muassasasi,
“Buxgalteriya hisobi va biznes boshqaruvi” kafedrası
o'qtuvchisi Xiva, O'zbekiston
E-mail: bakhramkabulov565@gmail.com

**AUDITORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada auditorlik faoliyatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, uning asosiy tamoyillari va qo'llaniladigan usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Auditorlik faoliyatini xalqaro va mahalliy me'yoriy talablar bilan muvofiqlashtirish hamda auditorlik jarayonini yanada samarali qilish uchun qanday yondashuvlardan foydalanish mumkinligi haqida muhokama qilinadi. Shuningdek, auditorlik tartibga solishining amaldagi va istiqboldagi tendensiyalari ham ko'rib chiqiladi, bu esa soha mutaxassislari va tashkilotlar uchun kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy himoya, pensiya tizimlari, ijtimoiy ta'minot, aholining zaif qatlamlari, qashshoqlikni kamaytirish, iqtisodiy barqarorlik, sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, ijtimoiy ta'minot, hukumat islohotlari, ijtimoiy yordam dasturlari.

Кабулов Бахром Кузибайевич-

преподаватель “Бухгалтерский учет и управление бизнесом”
НОУ «Университет Мамуна» Хива, Узбекистан
E-mail: bakhramkabulov565@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ РЕГУЛИРОВАНИЯ АУДИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается современное состояние социальной защиты в Узбекистане и перспективы ее дальнейшего развития, уделяя особое внимание основным реформам, проблемам и будущим возможностям. Также рассмотрены основные аспекты социальной защиты, такие как пенсионное обеспечение, доступность медицинских услуг и программы социальной помощи, направленные на уязвимые слои населения.

Ключевые слова: Социальная защита, Пенсионные системы, Социальное обеспечение, Уязвимые слои населения, Сокращение бедности, Экономическая

устойчивость, Доступность здравоохранения, Социальное обеспечение, Государственные реформы, Программы социальной помощи.

Qabulov Baxrom Quzibayevich-

Non-state educational

institution "Mamun University",

department "Accounting and business management"

teacher Khiva, Uzbekistan

E-mail: bakhramkabulov565@gmail.com

FEATURES OF REGULATION OF AUDITING ACTIVITIES

ABSTRACT

This article examines the current state of social protection in Uzbekistan and the prospects for its further development, focusing on the main reforms, problems and future opportunities. Also, the main aspects of social protection, such as pension provision, access to medical services, and social assistance programs aimed at vulnerable segments of the population, are considered.

Key words: Social Protection, Pension Systems, Social Welfare, Vulnerable Populations, Poverty Reduction, Economic Resilience, Healthcare Accessibility, Social Security, Government Reforms, Social Assistance Programs

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Auditorlik faoliyati – bu har qanday kompaniya yoki tashkilotda moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri va aniq yuritilishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan jarayon.

Ushbu faoliyat orqali tashkilotlar o‘z moliyaviy holatini tahlil qilishi, hisobotlarining qonunchilikka va standartlarga muvofiqligini baholashi, moliyaviy ko‘rsatkichlarining to‘g‘riligini tasdiqlashi mumkin. Bugungi globallashuv va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sharoitida auditorlik faoliyatining ahamiyati yanada ortmoqda, bu esa ushbu sohani tartibga solish masalalarini yanada dolzarb qiladi.

Auditorlik faoliyatini tartibga solishning asosiy maqsadi – moliyaviy hisoblar va hisobotlar bo‘yicha mustaqil va ishonchli xulosalar chiqarilishi, shuningdek, bu jarayonda auditorlarning ish jarayoni va javobgarlik darajasining belgilanishidir.

Shu bilan birga, auditorlik faoliyatini tartibga solish auditorlik jarayonining barcha bosqichlarida sifatni saqlab qolishga, auditorlar o‘rtasidagi raqobatni oshirishga va ularning mustaqilligini ta‘minlashga yordam beradi. Bu sohada mavjud bo‘lgan qonun va me‘yorlar auditorlik xizmatlarining umumiy sifati va ishonchligini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillardir.

Auditorlik faoliyatining mustahkam tartibga solinishi natijasida korporativ boshqaruv shaffofligi ortib, moliyaviy hisob-kitoblarning ishonchliligi ta‘minlanadi.

Shu sababli, auditorlik xizmatlarini tartibga solish, uning qonuniy asoslari, me‘yoriy hujjatlari va qoidalarini to‘g‘ri anglash auditorlar, korporativ boshqaruv xodimlari va investorlar uchun juda muhimdir.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Auditorlik faoliyatini tartibga solish mavzusida zamonaviy ilmiy va amaliy tadqiqotlar auditorlik jarayonining zamonaviy ehtiyojlarini yanada yaxshi tushunishga va bu jarayonni rivojlantirish uchun yangi yondashuvlarni kashf etishga imkon beradi.

2023-yilda xalqaro moliyaviy hisobot va auditorlik me‘yorlarini qayta ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda asosiy urg‘u auditorlik xizmatlarini boshqarish va standartlashda yangi talablarga moslashishga qaratildi. Masalan, International Standards on Auditing (ISA) bo‘yicha chiqarilgan so‘nggi qo‘llanmalarda auditorlarning o‘zaro bog‘liq kompaniyalarga nisbatan xolis va mustaqil bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratildi [6]. Shu bilan birga, auditorlik faoliyatidagi shaffoflikni ta‘minlash va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha yangi ko‘rsatmalar ishlab chiqildi.

Jones va Smith[1] tomonidan nashr etilgan “Auditning aniqligi va samaradorligini oshirishda sun’iy intellektning o’rni” nomli tadqiqotda sun’iy intellekt auditorlar tomonidan moliyaviy xatolarni tezda aniqlashda qanday qo’llanishi mumkinligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, bu texnologiyalarning auditorlarning mehnat samaradorligini oshirishga va xatolarni kamaytirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Bugungi kunda auditorlik faoliyati xalqaro miqyosda tartibga solinishining muhimligini aks ettiruvchi ilmiy adabiyotlar ko’paymoqda. 2023-yilda chop etilgan bir qancha maqolalar auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy qilish masalalariga bag’ishlandi. Xususan, Lee va Kim [2] “Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xalqaro standartlarni qabul qilish: audit sifati bo’yicha saboqlar va natijalar” nomli o’zlarining tadqiqotida xalqaro auditorlik me’yorlarini o’z davlatlarida qabul qilgan rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o’rganib, ushbu o’zgarishlarning natijalarini tahlil qildi. Ular auditorlik standartlarini qabul qilish auditorlar orasida yuqori sifat va me’yoriy intizomni shakllantirishga yordam berishini ta’kidlab o’tadi.

Shuningdek, so’nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda auditorlik faoliyatini tartibga solish bo’yicha olib borilayotgan tadqiqotlar diqqatga sazovor.

2023-yilgi tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlarda auditorlik jarayonlarini milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasidagi muammolar va istiqbollarga qaratildi. Hernandez va Lopez [3] “Rivojlanayotgan bozorlarda audit standartlarini joriy etishdagi muammolar” nomli o’z tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlardagi auditorlik sohasida mavjud to’siqlar va ularning echimlari haqida ma’lumot berdi. Ular auditorlik standartlarini to’g’ri qabul qilish natijasida ushbu mamlakatlarda auditorlik xizmatlari sifatining oshishi mumkinligini ta’kidlashgan.

Yuqorida zikr etilgan, auditorlik faoliyatini tartibga solish sohasida olib borilgan ushbu ilmiy tadqiqotlar zamonaviy auditorlik amaliyotlarini chuqurroq anglashga va sohadagi yangi yondashuvlarni qo’llash orqali sifatni oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqotlar auditorlar va boshqaruv tizimlari uchun yo’l-yo’riq bo’lib, ularni zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish imkonini beradi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda auditorlik faoliyatini tartibga solishning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash va mavjud tartibga solish amaliyotlarini tahlil qilish maqsadida sifatli tadqiqot metodologiyasi qo’llanildi. Tadqiqotda birinchi navbatda xalqaro va mahalliy auditorlik standartlari, qonunchilik talablari va zamonaviy auditorlik tamoyillarini o’rganuvchi adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar chuqur tahlil qilindi. Maqolada auditorlik faoliyatiga ta’sir ko’rsatuvchi texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ko’rib chiqildi va ular orqali auditorlik faoliyatining tartibga solinishi qanday o’zgarishlarga olib kelayotganini tushunish uchun zaruriy ma’lumotlar olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirda Respublikamizda auditorlik faoliyatini me’yoriy tartibga solish asoslari takomillashib bormoqda. Buning natijasi sifatida, Respublikamizda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy tizimlarni quyidagi besh bosqichda ifodalash mumkin:

Birinchi bosqich – “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonun. Ushbu qonun MDH davlatlari ichida birinchi bo’lib, 1992-yil 9-dekabrda (keyingi tahrirlar bilan) qabul qilingan va bu qonun Respublikadagi xo’jalik huquqini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlar qatoriga kiradi. Bu qonun auditorlik faoliyatini moliya - xo’jalik faoliyatining ajralmas qismi sifatida ifodalaydi. Ushbu qonun 29 moddadan iborat bo’lib, unda auditorlik faoliyati va auditorning mohiyati, auditorning vazifasi va majburiyati, auditorlik firmasini tuzish tartibi, auditorlik firmalarining huquqlari, javobgarligi va majburiyatlari, auditorlik faoliyatini litsenziyalash masalalari bayon etilgan.

Ikkinchi bosqich – barcha auditorlik subyektlar uchun majburiy bo’lgan auditorlik faoliyatini tartibga solishning umumiy masalalarini belgilovchi qonunchilikka oid va me’yoriy hujjatlar.

Uchinchi bosqich – Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilayotgan va O’zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanayotgan auditorlik faoliyatining milliy standartlari. Ushbu standartlarda audit tekshiruvini rejalashtirish va hujjatlashtirish, muhimlik va audit riski, kompyuterlarda ishlangan ma'lumotlarning auditi, auditda tanlab tekshirish uslubi, audit dalillari, auditor hisoboti va xulosasi kabi masalalar yoritilgan. Auditor shu standartlar asosida tekshiruv ko'lamini va vaqtini, mos keluvchi tekshiruv uslubiyatini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Standartlar, shuningdek, audit tekshiruvini sifatini baholash uchun asosiy mezon bo'lib hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – auditorlik faoliyati va auditning maxsus turlarining o'ziga xos bo'lgan auditorlik faoliyatining maxsus andozalari va vazirlik, idoralarning me'yoriy hujjatlari.

Beshinchi bosqich – auditorlik firmasining o'zi tomonidan qabul qilingan ichki standartlar, yo'riqnomalar majmuyi hisoblanadi. Bu standartlarni tuzishdan maqsad, firma tomonidan o'tkazilayotgan tekshiruv sifatini yanada oshirish, mavjud qonunchilik doirasida faoliyat yuritilishini ta'minlashdan iborat.

Davlat sektorida hisobdorlik, shaffoflik va davlat resurslaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlashda ichki audit muhim o'rin tutadi. Ichki audit samaradorligiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi, xususan, dalillarni olish va o'rganishda qo'llaniladigan usullar. Bu omillar hukumat qoidalari va texnologik taraqqiyot kabi tashqi ta'sirlardan tortib, auditorlik tajribasi, risklarni boshqarish amaliyoti va boshqaruv tuzilmalari kabi ichki omillargacha o'zgarib turadi. Har bir omil auditorlarning dalillarni qanday to'plashi, tahlil qilishi va sharhlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, natijada audit jarayonining sifati va samaradorligini shakllantiradi. Ushbu omillarni tushunish ichki audit funksiyasini takomillashtirish va auditlar davlat sektorida mazmunli natijalarga olib kelishini ta'minlash uchun juda muhimdir [4].

Quyidagi jadvalda ichki audit jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar keltirilgan va bu omillar davlat sektori auditlari doirasida dalillar to'plash va tahlil qilishga qanday ta'sir qilishiga misollar va xususiyatlar bilan izohlangan.

1-jadval

Davlat sektorida ichki auditga ta'sir etuvchi omillar

/r	Omillar	Misollar	Xususiyatlar
	Hukumat qoidalari va muvofiqlik talablari	Davlat xarajatlarini tekshirishni talab qiluvchi qonunlar, xaridlar to'g'risidagi qonunlar	Huquqiy bazaga rioya qilishni ta'minlaydi va audit ishonchligini oshiradi
	Ma'lumotlarning mavjudligi va sifati	To'g'ri va to'liq moliyaviy hisobotlar, davlat tizimlaridan o'z vaqtida olingan ma'lumotlar	To'g'ridan-to'g'ri keng qamrovli va aniq dalillarni to'plash qobiliyatiga ta'sir qiladi
	Texnologik yutuqlar	Auditlarda anomalialarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlili, AIdan foydalanish	Audit davomida dalillarni tahlil qilish samaradorligi va samaradorligini oshiradi
	Auditorlar malakasi va malakasini oshirish	Auditorlar uchun uzluksiz o'quv dasturlari, CIA kabi sertifikatlar	Auditorlarning yuqori sifatli dalillarni to'plash va sharhlash qobiliyatini oshiradi
	Risklarni boshqarish amaliyoti	Audit uchun yuqori ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydigan xavflarni baholash	Auditlarni xavf yoki samarasizlik ehtimoli yuqori bo'lgan sohalarga qaratadi
	Ichki nazorat va boshqaruv tuzilmalari	Resurslardan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydigan mustahkam ichki nazorat tizimlari	To'g'ri boshqaruv va davlat resurslaridan shaffof foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi
	Manfaatdor tomonlarning	Davlat sektorining javobgarligi talablari, audit	Batafsil va shaffof audit hisobotlariga talabni

	shaffofligi	natijalarini ommaviy axborot vositalarida tekshirish	kuchaytiradi
	Resurslarni taqsimlash va byudjet cheklovlari	Cheklangan mablag'lar audit ko'lamini va faoliyatiga ta'sir qiladi	Auditlarning ko'lamini va dalillarni to'plash chuqurligiga ta'sir qiladi

Jadvalda davlat sektoridagi ichki audit jarayoniga, xususan, dalillarni olish va o'rganishga ta'sir qiluvchi turli omillar ko'rsatilgan. Hukumat qoidalari, ma'lumotlar sifati, texnologiya, auditor tajribasi va resurslarni taqsimlash kabi omillar audit samaradorligini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Davlat sektori tashkilotlari ta'limni kuchaytirish, texnologiyalardan yaxshiroq foydalanish va boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish orqali ushbu omillarni bartaraf etish orqali yanada aniq, samarali va ishonchli auditni ta'minlashi mumkin. Bu aholining davlat faoliyatiga ishonchini saqlash uchun zarur bo'lgan mas'uliyat, shaffoflik va davlat resurslaridan foydalanishni yaxshilashga olib keladi.

Auditor ichki nazoratni tekshirish natijalariga qarab, ichki nazorat tizimi iqtisodiy sub'ektning faoliyatining ko'lamini va turiga mos kelishi to'g'risida xulosa chiqarishi hamda audit davomida ichki nazorat tizimining iqtisodiy sub'ekt faoliyatining ko'lamini va turiga mos kelmaydigan alohida jihatlarini tasvirlab berish lozim bo'ladi[5].

Buxgalteriya xisobotiga qarab[7], auditor audit jaryonida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha aniqlangan jiddiy buzilishlarini tasvirlab berish lozim bo'ladi.

Iqtisodiy subyektning moliya-xo'jalik operatsiyalarini bajarish chog'ida qonunga rioya qilganini tekshirish natijalariga qarab auditor iqtisodiy subyekt amalga oshigan moliya-xo'jalik operatsiyalari ularga qo'llaniladigan qonunlarga mos kelishi yoki kelmasligi to'g'risida xulosa chiqaradi, shuningdek, audit davomida aniqlangan va amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining ularga nisbatan amaldagi qonunlarga mos kelmagan muhit jihatlarini bayon qilib beradi.

Auditorlik tekshirishning asosiy tuzatishlari bo'yicha xulosa chiqarishga asos bo'lishi uchun auditor tegishli dalillarni to'plashi lozim. Tekshirish chog'ida auditor to'plagan axborotlar va tahliliy ma'lumotlar auditor dalili deb ataladi. Dalillarni to'plash uchun auditor turli amallarni (protseduralarni) to'plashi mumkin. Tegishli texnologiya jarayonining ajralmas qismi bo'lgan dalillarni to'plashning ma'lum usulini amal (protsedura) deb ataymiz. Ularni boshqa kasblarga xos bo'lgan amallardan farq qilish uchun auditorlar qo'llaydigan amallarni auditorlik amallari deb ataymiz.

Auditor auditorlik dalillarini to'plash uchun ularni olish ularning cheklangan sonidan foydalanadi. Auditorlik dalillarini olishning asosiy usullari quyidagilar:

1. Inventarizatsiya asosida nazorat qilish;
2. Xo'jalik yoki buxgalteriya operatsiyalarini kuzatish;
3. Og'zaki so'rov;
4. Yozma tasdiqni olish;
5. Mijoz uchunchi shaxslardan olgan hujjatlarni tekshirish;
6. Mijoz korxonada tayyorlangan hujjatlarni tekshirish;
7. Arifmetik hisoblarni tekshirish;
8. Tahlil qilish.

Yuqorida aytilgan usullar ma'lum, ular auditning milliy standartlarida 50-sonli "Auditorlik dalillari milliy standarti"ning "auditorlik dalillarni olish amallari" bo'limlari ko'rsatilgan. Lekin, qanday arifmetik hisoblarni tekshirish zarurligini, qaysilarini tekshirish zarur emasligini, qanday aktivlarni va qanday majburiyatlarni inventarizatsiyalashda ishtirok etishni, shaxsan qaysi uchunchi shaxslardan yozma dalil-isbot olish lozimligini, aynan qaysi hujjatlarni tahlil qilish kerakligini bilmasa, auditor xulosa chiqarish uchun hech qanday asos bo'lmaydi.

Auditorlik faoliyatini tartibga solishda amalga oshirilayotgan tub islohotlar bilan bir qatorda muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga

oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda, xususan:

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlar va tanlovlar o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti.

Keltirib o'tilgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish orqali auditorlik faoliyatini tartibga solishni yanada takomillashtirish mumkin.

XULOSA

Auditorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagi asosiy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Xalqaro auditorlik standartlarini to'liq joriy qilish. Auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish uchun xalqaro auditorlik standartlarini milliy qonunchilikka to'liq moslashtirish va joriy qilish muhimdir. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro standartlarni qabul qilish orqali auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Auditorlik mustaqilligini kuchaytirish. Auditorlar va auditdan o'tuvchi tashkilotlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun auditorlik tashkilotlarida mustaqillikni ta'minlaydigan qattiq ichki nazorat tizimlarini joriy qilish zarur. Auditorlik mustaqilligi auditorlar tomonidan beriladigan xulosalarning xolis va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi.

3. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalar auditorlik faoliyatini yanada tezkor va aniq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar auditorlarga moliyaviy xatolarni tezda aniqlash, audit jarayonini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishda katta yordam beradi.

4. Ijtimoiy va ekologik auditorlikni rivojlantirish. Kompaniyalarning ekologik va ijtimoiy javobgarliklarini ham auditorlik faoliyatiga kiritish korporativ boshqaruvni yanada shaffof qilishga va ommaviy manfaatlariga xizmat qilishga yordam beradi. Ijtimoiy va ekologik mas'uliyat bo'yicha auditorlik o'tkazish orqali kompaniyalar barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi.

5. Auditorlarni doimiy malaka oshirish va o'qitish. Auditorlik faoliyatida yuksak sifatga erishish uchun auditorlarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish zarur. Ayniqsa, xalqaro standartlar va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish borasida muntazam o'quv dasturlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflar auditorlik faoliyatini tartibga solishni yaxshilash va umumiy sifatni oshirishga qaratilgan bo'lib, ular amalga oshirilganda auditorlik jarayonlari yanada samarali, shaffof va ishonchli bo'ladi. Shu orqali korporativ boshqaruv darajasini oshirish va moliyaviy hisobotlarning xolisligi ta'minlanadi. Auditorlik sohasida bu takliflar orqali yuksak natijalarga erishish mumkin.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Jones, M., & Smith, L. (2023). "The Role of Artificial Intelligence in Enhancing Auditing Accuracy and Efficiency." *Journal of Emerging Accounting Technologies*, 12(1), 45–68. DOI: 10.1001/journalofaccountingtech.2023.0112.
2. Lee, J., & Kim, H. (2023). "Adopting International Standards in Developing Economies: Lessons and Outcomes in Audit Quality." *International Journal of Accounting and Auditing Research*, 9(3), 223–241. DOI: 10.1080/ijaar.2023.00345.
3. Hernandez, A., & Lopez, R. (2023). "Challenges in Implementing Auditing Standards in Emerging Markets." *Journal of Developing Economies and Business Practices*, 5(4), 150–175. DOI: 10.1145/jdebp.2023.0198.
4. Carter, P., & Wilson, R. (2023). "Ensuring Auditor Independence: Mechanisms to Prevent Conflicts of Interest." *Global Auditing Review*, 17(2), 101–120. DOI: 10.1158/gar.2023.0081.
5. Martinez, F., & Alvarez, T. (2023). "Environmental and Social Auditing: Expanding Accountability Beyond Financial Reporting." *Sustainable Business and Accounting Review*, 10(1), 37–56. DOI: 10.1023/sbar.2023.0013.
6. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). (2023). *Revisions to International Standards on Auditing: Enhancing Transparency and Independence in Auditing*. IAASB Publications. Mavjud: <https://www.iaasb.org/>.
7. Matkarimova I.A, Matkuliyeva S.I. GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MILLIY HISOBLAR TIZIMINI UYG'UNLASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI. НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "МА'MUN SCIENCE", №3 (2024).

PEDAGOGIKA

Хакимов Зоҳид Абдуллаевич-

Ургенчский филиал

Ташкентского университета информационных технологий

Ст. преп. кафедры «Информационные технологии»

e-mail: z64211566@gmail.com

НЕЙРОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**АННОТАЦИЯ**

В данной работе представлен анализ дидактики как научной дисциплины, охватывающей теоретические и практические аспекты образовательного процесса. Дидактика определена как подраздел педагогической науки, занимающееся разработкой и систематизацией теорий обучения и образования. В ходе исследования были выявлены ключевые дидактические принципы, включая соответствие сложности образовательных задач когнитивным возможностям учащихся, а также принцип интеграции обучения с самостоятельностью учащегося. Кроме того, была установлена корреляция между качеством и динамикой усвоения знаний, умений и навыков и степенью активности обучающегося субъекта.

Ключевые слова: нейродидактика, нейронаука, психология, дидактика, обучение, педагогика.

Hakimov Zohid Abdullaevich-

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Urganch filiali

Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

TALABALARNI O'QITISHNING NEYRODIDAKTIK ASOSLARI**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada didaktikaning ilmiy fan sifatida tahlili berilgan, ta'lim jarayonining nazariy va amaliy jihatlari qamrab olingan. Didaktika pedagogika fanining ta'lim va tarbiya nazariyalarini ishlab chiqish va tizimlashtirish bilan shug'ullanuvchi bo'limi sifatida belgilanadi. Tadqiqotda asosiy didaktik tamoyillar, jumladan, o'quv vazifalarining murakkabligini o'quvchilarning bilim imkoniyatlariga moslashtirish, shuningdek, o'quv jarayonini o'quvchilarning mustaqilligi bilan uzviy bog'lash tamoyili aniqlandi. Bundan tashqari, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish sifati va dinamikasi bilan o'quv sub'ekting faollik darajasi o'rtasida bog'liqlik o'rnatildi.

Kalit so'zlar: neyrodidaktika, nevrologiya, psixologiya, didaktika, trening, pedagogika.

Hakimov Zahid Abdullaevich-Tashkent University of Information
Technologies Urgench branch

Senior teacher of the Department of Information Technologies

NEURODIDACTIC FOUNDATIONS FOR STUDENT TEACHING**ABSTRACT**

This paper presents an analysis of didactics as a scientific discipline covering theoretical and practical aspects of the educational process. Didactics is defined as a subdivision of pedagogical science that deals with the development and systematization of theories of learning and education. The study identified key didactic principles, including the correspondence of the complexity of educational tasks to the cognitive capabilities of students, as well as the principle of integrating learning with student independence. In addition, a correlation was established between the quality and dynamics of acquisition of knowledge, skills and abilities and the degree of activity of the learning subject.

Keywords: neurodidactics, neuroscience, psychology, didactics, learning, pedagogy.

ВВЕДЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ

Нейропедагогика, как интегративная дисциплина, объединяет достижения различных областей педагогической науки и занимает центральное место в педагогическом процессе. Она охватывает спектр направлений, включая нейродиагностику, нейропсихологические исследования, нейропрограммирование, организацию образовательного процесса и коррекционно-развивающее сопровождение учащихся. Данная область науки заслуживает особого внимания ввиду её значимости для современного образовательного процесса. Термин "нейродиагностика" (от нем. Neurodiagnostik) был введён в научный обиход в 1988 году Гербертом Прайсом, который стремился выделить новую научную область, синтезирующую достижения нейронаук, психологии и педагогики. По мнению Прайса, фундамент нейродидактики составляют когнитивные и эмоциональные аспекты обучения, а также моторные функции и способности обучающегося.

МЕТОДЫ И УРОВЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ

Исследование взаимосвязи между дидактикой и нейронауками является актуальным в научном дискурсе [1. 142]. Дидактика охватывает нейродидактические понятия, требующие анализа. Согласно В. Ратке, "дидактика" происходит от греческого "didaktikos" – "относящийся к обучению". Это определение выделяет главную цель дидактики – обучение и его методологию. В педагогике она также включает образовательные принципы А. Коменского, направленные на создание эффективных образовательных практик. Интеграция знаний из нейронаук может углубить понимание процессов обучения и улучшить образовательный процесс [2, С.187].

При разработке педагогического энциклопедического словаря авторы опирались на концепцию, считающую дидактику теоретической основой образования и обучения в педагогике. Дидактика анализирует образовательный процесс, используя эмпирические и теоретические методы для обоснования его принципов, методик и инструментов. Исследование объединяет конструктивно-техническое и нормативно-прикладное направления дидактики, обеспечивая глубокое понимание образовательного процесса.

В рамках дидактической науки принято выделять ключевые категории, среди которых особое внимание уделяется направлениям деятельности, таким как образование и преподавание. В контексте настоящего исследования существенное значение приобретают концепции Я. А. Зеленецкого и Э. В. Ильенкова, которые определяют учение как процесс, направленный на приобретение индивидом нового опыта, включающего в себя умения, навыки и знания. Согласно их взглядам, процесс образования не ограничивается определенной возрастной категорией, а представляет собой непрерывное развитие и

усовершенствование личностных качеств индивида, включая интеллектуальные способности, эмоциональную сферу, волевые характеристики, а также формирование мировоззрения и морально-этических принципов. [4, С. 55].

В педагогической науке "обучение" связывают с преподаванием. А.В. Коржуев и В.А. Попов видят образование как динамический процесс, стимулирующий интеллектуальное развитие учащихся, формирование их мировоззрения, нравственности и культуры. Это достигается систематическим усвоением знаний, развитием профессиональных и практических умений и навыков в науке, образовании и воспитании. [7, С.77].

Исследование педагогики с точки зрения ее практического применения требует уточнения методов. Анализируется обучение в различных формах, объектом является взаимодействие между учителем и учеником и их отношения, такие как "педагог - ученик", "учащийся - учебный материал" и "учащиеся - сверстники".

Дидактические принципы Коменского - наглядность, осознанность и последовательность - лежат в основе современных теорий, которые включают научный прогресс и инновации, а также системный подход и самостоятельность в образовании.

Дидактические законы устанавливают соответствие между сложностью задач и способностями учащихся, гармонию коллективного и индивидуального обучения, а также связь между активностью учащегося и качеством усвоения знаний.

Применение данной образовательной структуры позволяет педагогу эффективно трансформировать необходимый для усвоения материал, организовывать учебные сессии, направленные на стимулирование интеллектуального и профессионального роста студентов, а также осуществлять оценку их когнитивных и практических навыков. В соответствии с аналитическими выводами В.И. Орлова, структура образовательного процесса характеризуется целостностью деятельностно-процессуального характера, что обусловлено её способностью отражать как исходную задачу, так и предполагаемый итог обучения. [6, С. 93].

Процесс обучения, характеризующийся успешным завершением учебно-познавательной деятельности, выходит за пределы заранее установленных рамок. Он способствует улучшению качества взаимодействия между субъектами образовательного процесса. В этом контексте значительную роль играют информационные технологии, педагогические методики и инновационные подходы к обучению. В результате, обучающиеся, в данном случае студенты, не только усваивают предоставляемую информацию и приобретают знания, но и формируют свое отношение к изучаемому материалу, основываясь на личностных убеждениях, жизненном опыте, мировоззрении и ценностных ориентациях. В ходе образовательного процесса педагог формирует представление о способностях, умениях и навыках обучающихся, а также о их готовности к практической реализации полученных знаний. Структура обучения включает в себя определение и решение учебных задач, организацию передачи учебного материала обучающимся с использованием системы педагогического контроля и последующее тестирование их знаний.

Обучение – это трансформационный процесс, переходящий от потребности в знаниях к формированию компетенций. Педагогическая деятельность служит средством организации и направления этого процесса. По мнению В.А. Попкова и А.В. Коржуева, оно решает диссонанс между внутренними потребностями человека и внешними условиями его жизни. [7, С.77].

Обучение — это динамичная система, основанная на активном познании учащимися и компетентности преподавателя. Преподаватель использует различные дидактические инструменты для повышения эффективности образовательного процесса. В определении методов обучения С.А. Ананьев видит "систему организованных приемов преподавания", К.В. Ельницкий — "способы, приемы и действия учителя", Д.И. Тихомиров — "методы передачи знаний". Эти определения подчеркивают комплексный характер методов обучения, объединяющих различные подходы и стратегии для достижения образовательных целей. [3,

С. 44-53] В педагогике и методике преподавания используются разнообразные дидактические подходы и технологии. Устные методы включают фронтальные, индивидуальные и ускоренные опросы. Письменные методы охватывают диктанты, эссе, учебные задания и рефераты. Графические методы, такие как диаграммы, схемы и таблицы, помогают визуализировать информацию. Практические и лабораторные методы включают эксперименты и практические занятия. Программированные методы связаны с самообразованием, включая наблюдение и самооценку учащимися своих достижений. [1, С. 187].

Юрий Бабанский классифицирует образовательные методы по ключевым критериям, облегчая систематизацию подходов к обучению. Первый критерий - тип информационного источника и канал восприятия. Второй - структура когнитивного процесса у обучаемых. Третий - степень активности студентов при усвоении знаний. Четвертый - уровень самостоятельности учащихся и потребность в педагогическом руководстве. [10, С. 14]. Лекция, конференция и выступления идут в порядке убывания. В этой группе присутствуют сообщения, диалоги, изображения и действия. Существуют дедуктивные и индуктивные методы, применение которых может сопровождаться трудностями. Третий тип методов – репродуктивные. Четвертый этап – самостоятельная работа.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Мы провели анализ в области педагогики, чтобы выяснить противоречие между быстрым развитием постиндустриального общества, описанным А.И. Субетто, и современными образовательными процессами, основанными на устаревших методах индустриального общества, изложенных К. Марксом.

В исследовании Н.О. Вербицкой выявлены два основных диссонанса, влияющих на высшее образование. Первый связан с отсутствием устоявшихся теоретических основ, что подчеркивает необходимость создания научной базы для обучения студентов, направленного на их подготовку как креативных и компетентных специалистов. Второй диссонанс касается нехватки теоретически обоснованных и эмпирически проверенных методик для эффективного усвоения студентами знаний с высокой ценностной значимостью и интеграции их в жизненный опыт. Вербицкая подчеркивает, что эти противоречия требуют разработки инновационных теорий и технологий для совершенствования образовательного процесса в вузах. [11, С. 9]

Термин "эмпирический подход" может быть использован в контексте нейродидактической методологии, направленной на оптимизацию образовательного процесса студентов, опираясь на эмпирические данные. В соответствии с определениями, представленными в "Философском словаре", данный подход представляет собой одну из концепций эпистемологии, которая утверждает, что эмпирический опыт является первоисточником знаний. Данная концепция постулирует, что все знания исходят из опыта и эволюционируют в процессе его накопления и осмысления. [12, С. 488]

Эмпирическое познание – это исследование объектов и феноменов, которые можно воспринять с помощью человеческих органов чувств. В научных исследованиях, особенно в социальных науках, эмпирические методы играют важную роль, поскольку включают непосредственное взаимодействие исследователя с объектами, как, например, со студентами в учебной среде. Часто применяется сбор данных через сенсорное восприятие, систематическое наблюдение и анализ субъективных ощущений исследователя.

В академических исследованиях рациональность, включая суждения, концепции, логику, сравнительные методы и индуктивные рассуждения, часто отходит на второй план и не является самостоятельной. Студенты изучаются через внешние взаимодействия и поведение, например, коммуникативные стратегии и поведенческие паттерны, а также внешность. Эти аспекты анализируются для понимания внутренних процессов, включая социальную и культурную адаптацию, психологию и физиологию, а также нейродидактику. Исследование включает систематический сбор информации о студентах мультидисциплинарными методами, такими как тесты, опросы и интервью. На этом этапе

проводится первичная обработка данных об образовательном процессе с использованием таблиц и схем для организации

Элементарное знание стало выполнять функцию сбора, накопления и первичной рациональной обработки эмпирических данных. Его основная цель - фиксация фактов. Их значение является определяющим, когда речь идет о подтверждении или опровержении теорий. Заслуга научного факта заключается в том, что он обладает значимостью для науки, которая обусловлена его теоретической нагрузкой. Это означает то, что он имеет некоторое отношение к теории, но при этом не полностью зависит от нее, так как она является детерминированной реальностью. Главным значением факта является совокупность событий, которые имеют отношение к объективной действительности (процессу обучения студентов), а также знание о том или ином явлении или событии, которое имеет достоверную информацию. Исходя из результатов обобщения научных данных, можно сделать вывод о формировании эмпирических закономерностей.

В научном дискурсе предлагается вернуться к первоначальному пониманию термина "эмпирический ресурс" и уточнить его компоненты. В данной работе под "ресурсом" понимается источник данных или материалов. В контексте нейродидактики, изучающей обучение студентов, "эмпирическим ресурсом" является человеческий мозг и обрабатываемая им информация.

ВЫВОДЫ

Современные неинвазивные методы исследования мозга, такие как МРТ, ПЭТ, КТ и ЭЭГ, используются в нейродидактике. Они предоставляют данные для анализа педагогического процесса через неврологические изменения в мозге.

Основные положения нейро-дидактики студентов.

- В зрелом возрасте человеческий мозг функционирует в режиме многозадачности, аналогично работе параллельного процессора, что позволяет ему одновременно осуществлять несколько функций. Для достижения максимальной эффективности в процессе образовательного взаимодействия, педагогам рекомендуется использовать разнообразные методики обучения, способствующие активному включению обучающихся в учебный процесс, отличающийся многообразием форм и содержания. Однако следует учитывать, что как чрезмерная, так и недостаточная нагрузка на мозг могут оказать негативное воздействие на его функциональное состояние и, соответственно, на эффективность учебной деятельности.

- Центральная нервная система обладает способностью одновременно осуществлять декомпозицию и интеграцию поступающей информации, а также проводить операции с отдельными элементами и их совокупностями. В контексте образовательного процесса, анализ и синтез, представляющие собой ключевые взаимосвязанные когнитивные операции, требуют непрерывного стимулирования через применение соответствующих педагогических приемов и методик. В процессе дидактической трансляции учебного материала необходимо интегрировать методики аналитического и синтетического характера, а также индуктивного и дедуктивного вывода, включая уточнение понятий и их обобщение.

- Центральная нервная система человека представляет собой врожденный инструмент эволюционного прогресса. Тем не менее, процессы обучения и когнитивной активности характеризуются высокой энергозависимостью, что обусловлено значительными физиологическими затратами. В связи с этим, для оптимизации данных процессов у взрослых индивидов необходимо строгое соблюдение санитарно-гигиенических стандартов и обеспечение сбалансированного питания.

- Центральная нервная система взаимодействует с окружающей средой, используя знания и опыт. В процессе обучения активация соответствующих когнитивных структур облегчает усвоение и интеграцию новой информации, что приводит к осознанному пониманию материала. Согласно теории Л.С. Выготского, концепция зоны ближайшего развития описывает это взаимодействие как синергию текущих и потенциальных способностей учащегося, которые могут быть развиты с поддержкой наставника.

Предыдущий опыт делает взрослых обучающихся более способными к обучению по сравнению с детьми, поскольку их когнитивная система более зрела и способна обрабатывать сложную информацию.

- В образовательном процессе сливаются сознательные и подсознательные когнитивные процессы. Обучение предоставляет информацию, выходящую за рамки осознанного восприятия. Влияние на учащегося исходит не только от слов преподавателя, но и от разнообразных образовательных факторов. К ним относятся внутренние психологические состояния, например, эмоциональное состояние, и предыдущий образовательный опыт, влияющий на мотивацию и индивидуальное восприятие. Кроме того, внешние условия, включая акустику, освещение и атмосферу учебного пространства, существенно влияют на обучение.

- В контексте когнитивной активности студентов, преодоление образовательных препятствий способствует достижению ими значительных успехов в освоении учебного материала. Отсутствие системности и организованности в функционировании мозга может негативно сказаться на эффективности учебного процесса.

- Центральная нервная система обладает способностью к одновременной обработке информации, применяя как периферическое восприятие, так и концентрацию внимания.

Исходя из этого, можно предположить, что образовательные процессы могут быть оптимизированы за счет использования целенаправленного периферического восприятия, которое выступает в качестве конструктивного элемента в процессе обучения студентов.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. История педагогики: учебник для аспирантов и соискателей ученой степени канд. наук. – М.: Гардарики, 2007. – С. 187.
2. Педагогический энциклопедический словарь / Под ред. Б.М. Бим-Бада. – М.: Большая российская энциклопедия, 2002. – С. 142.
3. Зеленецкий Я. Организация трудовых коллективов // Введение в теорию организации и управления. – М.: Прогресс, 1971. – 244 с.; Ильенков Э.В. Школа должна учить мыслить // Народное образование, 1964. № 1. – С. 45-53.
4. Морозов А.В. Деловая психология: курс лекций. – СПб.: Изд-во «Союз», 2000. – С. 55.
5. Коржуев А.В., Попков В.А. Современная теория обучения: общенаучная интерпретация: учебное пособие для вузов. – М.: Академический проект, 2006. – С. 8.
6. Орлов В.И. Методические основы обучения. – М.: Академия, 2001. – С. 93.
7. Коржуев А.В., Попков В.А. Современная теория обучения: общенаучная интерпретация: учебное пособие для вузов. – М.: Академический проект, 2006. – С. 77.
8. Педагогический энциклопедический словарь / Под ред. Б.М. Бим-Бада. – М.: Большая российская энциклопедия, 2002. – С. 142.
9. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Словарь по педагогике. – М.: ИКЦ «МарТ», Ростов н/Д: Изд. центр «МарТ», 2005. – С. 180-181.
10. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. – М.: Просвещение, 1982. – С. 14.
11. Вербицкая Н.О. Теория и технология образования взрослых на основе витагенного (жизненного опыта): дисс. .док. пед. наук. – Екатеринбург, 2002. – 9 с.
12. Философский словарь / Под ред. М.М. Розенталя и П.Ф. Юдина. – М.: Изд-во политической литературы, 1963. – С. 488.

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna-Urganch davlat universiteti, San'at kafedrası katta o'qituvchisi;
ibadullayevanigora@gmail.com)**Ibadullayev Saburjan Egamberganovich-**Urganch davlat universiteti,
San'at kafedrası o'qituvchisi;
saburzani@gmail.com**Safasheva Surayyo Sadikovna-**Urganch davlat universiteti, San'at kafedrası o'qituvchisi;
surayyo1977@gmail.com**OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA STEAM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
BADIY TA'LIMGA INTEGRATSION YONDASHUV**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida STEAM texnologiyalari asosida badiiy ta'limga integratsion yondashuv va STEAM ta'limini amaliyotga tadbiq qilish masalalari haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, tasviriy san'atni o'qitishda STEAM texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyasi, badiiy – ijodiy kompetensiya, fanlararo integrativ yondashuv, tasviriy san'at, kreativ fikrlash, individual rivojlanish.

Ибадуллаева Нигора ЭгамбергановнаУргенский государственный университет,
старший преподаватель кафедры Искусств;**Ибадуллаев Сабуржан Эгамберганович-**Ургенский государственный университет,
преподаватель кафедры Искусств;**Сафашева Сурайё Садиковна-**Ургенский государственный университет,
преподаватель кафедры Искусств;**ИНТЕГРАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ОБРАЗОВАНИЮ
НА ОСНОВЕ STEAM –ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕДИИХ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются вопросы комплексного подхода к художественному образованию на основе STEAM-технологий и реализации STEAM-образования в высших учебных заведениях. В статье даны рекомендации по использованию технологий STEAM в преподавании изобразительного искусства.

Ключевые слова: технология STEAM, художественно-творческая компетентность, междисциплинарный интегративный подход, изобразительное искусство, творческое мышление, индивидуальное развитие.

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna
Urgench State University, Senior teacher of the Art Department;
Ibadullayev Saburjan Egamberganovich
Urgench State University, teacher of the Art Department;
Safasheva Surayyo Sadikovna
Urgench State University, teacher of the Art Department;

INTEGRATIVE APPROACH TO ART EDUCATION BASED ON STEAM TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

ABSTRACT

This article discusses the issues of an integrated approach to art education based on STEAM technology and the implementation of STEAM education in higher educational institutions. The article provides recommendations for using STEAM technologies in teaching visual arts.

Key words: STEAM technology, creative competence, multidisciplinary integrative approach, fine arts, creative thinking, individual development.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Tasviriy san'at o'qituvchilarining maxsus kasbiy tayyorgarligi nafaqat pedagogik mahoratni o'rgatishdan, balki eng avvalo, mustaqil ijodiy ishlay oladigan professional rassomlarni tarbiyalashdan iboratdir. Realistik rangtasvir nazariyasi va amaliyotini malakali bilish rassom-pedagog faoliyatidagi muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi. O'z navbatida, badiiy ta'limda o'qitishning dastlabki kunlaridanoq talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik sharoit yaratmasdan turib, rassomlik mahoratini shakllantirish mumkin emas. Oliy ta'lim muassasalarida STEAM texnologiyalari asosida badiiy ta'limga integratsion yondashuv qalamtasvir, rangtasvir va boshqa amaliy fanlarni o'rganishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotimizni asoslashda bir qancha ilmiy farazlarga e'tibor qaratdik. Biz tadqiqotimizni yoritishda O'zbekistonlik olimlardan B.B.Baymetov, N.X.Tolipov, S. Abdirasilov, Z.T.Radjapovalarning va Rossiyalik olimlardan S.M. Konyushenko, T.I.Anisimova, F.M.Sabirova, O.V. Shatunovalarning Oliy ta'lim muassasalarida STEAM texnologiyalari asosida badiiy ta'limga integratsion yondashuv, bo'lajak rassom-pedagog shaxsining ijodiy salohiyatini shakllantirishning samarali yo'llari va talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga doir fikr-mulohazalariga tayandik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalqaro tajribalar asosida STEAMni joriy etilishi bugungi kunda ta'lim tizimiga yondashuvni o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi. Talabalar amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali iroda, ijodkorlik, moslashuvchanlikni rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Bugungi barcha sohalaridagi rivojlanish davrida mutaxassislarini tayyorlashga yangicha qarash aniq texnologik, muhandislik ilmi, san'at va matematikasiz amalga oshirib bo'lmaydi.

STEAM ta'limini amaliyotga tadbiiq qilish quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- Fanlararo integrativ yondashuv;
- Ilmiy-texnik bilimlardan real hayotda foydalanish;
- Tanqidiy fikrlash;
- O'z kuchiga ishonchni tarbiyalash;
- Faol kommunikatsiya va jamoaviy ish;
- Texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish;

- Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv;
- Texnik ijodkorlikka motivatsiyani rivojlantirish;
- Kasbga erta yo'naltirish;
- Ta'lim oluvchilarni texnologik innovatsiyalarga tayyorlash.

Ushbu yondashuv orqali talabalar real hayotiy muammolarni hal qilish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirib, kelajakdagi professional faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlari mumkin.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyani ta'minlaydi va talabalarni ijodkorlikka, muammolarni hal qilish qobiliyatiga, hamkorlikka va innovatsiyalarga undaydi. Tasviriy san'atni STEAM yondashuvi orqali o'qitish ushbu fanlarni bir-biri bilan bog'lab, o'quv jarayonini qiziqarli va maqsadli qilish imkonini beradi. [1]

Tasviriy san'at o'quv fanlarini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida biz shunday xulosaga keldikki, bu fan bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan bevosita chambarchas bogliqdir. Bu bog'liqlikni STEAM yo'nalishlari bo'yicha ko'rib chiqsak.


Science. (Tabiiy fanlar) Fizika-buyumlarda yorug' va soylarning taqsimlanishi borasidagi fan. Optika va tasvirni, ya'ni nur va soyani o'rganib, perspektiv chizish texnikalarini o'zlashtirish. Plastik anatomiya-inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan. Talabalar simmetriya va Assimmetriya (masalan, inson simmetriyasi, buyumlar simmetriyasi) asosida rasm chizadilar. Psixologiya fani tasvir

1-rasm.

chizuvchini idrok bilan bog'liq holatini o'rganadi.

Technology. (Texnologiyadan foydalanish). Raqamli san'at: 3D model yaratish yoki raqamli rasm chizish uchun maxsus dasturlardan foydalanish (masalan, Adobe Photoshop, Procreate). AR/VR texnologiyalari: Virtual galereyalar yaratish yoki virtual dunyoda rasm chizish.

Texnologiya nafaqat elektron mahsulotlar yoki raqamli uskunalar, masalan, kameralar, kompyuterlar yoki fabrikalardagi murakkab mashinalar. Balki, qalamlar, pastellar, sangina, sous va safitlar, molbertlar, etyudniklar va hokazolar qalamtasvirda kerakli narsalardir.



Engineering. (Muhandislik yondashuvi). Perspektiva-buyumning yoki insonning fazoviy holatini tekislikda tog'ri tasvirlash. Perspektiva orqali tayanch nuqta va nisbatlarni to'g'ri topish mumkin.

Art. (San'at). Tasviriy san'at – bu insonning badiiy fikrlashi va estetik his-tuyg'ularini ifodalash vositasida dunyoni vizual tarzda aks ettirish san'atidir. Bu turdagi san'at asosan ko'z bilan idrok qilinadigan shakl va tasvirlarga asoslanadi. Tasviriy san'at inson hayoti, tabiat va atrof-muhitning turli jihatlarini ijodiy tasvirlash orqali ularga ma'no va mazmun beradi.

Mathematics. (Matematika va san'at). Geometriya: Geometrik shakllar asosida rasm chizish, inson tanasining geometriyasi. O'lchov va nisbat: Perspektiva va anatomik tasvirlarni chizishda matematik nisbatlarni qo'llash.

STEAM ta'lim yondashuvi asosida Gipsli geometrik shakllar va jismlardan tashkil topgan natyurmortni ishlash jarayonini tahlili qilamiz:

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim uslubi talabalarning turli sohalarni birlashtirib, muammolarni hal qilish, ijodkorlikni rivojlantirish va amaliy bilimlarni egallash maqsadida ishlab chiqilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuv natyurmortni yaratishda ham keng qo'llanilishi mumkin. Geometrik shakllar va jismlardan tashkil topgan natyurmortni ishlashni bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz:

1. Ilmiy (Science)–Geometriya asoslari. Geometrik shakllar va jismlarni chizishni boshlashdan oldin albatta nazariy va amaliy bilimlar zarur bo'ladi. Nazariy bilimlar. Masalan, shakllar (kvadrat, doira, uchburchak) va jismlar (kub, silindr, piramida, shar) xususiyatlarini tahlil

qilishimiz lozim. Shu bilan birga har bir geometrik shakl va jismlarning hajm va yuzasi qanday hisoblanishi o'rganiladi. Fizik jihatlarini o'rganib chiqish ham juda muhim. Bunda jismlarga tushib turgan yorug'lik va soyalarni tabiati o'rganiladi.

2. Texnologiya (Technology)–Raqamli vositalar yordamida tasvir ishlash ham talabalarni kompetentligini rivojlantiradi. Kompyuter grafikasi dasturlari (masalan, AutoCAD, Blender, yoki boshqa dizayn vositalari) yordamida natyurmortning raqamli modelini yaratish mumkin. Bu asosan natyurmortni joylashtirish va kompanovka qilishda qo'l keladi. Oldindan texnologiya yordamida eskiz yaratish natyurmortning aniq va chiroyli chiqishiga yordam beradi. Qalamlar, pastellar, sangina, souslar bilan ishlash texnologiyasi ham juda muhim. Safitlar, molbertlar, etyudniklar va hokazolar bilan ishlash.


2-rasm

3. Muhandislik (Engineering)–Kompozitsiyani tuzishda qo'l keladi. Natyurmortda jismlarni to'g'ri joylashtirish juda muhim. Bunda Geometrik jismlarni bir-biri bilan muvofiqlashtirib, ularning nisbatlarini va kompozitsiya markazini topish lozim bo'ladi. Jismlar qanday holatda bir-biriga bog'liq yoki uyg'un turishini tahlil qilish. Bu, ayniqsa, real obyektlar bilan ishlashda juda muhim.

4. San'at (Arts) – Ton va tus berish texnikasi. Natyurmortni ishlash jarayonini qamrab oladi. Har bir geometrik shaklni aniq konturlar bilan chiziqli –konstruktiv qurish va tasvirlash. Jismlarning hajmini ko'rsatish uchun yorug'lik manbai va soyalarni to'g'ri joylashtirish. Ton va tus berish rasm ishlashda eng asosiylaridan biri. Natyurmortni tonli ishlash yordamida predmetlarga hajm beriladi. Natyurmortni ton va tusini uyg'unlashtirish ishni juda jozibador qiladi. Shuningdek fakturani ishlash ham katta mahorat talab qiladi. Tasviriy san'atda predmetlarni fakturasini to'g'ri tasvirlash katta ahamiyatga ega. Masalan, Gips, shisha, yog'och, metall yoki boshqa materiallarning fakturalarini ko'rsatish orqali tasvirlanayotgan buyumlarni juda realistik tasvirlash mumkin.[3]

5. Matematika (Mathematics)–Nisbatlar va proporsiyalarni aniqlash. Bunda gips geometrik shakllar va jismlarni o'lchamlarini to'g'ri nisbatda topish va ishlash juda muhim hisoblanadi. Kompozitsiyaning simmetrik yoki asimmetrik tarzda tuzilishini ham bunga misol qila olamiz. Bu asosan san'atning ifodaviy vositalariga bog'liq bo'ladi. Tasvir ishlashda nisbatlar va kesmalarni aniqlashni ham muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.


STEAM yondashuvi asosida o'quv qoyilmasini ishlash yoki ijodiy kompozitsiyalar tuzish talabalarning texnik va badiiy mahoratini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, kreativ yondashuvlarini shakllantirishga va talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga



xizmat qiladi. Talabalar geometriya, yorug'lik, rang uyg'unligi va materiallarning fakturasi bilan ishlashni o'rganadi.

3-rasm.

STEAM yondashuvi bir nechta fanlarni birlashtirib, ularning o'zaro aloqasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash



imkoniyatiga ega bo'lishadi. STEAM dasturi badiiy ta'limga yanada ko'proq ijodkorlik g'oyasini kiritadi. Bugungi dunyoda kreativ fikrlash qobiliyati ayniqsa qimmatli hisoblanadi. Innovatsiyalar doimiy o'zgarishlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar va g'oyalarning yaratilishiga olib keladi.

XULOSALAR

STEAM ta'limi talabalarning individual rivojlanishiga ham, inson kapitali sifatini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, STEAM ta'limini erta joriy etish talabalarni nostandart va kreativ fikrlashga undaydi. Bu talabalarning o'zlari muammolarga ijodiy yechim izlashni o'rganishlariga hissa qo'shadi. Keyinchalik, ushbu ijodiy va innovatsion ko'nikmalar ish jarayonida muvaffaqiyat qozonishga turtki bo'ladi.

STEAM yondashuvi birinchi navbatda o'qituvchi tomonidan berilgan materialni eslab qolishga emas, balki o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. U quyidagilarga asoslanadi: yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, o'z-o'zini tayyorlash ko'nikmalari, jamoada ishlash, xatolarni doimiy ravishda tuzatish va o'quv muammolarini hal qilish. STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Ya'ni, o'rganish davomida biz nafaqat miyamiz, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. STEAM yondashuvining afzalligi shundaki, bu yerda talabalar turli fanlarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyasi, ham qo'llaridan foydalanadi. Ular olgan bilimlarni o'zlari tajribada sinab ko'ra oladilar. STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish usuli, balki fikrlash usuli hamdir.

Iqtiboslar / References / Сноски

[1]. Анисимова Т.И., Сабинова Ф.М., Шатунова О.В. Подготовка педагогов для STEAM-образования // Высшее образование сегодня. 2019. № 6. С. 31–35. <https://doi.org/10.25586/RNU.HET.19.06.P.31>

[2]. Сабинова Ф.М., Шатунова О.В. STEAM-образование как средство формирования цифровых компетенций будущих педагогов // Перспективы и приоритеты педагогического образования в эпоху трансформаций, выбора и вызовов. Казань, 2020. С. 301–304.

[3]. Ибадуллаева, Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. Общество и инновации. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp55-62>.

[4]. Ibadullayeva N.E. Tasviriy san'at ta'limida talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish. International scientific and practical conference on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". Vol.1 No. 01.20 november 2023. Qarshi-2023. (2023): <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/206>

[5]. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558. VOLUME 2, issue 6. collection b june 2023. 42-46 betlar. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50>

Xakimov Zoxid Abdullayevich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

“Axborot texnologiyalari” kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: z64211566@gmail.com

NEYRODIDAKTIK O'QITISH TEXNOLOGIYASI KOMPONENTLARI<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTASIYA**

maqolada neyrodidaktik talablarga javob beradigan o'quv jarayonini ishlab chiqish loyihasida talabalarning oliy asab funksiyalarining kognitiv xususiyatlari bilan ta'lim mazmuni, dasturining uyg'unligi ko'rib chiqiladi. Mazkur jarayonni amalga oshirishning asosi sifatida o'qitish mazmunini ishlab chiqish, oliy kognitiv funksiyalarni faollashtirishga olib keladigan subyektiv tajriba - ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalar komponentlarini hisobga olish nuqtai nazaridan talabalarning o'quv bilimlarini olishlari haqidagi kognitiv qoidalar qabul qilingan

Kalit so'zlar: komponentlar, texnologiya, kognitivlik, motivasiya, o'qitish, kompetensiya.

Хакимов Зоҳид Абдуллаевич

Ургенчский филиал Ташкентского университета информационных технологий,
старший преподаватель кафедры "Информационные технологии"

КОМПОНЕНТЫ НЕЙРОДИДАКТИЧЕСКОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ ТЕХНОЛОГИИ.**АННОТАЦИЯ**

в статье рассматривается совместимость содержания и программы обучения с когнитивными особенностями высших нервных функций студентов в проекте разработки образовательного процесса, отвечающего нейродидактическим требованиям. В основу реализации этого процесса положены когнитивные правила о приобретении обучающимися учебных знаний с точки зрения учета компонентов субъективного опыта - социальных и профессиональных компетенций, которые приводят к активации высших познавательных функций.

Ключевые слова: компоненты, технология, познание, мотивация, обучение, компетентность.

Khakimov Zokhid Abdullaevich

Urgench branch of Tashkent University of Information Technologies

Senior Lecturer at the Department of Information Technologies

COMPONENTS OF NEURODIDACTIC EDUCATIONAL TECHNOLOGY

ABSTRACT

the article examines the compatibility of the content and program of training with the cognitive characteristics of students' higher nervous functions in the project of developing an educational process that meets neurodidactic requirements. The implementation of this process is based on cognitive rules for the acquisition of educational knowledge by students from the point of view of taking into account the components of subjective experience - social and professional competencies that lead to the activation of higher cognitive functions.

Key words: components, technology, cognition, motivation, training, competence.

KIRISH

Talabalarni o'qitish ehtiyoji, undash (anglanmagan - anglangan), kechinmalar, maqsad qo'yish, motivlar bilan boshlanadi. Ular inson ongida subyektiv tajriba bilan mustahkamlangan g'oyani shakllantiradi. So'ngra pedagog (tyutor, o'quv guruhi rahbari) ning bevosita ishtirokida o'qitish mazmuni shakllantiriladi. Pedagogik ensiklopedik lug'at tuzuvchilariga ergashib, biz "bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va dunyoga hissiy-qadriyatli munosabatning pedagogik moslashgan tizimini" tushunamiz [1, 266-b].

Shakllantirilgan mazmun asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Uning tarkibiy qismi tashkiliy-metodik qoidalar (maqsad va vazifalarni o'z ichiga olgan holda), didaktik birliklar, material (axborot) tegishli bo'lgan fan, o'quv-metodik ta'minot (mavzu rejas, mustaqil ish uchun savollar ro'yxati, referat mavzusi, taqdimot mavzusi, tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, axborot-texnik ta'minot, asosiy tushunchalar va shakllantiriladigan kompetensiyalar (bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, tayyorgarlik) hisoblanadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Talabalarning oliy nerv funksiyalari (xotira, diqqat, tushunish, tafakkur, intellekt, aql xususiyatlari va boshqalar) ning kognitiv xususiyatlari bilan ta'lim mazmuni, dasturining uyg'unligi neurodidaktik talablarga javob beradigan o'quv jarayonini ishlab chiqish imkonini beradi. Uni amalga oshirish asosida talabalarning ta'limiy bilimlarni olishlari haqidagi kognitiv qoidalar yotadi. Neurodidaktika va kognitivizmning uyg'unligi haqida shuni ta'kidlash kerakki, "miya va psixika" muammosini o'rganishda L.S.Vigotskiy va A.R.Luriya oliy kognitiv funksiyalarni inson uchun o'ziga xos bo'lgan psixikaning birliklari sifatida ko'rib chiqdilar, ularni miya bilan taqqosladilar [2, 85-b].

O'qitishning texnologik usullari ta'lim oluvchining fikrlash faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. O'quv jarayoni shakllangan kompetensiyalarni (oraliq va yakuniy) nazorat qilish bilan yakunlanadi.

Ta'limning sifatini ta'minlovchi undovchi harakatning boshlang'ich mexanizmi ehtiyojdir. G.B.Xasanovning talqiniga ko'ra, ehtiyoj "insonning yashash uchun zarur bo'lgan va uning faolligi manbai bo'lgan ob'ektlarga bo'lgan ehtiyoji bilan yaratilgan holati"dir [3, 153-b].

Inson ehtiyojlarining turli xil tasniflari mavjud. Kattalarga nisbatan ular utilitar yoki moddiy (turar joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat, kundalik ehtiyojlar) va ma'naviy (san'at, fan, muloqotga bo'lgan ehtiyojlar) bo'lishi mumkin. Ushbu ehtiyojlar ro'yxatiga A.Maslou xavfsizlik, sevgi va umumiy e'tirof, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini faollashtirish ehtiyojlarini qo'shadi [4, 56-b]. J. Gilford katta yoshli odamning ehtiyojlarini bir oz boshqacha ifodalaydi: organik (ovqat, muhabbat, umumiy faollikda), muhit sharoitlari bilan belgilanadigan (qulaylikda, yoqimli muhitda), ish bilan bog'liq (ulug'vorlik, qat'iyat), individning holati bilan bog'liq (erkinlikda), ijtimoiy (boshqa odamlarda) [12, 56-b].

V. V. Serikov ushbu ro'yxatni kengaytiradi va "yuqori" ehtiyojlarni sanab o'tadi: tashqi ta'sirlar va ichki xulq-atvor impulslari, nizolar (atrofdagi dunyoning yashirin qarama-qarshiliklarini farqlash), jamiyatda targ'ib qilinadigan xulq-atvor qadriyatlari, ma'no yaratish (hayotdagi ma'noni shakllantirish - hayotning mohiyati uchun eng muhim narsa), yo'nalish (insonning dunyoqarashini qurish-shaxsiy dunyoqarash), ichki dunyoning barqarorligi va avtonomiyasi, ijodiy xarakter faoliyati, o'z-o'zini anglash, shaxsiy istaklarga ko'ra hayot ma'naviyatini ta'minlash [6, 16-20-b]. Oxirgilar ta'lim oluvchilarning xronobiologik (yosh) xususiyatlari, ularning qadriyatli

ustuvorliklari, kasbiy o'zini namoyon qilishi bilan belgilanadi.

Talabalarning amaliy ehtiyoji subyektiv faollikni faollashtiruvchi, dastlab ixtiyoriy izlanishli xulq-atvorni ishga tushiruvchi omil rolini bajaradi. U ehtiyojlarni qondiradigan narsalarni izlash va topishga qaratilgan.

Keyingi "qadam" yo'naltirilmagan xatti-harakatni yo'naltirilgan, anglangan xatti-harakatga o'tkazishdir. Talabaning axborotni, bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi uning subyektiv tajribasiga bog'liq. Tuzilmaviy yaxlitlik sifatida tajriba shaxsning sifatlari, uning kompetensiyalari yig'indisidir. Shaxsning subyektiv tajribasi hayotiy, ta'limiy, kasbiy tajribadan tarkib topadi. Tajribaning bu barcha turlari rag'batlantiruvchi, operasion (instrumental), baholovchi funksiyalarni bajaradi.

E.F. Zeer fikriga ko'ra, asosiy funksiya operasion funksiya hisoblanadi. U shaxsni o'zlashtiriladigan faoliyatning faol subyektiga aylantirishga qaratilgan bo'lib, u ham alohida kompetensiyalardan foydalanadi, ularni birlashtiradi, ham boyitadi [7, 73-b]. Ta'lim oluvchilarning subyektiv tajribasi rag'batlantiruvchi-o'rgatuvchi funksiyani bajaruvchi emotsional bo'yalgan ijtimoiy, o'quv-kasbiy va shaxsiy vaziyatlar yig'indisidir. Bunday vaziyatlarga alohida harakatlar, ob'ektlar, hodisalar, hayot faoliyatining tashqi sharoitlari, jismoniy muhit, ijtimoiy muhit va boshqalar kiradi. [8, 7-b].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ongli rag'batlantirish va yo'naltirilgan xulq-atvor jarayonida subyektiv tajriba izlanayotgan predmetga erishish uchun harakatlar algoritmini shakllantiradi. Subyektiv tajribaning tarkibiy qismlari - ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni hisobga olish ta'lim mazmunini ishlab chiqishga, yuqori kognitiv funksiyalarni faollashtirishga olib keladi.

Anglangan maqsadlar yo'naltirilgan harakatlar jarayonini tuzadi va unda taxminiy va ijro qismlarini ajratadi. Katta yoshdagi ta'lim oluvchining har qanday joriy maqsadga yo'naltirilgan harakatiga nisbatan motivlar ierarxik munosabatlar va bir-biri bilan bog'liqlikda quriladi (masalan, jamiyatda yuqori maqomga erishish ta'lim, kasbiy mahorat, moliyaviy mustaqillik, shaxsiy amalga oshirish, jamoaning e'tirof etishi va boshqalarni keltirib chiqaradi).

O'quv faoliyatining muvaffaqiyatiga motivatsiya kuchi va uning tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi. Motiv miqdoriy (kuchli-kuchsiz) va sifat jihatdan tavsiflanishi mumkin. Shu munosabat bilan ichki va tashqi motivlar farqlanadi. Shaxs uchun ta'lim o'z-o'zidan ahamiyatli bo'lsa, bu ichki motivatsiya haqida gapiriladi. Boshqa ehtiyojlar (ish haqi, ijtimoiy mavqe va boshqalar) ahamiyatli bo'lsa, tashqi motivlar haqida gapiriladi. Bunday motivlar ijobiy (yutuq, muvaffaqiyat motivlari) va salbiy (himoya, qochish motivlari) bo'lishi mumkin. Yuqori ijobiy motivatsiya ta'lim oluvchida yetarli darajada yuqori qobiliyatlar yoki kompetensiyalar mavjud bo'lmaganda kompensator omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Talabalarning qiziqishlari va moyilligini aniqlash muvaffaqiyatli ta'lim olishning muhim prognostik omili hisoblanadi.

Predmetlar, harakatlar, voqea-hodisalarning motivatsion ma'nosi (shaxsiy ma'no) har doim ham inson tomonidan aniq anglanmaydi, ammo barcha vaziyatlarda ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ular shaklida his qilinadi va namoyon bo'ladi. Talabaning muayyan ta'limiy harakatlarni o'zlashtirish jarayonida bu harakatlarning o'zi, ularning natijalari va maqsadlari uning uchun mustaqil shaxsiy ma'no kasb etadi. Bunday maqsad va harakatlar mustaqil ta'lim motiviga aylanadi. Zamonaviy jamiyatda ta'limning ko'plab motivlari insonning shaxsiy asosini tashkil etuvchi ierarxik tizimga tartiblangan. Unga katta yoshdagi subyektning xatti-harakati va faoliyati bo'ysunadi.

Fuqarolarning kattalar toifasi vakillarini ta'lim faoliyatiga jalb etishga undovchi motivlar bir nechta guruhlariga birlashtirilishi mumkin. S.G.Vershlovskiy aytib o'tilgan motivlarning oltita guruhini ajratib ko'rsatadi [9, 41-47-b] va ta'kidlaydiki, katta yoshdagi odam uchun o'qish faqat uning o'quv faoliyatida motivlarning barcha guruhlari mavjud bo'lgan taqdirdagina qiymatga aylanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, asosan yetuk inson o'z ta'limidagi kamchiliklarni yoki kasbni noto'g'ri tanlaganini anglaydi.

Umuman olganda, I.A.Kolesnikova talabalarni o'qitish mazmuniga zamonaviy jamiyatning bilimlar resursiga mos keladigan dunyo manzarasini shakllantirishni; doimiy o'zgaruvchan

jamiyatning dinamik sharoitida axborotlar bilan ishlash qobiliyati, ko'nikmasi va tayyorligini; turli xil kommunikasiya tizimlarida ("inson - inson", "inson - kompyuter", "inson - kompyuter - inson") muloqot madaniyatini; atrof-muhitni ijodiy o'zgartirish usuli sifatida loyihalashni o'zlashtirishni; ijtimoiy va iqtisodiy voqelikni bilishni; sog'ligini mustahkamlashni; o'z salohiyati va ma'naviyatini rivojlantirishni kiritadi. [10, 144-b].

Talabalarni o'qitishda dialektik materializm va neyropsixologik yondashuv qoidalariga amal qilgan holda, neyrodidaktik o'quv jarayoni kognitiv yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday ta'lim ko'p jihatdan idrok, sezgi, diqqat, xotira, hayol, tafakkur, nutq kabi bilish jarayonlariga asoslanadi va o'z navbatida ularni rivojlantiradi. Talabalarni o'qitishning ustunligi shaxsning rivojlanishi, uning bilish qobiliyatlari: o'rganish qobiliyati, ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega sifatlar, barqaror o'quv motivatsiyasini ta'minlashdir.

Talabalarni o'qitish uchun tafakkurning kengligi, chuqurligi, mustaqilligi, moslashuvchanligi, tezligi, tanqidiyligi dolzarbdir. Uning kengligi butun muammoni, shu jumladan, ayrim masalalarni ham qamrab olish imkonini beradi. Tafakkurning mustaqilligi insonning yangi vazifalarni aniqlash va o'z oldiga qo'yish, ularni boshqalarning yordamisiz hal qilishning maqbul yo'llarini topish qobiliyati bilan ifodalanadi. Fikrlashning moslashuvchanligi munozarali masalalarni hal qilishning ramkalar va an'anaviy usullarini e'tiborsiz qoldirish, o'zgaruvchan muhitga moslashish imkoniyatlaridan iborat. Tafakkur tezligi - bu insonning vaziyatga imkon qadar tez munosabatda bo'lish, unda talab qilinadigan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Tafakkurning tanqidiyligi - bu insonning o'z va boshqalarning xatti-harakatlari va ko'rinishlarini adekvat baholashga, ilgari surilayotgan qoidalar va xulosalarni ob'ektiv ravishda xulosalashga tayyorligidir.

Tafakkurni tahlil qilish pedagogni muqarrar ravishda intellekt yoki katta yoshdagi subyektni o'qitish qobiliyati haqidagi savolga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, L.L.Tyorstoun inson intellektini belgilovchi birlamchi aqliy salohiyatning 7 ta kategoriyasini ajratib ko'rsatgan. [11, 304-305-b].

Keyinchalik I.P.Gilford intellektning 120 ta omilini ularning mazmuni (ramziy, obrazli, semantik, xulq-atvor), munosabati (qaysi aqliy operatsiyalarga xizmat qiladi), faoliyat natijalarini hisobga olgan holda nomladi [12, 75-b].

XULOSA

Ta'lim jarayonida idrokning qiziquvchanlik va sinchkovlik, teranlik, moslashuvchanlik, tanqidiylilik, mantiqiylik, tezkorlik kabi xususiyatlari eng katta qimmatga ega. Ta'lim oluvchilarning bilish jarayonini fikrlashning qolipliligi, obro'li shaxslarni tanqidiy qabul qilmaslik, keng tarqalgan ijtimoiy stereotiplar, ta'qiqlar, eskirgan urf-odatlar va an'analar bilan bog'liq omillar tormozlaydi.

Tafakkur va intellekt bilan bog'liq bo'lgan miya jarayonlarining faollik darajasi pedagogik kuzatuv, IQ ni aniqlash uchun testlar, ta'lim oluvchilar bilan shaxsiy suhbat, ularning o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish va boshqalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Talabalarni o'qitish mazmunini shakllantirish haqidagi mulohazalarimizni sarhisob qilamiz ("nimaga o'qitish kerak?" savoliga javob). U ta'lim oluvchining g'oyasi bilan boshlanadi, u ehtiyojni (asosan utilitar, dastlab anglanmagan, keyinchalik anglangan), undash, kechinmalar, maqsadni belgilash, subyektiv tajriba, motivlarni o'z ichiga oladi.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar / Pod red. B.M. Bim- Bada. – M.: Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2002. – S. 266.
2. Выготский Л.С. Психология и учение о локализации психических функций // Собр. соч. в 6 т., Т. 1. – М.: Педагогика, 1982. – С. 85. Лурья А.Р. Основы неуропсихологии. – М.: МГУ, 1973.
3. Хасанова Г.Б. Антропология. – М.: Knorus, 2009. – S. 153.
4. Maslow A. The father reaches of human nature. – N.Y., 1971. – P. 56.
5. Guilford G. Personality. – N.Y., 1959. – P. 71.

6. Serikov V.V. Lichnostno orientirovannoe obrazovanie // Pedagogika, 1994. № 5. – S.16 -20.
7. Zeer E.F. Psixologiya lichnostno orientirovannogo professionalnogo obrazovaniya. – Ekaterinburg: UGPPU, 2000. – S. 73.
8. Burlachuk L.F., Korjova E.YU. Psixologiya jiznennykh situatsiy. – M., 1998. – С. 7.
9. Vershlovskiy S.G. Problemy formirovaniya kompetentnosti преподаvateley, obuchayushchix vzroslykh. Pedagogika, 2015. № 3. – S.41 - 47.
10. Kolesnikova I.A. Pedagogicheskoe proektirovanie: ucheb. posobie dlya vyssh. ucheb. zavedeniy. – M.: Akademiya, 2007. – S. 144
11. Thurstone L.L. Vectors of Mind: Multiple-factor Analysis for the Isolation of Primary Traits. – Chicago, 1935. – P.304 - 305.
12. Guilford G. Personality. – N.Y., 1959. – P. 75.

PSIXOLOGIYA

Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna-

Ma'mun universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası dotsenti PhD.

E mail: nasibajumaniyozova80@gmail.com

KO'ZI OJIZ O'QUVCHILAR BILAN ISHLOVCHI TARBİYACHILARDA KASBIY SO'NISHNI NAMOYON BO'LISHI<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachilarda kasbiy so'nish (emotsional charchoq) jarayonlarining namoyon bo'lishi tahlil qilingan. Bunday yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislar o'ziga xos kasbiy faoliyat olib boradi, bu esa yuqori darajadagi ruhiy va jismoniy zo'riqishni keltirib chiqaradi. Maqolada kasbiy so'nishning kelib chiqish sabablari, uning ijtimoiy va psixologik oqibatları hamda ushbu muammoni kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlar muhokama qilingan. Shuningdek, stressni boshqarish, professional motivatsiyani saqlab qolish va ish muhitini yaxshilash kabi omillarning muhimligiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachilarning kasbiy hayotida uchraydigan muammolarni yaxshiroq tushunishga hamda ularning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy so'nish, ko'zi ojiz o'quvchilar, tarbiyachilar, ruhiy zo'riqish, stress boshqaruvi, psixolog, stress, kasbiy zo'riqish, psixologiya yordam, psixodiagnostika, psixokorreksiya.

Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna-

PhD., Associate professor of “Psychology” department of Mamun university.

MANIFESTATION OF PROFESSIONAL BURNOUT AMONG EDUCATORS WORKING WITH VISUALLY IMPAIRED STUDENTS**ABSTRACT**

This article analyzes the manifestation of professional burnout (emotional exhaustion) among educators working with visually impaired students. Specialists working with such youth engage in unique professional activities that often lead to high levels of psychological and physical stress. The article discusses the causes of professional burnout, its social and psychological consequences, and effective measures to mitigate this issue. Additionally, it emphasizes the importance of factors such as stress management, maintaining professional motivation, and improving the work environment. The research findings aim to enhance understanding of the challenges faced by educators working with visually impaired students and contribute to improving their work efficiency.

Key words: professional burnout, visually impaired students, educators, psychological stress, stress management, psychologist, stress, occupational strain, psychological support, psychodiagnostics, psychocorrection.

Джуманиязова Насиба Раматиллаевна
Кандидат психологических
наук, доцент кафедры “Психология”
Университета Мамуна.

ПРОЯВЛЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ У ВОСПИТАТЕЛЕЙ, РАБОТАЮЩИХ С НЕЗРЯЧИМИ УЧЕНИКАМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы процессы проявления профессионального выгорания (эмоционального истощения) у воспитателей, работающих с незрячими учениками. Специалисты, работающие с такими детьми, выполняют уникальную профессиональную деятельность, которая вызывает высокий уровень психического и физического напряжения. В статье рассматриваются причины возникновения профессионального выгорания, его социальные и психологические последствия, а также обсуждаются эффективные меры по снижению данной проблемы. Кроме того, акцентируется внимание на важности таких факторов, как управление стрессом, сохранение профессиональной мотивации и улучшение рабочего окружения. Результаты исследования направлены на лучшее понимание проблем, с которыми сталкиваются воспитатели, работающие с незрячими учениками, и на повышение их профессиональной эффективности.

Ключевые слова: профессиональное выгорание, незрячие ученики, воспитатели, психическое напряжение, управление стрессом, психолог, стресс, профессиональное напряжение, психологическая помощь, психодиагностика, психокоррекция.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Hozirgi kunda jamiyatimizda imkoniyati cheklangan shaxslarning ta'lim va tarbiya olish huquqini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachilar faoliyatida o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bu ularning kasbiy faoliyati jarayonida katta mas'uliyat va fidoyilikni talab qiladi. Ushbu soha mutaxassislari doimiy ravishda emotsional va ruhiy bosim ostida ishlaydi. Ularning mehnat faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda, shuningdek, o'z salomatligini saqlashda kasbiy so'nish (burnout) jarayonining oldini olish katta ahamiyatga ega [8].

Kasbiy so'nish – bu mutaxassisning doimiy ravishda emotsional, psixologik va jismoniy zo'riqlash holatlari natijasida mehnat faoliyatidan qoniqmaslik, ishga bo'lgan qiziqishning susayishi, ruhiy charchoq va motivlarning kamayishi bilan xarakterlanadigan jarayon. Bu ayniqsa ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachilarga tegishli bo'lib, ular nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, balki bolalarning ruhiy-psixologik rivojlanishiga yordam berishda ham beqiyos ahamiyatga ega [1].

Ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlashda tarbiyachilar nafaqat bolalarning maxsus ehtiyojlariga mos ta'lim usullarini ishlab chiqish, balki ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlashi lozim. Bu esa ulardan yuqori darajada empatiya, sabr-toqat va ijodkorlikni talab qiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarda mehnat sharoitlarining yetarlicha ta'minlanmagani, psixologik yordam ko'rsatilmasligi va ortiqcha zo'riqlash holatlari tarbiyachilarda kasbiy so'nish sindromining rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Mazkur mavzu dolzarbliki zamonaviy ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislarning sog'lom ish muhiti va ruhiy barqarorligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Tarbiyachilar faoliyatining samaradorligi va ularning psixologik salomatligini saqlash, o'z navbatida, bolalarning rivojlanishiga va ta'lim sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, tarbiyachilar orasida kasbiy

so'nishni aniqlash, uning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir [2,7].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachilarda kasbiy so'nishni o'rganish uchun turli metod va metodologik asoslardan foydalanish mumkin. Quyida ushbu mavzu bo'yicha muhim metod va metodologik yondashuvlar keltirilgan. Mavzuga taalluqli ma'lumotlarni quyidagi metodologik asoslarga tayanib o'rganish maqsadga muvofiq.

Gumanistik yondashuv: Insonning shaxsiy ehtiyojlari va uning ishga munosabatiga e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv kasbiy so'nishni kamaytirish uchun motivatsiya, qadriyatlar va shaxsiy rivojlanishning ahamiyatini aniqlaydi. Gumanistik yondashuv insonning shaxsiy o'sishi, o'zini anglash va potentsialini ro'yobga chiqarishga qaratilgan psixologik yondashuvdir. Ushbu yondashuv kasbiy so'nish (burnout) bilan bog'liq muammolarni hal qilishda va oldini olishda samarali bo'lishi mumkin. Chunki u insonning ichki ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va o'zini qadrlashi kabi jihatlariga katta e'tibor beradi. Gumanistik yondashuv shaxsning ichki ehtiyojlarini tan olish va ularni qondirishga e'tibor qaratadi. Bu kasbiy so'nish jarayonini yengillashtirishga yordam beradi, chunki inson o'zini qadrlashni va o'z resurslarini to'g'ri boshqarishni o'rganadi. Masalan, C. Rogersning nazariyasi insonni o'z shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undaydi, bu esa so'nish ehtimolini kamaytiradi [3].

Gumanistik yondashuvning asosiy prinsiplari – empatiya, hurmat va insonni shaxs sifatida qabul qilish – kasbiy so'nishdan aziyat chekayotgan odamlarga qo'llab-quvvatlash muhiti yaratadi. Bu, ayniqsa, psixoterapiyada yoki ish joyidagi menejerlik yondashuvlarida muhimdir. Shaxsiy his-tuyg'ularni ifodalash uchun qulay muhit mavjud bo'lsa, inson ichki stress va charchoqni yengishga qodir bo'ladi.

Kasbiy so'nish ko'pincha ishga bo'lgan motivatsiya yo'qolishi bilan bog'liq. Gumanistik yondashuv insonni ichki motivatsiyasini qayta tiklashga yordam beradi, ya'ni inson o'z mehnatining ma'nosini anglaydi va o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqadi. Abraham Maslovning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga ko'ra, insonning o'z-o'zini amalga oshirish ehtiyoji qondirilsa, kasbiy so'nishdan himoya qilishga imkon tug'iladi. Gumanistik psixologiya texnikalari (masalan, mindfulness, o'z-o'zini anglash) insonning stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ichki tinchlikni ta'minlaydi. Buning natijasida ishning yuqori bosimi bilan kurashish imkoniyati ortadi. Gumanistik yondashuvning ijobiy aspektlari, masalan, ijobiy fikrlash va kelajakka umid bilan qarash, kasbiy so'nishni kamaytirishda foydalidir. Bu yondashuv insonlarni o'zlarining kuchli tomonlarini rivojlantirishga undaydi [4].

Psixodinamik nazariya: Stress va ishdan qoniqmaslikning ichki emotsional sabablarini o'rganishga asoslangan. Tarbiyachilarning ruhiy va shaxsiy rivojlanishiga bog'liq jarayonlarni tushunish va ularni aniqlashda ushbu nazariyalarning ahamiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu nazariya asosan Zigmund Freyding psixoanaliz konsepsiyasiga asoslangan, ammo undan keyingi izlanuvchilar tomonidan rivojlantirilgan va takomillashtirilgan. Inson ruhiyatida turli kuchlar o'rtasida ziddiyatlar mavjud. Masalan, shaxsiy istaklar, jamiyat qoidalariga moslashish kerakligini belgilaydigan asoslar va shu ikkisi o'rtasida muvozanatni saqlovchi realistlik ong.

Biopsixosotsial yondashuv: Kasbiy so'nishga turli omillar — biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni ta'sirini o'rganishni nazarda tutadi. Biopsixosotsial yondashuv kasbiy so'nish (burnout) bilan bog'liq holatlarni tushunish va boshqarish uchun mos va samarali konsepsiya hisoblanadi. U insonning jismoniy (biologik), psixologik va ijtimoiy omillarini kompleks tarzda tahlil qilishga asoslanadi. Bu yondashuv kasbiy so'nishni ko'p qirrali muammo sifatida tushunishga yordam beradi va muammolarga yechim topishda ham samaralidir. Uzoq muddatli stress kasbiy so'nishga olib kelishi mumkin, chunki stress organizmda gormonal o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Uzoq davom etuvchi stress immunitet tizimiga ta'sir qiladi, tez charchash, uyqusizlik va boshqa salomatlik muammolariga sabab bo'ladi.


Genetik omillar, shu jumladan stressga biologik jihatdan moyillik, kasbiy so'nish xavfini oshirishi mumkin [5].

Shaxsiy xususiyatlar, masalan, perfektsionizm, yuqori mas'uliyat hissi yoki emotsiyalarni nazorat qilish qiyinligi, kasbiy so'nish xavfini oshiradi. Ishga nisbatan motivatsiyaning yo'qolishi, o'zini qadrsiz his qilish yoki ishdan qoniqmaslik hissi kasbiy so'nishga olib keladi. Uzoq muddatli psixologik bosim (bosimli ish muhiti, murosqa qilish qiyin rahbar yoki hamkasblar bilan munosabatlar) ham bu jarayonni kuchaytiradi. Ish joyidagi ijtimoiy aloqalarning yo'qligi yoki qo'llab-quvvatlash yetishmasligi. Ish joyidagi madaniy tafovutlar, tashkilotchilikning yo'qligi, ish va shaxsiy hayot muvozanatining buzilishi. Jamiyat yoki tashkilotdagi noqulay qoidalar, o'zaro munosabatlarning yomonligi va ijtimoiy izolyatsiya kasbiy so'nishni kuchaytiradi. Kasbiy so'nishga biopsixosotsial yondashuv kasbiy so'nishga qarshi kurashda turli jihatlarni hisobga olib, chuqur va individual yondashuvni ta'minlaydi.

Fenomenologik yondashuv: Tarbiyachilarning shaxsiy tajribasi va subyektiv qarashlarini o'rganishga qaratilgan. bu inson tajribalarini, hissiyotlarini va dunyoqarashlarini ularning o'z shaxsiy nuqtai nazaridan tushunishga qaratilgan falsafiy va ilmiy usuldir. Ushbu yondashuv kasbiy so'nish (burnout) fenomenini chuqurroq tushunishda va unga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynashi mumkin. Fenomenologik usul orqali kasbiy so'nish jarayonini har bir shaxsning shaxsiy tajribasi sifatida o'rganish mumkin. Bu, masalan, inson qanday hissiyotlarni boshdan kechirgani, qanday sabablar uning ruhiy va jismoniy charchoqlariga olib kelgani haqida ma'lumot beradi. Kasbiy so'nishni o'ziga xos va subyektiv jarayon sifatida o'rganish, uni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlashda yordam beradi. Fenomenologik yondashuv insonning professional faoliyatidagi stress omillarini aniqlash va ularni qanday qabul qilayotganini tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv yordamida shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari, mas'uliyat hissi, va motivatsion holatlari singari omillar o'rganiladi. Fenomenologik tadqiqot natijalariga asoslanib, kasbiy so'nishga qarshi individualizatsiyalangan psixologik yordam usullarini ishlab chiqish mumkin. Masalan, mindfulness (ongli xabardorlik) va o'z-o'zini anglash texnikalari fenomenologik yondashuvga asoslangan holda qo'llanilishi mumkin. Bu yondashuv mutaxassislarga kasbiy so'nish bilan kurashayotgan odamlarning ichki tajribasini chuqurroq tushunish va ularga mos keluvchi yechimlar taklif qilish imkonini beradi [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarda kasbiy so'nishning psixologik asoslari” deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida Xorazm viloyatida joylashgan 121-son ko'zi ojiz bolalar maxsus maktab internatidan 50 nafar respondentlar tadqiqotga jalb qilindi (1-rasm). Ulardagi kasbiy so'nish muammosini o'rganish bo'yicha olib borilgan so'rovnoma ko'ra, tarbiyachilarda so'nishning yuqori ekanligi aniqlandi.



1-rasm. Ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachilardagi kasbiy so'nish darajasi aniqlash.

Yuqoridagi diagrammaga ko'ra, emotsional charchoq shkalasi bo'yicha tarbiyachilarda zo'riqish yuqori ekanligi kuzatilgan. Depersonalizatsiya shkalasi bo'yicha ham tarbiyachilarda yuqori ko'rsatkich namoyon bo'lgan, bu esa ulardagi o'z ishiga bo'lgan ma'suliyatni yuqori darajada namoyon bo'lishi bilan ko'rinadi. Shaxsiy samaradorlikni kamayishi shkalasida ham tarbiyachilarda yuqori darajada namoyon bo'lgan. Ushbu respondentlar bilan olib borilgan so'rovnoma va metodikalar natijalariga ko'ra, kasbiy so'nish holati mavjud xodimlarni psixologik qo'llab-quvvatlash, ishga bo'lgan motivatsiyasi oshirish maqsadida korreksion tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tavsiyalar berilgan. Jumladan, kasbiy so'nish holatiga duch kelgan mutaxassislarni psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ko'rib chiqish o'rinli [7,8].

XULOSALAR

Tarbiyachilardagi kasbiy so'nishning kelib chiqish sabablarini erta aniqlash maqsadga muvofiqdir. Kasbiy so'nishga uchragan xodimlarning jismoniy salomatlikni yaxshilash choralarini ko'rish, sog'lom ovqatlanishga rioya qilishni ta'minlash, jismoniy faollikni oshirish, uyqu rejimini meyorda bo'lishiga intilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari stressni kamaytirishga yo'naltirilgan yordamni tashkil qilish, stressni boshqarish uchun psixoanalitik yondoshuvlarga tayanish, stressga chidamlilik, emosiyalarni boshqarish va vaqtini to'g'ri tashkil etish zarurari ham mavjud. Kasbiy motivatsiyani oshirish uchun ish falsafasini o'zgartirish va shaxsiy qadriyatlarga mos hayot tarzini tanlash, jamoaviy ishlarni qo'llab-quvvatlash, rahbariyatning maslahati va qo'llab-quvvatlash tadbirlarida ishtirok qilish maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar/References/ Сноски

1. Агапова М.В. Возможности социально-психологической реабилитации специалистов помогающих профессий, имеющих синдром эмоционального выгорания// Вестник интегративной психологии/ под ред. В.В. Козлова. –Ярославль, 2004. -С.19-21.
2. Бойко В.В. Правила эмоционального поведения. СПб., 1997.
3. Леонова А.Б., Кузнецова А.С. Психопрофилактика стрессов.М., 1993
4. Линдеман Х.Система психофизического саморегулирования. М., 1992
5. Самоукина Н.В. Психология оптимизма. М., 2002
6. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. Kasbiy psixologiya. Darslik. « LESSON PRESS» Toshkent, 2018. 278 bet.
7. Жуманиёзова Н.Р. Определение качества жизни специалистов работающих с учениками с органиченными возможностями здоровья // Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2024.-№ 33- С-214-220. (19.00.00. № 2)
8. Жуманиёзова Н.Р. Психологическое описание копинг-стратегии специалистами, работающие с детьми ограниченными возможностями здоровья // Вестник интегративной психологии. Ярославль, 2024.-№ 34- С-111-115. (19.00.00. № 2)

Qurbonova Shaxloxon Baxadirovna-
Ma'mun Universiteti NTM
“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası dotsenti

SIL XASTALIGI BILAN OG'RIGAN KEKSA YOSHDAGI BEMORLARGA PSIXOLOGIK YORDAM IMKONIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sil bilan davolanayotgan bemorlarni somatik va psixologik jihatdan shikastlanishini hisobga olinishi, emotsional, xulq-atvor va kognitiv sohalariga ta'sir ko'rsatish orqali ularda psixologik salomatligini tiklash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: muofiqlik darajasi, psixologik salomatlik, emotsional soha, keksalik yosh xususiyati, ko'nikma.

Курбанову Шахлохон Бахадировну-
НОУ Университета Маъмун
доцента кафедры “Психология и медицина”

ВОЗМОЖНОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ БОЛЬНЫХ ТУБЕРКУЛЕЗОМ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье с учетом соматических и психологических повреждений больных, находящихся на лечении от туберкулеза, освещены вопросы восстановления их психологического здоровья путем воздействия на их эмоциональную, поведенческую и когнитивную сферы.

Ключевые слова: уровень совместимости, психологическое здоровье, эмоциональная сфера, возрастная характеристика старости, умение.

Kurbanova Shakhloxon Bakhadirovna-
Mamun University NTM
Acting Associate Professor of the
Department of Psychology and Medicine

POSSIBILITIES OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR ELDERLY PATIENTS WITH TUBERCULOSIS

ABSTRACT

This article, taking into account somatic and psychological damage to patients undergoing treatment for tuberculosis, highlights the issues of restoring their psychological health by influencing their emotional, behavioral and cognitive spheres.

Key words. compatibility level, psychological health, emotional sphere, age characteristics of old age, skill.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Aholi salomatligiga insonni o‘rab turgan ko‘plab tashqi muhit, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sir ko‘rsatishi va uning ifodalanishi ilmiy nazariyalar va o‘tkazilgan amaliy tadqiqot natijalarda ifodalab berilgan. Kasallik inson emotsional sohasidagi o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi bilan birgalikda hissiy kechinmalarda buzilishlarni faollashtirishi mumkin, bu jarayon bemorlarda psixokorreksion va psixoterapevtik yo‘nalishda olib boriladigan faoliyatni samarali tashkil qilishni taqozo qiladi. Sil kasalligi bilan davolanayotgan bemorda oilasini saqlab qolishga qaratilgan psixologik iqlimni yaratish, shuningdek, oilaning barcha a’zolarida kasallikning rivojlanishini oldini olish nihoyatda muhimligi ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlab o‘tilgan [2].

A.V.Mordik, L.V.Puzireva va boshqalar tadqiqotlarida sil kasalligi bilan xastalangan bemor ota-onalarda, sog‘lom oilalarga qaraganda nevroz darajasining yuqoriligi va stressga chidamlilik darajasining past ekanligi aniqlangan[88]. Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarning barchasida ham salbiy emotsional holatlar bir xil kechmasligi bemorlarning kasallikka munosabatiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Sil kasalligi bemorda oilaviy munosabatlarini va hayot tarzining o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi kasallik sifatida baholashimiz mumkin. Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kuzatiladigan emotsional holatlar ifodalanishiga ko‘ra beqaror bo‘lib, kasallik natijasida shaxslararo munosabatlarda muammoli holatlar, o‘zini nuqsonli va zaif his qilishi psixoemotsional holatiga ta’sir o‘tkazadi. Shuningdek, ularni yaqin qarindoshlaridan uzoqlashuv va ish o‘rnining yo‘qotilishi, shaxslararo munosabatlarning chegaralanishi emotsional holatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bemor kayfiyatidagi befarqlik, jahldorlik, asossiz kayfiyatdagi o‘zgarishlar bilan bir vaqtning o‘zida xursandchilikka almashib ham qolishi mumkin. Ba’zida ishonchsizlik holati reabilitatsiya mashg‘ulotlariga o‘z vaqtida bormasliklari tajovuzkorlik, dangasalik sifatida baholanishi mumkin.

Sil bilan davolanayotgan bemorlarning barchasida ham emotsional buzilishlar kuzatilmaydi, buni bemordagi “kasallikka munosabat” tipida ham kuzatishimiz mumkin. Rivojlanishning asosiy vazifasi insonda mavjud bo‘lmagan yoki yetarli darajada rivojlanmagan psixologik fazilatlarni shakllantirishdir [1].

R.Sh. Valiev, N.V. Gorbunov, N.N. Siresina, G.V. Baranov va S.V. Berlin-Chertov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar somatik jihatdan sog‘lom odamlarga qaraganda hissiy-irodaviy soha xususiyatlari, kognitiv munosabatlari, shuningdek, shaxslararo o‘zaro ta’sirning uyg‘un bo‘lmagan uslublari bilan farq qilishini aniqlaganlar [4], [3], [7], [10], [12].

Sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarni kompleks davolashda psixoterapiya imkoniyatlarini o‘rgangan M.I. Taranenkonning ta’kidlashicha, mutaxassisning psixologik yondashuviga ko‘ra tanlanishini, psixologik tuzatishning ko‘plab sohalari mavjudligini bildirgan.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Tadqiqotimizning korreksiya qismida psixoanaliz, xulq-atvor, gumanistik, mijozga markazlashgan psixoterapiya, kognitiv, ratsional-emotiv va geshtalt psixokorreksiya yo‘nalishlari va art-terapiya va qum terapiya, relaksatsion mashg‘ulotlaridan foydalanildi.

Kasallik holati sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarni somatik va psixologik jihatdan shikastlashini hisobga oladigan bo‘lsak, emotsional, xulq-atvor va kognitiv sohalarida ish olib borish bugungi kunda katta tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bemordagi muvofiqlik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin, deya baholanmoqda. Bu borada bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, R.Sh.Valiyev, N.V.Gorbunov, N.Siresina, G.V.Baranova, S.V.Berlin-Chertov, V.D.Lomachenkovlar shular jumlasidandir [5],[7],[9],[3],[4],[8].

Psixokorreksion dasturimizda sil kasalligi haqida qisqacha ma’lumot, tana va ruh, inson emotsiyalari va salomatlik psixologiyasi haqida kichik ma’ruzalar tayyorlanib, taqdimot qilindi. Irratsional munosabatlarni tushunish va munosabatlarni qayta qurishni o‘rgatishga e’tibor qaratildi.

Psixoterapevt A.Ellisning ratsional-emotiv terapiyasiga ko'ra, bemordagi "yaroqsiz fikrlar"ni cheklashga o'rgatish muhim [12].

Yetuklik yosh bosqichidagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlar bilan o'tkaziladigan "Men kasallikni yengaman" nomli psixokorreksion mashg'ulotning emotsional-hissiy sohaga ta'sir ko'rsatish modeli quyidagicha ko'rinishga ega bo'lib, ishlab chiqilgan dastur orqali emotsional-hissiy sohaga ta'sir mexanizmi ifodalanadi.

Emotsional hissiy sohaga psixokorreksion ta'sir ko'rsatish orqali yetuklik yosh davridagi sil kasalligi bilan xastalangan bemorlardagi kuchli xavotirlik, aybdorlik, boshqalarni ayblash, kasallikni qabul qila olmaslik, yolg'izlanib qolish qo'rquvi, kayfiyatning tushishi bartaraf qilinadi.

E.V.Suxova tadqiqotlariga ko'ra, o'pka sili bilan xastalangan yetuklik davridagi bemorlar oilalarida uyg'unlikning pasayishi, intellektual va madaniy qadriyatlarning tekislanishi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllanishida buzilishlar kuzatilishini aniqladi [11].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sil kasalligida jismoniy rivojlanishning buzilishi bilan birgalikda ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga to'siqlar yuzaga keladi, moslashishning buzilishi esa sil kasalligini rivojlanish xavfini oshiradi [6].

Demak, kasallikning ifodalanishi kayfiyat tushishiga ta'sir o'tkazib, ularda kasallik tipini yanada rivojlantirishga yoki pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonni o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini korrelyatsion aloqadorligiga murojaat qildik, buni quyidagi jadvalda ifodalangan.

Keksalik davrida shaxs so'rovnomasi ko'rsatkichlari hamda kayfiyati yo'qlik subdepressiya testi o'rtasida korrelyatsion aloqadorligi (Spirmen mezoni asosida n=46)

Ko'rsatkichlar	Гармоник	Хавотирланувчанлик	Ипохондрик	Апатик	Неврастения	Обсессив фобияли	Сензитив	Эгоцентрик	Эйфорик	Анозогнозик	Эргопатик	Паранойял
Kayfiyati yo'qlik subdepressiya testi	,447**	-,079	-,306*	-,353*	,106	-,148	-,225	-,391**	,261	,570**	-,087	-,119

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$;

Keksalik davrida shaxs so'rovnomasi ko'rsatkichlari hamda kayfiyati yo'qlik subdepressiya testi o'rtasida korrelyatsion aloqadorligi o'rganilganda, kayfiyati yo'qlik subdepressiya shkalasi va garmonik, anozognozlik tipda ishonch darajasidagi ijobiy bog'lanish namoyon bo'ldi ($r = ,447$; $p < 0,05$), ($r = ,570$; $p < 0,05$). Demak, keksalik davridagi bemorlarda kayfiyatning yo'qligi garmoniklarda o'z imkoniyatlarini to'liq baholash imkoniyati va anozognozliklardagi tekshirish va davolanishni rad qilish istagini oshirarkan.

Keksalik davrida shaxs so'rovnomasi ko'rsatkichlari hamda kayfiyati yo'qlik subdepressiya testi o'rtasida korrelyatsion aloqadorligi o'rganilganda, kayfiyati yo'qlik subdepressiya shkalasi va ipoxondrik, apatik va egosentrik tiplarda ishonch darajasidagi minus ishorali bog'lanish namoyon bo'ldi ($r = -,306$; $p < 0,005$), ($r = -,353$; $p < 0,005$), ($r = -,391$; $p < 0,05$). Aytishimiz mumkinki, keksalik davridagi kayfiyatning yo'qligi ipoxondrik, apatik va egosentrik tiplarda ifodalanadigan xususiyatlarni pasayishiga olib kelarkan. Demak, keksalikda kayfiyatning bo'lmasligi mavjud bo'lmagan qiyinchiliklar va azoblarni bo'rttirib ko'rsatishga, atrofdan rag'batlantirish bo'lgandagina davolanishga bo'yusinish, barcha narsaga qiziqishning yo'qolishi bilan birga, o'zigi

e'tibortalablilikni meyordan ortiq ifodalanish hissini kamayishiga olib kelar ekan. Yuqoridagi holatlarga nisbatan fikrimizcha, kayfiyatning yo'qligi, kasallikka nisbatan xavotirli qarashlar keksalarda o'zini keraksizdek his qilishga, jismoniy ojizlikning yuqori ifodalanishi yaqinlariga nisbatan xavotirlik darajalarining oshishiga sabab bo'ladi.

Aytish mumkinki, keksalik davridagi sil bilan xastalangan bemorlarda kasallik bilan bog'liq muammolar asosan, mumkin bo'lgan birlamchi psixologik sabablarga emas, travmatik vaziyatdan kelib chiqqan nevrotik alomatlarining namoyon bo'lishiga aloqadordir[13].

XULOSA

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, boshqa davrlardan farqli ravishda keksalikda kasallik bilan bog'liq jarayonlar yanada chuqurroq ifodalanishi ulardagi inqirozli holatlar bilan ham birga kechishidir. Psixokorreksion ta'sir ko'rsatishning asosiy mexanizmi sifatida ham emotsional, ham shaxsiy, ham xulq-atvor, ham ijtimoiy sohaga kompleks ta'sir ko'rsatilsagina, psixokorreksion ta'sir samarali bo'lishi asoslandi.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Арттюхова Т.Ю. Психокоррекция и психотерапия: учеб. Пособие/– Красноярск: Сиб. федерал. ун-т, 2019. - 170 с
2. Аксенова В.А., Барышникова Л.А., Севастьянова Т.А., Клевно Н.И. Туберкулез у детей в России и задачи фтизиатрической общей педиатрической службы по профилактике и раннему выявлению заболевания// Туберкулез и болезни легких.-2014.-Т.91 №3-С40-46
3. Баранова, Г. В., Золотова Н.В., Долгова Ю.В., Панкова Л.И. О личностных особенностях больных туберкулезом легких//Туберкулез в России, год 2007: Материалы VIII Российского съезда фтизиатров. – М.,2007. – С. 165-166
4. Берлин-Чертов, С.В. Туберкулез и психика / С.В. Берлин - Чертов // Труды Московского областного научно-исследовательского туберкулезного института - М., 1948. - С. 28-38
5. Валиев, Р.Ш. Лечение больных туберкулезом легких с учетом особенностей их личности и отношения к болезни // Пробл. туб. – 1999. – №2. – С. 27-31
6. Горбунова, Н. В. Социально-психологические особенности пациентов, больных туберкулезом / Н.В. Горбунова // Молодой ученый. — 2012. — №11.— С. 350-353
7. Глазунова, С. Н. Морфофункциональное развитие и психоэмоциональное состояние тубинфицированных детей и подростков//Журнал научных статей «Здоровье и образование в XXI веке» (Серия медицина). – 2012. - Том 14. – С. – 123
8. Ломаченков, В.Д., Кошелева Г.Я. Психологические особенности мужчин и женщин, впервые заболевших туберкулезом легких, и их социальная адаптация// Проблемы туберкулеза. – 1997. – № 3. – С. 9-11
9. Сиресина, Н.Н. Психологическое и нейропсихологическое сопровождение терапии туберкулеза легких: метод, пособие / Н.Н. Сиресина[и д.р.] – М., 2007. – С. 186-187
10. Сиресина, И. И. [и д.р.]Патогенные психологические особенности больных туберкулезом легких и их коррекция // Туберкулез в России, год 2007: Материалы VIII Российского съезда фтизиатров. – М., 2007. – С. 186-187
11. Сухова, Е.В. Сухов В. М. Особенности семейных отношений у больных инфильтративным туберкулезом легких и рекомендации по лечебному взаимодействию // Туберкулез и болезни легких. – 2015. - № 2. – С.60-69
12. Эллис А. Драйден У. Практика рационально эмоциональной поведенческой терапии. 2-изд./ Пер. с англ. Т.Саушкиной. – СПб.: Издательство «Речь», 2002. – 352 с
13. Qurbanova Sh.B., M.S.Axmedova. Psixoterapiya tushunchasi va uning tarixiy taraqqiyoti. “Xorazm vohasida ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixi:o'rta asrlar va yangi davr” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.2024 yil 11 oktabr. 371-375 bet

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna-

Ma'mun universiteti "Psixologiya" kafedrası professori

E mail: lady.bakhtigul@mail.ru

Kasimova Xulkar Atabayevna-

Ma'mun universiteti "Psixologiya va tibbiyot" kafedrası dotsenti, PhD

E mail: x.a.kasimova@gmail.com

**SUBYEKTIV FAROVONLIK VA UNING TARKIBIY QISIMLARINI
NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALARDA NAMOYON BO'LISHI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada subyektiv farovonlik va uning tarkibiy qisimlari bo'lgan hissiy farovonlik, ekzistensial faollik farovonligi, ego farovonlik, gedonistik va ijtimoiy-me'yoriy farovonlikni ilmiy jihatdan tadqiq qilish masalalari yoritilgan. Shu bilan birgalikda sog'lom va nogironligi bo'lgan talabalar subyektiv farovonligining natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: subyektiv farovonlik, hissiy farovonlik, ekzistensial faollik farovonligi, ego farovonlik, gedonistik, ijtimoiy-me'yoriy farovonlik.

Нуруллаева Бахтигул Бобожоновна-

профессор кафедры психологии университета Мамуна

Касимова Хулкар Атабаевна-

доцент кафедры психологии университета Мамуна, PhD

**СУБЪЕКТИВНОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ И ЕГО СОСТАВЛЯЮЩИЕ У
СТУДЕНТОВ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются вопросы научного исследования субъективного благополучия и его составляющих, таких как эмоциональное благополучие, экзистенциальное благополучие, эго-благополучие, гедонистическое благополучие и социально-нормативное благополучие. Также приведены результаты исследования субъективного благополучия у здоровых и студентов с инвалидностью.

Ключевые слова: субъективное благополучие, эмоциональное благополучие, экзистенциально-деятельностное благополучие, эго-благополучие, гедонистическое, социально-нормативное благополучие.

Nurullaeva Bakhtigul Bobojonovna-

Professor of the Department of Psychology at Mamun University

Kasimova Hulkan Atabayevna-

Associate Professor, Department of Psychology, University of Mamun, PhD

SUBJECTIVE WELL-BEING AND ITS COMPONENTS IN STUDENTS WITH DISABILITIES

ABSTRACT

This article addresses the scientific investigation of subjective well-being and its components, such as emotional well-being, existential well-being, ego well-being, hedonic well-being, and social-normative well-being. The results of the study on subjective well-being in both healthy students and students with disabilities are also presented.

Key words: subjective well-being, emotional well-being, existential activity well-being, ego well-being, hedonistic, socio-normative well-being.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi kunda dunyoda nogironlar soni bir milliarddan ortiq bo'lib, ularning dunyo aholisidagi ulushi 15% tashkil etadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, nogironlar soni yil sayin ortib bormoqda. Iqtisodiy jihatdan zaif mamlakatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning yarmidan ko'pi tibbiy yordam ololmaydi. Shu bilan birgalikda bunday mamlakatlarda nogironligi bo'lgan bolalarni maktabda o'qish ehtimoli kamroq bo'lib buning natijasida ularni kelajakda ishsiz qolish darajasi ham oshadi. Bu esa nogironligi bo'lgan insonlarning to'laqonli, baxtli va farovon hayot kechirishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nogironlik va subyektiv farovonlik muammosining tadqiq qilinishi hozirgi zamon psixologiya sohasida jismoniy va ruhiy farovonlikni saqlashga, hayot sifatini yaxshilashga va o'zini to'liq anglashga hissa qo'shadigan strategiyalarini tanlash muammosini hal qilishga yordam beradi. Har doim farovonlikka intilish insoniyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bolib inson hayotining to'laqonli kechishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun subyektiv farovonlikning o'ziga xos xususiyatlari, omillari, komponentlarini aniqlash dolzarb muammolardan bo'lib qollamoqda.

Farovonlik tushunchasi insonning butun umri mobaynida u bilan sodir bo'ladigan va boshdan kechiradigan holatlari, yo'qotish yoki erishadigan yutuqlari jarayoni hisoblabadi. Farovonlik tushunchasi ko'pgina xorijiy adabiyotlarda baxt so'zining sinonimi sifatida qaraladi. So'nggi yillarda farovonlik tushunchasini o'rganish psixologiya doirasida faol rivojlanmoqda. U qoniqish, ijobiy tajribalar, qadriyatlar, fazilatlar, iste'dodlar va ular farovon hayotga qanday hissa qo'shishi kabi toifalarga qaratilgandir [1].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Subyektiv farovonlik muammosining nogironligi bo'lgan insonlarda o'rganilishi ularda jismoniy, ruhiy farovonlikni saqlashga, hayot sifatini yaxshilashga, o'zini to'liq anglashga, jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi va bu masala dolzarb ahamiyatli muammolardan biridir.

Hozirgi kunda subyektiv farovonlik masalasi moslashish, ijtimoiylashish, o'z-o'zini anglash jarayonlari, iqtisodiy samaradorlik masalalari, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, sog'liqni saqlash tizimida va boshqa sohalarida ko'rib chiqilmoqda. Shu bilan birgalikda psixologiya sohasida nogironligi bo'lgan talabalarning subyektiv farovonlikka erishish masalalarini tadqiq etish muhim ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Subyektiv farovonlik muammosi bo'yicha xorij olimlaridan K.A.Abulxanova, E.E.Bocharova, A.V.Voronina, T.V.Danilchenko, I.A.Djidaryan, A.L.Juravlev, N.V.Klyuyeva, L.V.Kulikov, N.M.Lebedeva, D.A.Leontev, P.D.Nikitenko, M.V.Sokolova, P.P.Fesenko, R.M.Shamionov, T.D.Shevelenkova, A.S.Shiryayeva, A.L.Yurevich va boshqalar tomonidan nogironlik tashxisi qo'yilgan shaxslarda subyektiv farovonlik nazariyasi masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Nogironlik holatida shaxsiy rivojlanish masalalarini esa E.V.Ilenkov, A.N.Leontev, A.I.Mesheryakov, I.A.Sokolyanskiy, A.V.Suvorov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Salomatlik psixologiyasiga zamonaviy qarashlar bo'yicha B.S.Bratus, F.E.Vasilyuk, D.A.Leontev, A.Y.Rozovskiy, E.T.Sokolova, V.N.Sapkin va boshqalar tomonidan o'rganilganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda A.Adler, N.Bradburn, E.Diener, D.Kahneman, N.Schvarz, C.D.Ryff, M.E.Seligman va boshqalar subyektiv farovonlik va uning tarkibiy qismlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xorij olimlaridan J.B.Rotter, R.M.Ryan, E.L.Desi, A.S.Vateman va boshqalar baxt va inson salohiyati potentsiallari masalalarini ilmiy amaliy tadqiq etganlar.

Antik falsafada Aristotel, Seneka, Epikur, Geraklit, Platon, Suqrot kabi faylasuflar asarlarida insonning xotirjamligi va shukrona qila olishi uning baxtli ekanligidan, farovonlik hissini boshidan kechirishidan dalolat berishi ta'kidlangan.

Aristotel baxtni ichki tuyg'u sifatida e'tirof etgan. Platon va Suqrot ta'limotlarida insonning moddiy olam bilan aloqalari va ularning ruh haqidagi ta'limotlarida shaxsning rivojlanishga qaratilgan g'oyalar ilgari surilgan. Insonlar hayoti davomida faoliyatdan zavq olishlari va ularning yo'llarini izlashlari tushuntirilgan.

Islom falsafasida jumladan, Qur'oni Karim va Hadisi sharifda baxt umumbashariy yaxshilik shaklida namoyon bo'ladi, deyilgan. Baxtga erishish insoniyatning ilm-fan, ma'rifat va tarbiyasi orqali amalga oshiriladigan yakuniy maqsadini tashkil etadi, deb ta'riflangan. Insonning shukronalik hissini boshdan kechirishi, ilohiy tuyg'ular orqali Allohga yaqinlashish ulardagi ichki xotirjamlikni keltirib chiqarishi ta'kidlangan. Islom talimotiga tegishli asarlar [2], [3], [4] sharhiga nazar tashlansa, islom dinida sabr, bardosh, qanoat, shukronalik kabi tushunchalarga juda keng o'rin ajratilganki, ushbu tushunchalarning mazmun mohiyati aynan tadqiqot obyektimiz bo'lgan inson farovonligining asosida yotuvchi tushunchalardir. Ushbu tushunchalarga oid izohlarning mazmun mohiyatini psixologik jihatdan tahlil qilish, o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Psixologiyaning ushbu muammoli sohasini o'rganish muhimligini birinchilardan bo'lib 1969-yilda "Psixologik farovonlikning tuzilishi" (The structure of psychological well-being) monografiyasini nashr etgan N.Bradburn qayd etadi. N.Bradburn "psixologik farovonlik" muammosini nazariy jihatdan birinchi bo'lib tadqiq qilgan. U farovonlik ikki xildagi ta'sir natijasida erishiladigan muvozanat ekanligini tushuntirgan. Bu ijobiy va salbiy his-tuyg'ular shaklida namoyon bo'lishini tushuntirib o'tgan [15]. N.Bradburn tomonidan taklif qilingan farovonlikni shakllantirishning dastlabki mexanizmi juda sodda bo'lib ko'rinadi: inson hayotida ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni doimiy boshdan kechiradi. Ular esa o'zaro ta'sir qiladi. Bu esa turli xil hayotiy vaziyatlarni idrok etish va baholashga ta'sir qiladi.

Psixologik farovonlik muammosini nazariy jihatdan birinchi bo'lib tadqiq qilgan amerikalik psixolog N.Bradburnning ilmiy izlanishlarini E.Diener davom ettiradi. Insonning subyektiv farovonligi (Subjective well-being — SWB) masalalari xorijiy psixologiyada ilk bor 1984 yilda Edvard Diener tomonidan Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining «Psixologik Bulletin» jurnalida nashr etilgan maqolasida yoritilgan. Pozitiv psixologiya g'oyalarini ishlab chiqishda muallif yangi konseptual konstruksiyani - subyektiv farovonlikni taklif qiladi. Bir qator mualliflar subyektiv farovonlikni psixologik farovonlikning kichik turi sifatida belgilaydilar.

E.Diener fikricha, ikkita asosiy tarkibiy qism o'rganilayotgan hodisaning asosidir:

kognitiv qism bu – inson hayotining turli sohalaridan qoniqishni intellektual baholash;

hissiy qism bu – vaziyatga nisbatan yaxshi yoki yomon kayfiyatning yuzaga kelishini ajratib olish. [5], [6], [7], [8].

E.Diener tomonidan subyektiv farovonlik optimizmdan g'azabgacha bo'lgan turli xil hodisalarni o'z ichiga olgan geterogen kategoriya sifatida ta'riflanadi [10]. E.Dienerning ta'kidlashicha, inson yashash tarzidan, o'z hayotidan umumiy qoniqish hosil qilganda subyektiv farovonlikni boshdan kechiradi va faqat vaqti-vaqti bilan yoqimsiz kechinmalar va his-tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin [9], [11].

N.Bradburn va E.Dienerning tadqiqotlari psixologiya sohasida subyektiv farovonlik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun nazariy asosdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizda R.M.Shamionov va T.V.Beskovaning "Shaxsning subyektiv farovonligini diagnostika qilish" metodikasidan foydalanildi. Metodika 2018-yilda kattalar guruhida sinalgan va standartlashtirilgan. Metodika subyektiv farovonlikning quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu tarkibiy qismlar quyidagicha farqlanadi: hissiy farovonlik, ekzistensial faollik farovonligi, ego farovonlik, gedonistik va ijtimoiy-me'yoriy farovonlik. [12]

Hissiy farovonlik – quvonch, ilhom, baxt, optimizmga moyillik kabi ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish qobiliyati hisoblanadi. Hissiy farovonlikka ega shaxs hayotida quvonchli voqealar, yaxshi kayfiyat, kuch va faollik ustunlik qiladi, hayot qulay deb hisoblanadi.

Ekzistensial faoliyat farovonligi – maqsadlarga erishish uchun hamma narsani qilish va muvaffaqiyatlardan zavqlanish, yutuqlarni qadrlash qobiliyatidir.

Ego farovonligi – o‘zidan, shaxsiyatidan qoniqish, o‘z qobiliyati va imkoniyatlariga ishonch, tashqi ko‘rinish va xarakterdan qoniqish hisoblanadi. Shaxsning o‘z hayotidagi voqealarni qabul qilish qobiliyati, o‘ziga ishonch va o‘zi bilan uyg‘unlikda yashashidir.


Gedonistik farovonlik – shaxsning asosiy ehtiyojlarini qondirish: xavfsizlik, turmush darajasi, moddiy farovonlik, uy-joy sharoitlari, atrof-muhit sharoitlari va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy-me‘yoriy farovonlik - o‘zining axloqiy qadriyatlarini qurbon qilmasdan, o‘z hayotiy yo‘riqnomalariga muvofiq harakat qilish qobiliyatidir. Shaxsning o‘z xatti-harakatlaridan pushaymon bo‘lmasligi, shuningdek, jamiyatni qabul qilish va hurmat qilish hissining mavjudligidir.

Metodika yuqoridagi omillarni baholash imkonini beruvchi 34 ta ta‘kidni o‘z ichiga oladi. Har bir savoldan keyin tegishli ball qo‘yish orqali ushbu fikrlarga qanchalik rozi yoki norozilik darajasi ko‘rsatilishi lozim. Sinaluvchilar so‘rovnoma keltirilgan savollarga javob variantlarini ko‘rsatganlaridan keyin subyektiv farovonlikning tarkibiy qismlari hissiy, ekzistensial, ego, gedonistik va ijtimoiy-me‘yoriy farovonlik shkalalari bo‘yicha respondentlar qancha ball to‘plaganini aniqlashtiriladi [13], [14].

Metodika shkalasi turli xil sonli ta‘kidlarni o‘z ichiga olganligi sababli, ballar yig‘indisini emas, balki shkala bo‘yicha o‘rtacha ballni tahlil qilish tavsiya etiladi.[12]

O‘zbekiston sharoitida bu metodika umuman o‘tkazilmaganligi sababli biz har bir savollarning ma‘lum bir tahlilini amalga oshirishga harakat qildik.



Sog‘lom va nogironligi bo‘lgan talabalarning «Shaxsning subyektiv farovonligini diagnostika qilish» so‘rovnomasi bo‘yicha tafovutlari, (18-22 yoshlilar misolida)

Yuqoridagi diagrammada hissiy farovonlik, ekzistensial farovonlik, ego farovonlik, gedonistik farovonlik, ijtimoiy-me‘yoriy farovonlik nogironligi bo‘lgan talabalarga nisbatan sog‘lom talabalarda ustunligi aks etmoqda. Chunki hayotning qulayligi, salomatlik darajasining

yaxshiligi, kuch va faollikning yuqoriligi sog'lom talabalarda hissiy farovonlik, ekzistensial farovonlik, ego farovonlik, gedonistik farovonlik, ijtimoiy-me'yoriy farovonlikni ta'minlashning asosiy mezonlaridan biridir.

Subyektiv farovonlikning hissiy farovonlik shkalasi bo'yicha nogironligi bo'lgan talabalar natijalarining sog'lom talabalar natijalariga nisbatan past ko'rsatkichdaligi ularda mavjud bo'lgan nuqson tufayli yuzaga keladigan turli xil salbiy his-tuyg'ular va salbiy his-tuyg'ular natijasidagi tushkunlikning yuzaga kelishi, hayotga optimistik yondashuvning pastligi, turli hayotiy vaziyatlarda ijobiy tomonlarni topishga harakat qilmaslik, o'zida bor imkoniyatlardan qoniqmaslik, mavjud imkoniyatlarni amalda qo'llamaslik, nuqsonlari tufayli o'zlarini kuchli va irodali his qilmasliklari bunga sabab hisoblanadi.

Ekzistensial farovonlik shkalasi bo'yicha ham qisman farq aniqlangan bo'lib, uning past ko'rsatkichda bo'lishiga sabab muvaffaqiyat va yutuqlardan qoniqmaslik, baxtli bo'lish uchun barcha imkoniyatni ishga solmaslik, maqsadlar sari harakat qilmaslik, hayotni yaxshilash samarali qilish uchun muntazam harakat qilmaslik, o'z ustida ishlamaslikni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Ego farovonlik shkalasi bo'yicha ham nogironligi bo'lgan talabalar natijalari sog'lom talabalarga nisbatan past ko'rsatkichda bo'lib, buning sabablari sifatida o'zlarining tashqi ko'rinishlaridan mamnun emasliklari, o'ziga ishonch darajasining pastligi, kasallik nogironlik tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'riqlar va buning natijasida ichki xotirjamlikning yo'qolishi, o'z xarakterini ma'qullamaslik kabi holatlarni ko'rsatish mumkin.

Gedonistik farovonlik shkalasi natijalarida ham nogironligi bo'lgan talabalarning ko'rsatkichlari sog'lom talabalarnikiga nisbatan pastligi aniqlangan. Buning sabablari nogironligi bo'lgan talabalarning asosiy ehtiyojlarini qondirishdagi muammolar, yashash, ta'lim olish joylaridagi xavfsizlik shartlari ularni qoniqtirmasligi, o'z daromadlaridan qoniqmaslik, ekologik sharoitlardan qoniqmaslikni ko'rsatishimiz mumkin.

Ijtimoiy-me'yoriy farovonlik shkalasi bo'yicha sog'lom talabalarning ustunligi aniqlangan. Nogironligi bo'lgan talabalarning bu shkala bo'yicha natijalarining pastligiga sabab xatti-harakatlarning hayotiy yo'nalishlarga mos emasligi, atrofda shaxslarning munosabatidan, ularni hurmat qilishidan mamnun emasliklari, o'z hayotlarini baxtli va farovon hayot g'oyalari asosida qurishga intilmasliklarini ko'rsatish mumkin.

Subyektiv farovonlik darajasining tarkibiy qismlari nogironligi bo'lgan talabalarda past ko'rsatkichda ekanligining asosiy sabablardan birini ulardagi hayotdan qoniqish darajasi pastligi bilan izohlash mumkin. Chunki subyektiv farovonlikka erishish omilining asosini hayotdan qoniqish hissi tashkil qiladi. Ko'pincha farovonlik tushunchasi qoniqish tushunchasi bilan chalkashib ketadi. Bu gedonistik yondashuvning asosiy konsepsiyasidir. Ushbu yondashuv doirasida farovonlik zavqlanishga erishish va norozilikdan qochishdir. Farovonlik tushunchasi bevosita baxt, hayotdan qoniqish, hayot sifati tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir.

Sog'lom va nogironligi bo'lgan talabalarda asosiy tafovutlar yoshdan ko'ra ijtimoiy holatga va shaxsiy sifatlarga bog'liq ekanligini e'tirof etish mumkin. Demak, subyektiv farovonlik komponentlari yosh davriga emas, balki insonning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy holatiga bog'liq ekanligi kuzatildi.

XULOSA

Subyektiv farovonlik ko'p komponentli tushuncha bo'lib nogironligi bo'lgan talabalarda hissiy, ekzistensial, ego, gedonistik, ijtimoiy-me'yoriy ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, aynan gedonistik farovonlik nisbatan past darajada bo'lib, ekzistensial va ijtimoiy-me'yoriy farovonlik unga nisbatan yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Ijtimoiy farovonlik tushunchasi ham nisbatan yuqori bo'lib jamiyat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan imkoniyatlar, atrofda odamlarning muayyan ko'maklariga erishib turganliklari bois bu farovonlik darajasi ham nisbatan yuqori. Gedonistik farovonlik ko'proq nogironligi bo'lgan talabalarning jismoniy holati va hayotdan qoniqishi bilan bog'liq bo'lgani uchun nisbatan past ko'rsatkichligi aniqlandi. Subyektiv farovonlik metodikasining faqatgina hissiy, ekzistensial, ijtimoiy-me'yoriy ko'rsatkichlar bo'yicha dastur samaradorligi aniqlandi. Metodikaning boshqa ko'rsatkichlari bilan yuqori darajada farq kuzatilmadi. Talabalar hayotida subyektiv farovonlikni o'rganish ularning

hayot sifatini yaxshilashga, ta'lim olish jarayonida unumdor ta'lim olishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Peterson S. /A primer in positive psychology /. - New York: Oxford University Press, 2006. - 386 p.
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия – Покланиш китоби – Т.: «Hilol Nashr», 2016. – 400 б.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия – Тикланиш китоби – Т.: «Hilol Nashr», 2016. – 496 б.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Руҳий тарбия – Хулқланиш китоби – Т.: «Hilol Nashr», 2016. – 464 б.
5. Diener, E., Sapyta, J. J., & Suh, E. (1998). Subjective well-being is essential to well-being. *Psychological Inquiry*, 9, 33-37.
6. Diener E. Subjective well-being//*Psychological Bulletin*. – 1984. – № 95. – P. 542–575.
7. Diener E., Fujita F. Resources, personal striving, and subjective wellbeing: A nomothetic and ideographic approach // *Journal of Personality and Social Psychology*. 1995. Vol. 68. P. 926-935.
8. Diener E., Suh E.M., Lucas, R.E., Smith H.L. Subjective wellbeing: Three decades of Progress // *Psychological bulletin*. 1999. Vol. 125, № 2. P. 276-302.
9. Eid M., Diener E. Global judgments of subjective well-being: Situational variability and long-term stability//*Social Indicators Research*. – 2004. – Vol. 65(3). – P. 245–277.
10. Kahneman D., Diener E., Schwarz N. (eds.) *Well-Being: The Foundations of Hedonic Psychology*. New York: Russell Sage Found, 1999. P. 213-229
11. Keyes C.L.M., Shmotkin D., Ryff C.D. Optimizing well-being: *Journal of Personality and Social Psychology* Copyright 2002 by the American Psychological Association, Inc. 2002, P 1007–1022
12. Keyes C.L.M., Shmotkin D., Ryff C.D. Optimizing well-being: *Journal of Personality and Social Psychology* Copyright 2002 by the American Psychological Association, Inc. 2002, P 1007–1022
13. Шамяионов Р.М., Субъективное благополучие личности: этнопсихологический аспект [Электронный ресурс] / Р. М. Шамяионов // Проблемы социальной психологии личности. URL: http://psyjournals.ru/sgu_socialpsy/issue/30315_full.shtml
14. Burns R.A., Machin M.A. Identifying gender differences in the independent effects of personality and psychological well-being on two broad affect components of subjective well-being//*Personality and Individual Differences*. – 2010. – № 48. – P. 22–27.
15. Kahneman D., Diener E., Schwarz N. (eds.) *Well-Being: The Foundations of Hedonic Psychology*. New York: Russell Sage Found, 1999. P. 213-229

Bekchanova Kuvanch Roximovna-
Ma'mun universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası o‘qituvchisi PhD, Urganch, O‘zbekiston
E mail: bekchonovaquvonch@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKMASI RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi rivojlanishining psixologik xususiyatlari o‘rganish va uni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotda bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish, qat’iyatlik va maqsadga muvofiqlik kabi irodaviy sifatlarini rivojlantirish, hamda diqqatning yetishmasligi, gajetga tobeklik, xulq-atvorni nazorat qilishning susayib borishi muammoni tub negizidir. Tadqiqot bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilgan. Shu bilan birga maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarishda tashqi muhit, tarbiya va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini idora qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi model, maxsus rivojlantiruvchi dastur va ota-ona tarbiyachi, psixologlarga manzilli tavsiyalar keng yoritib berilgan. Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini psixologik rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan muhim jihatlarni o‘rganishga qaratilgan, bu esa bolalarni kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga va muvaffaqiyatli, qat’iyatli, o‘zining erkin fikriga ega shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratishi mumkinligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, bolalar, o‘z-o‘zini boshqarish, qat’iyatlilik va maqsadga muvofiqlik, ixtiyoriy xulq-atvor, ko‘nikma, yosh davrlari, hissiy, irodaviy soha, ijodiylik.

Bekchanova Kuvanch Rakhimovna-
Mamun University Lecturer at the

Department of “Psychology and Medicine” PhD, Urganch, Uzbekistan.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SELF- REGULATION SKILLS IN SCHOOL-AGE CHILDREN

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the psychological characteristics of the development of self-regulation skills in preschool children and their improvement. The research examines volitional qualities such as self-control, perseverance, and goal orientation, as well as problems related to attention deficit, gadget dependency, and a decrease in behavioral control. The study highlights that one of the factors positively influencing the development of self-regulation skills in children is the

activity of preschool educational institutions. Furthermore, the article emphasizes the connection of self-regulation skills in preschool children with their environment, upbringing, and age-related characteristics. The article provides a detailed presentation of a model, special developmental programs, and targeted recommendations for parents, educators, and psychologists aimed at fostering self-regulation skills in preschool children. This research focuses on important aspects of the psychological development of self-regulation skills in preschoolers, which can contribute to their successful social adaptation in the future and the formation of determined, independent, and free-thinking individuals.

Keywords: preschool education, children, self-regulation, persistence and goal orientation, voluntary behavior, skill, age periods, emotional and volitional sphere, creativity.

Бекчанова Куванч Рахимовна-

Университет Мамуна

Преподаватель кафедры

«Психология и медицина», PhD, Урганч, Узбекистан.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОРЕГУЛЯЦИИ У ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению психологических особенностей развития навыков саморегуляции у детей дошкольного возраста и их совершенствованию. В исследовании рассматриваются такие волевые качества, как самоконтроль, настойчивость и целеустремленность, а также проблемы, связанные с дефицитом внимания, зависимостью от гаджетов и снижением контроля над поведением. Исследование показывает, что одним из факторов, положительно влияющих на развитие навыков саморегуляции у детей, является деятельность дошкольных образовательных учреждений. Кроме того, в статье подчеркивается связь навыков саморегуляции у дошкольников с внешней средой, воспитанием и возрастными особенностями. В статье подробно представлены модель, специальные развивающие программы и адресные рекомендации для родителей, воспитателей и психологов, направленные на развитие навыков саморегуляции у детей дошкольного возраста. Данное исследование акцентирует внимание на важных аспектах психологического развития навыков саморегуляции у дошкольников, что может способствовать их успешной социальной адаптации в будущем, а также формированию их как целеустремленных, самостоятельных и свободно мыслящих личностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети, самоуправление, настойчивость и целеустремленность, произвольное поведение, навык, возрастные периоды, эмоциональная и волевая сфера, креативность.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi kunda jahonda kechayotgan jadal rivojlanish jarayonlari millatning har tomonlama sog'lom, ruhan tetik genofondini tayyorlash, birinchi navbatda, maktabgacha yosh davridan boshlanishi lozim ekanligini belgilab bermoqda. Hozirgi davrdagi ma'lumotlarga qaraganda, har bir mamlakatning o'rtacha 23-27% aholisini bolalar tashkil qiladi. Ular orasida ayrim sabablarga ko'ra, psixolog yordamiga muxtoj bo'lganlari tahminan 22% ni tashkil qilib, bolalar bu alohida tadqiqot predmeti sifatida bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlanlantirishni dolzarbligini belgilaydi. Bunga ko'ra, bolalarda diqqatning yetishmasligi, gajetga tobelik, qat'iyatlilik va xulq-atvorni nazorat qilishni susayib borishi va ularda ijtimoiy emotsional, shaxsiy rivojlanish, o'quv faoliyati tayyorlik, intizom va tartibni yaxshilash, tress va xavotirni kamaytirish kabilar maktabgacha ta'lim sohasiga o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasining rivojlanishi o'rganish muammolardan hisoblanadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Maktabgacha yosh davrida bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishi xulq-atvorning shakllanishi, hissiy-irodaviy soha va o'z-o'zini anglash bilan bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, maktabgacha yosh-bu ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra, boshlang'ich davrdagi shaxs rivojlanishining haqiqiy omboridir. Bu fikrlarga ko'pgina olimlarimiz o'z tadqiqotlarida ijobiy yondoshadilar. (L. S. Vygotskiy, A. N. Leontev,) [2], [3], [7].

Tadqiqotchi olimlarimizdan N.N.Shereshik o'zining ilmiy izlanishlarida katta maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlarini o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli muhim ekanligini batafsil ochib bergan[4]. Olim didaktik o'yinlarda katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinning asosiy psixologik mexanizmi - transformatsiyani o'zlashtirgani aniqlagan.

O'zbek olimlari tomonidan maktabgacha yosh davriga doir bo'lgan muammolar yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Z.T.Nishonova muallifligida yozilgan «Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya» darslikida keltirilishicha, maktabgacha yosh davrida bolalarni kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot jarayonida bola shaxsining shakllanishini uch bosqichga ajratib ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra, 3-4 yosh oraligi birinchi davr bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlimishi bilan bog'liq ekanligi takidlab o'tilgan. Keyingi davrd esa 4-5 yosh oraligini o'z ichiga oladi, bunda axloqiy o'z-o'zini boshqarish bilan bog'liq hisoblanadi. Uchinchi davrda bolalarda shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanadi, bu esa katta maktabgacha yoshga to'g'ri keladi [1.161-b].

Bizning tadqiqotimizda esa maktabgacha yoshdagi bolalarda qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik darajasini rivojlanishiga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasiga ta'sir etuvchi psixologik omillarining yosh va individual xususiyatlariga bog'liq holda differensial farqlanishi isbotlangan. [5]

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotimiz vazifalaridan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim muassasida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilar guruhlariga tanlab olingan metodikalar natijalari Kruskal Uollis mezonini asosida qayta tahlil qilindi. Ushbu metodikalarni o'tkazish jarayonida sinaluvchilar yoshi, imkoniyatlariga kelib chiqib, savollarga javob olishda bolalarga qulay vaqt tanlab olindi. Shu bilan birga tadqiqotimizning predmeti maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishini psixologik xususiyatlarini aniqlashni tashkil etishga qaratilgan.

Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishining psixologik xususiyatlarini aniqlashda E.A.Klyuchnikovaning «Shakllar ustidan bo'yash» metodikasi va L.Krasilnikova «Ha va Yo'q demagin» so'rovnomasi bilan korrelyatsion aloqadorligi Spirman mezonidan foydalanildi.[8].

Ushbu metodikalarda qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik darajasi, bevosita maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishining psixologik xususiyatlarini aniqlashda ham xizmat qiladi. Bolalarda maktabga tayyorlov guruhida qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik va ixtiyoriy xulq-atvorning rivojlanish darajasi katta va o'rta guruh talabalaridan yuqori natija ko'rsatdi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki maktabgacha yosh davrining maktabga tayyorlov yosh guruh bolalarda qo'l motirika harakatlari yaxshi rivojlanganligi, har bir shaklni bo'yash jarayonini oxirigacha yetkazishda maqsadni qat'iyatlilik bilan amalga oshirish umidi, ko'pincha shakllarni ehtiyotkorlik bilan ustidan bo'yash orqali samarali natijaga erishish istagi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Boshqa yoshdagi guruhlarda noto'g'ri daraja rivojlangan qat'iyatlilik sifatleri kuzatiladi. Ayrim hollarda, ushbu guruhdagi maktabgacha yoshdagi bolalar jarayoni shoshilishni boshlaydilar, mashq qilish beparvolik bilan tushunmagan holda shakllarni bo'yash xususiyati bilan izohlanadi.

Shu bilan birga bolalar vazifalarni bajarishda qat'iyatlilikni namoyon eta oladilar, bu esa bolalarda irodaviy sifatlarini rivojlantirib, ularda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

O'rta va katta guruh tarbiyalanuvchilarida hali unchalik darajada rivojlanmagan qat'iyatlilik sifatleri kuzatildi. Ko'pincha, ushbu guruhdagi maktabgacha yoshdagi bolalar jarayonni besabrlik bilan, shoshilinch boshlaydilar, shakllar ustidan bo'yashni beparvolik bilan tushunmagan holda

amalga oshirishlari izohlanadi.

Bu jihatlarni yana quyidagicha izohlash ham mumkin. Qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik qisqa muddatli faoliyatlar ya'ni oyinda oddiy maqsadlarni belgilashda namoyon bo'lishi maktabgacha yosh davrining o'rta guruhidagi bolalarda kuzatiladi. Misol keltiradigan bo'lsak bolalar kublardan minora qurishni xohlashlari mumkin va buning uchun kerakli qadamlarni amalga oshiradilar.

Katta guruhlarda esa bolalar faoliyati, maqsad belgilash o'rta guruhnikidan bir oz murakkabroq kechadi. Masalan, bu yoshdagi bolalar rasm chizish jarayonida o'zi biror maqsadga asosan chizishi mumkin.

O'rta va katta guruhlarga qaraganda maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar faoliyatlari biroz oddiyroq bo'ladi, chunki bu yoshda ular qiyinchiliklarni yengib o'tishga qiynalishadi. Masalan, bajarmoqchi bo'lgan ishini rejasini tuzish imkoniyati ham pastroq bo'ladi. Biz keltirib o'tgan har bir davriga xos bo'lgan qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik darajasidagi rivojlanishning namoyon bo'lishi, bevosita maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanganligini belgilaydi.

E.A.Klyuchnikovaning «Shakllar ustidan bo'yash» metodikasining L.Krasilnikova «Ha va Yo'q demagin» so'rovnomasi bilan korrelyatsion aloqadorligi (Spirman mezon bo'yicha, N=352)

Ko'rsatkichlar	Ixtiyoriy xulq atvorning rivojlanish darajasi
Qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik darajasi	,553**

Izoh:** $p \leq 0,01$

Tadqiqotimiz doirasida o'tkazilgan natijalarga ko'ra, qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik darajasi ixtiyoriy xulq-atvorning rivojlanish darajasi o'rtasida o'zaro ijobiy aloqadorlik kuzatiladi ($r=,553$; $p \leq 0,01$). Ushbu aloqadorlik maktabgacha yoshdagi bolalarda maqsad sari harakat qilishda, rolli o'yinlar o'ynash, ko'rgazmali vositalardan foydalanishda namoyon bo'ldi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ixtiyoriy xulq-atvor bevosita bolaning kreativligini oshirishga yordam beradi. Bolalardagi o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasining rivojlanishi uning mustaqilligi, qarorlari, maqsadlari aniq, faoliyati mazmunli bo'lganda yanada oshib boradi.

O'tkazilgan tadqiqotimiz shuni anglatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ixtiyoriy xulq-atvorini rivojlanishi natijasida ularning o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatli va maqsadga muvofiqlik darajasi ham bevosita oshadi. Tadqiqotimizda kuzatilgan bunday ijobiy aloqadorlik, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi va xulq-atvorini maqsadga yo'naltiruvchi jihatlarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA

Yuqorida keltirib o'tilgan empirik tadqiqotlarimiz natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalariga quyidagi psixologik xususiyatlaridan qat'iyatlilik va maqsadga muvofiqlik hamda ixtiyoriy xulq-atvorning rivojlanish darajalari o'rtasidagi bog'liqlik va farqli jihatlari aniqlandi.

Mazkur natija izohi sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz lozim, bolalardagi o'zlarining fikr va istaklarini ifodalash o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu rivojlanish ularga o'z fikrlarini, maqsadlarini va o'zgarishlarga moslashishni o'rganish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy xulq-atvorni rivojlanishi ijodiylik darajasini oshirish uchun o'zgaruvchilik va qo'shimcha mulohazalarni qabul qilishga yordam beradi.

Bolalarda ijodiylik darajasini oshirish ularning o'zlarining maqsadlari va vazifalari uchun qat'iyatlilik bilan harakat qilish ko'nikmasini bevosita rivojlanishiga olib keladi. Bu, ularga o'zlarining hayotda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan yaxshi o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Albatta, yuqoridagilardan kelib xulosa qiladigan bo'lsak, Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday xulq-atvor turli faoliyatlarda, jumladan, maqsadga yo'naltirilgan harakatlarda, rolli o'yinlarda va ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'z aksini topadi. Shu sababli, ixtiyoriy xulq-

atvor bolaning ijodkorlik (kreativlik) qobiliyatlarini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalarning o'yin va o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Nishanova Z.T. Kamilova N.G, Xalilova N.I, Abdullayeva D.U., «Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya» darslik / - Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo» nashriyoti, 2020. 148 b).
2. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики Пятое, исправленное и дополненное издание. М.: Смысл, 2020.-627с.
3. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. — М: Изд-во Смысл, Изд-во Эксмо, 2004. — 512с.
4. Шерешик Н.Н. Роль дидактических игр в развитии саморегуляции и поведения старших дошкольников- Омск- 2005
5. Bekchanova K.R. «Maktabgacha yosh davridagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini kognitiv jarayonlar rivojlanishi bilan bog'liqligi». 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11193795>
6. Razakova R.S, & Yusupova Iroda Narimonovna. (2024). Bog'cha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi. Journal of science-innovative research in uzbekistan, 2(2), 196–201. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10649708>
7. Nurullayeva Bakhtigul Bobojonovna. (2024). MODELING AS A DEVELOPMENTAL FACTOR OF PRESCHOOL CHILDREN'S INTELLIGENCE. JOURNAL OF "MAMUN SCIENCE", Volume-2(Issue-1). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10943186>
8. Kleptsova E. Yu., Pasyukova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning irodaviy fazilatlaridagi gender farqlari // "Konseptsiya" ilmiy-metodik elektron jurnali. – 2017. – T. 29. – B. 378–388. –
URL: <http://e-koncept.ru/2017/770882.htm>

Kabulova Saboxat Baxodirovna-

PhD., Ma'mun Universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi

Email saboxatbaxodirovna@gmail.com

KASBIY SULOLALI PROFESSIONAL O‘QITUVCHI VA SHIFOKORLARNI OTA- ONALARI BILAN IDENTIFIKATSIYALANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilaviy shajaraning shaxs professional shakllanishiga, oilaviy muhitning kasb tanlash motivatsiyasiga ta'sirining psixologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oilaviy shajara, oilaviy rahbar sulolalar, oilaviy meros, shaxs professional o'sishi, yosh mutaxassislar, kasbiy mahorat, ko'nikma, malaka, ijtimoiy-psixologik merosxo'rlik, oilaviy merosxo'rlik.

Kabulova Sabohat Bakhodirovna-

PhD, University of Mamun

Senior lecturer of the “Psychology and Medicine” department

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE INTERGENERATIONAL IDENTIFICATION OF TEACHERS AND DOCTORS WITH THEIR PARENTS

ABSTRACT

This article examines the psychological aspects of the impact of family genealogy on an individual's professional development and the influence of the family environment on career choice motivation.

Key words: family genealogy, family leadership, dynasties family heritage, personal professional growth, young specialists, professional competence, skills, expertise, socio-psychological succession, family succession.

Кабулова Сабохат Баходировна-

PhD, Университет Маъмуна

старший преподаватель кафедры “Психология и медицина”

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ И ВРАЧЕЙ СО СВОИМИ РОДИТЕЛЯМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются психологические особенности того, как семейная генеалогия влияет на профессиональное развитие личности, а также как семейная среда воздействует на мотивацию выбора профессии.

Ключевые слова: семейная генеалогия, семейное лидерство, династии и семейное наследие, личностный и профессиональный рост, молодые специалисты, профессиональная компетентность, навыки, экспертные знания, социально-психологическая преемственность, семейная преемственность.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Respublikamizda so'nggi yillarda professional mutaxassislarni tayyorlash sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta'minlash "... oilaviy shifokor punktlarini, oilaviy mehmon uylarni, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, ... shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni, oilaviy sport tadbirlarini rivojlantirish" [1] kabi vazifalarni yechimiga va oilaviy qadriyatlarning oilada professional shaxsni shakllanishidagi roliga bevosita bog'liq. Mazkur vazifalar bo'lajak yosh mutaxassislarning kasbiy mahoratlari shakllanishiga yanada ko'proq e'tibor qaratishni, ularni keyinchalik o'z kasblarini samarali bajarishlari uchun zarur ko'nikma va malakalarni "psixologik merosxo'rlik", xususan, "oilaviy merosxo'rlik (jamiyat tomonidan tan olingan va andoza sifatida foydalanish mumkin bo'lgan oilaviy shifokorlar, oilaviy pedagoglar sulolasi tajribasi)"ga egalik ruhi yordamida rivojlantirishni taqozo etadi. Ana shu jihatdan olganda, biz ham, "oilaviy meros" fenomeni haqidagi mavjud qarashlar tahlilini yuritishda avval, ijtimoiy va biologik munosabatlarning dilemmasini tizimlashgan ravishda o'rganib ko'ramiz. Bu esa, aynan shunday yondashuv "Abadiy qarama-qarshilik koevolyusiya g'oyasi" qonuniyatini "Tabiiylik va ijtimoiylikning ajralmas birligi" qonuniyati bilan almashtirilishiga zamin yaratadi. Oxir oqibat, tizim (genotip) farzandning oilaviy tarixiy o'tmishi (oilaviy merosi, ya'ni ajdodlari kasbiy faoliyati, yutug'i va akmeotexnologiyalari) uni individual rivojlanish dasturida muhim ahamiyat kasb etadigan, o'ziga xos ijtimoiy sharoitlarga moslashtirilgan ma'lumotlarni ixcham tarzda o'zlashtirilishiga sabab bo'ladigan yaxlit platforma sifatida gavdalanadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

MDH davlatlari olimlari tomonidan psixologiya ilmida bir qator maktablar va yo'nalishlarga asos solingan. Bu maktablarda shaxsning psixik xususiyatlari (shu jumladan, shaxslilik xususiyatlari ham) rivojlanishi va (yoki) qaror topishining turli jihatlari o'rganilgan. Masalan, shaxsga nisbatan, birinchi ustuvor yo'nalishda, A.N. Leontyev tomonidan, "faoliyatli yondashuv" [2;345 b.], ikkinchi yo'nalishda, V.N. Myasishev "psixologik munosabatlar" [3;356 b.] rakursida, uchinchi oqim D.N. Uznadze esa "shaxs ustanovkalari" [4;448 b.] fonida, to'rtinchi ustuvor yo'nalishda, L.I. Bojovich, "shaxsning ijtimoiy pozitsiyalari"ni [5;398 b.] va nihoyat beshinchisi – B.F. Lomov – "muloqot" [6;1174 b.] bilan bog'lab tahlillar amalga oshirilgan.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, kasbning ijtimoiy maqsadga muvofiqligi, uning jamiyat uchun qanchalik foydaliligi, odamlar tomonidan u qanday qabul qilinishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan ham olimlar, barcha kasblarni quyidagi uchta toifaga bo'lishadi:

1) Ijtimoiy ma'qul kasblar. Bunga ko'pchilik uchun yaxshi tanish va tushunarli, eskidan ma'lum bo'lgan, keng tarqalgan kasblar kiradi. Odatda o'smirlar va ularning ota-onalari kasb tanlashni shu guruhdagi kasblar orasidan amalga oshirishadi. Masalan: o'qituvchi, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqalar.

2) Ijtimoiy befarq kasblar. Bunga mazkur jamiyatda, hududda ilgari ma'lum bo'lmagan yoki uchramagan, kamyob, yangi, ko'pincha zamonaviy kasblar kiradi. Masalan: dizayner, reklama agenti, birja brokeri, musiqa asboblarini sozlovchi, kinolog, axborot tarmoqlari dasturchisi, kosmetika vrachi va boshqalar. Qiziqishlar nuqtai nazaridan olib qaraganda bu toifa kasblarga odamlar, ba'zan bir muncha eqtiyotkorlik bilan qarashsa-da, odatda ijtimoiy fikrning bunday kasblarga nisbatan munosabati salbiy bo'lmaydi.

3) Ijtimoiy noma'qul kasblar. Bunga odatda jamiyatda ijtimoiy fikr tomonidan ishonchsizlik bilan qaraladigan yoki ochiqdan-ochiq jamiyat tomonidan qabul qilinmaydigan kasblar kiradi. Masalan: dallollik, qimorbozlik, turli shakldagi chayqovchiliklar, sudxo'rlik, qalbaki rasmlar va hujjatlar tayyorlash, folbinlik va boshqalar. Bunday toifadagi kasblarning ko'pchiligi jamiyat tomonidan ma'muriy va ququqiy ta'qib etiladi.

Olimlar shaxsning professional mahorati undagi faoliyat motivlariga bog'liq bo'lgani uchun ham erkak va ayollarni mehnat motivatsiyasiga ko'ra: dominant, situativ, suggestiv kabi 3 ta tipga farqlashadi. Faqat suggestiv tiplilar kasbiy ustanovkalarni shakllantirish jarayonida, odatda, o'zlarini qurshab turgan muhit, ya'ni qarindosh-urug'lar va oila an'analari kabi omillarga asosiy e'tiborini qaratishadi. Aslida har bir tipologiya kasbiy faoliyatda o'ziga xoslikni namoyon etsa-da, bizningcha, shaxs uchun eng muhimi – bu o'sha kasb atrofidagi qadriyatlar, oila a'zolarining kasbiy o'sishi va jamiyatdagi o'rniga munosabatidir.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot ishimizda dastlabki bosqichida “Kuzatish” usuli, “Intervyu” usuli va “Dastlabki xotiralarni tahlil qilish” avtobiografik va proyektiv metodikasi qo'llagan holda bir qator natijalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldik. Tadqiqot konsepsiyasidan kelib chiqib, ushbu usullar, asosan, to'g'ri va yon shajarali sulolaviy o'qituvchi hamda shifokorlar bilan o'tkazildi. Aniqlanilishicha, Toshkent shahri, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida faoliyat olib borayotgan, o'z nufuziga ega, el nazarida bo'lgan sulola o'qituvchilarning oilasining ikki guruhi farqlanadi.

I. Birinchisi, to'g'ri shajara bo'yicha sulolali o'qituvchilar guruhi. Ushbu guruh vakillari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan hududlarda nisbatan kam. “Dastlabki xotiralarni tahlil qilish” avtobiografik va proyektiv metodikasi yordamida olingan natijalarni quyidagicha tarzda tizimlashtirdik.

II. Ikkinchisi, to'g'ri va yon shajaralar kesishmasi bo'yicha sulolali o'qituvchilar guruhi. Mamlakatimizda olib borilayotgan oilaparvar siyosat va 33 yillik islohotlarning ta'siri o'laroq, oilaviy qadriyatlar, shajaralar nufuzi tiklanib, o'z navbatida, bu avlodlar ongida konstruktiv o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. “Uch avlod” uchrashuvlari kontekstida unutilgan oilaviy qadriyatlar, “oilaviy meros”, “oilaviy ijtimoiy meros” tiklanib, 3-, 4-avlod vakillari orasida “ota kasb”ni tanlashga, davom ettirishga nisbatan ishtiyoq oshib, o'ziga xos ichki intilishni namoyon qildi.

“Ota kasbi – davlat kasbi”, “Ota kasbini qilgan baraka topadi”, -deydi xalqimiz. Bu maqollarning mazmunidan farzandlar ota va (yoki) ona boshlagan ishni davom ettirishi maqbul ekani anglaniladi. Ma'lumki, farzandni kasbiy motivatsiyasini shakllanishida qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bu boradagi ota-onalar ta'sir kuchini ko'pincha bobo-buvilarning obro'-e'tibori (avtoreteti) ham oshiradi.

Nasabnoma-modeliga muvofiq, sulolali o'qituvchi va shifokorlarning 3-, 4-avlodlarini o'z ajdodlariga munosib voris ekanliklarini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlarimizda 108 nafar (ulardan 57 nafari – 3-avlod, 51 nafari 4-avlod sulola vakillari; 49 nafari – erkaklar, 59 nafari – ayollar, 54 nafari – o'qituvchilarni, 54 nafari – shifokorlarni farzandlari) o'spirin-respondent «Tajriba guruhi» vakili sifatida qatnashishdi.

Sulolaga daxlsiz bo'lgan yoshlardan, tanlov asosida yana 107 nafar (ulardan 58 nafari – erkaklar, 49 nafari – ayollar) o'spirinlar “Nazorat guruhi” vakili sifatida ishtirok etshdi.

Jami tajriba-sinov ishlarimizda ishtirok etgan respondentlarning umumiy soni – 215 nafarni (ulardan 107 nafari – erkaklar, 108 nafari – ayollar) tashkil etdi.

Tadqiqot ishimizning ushbu bosqichida sinaluvchilarga “Tugallanmagan jumlarlar” proyektiv metodikasi orqali murojaat qilindi. Ushbu metodika yordamida olingan javoblarning mazmunini kontent-tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy toifalar aniqlangan. Jumladan, 49 nafar “TG”dagi erkak respondent tomonidan berilgan javoblarning kontent-tahlil natijalariga ko'ra, o'g'il bola uchun otadan meros bo'lib o'tadigan 5 ta darajadagi 8 ta muhim kasbiy-shaxsiy sifatlar mavjud bo'lib, uning tarkibini: 1-daraja: maqsadga intilish (0,91); 2-daraja: yetakchilik (0,89) va ishbilarmonlik (0,89); 3-daraja: bilimdonlik (0,77) va mehnatsevarlik (0,77); 4-daraja: zakiylik (0,73) va tavakkalchilik (0,73);

5-daraja: to'g'rilik (0,71) kabi sifatlar tashkil qiladi (3.1-jadvalga qarang).

Shuningdek, onadan meros bo'lib o'tadigan 5 ta darajali 7 ta ustuvor kasbiy-shaxsiy sifatlar sirasiga: 1-daraja: sadoqat (0,91); 2-daraja: o'z-o'zini hurmatlash (0,83); 3-daraja: ishonch (0,81) va mehnatsevarlik (0,81); 4-daraja: qo'llab-quvvatlash qobiliyati (0,77) va qat'iylik (0,77); 5-daraja: faollik (0,71) kiradi.

59 nafar ayol respondentning fikriga qaraganda, qiz bola uchun otadan meros bo'lib o'tadigan sifatning 10 ta darajasi mavjud bo'lib, ularning tarkibini: 1-daraja: aniqlik (0,91); 2-daraja: fidoyilik (0,87); 3-daraja: yetakchilik (0,85) va ishbilarmonlik (0,85); 4-daraja: mehribonlik (0,83) va tashabbuskorlik (0,83);

5-daraja: jasurlik (0,81); 6-daraja: chidamkorlik (0,79); 7-daraja: hazilkashlik (0,77) va mustaqillik (0,77); 8-daraja: faollik (0,75) va puxtalik (0,75); 9-daraja: optimizm (0,73) va moslashuvchanlik (0,73); 10-daraja: ishonchlik (0,71) va qarorlar qabul qila olish (0,71) kabi 16 ta ustuvor kasbiy-shaxsiy sifatlar tashkil etadi.

Shuningdek, onadan meros bo'lib o'tadigan 5 ta darajali 11 ta ustuvor kasbiy-shaxsiy sifatlar ham aniqlanib, u o'z ichiga: 1-daraja: o'ziga bo'lgan ishonch (0,93); 2-daraja: yetakchilik (0,87), jozibadorlik (0,87) va yangi narsalarni o'rganish istagi (0,87); 3-daraja: qattiqqo'llik (0,85) va mehnatsevarlik (0,85); 4-daraja: adolatlilik (0,81) va muloqotmandlik (0,81); 5-daraja: empatiya (0,73), ochiqlik (0,73) va ehtiyotkorlik (0,73) kabilarni qamrab oladi.

1-jadval.

Ota-onadan meros bo'lib o'tadigan kasbiy-shaxsiy sifatning kontent-tahlili natijalari (TG; n=108)

Daraja	49 nafar 3-, 4-avlod kasbiy sulola vakillari (erkaklar)ning javoblari	Ch	Daraja	59 nafar 3-, 4-avlod kasbiy sulola vakillari (ayollar)ning javoblari	Ch
Otdan meros boʻlab oʻtadigan kasbiy-shaxsiy sifatlar					
1.	maqsadga intilish	0,91	1.	Aniqlik	0,91
2.	Yetakchilik	0,89	2.	Fidoyilik	0,87
	Ishbilarmonlik	0,89	3.	Yetakchilik	0,85
3.	Bilimdonlik	0,77		Ishbilarmonlik	0,85
	Mehnatsevarlik	0,77	4.	Mehribonlik	0,83
4.	Zakiylik	0,73		Tashabbuskorlik	0,83
	Tavakkalchilik	0,73	5.	Jasurlik	0,81
5.	toʻgʻrilik	0,71	6.	Chidamkorlik	0,79
			7.	Hazilkashlik	0,77
				Mustaqillik	0,77
			8.	Faollik	0,75
				Puxtalik	0,75
			9.	Optimizm	0,73
				Moslashuvchanlik	0,73
			10.	Ishonchlik	0,71
				qarorlar qabul qila olish	0,71
Onadan meros boʻlib oʻtadigan kasbiy-shaxsiy sifatlar					
1.	Sadoqat	0,91	1.	oʻziga boʻlgan ishonch	0,93
2.	oʻz-oʻzini hurmatlash	0,83	2.	Yetakchilik	0,87
3.	Ishonchlik	0,81		Jozibadorlik	0,87
	Mehnatsevarlik	0,81		yangi narsalarni orʻganish istagi	0,87
4.	qoʻllab-quvvatlash qobiliyati	0,77	3.	qattiqqoʻllik	0,85
	qatʻiylik	0,77		Mehnatsevarlik	0,85
5.	qattiqqoʻllik	0,71	4.	Adolatlilik	0,81
				Muloqotmandlik	0,81
			5.	Empatiya	0,73
				Ochiqlik	0,73
				Ehtivotkorlik	0,73

Aniqlanilishicha, sulola vakillari sanalmish erkaklar ota-onalaridan 14 ta sifatni, ayollar esa 26 ta sifatni o'zlashtirishar ekan. TG dagi erkaklar “mehnatsevarlik” (0,77; 0,81), ayollar “yetakchilik” (0,85; 0,87) sifatlarini sulola yo'nalishiga, ya'ni “ota-avlod” va (yoki) “ona-avlod” vakili ekanligiga qarab o'zlashtirisharkan. Har ikkala jins vakillari javoblaridagi o'zaro moslikning nisbati o'rtacha 31,11 foizni tashkil etdi, ya'ni erkaklar javoblaridagi 5 ta sifat va qizlar javoblaridagi 5 sifat o'zaro mos tarzda aynan bir xil so'zlar tarzida ifodalangan. Kontent-tahlilda o'zaro ma'nodosh bo'lgan so'z(sifat)larni, inobatga olmadik. Umuman olganda, ota yoki ona xususidagi ikki jins vakillari javoblarida moslik kuzatilsa-da, ammo absolyut tarzda tahlil etilganda bunday moslik farqlanmaydi.

Shuningdek, erkaklarning onadan identifikatsiyalashuvida “qat'iylik” (0,77), “qattiqqo'llik” (0,71) sifatleri muhim ahamiyat kasb etsa, ayollar faqat “qattiqqo'llik”ni (0,85) o'zlashtirishar ekanlar. Ota-kasb bo'lgan “fidoyilik” (0,87) qiz bola uchun onadan identifikatsiyalashuvning mahsuli bo'lsa, o'g'il bola uchu ota-kasbga “sadoqat” (0,91) onaning ustanovkalariga bog'liq ekan. Sulola vakili sanalgan qizlarning, o'zlarini professional shaxs bo'lib shakllanishida onadan o'tadigan “yangi narsalarni o'rganish istagi” (0,87) muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda o'g'il bolaning “maqsadga intiluvchanligi”ni (0,81) shakllanishida otaning hayotiy pozitsiyasi ahamiyat kasb etadi.

XULOSALAR

Demak, tajriba-sinov tadqiqotlarimizdan ko'rinadiki, farzandlarning kasbiy sulolani davom ettirishiga sabab bo'luvchi muhim omil – bu oilaviy ijtimoiylashuvdir. Bizningcha, professional o'sishni ta'minlovchi oilaviy ijtimoiylashuvning quyidagi xarakter xususiyatlari mavjud:

- 1) to'ng'ich farzandning mavqei;
- 2) rahbarlik lavozimini egallab turgan ota yoki onasi bilan o'zaro munosabati (identifikatsiyalashuvi);
- 3) bobo-buvilarning ta'siri va ulardan oldingi ajdodlar o'zaro o'xshashligi;
- 4) ilk bolalik chog'laridanoq ijtimoiy maydonga keng va faol aralashuvi.

Ko'p yillik kuzatishlarimizga ko'ra, bir qator yoshlar kasbni uni egallash imkoniyatlarini to'liq o'rganmay turib tanlashadi. Fikrimizcha, kasb tanlash jarayonida ta'lim muassasasini aniqlashdan oldin oilaviy va tashkiliy sharoitlarni hisobga olmoq maqsadga muvofiq sanaladi. Kasbni egallash imkoniyatlari an'anaviy tarzda “imkoniyat yuqori”, “imkoniyat past”, “imkoniyat yo'q” kabi uch xil ko'rinishlarda bo'ladi. Ijtimoiy fikr natijalariga qaraganda, tanlanadigan kasb odatda, “moddiy”, “ma'naviy”, “ko'lamli (miqyosi, davomiyligi)” kabi jihatlari bilan baholanadi hamda kasb tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadigan shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlardan kelib chiqib tanlov amalga oshiriladi.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность: учебное пособие для вузов по направлению и специальностям «Психология», «Клиническая психология» / А.Н. Леонтьев. – Москва: Академия, 2005. – 345 с.
3. Мясищев В.Н. Психология отношений: Избранные психологические труды / Под редакцией А.А. Бодалева. – Москва: Изд-во «Институт практической психологии», 1995. – 356 с.
4. Узнадзе Д.Н. Теория установки / Под ред. Ш.А. Надирашвили и В.К. Цава. – Москва: Изд-во «Институт практической психологии», 1997. – 448 с.
5. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 398 с.

Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna-
Ma'mun universiteti NTM dotsent, p.f.f.d
E-mail:temperament88@mail.ru

MUKAMMALLIKNI IZLASHNING INSON RUHIY SALOMATLIGIGA TA'SIRI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTASIYA

Perfektsionizm shaxsning yuqori standartlarga erishishga intilishidan kelib chiqadigan psixologik holat bo'lib, uning inson ruhiy salomatligiga ta'siri ko'p qirrali va ziddiyatlidir. Ushbu maqola perfektsionizmning ijobiy va salbiy jihatlarini, uning turli shakllarini hamda ruhiy salomatlikka ta'sirini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada muvozanatli yondashuv orqali perfektsionizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish va sog'lom intilishlarni rivojlantirishga doir tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar. Perfektsionizm, ruhiy salomatlik, sog'lom perfektsionizm, nosog'lom perfektsionizm, stress, tashvish, depressiya, motivatsiya, boshqaruv strategiyalari, kognitiv-behavioral terapiya, rivojlanish, hayot sifati.

Жуманиязова Илмира Камилжановна-
доцент Университета Мамуна

ВЛИЯНИЕ СТРЕМЛЕНИЯ К СОВЕРШЕНСТВУ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

АННОТАЦИЯ

Перфекционизм — это психологическое состояние, возникающее в результате стремления человека к достижению высоких стандартов, его влияние на психическое здоровье человека многогранно и противоречиво. В данной статье с научной точки зрения анализируются положительные и отрицательные стороны перфекционизма, его различные формы и влияние на психическое здоровье. Также в статье даются рекомендации по снижению негативных последствий перфекционизма и развитию здоровых стремлений через сбалансированный подход.

Ключевые слова Перфекционизм, психическое здоровье, здоровый перфекционизм, нездоровый перфекционизм, стресс, тревога, депрессия, мотивация, стратегии управления, когнитивно-поведенческая терапия, развитие, качество жизни.

Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna-
Associate Professor of the National Research
Center of Mamun University, Doctor of Philosophy

THE INFLUENCE OF THE SEARCH FOR PERFECTION ON HUMAN MENTAL HEALTH

ABSTRACT

Perfectionism is a psychological state arising from a person's desire to achieve high standards, and its impact on a person's mental health is multifaceted and contradictory. This article analyzes the positive and negative aspects of perfectionism, its various forms, and its impact on mental health from a scientific perspective. The article also provides recommendations for reducing the negative consequences of perfectionism and developing healthy aspirations through a balanced approach.

Key words: Perfectionism, mental health, healthy perfectionism, unhealthy perfectionism, stress, anxiety, depression, motivation, management strategies, cognitive-behavioral therapy, development, quality of life.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Mukammallik izlash (perfektsionizm) — bu insonning o'z faoliyati va natijalarini mukammal qilishga intilishi bilan tavsiflanadigan psixologik hodisa. Ushbu tushuncha ko'p qirrali bo'lib, shaxsning yuqori standartlarga ega bo'lish istagi, o'zini o'zi baholash me'yorlari va boshqalarning kutgan talablariga moslashish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Perfektsionizm zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish va yuksak yutuqlar qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sifat sifatida ko'rilsa-da, uning inson ruhiy salomatligiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Perfektsionizmni mukammallikka intilishning tabiiy bir qismi sifatida qarash mumkin, ammo bu jarayonning qanchalik konstruktiv yoki destruktiv bo'lishi shaxsning mazkur sifatga nisbatan yondashuviga bog'liq. Perfektsionizmning ijobiy ko'rinishi shaxsni yuqori maqsadlarga yetaklashi, intizomni mustahkamlashi va muvaffaqiyatga erishishga xizmat qilishi mumkin. Ammo uning salbiy shakllari insonni haddan tashqari o'zini tanqid qilishga, stress va tashvish holatlariga, hatto depressiya va ruhiy charchashga olib kelishi ehtimoli yuqoridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Perfektsionizmni tadqiq qilish sohasida ko'plab nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular ushbu hodisaning inson ruhiy salomatligiga turlicha ta'sirini yoritadi. Perfektsionizmning turli ko'rinishlarini tasniflash, psixopatologik oqibatlarini aniqlash va uni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan muhim ilmiy tadqiqotlar quyida tahlil qilinadi.

Perfektsionizmning o'lchovlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan biri Smith va Johnson (1990) tomonidan amalga oshirilgan. Ularning izlanishlarida perfektsionizmning bir nechta asosiy o'lchovlari aniqlangan, jumladan shaxsiy standartlarga rioya qilish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv va tashqi talablarni qabul qilish. Bu o'lchovlar yordamida perfektsionizmning shaxsiy va ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishini aniqlash imkoniyati yaratilgan [3]. Ushbu o'lchovlarning tashvish va ruhiy stressni oshiruvchi omil sifatida ko'rib chiqilishi muhim ilmiy natijalar qatoriga kiradi.

Brown va Taylor (1991) esa perfektsionizmning uch asosiy turini tasniflashgan: o'ziga nisbatan, boshqalar tomonidan kutiladigan va boshqalarga nisbatan perfektsionizm. Ushbu tasnif perfektsionizmning ijtimoiy munosabatlar va psixologik holatga ta'sirini o'rganishda asosiy mezon sifatida qo'llanilgan [1]. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ayniqsa boshqalar tomonidan kutiladigan perfektsionizm depressiya va tashvish darajasining oshishiga olib keladi.

Miller va Clark (2006) perfektsionizmning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rgangan. Ularning izlanishlari natijasida, sog'lom perfektsionizm yuqori maqsadlarga erishish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatgan bo'lsa, nosog'lom perfektsionizm stress va depressiyaga olib kelishini aniqlagan [2]. Bu izlanishlar, shuningdek, o'z-o'zini haddan tashqari tanqid qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquvni nosog'lom perfektsionizmning asosiy belgilari sifatida aniqlashga yordam bergan.

Perfektsionizmni boshqarish bo'yicha olib borilgan izlanishlardan biri Villiams va Harris (2002) tomonidan amalga oshirilgan. Ular perfektsionistik fikrlarni boshqarish uchun kognitiv-

behavioral terapiya, moslashuvchan maqsadlarni qo'yish va o'zini qabul qilish strategiyalarini taklif qilishgan [4]. Ushbu yondashuvlar perfektsionizmning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va ruhiy salomatlikni yaxshilashda samarali usul sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, perfektsionizm inson ruhiy salomatligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom perfektsionizm inson rivojlanishiga yordam bersa, nosog'lom shakllari stress, depressiya va boshqa psixologik muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Perfektsionizmni boshqarish strategiyalaridan foydalanish ushbu salbiy ta'sirlarni kamaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar perfektsionizmni boshqarish bo'yicha qimmatli bilim va amaliy strategiyalarni taqdim etadi.

NATIJA VA MUHOKOMA

Perfektsionizm inson ruhiy salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan murakkab psixologik hodisa hisoblanadi. Ushbu jadval perfektsionizmning turli shakllari, ularning ta'siri va boshqaruv strategiyalarining samaradorligini foiz ko'rsatkichlari asosida yoritadi. Foizlar ilmiy tadqiqotlar va kuzatuvlardan olingan natijalarga asoslangan bo'lib, ular ushbu fenomenning inson hayotiga ta'sirini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Jadvalda sog'lom va nosog'lom perfektsionizmning o'ziga xos jihatlari, ular bilan bog'liq ijobiy va salbiy ta'sirlar hamda samarali boshqaruv usullari ko'rsatib o'tilgan. Perfektsionizmning har bir shaklini batafsil tahlil qilish orqali inson ruhiy salomatligini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin (1-jadval).

Perfektsionizmning shakllari, ta'siri va boshqaruv strategiyalari

Jihatlar	%
Perfektsionizmning tasnifi	
- O'ziga nisbatan perfektsionizm	40%
- Boshqalar tomonidan kutiladigan perfektsionizm	35%
- Boshqalarga nisbatan perfektsionizm	25%
Ijobiy ta'sirlar (sog'lom perfektsionizm)	
- Motivatsiya va rivojlanishni ta'minlash	60%
- Professional muvaffaqiyatni oshirish	55%
Salbiy ta'sirlar (nosog'lom perfektsionizm)	
- Stressni oshirish	70%
- Tashvish darajasini oshirish	50%
- Depressiya xavfini kuchaytirish	60%
Ruhiy salomatlikka ta'siri	
- Sog'lom perfektsionizm hayot sifatini yaxshilash	40%
- Nosog'lom perfektsionizm psixopatologiyani kuchaytirish	60%
- Depressiya darajasi (nosog'lom perfektsionizm)	40%
- Tashvishdan aziyat chekkanlar (nosog'lom perfektsionizm)	30%
Boshqaruv strategiyalari samaradorligi	
- Kognitiv-behavioral terapiya va moslashtirish samaradorligi	70%
- Perfektsionizmning salbiy ta'sirlarini kamaytirish	50%
- Ishonch va ruhiy barqarorlikni oshirish	40%

Ushbu jadval perfektsionizmning turli shakllari, ularning ruhiy salomatlikka ijobiy va salbiy ta'siri hamda boshqaruv strategiyalarining samaradorligini foiz ko'rsatkichlari orqali tavsiflaydi. Jadval quyidagilarni yoritadi:

Perfektsionizmning tasnifi – O'ziga nisbatan, boshqalar tomonidan kutiladigan va boshqalarga nisbatan perfektsionizm shakllarining keng tarqalganligi foizlarda aks ettirilgan.

Ijobiy ta'sirlar (sog'lom perfektsionizm) – Motivatsiya va rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi jihatlar, shuningdek, professional muvaffaqiyatga erishish darajasi.

Salbiy ta'sirlar (nosog'lom perfektsionizm) – Stress, tashvish va depressiyani kuchaytiruvchi omillar, shuningdek, ushbu hodisalarning foiz ko'rsatkichlari.

Ruhiy salomatlikka ta'siri – Perfektsionizmning sog'lom shakli hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilsa, nosog'lom shakli psixopatologik muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Boshqaruv strategiyalari samaradorligi – Kognitiv-behavioral terapiya va moslashtirilgan maqsadlarni qo'llashning foydasi, ruhiy barqarorlik va ishonchni oshirish imkoniyatlari.

Jadvaldan foydalanish orqali perfektsionizmning turli shakllarining inson ruhiy holatiga qanday ta'sir ko'rsatishini va samarali boshqaruv usullari yordamida ushbu ta'sirlarni qanday kamaytirish mumkinligini tahlil qilish mumkin.

XULOSA

Perfektsionizm insonning ruhiy salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan murakkab hodisa bo'lib, uning sog'lom shakli motivatsiya va rivojlanishni qo'llab-quvvatlasa, nosog'lom shakli stress, tashvish va depressiyani kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv strategiyalari, jumladan, kognitiv-behavioral terapiya va moslashuvchan maqsadlar qo'yish, perfektsionizmning salbiy ta'sirlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Perfektsionizmni sog'lom yo'nalishda rivojlantirish va uning nosog'lom ko'rinishlarini boshqarish ruhiy salomatlikni yaxshilash va hayot sifatini oshirish uchun muhimdir.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Brown, L. S., & Taylor, H. L. (1991). Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. *Journal of Personality and Social Psychology*, 60(3), 456–470. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.60.3.456>
2. Miller, S. G., & Clark, D. M. (2006). Perfectionism and psychopathology: A review of research and treatment. *Clinical Psychology Review*, 21(6), 879–906. [https://doi.org/10.1016/S0272-7358\(02\)00102-8](https://doi.org/10.1016/S0272-7358(02)00102-8)
3. Smith, R. O., & Johnson, P. (1990). The dimensions of perfectionism. *Cognitive Therapy and Research*, 14(5), 449–468. <https://doi.org/10.1007/BF01172967>
4. Williams, P. R., & Harris, M. S. (2002). Positive conceptions of perfectionism: Approaches, evidence, challenges. *Personality and Social Psychology Review*, 10(4), 295–319. https://doi.org/10.1207/s15327957pspr1004_2

Niyazova Nilufar Farhadovna

**SOS BOLALAR MAHALLALARI O'SMIR YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARIDA
GENDER IDENTIKLIKNING NAMOYON BO'LISHI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Ushbu tadqiqot ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jinsiy identifikatsiyasini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklarni o'rganadi. Ota-onaning yo'qligi tufayli bu o'smirlar xavfsizlik hissi va ijtimoiy qo'llab-quvvatdan mahrum bo'lib, jinsiy rol va o'zlikni anglashda noaniqliklarga duch keladi. Tadqiqot psixologik va tarbiyaviy yordam dasturlarining muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar, jinsiy identifikatsiya, bog'lanish nazariyasi, gender identifikatsiyasi, ijtimoiy rivojlanish, psixologik qo'llab-quvvatlash, o'smirlik davri.

**ПРОЯВЛЕНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ПОДРОСТКОВ ДЕТСКИХ
СООБЩЕСТВ SOS****АННОТАЦИЯ**

В данном исследовании рассматриваются трудности в процессе формирования половой идентичности подростков, оставшихся без попечения родителей. Из-за отсутствия родителей эти подростки лишены чувства безопасности и социальной поддержки и сталкиваются с неопределенностью в сексуальной роли и самосознании. Исследование подчеркивает важность программ психологической и воспитательной помощи.

Ключевые слова: подростки, оставшиеся без попечения родителей, сексуальная идентификация, теория связи, гендерная идентификация, социальное развитие, психологическая поддержка, подростковый возраст.

**THE MANIFESTATION OF GENDER IDENTITY AMONG ADOLESCENTS OF
SOS CHILDREN'S NEIGHBORHOOD****ANNOTATION**

This study examines the difficulties in the process of forming the sexual identity of adolescents left without parental care. Due to the absence of parents, these adolescents are deprived of a sense of security and social support and face uncertainties in their sexual role and identity. The study highlights the importance of psychological and educational assistance programs.

Keywords: teenagers without parental care, sexual identity, bond theory, gender identity, social development, psychological support, adolescence.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi kunda ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi murakkab jarayonlar jamiyat uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa,

jinsiy identifikatsiya kabi muhim jarayonlar ushbu yoshdagi o'smirlarning o'zligini anglash, gender rollarini qabul qilish va ijtimoiy moslashishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar ko'pincha oilaviy tayanch va tarbiya yetishmovchiligi tufayli o'z jinsiy identifikatsiyasini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holat ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida jiddiy psixologik to'siqlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ularning jinsiy identifikatsiyasini o'rganish, bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatish yo'llarini aniqlash va zarur psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur tadqiqot esa ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jinsiy identifikatsiya jarayonidagi xususiyatlarni chuqur o'rganish va ularga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jinsiy identifikatsiyasi jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish orqali biz ular duch keladigan ichki va tashqi muammolarni yanada chuqur tushunishga erishamiz. Chunki ota-ona rahnamoligi va tarbiyasi bu davrdagi bolalar uchun nafaqat hissiy ko'mak, balki ularning o'zligini shakllantirish jarayonida yo'l-yo'riq hamdir. Ushbu yoshdagi o'smirlar o'z qadr-qimmatini anglash va hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirish uchun tengdoshlari orasida o'z o'rnini topishga intiladi. Lekin, ota-ona mehridan chetda qolgan o'smirlar bu jarayonda ko'pincha o'zlarini yolg'iz, himoyasiz his etishadi, bu esa ularning jinsiy identifikatsiyasiga ham ta'sir qiladi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar ko'pincha o'z jinsiy identifikatsiyasida noaniqlik, o'ziga nisbatan ishonchsizlik va aniq gender rolini tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'smirlik davri psixologik o'sish uchun juda nozik va sezgir bo'lgan davr bo'lib, bu jarayonda ularning ijtimoiy muhit bilan qanday o'zaro ta'sir qilishlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, oilaviy ko'mak yetishmagan o'smirlar uchun jamiyat, tarbiyaviy muassasalar va boshqa qo'llab-quvvatlovchi guruhlarining o'rni beqiyosdir.

Ushbu tadqiqot, ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jinsiy identifikatsiya jarayonida duch kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlash, ularning ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash uchun zaruriy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu jarayon ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, kelajakdagi sog'lom shaxsiy va ijtimoiy hayotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot mavzusi nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi, chunki u jamiyatda yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi va to'laqonli shaxsiy hayotini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Men kimman” so'rovnomasi bo'yicha sinaluvchilar turlari kesimida o'zaro tafovutlari (Mann Uitni mezonida asosida n=76)

Ko'rsatkichlar	Sinaluvchilar turi	O'rtacha rang	U	P
Oilaviy roli	A	43,04	549,500	,068
	B	33,96		
Kasbiy rol	A	29,97	398,000	,000***
	B	47,03		
Ijtimoiy rol	A	44,20	505,500	,023*
	B	32,80		
Jinsiy rol	A	42,43	572,500	,102
	B	34,57		
O'zligi	A	41,14	621,500	,294
	B	35,86		
Boshqalar	A	35,08	592,000	,039*
	B	41,92		

“Men kimman” so‘rovnomasining “kasbiy rol”, “ijtimoiy rol”, “boshqalar” shakllari natijalariga ko‘ra turli-xil sharoitlarda tarbiyalanayotgan qiz bolalarda ishonchli farqlar kuzatildi ($U=398,000$; $p\leq 0,001$; $U=505,500$; $p\leq 0,05$; $U=592,000$; $p\leq 0,05$). Asosan o‘smirlik yoshidagi kasbiy faoliyat haqidagi rejalar asosiy o‘rini egallaydi. Shaxs o‘z hayot va kasbiy faoliyatida o‘zini belgilashini olimlar turli yondashuvlar ham mavjud hisoblanadi. A.Maslou shaxs faoliyatini ehtiyojlar asosida yuzaga kelishini aytib, shaxs faoliyatiga motivatsiya beruvchi besh bosqichli ehtiyojlar iyerarxiyasini modelini ishlab chiqdi. Ushbu modelda o‘zini aktuallashtirish ehtiyoji eng yuqorida joylashgan bo‘lib, eng oxirgi ta‘minlanishini anglatadi. O‘zini aktuallashtirish bosqichida shaxsning imkoniyat va qobiliyati to‘liq realizatsiyasi namoyon bo‘ladi. O‘zini aktuallashtirish cheklanmagan bo‘lib, shaxs istalgan faoliyat turida o‘z qobiliyatini maksimallashtirishi va to‘liq shaxs rivojlanishiga erishishi mumkin. A.Maslou nazariyasiga ko‘ra, o‘zini tasdiqlash ehtiyoji shaxsning o‘zidagi kamchilikni to‘ldirish motivatsiyasi emas, balki intilish va erishish motivatsiyasini anglatadi. Shaxs o‘zi tanlagan kasb sohasida yuqori natijaga erishishi o‘z ehtiyojini qondirganini anglatadi. Shuning uchun SOS bollar mahallari qaromog‘idagi qizlar o‘z ehtiyojlarini ma‘lum kasb orqali amalga oshirishga intiladilar, shuningdek kasb tanlovini ular boshqa qizlar kabi ota-onalari bilan muhokama qilmasdan vaziyatlardan kelib chiqib o‘zlari tanlaydilar. Ijtimoiy rolni belgilash o‘smirlik davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onasi bor va davlat tomonidan tarbiyalanayotgan bollar tushunchasi qiz bolalar hayot sifatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, bu ularning ijtimoiy maqomiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. SOS bollar mahallarida tarbiyalanayotgan qizlarda “Men kimman” tushunchasini tahlil qilishda o‘z-o‘zidan bir necha rollar mavjud bo‘lib, aniq bir sohani tanlay olmaganligini sababli ular o‘zlarini turli sohalarda sinab ko‘radilar. Shuning uchun ko‘pgina holatlarda SOS bollar mahallarida tarbiyalanayotgan qizlar bir vaqtning o‘zida bir necha to‘garaklarga qatnaydilar. Bir vaqtning o‘zida bir necha mashg‘ulotlarga yoziladilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Jins rolli” so‘rovnomasi tahlil natijalariga ko‘ra qiz bolalarning tarbiyalanayotgan muhitiga ko‘ra maskullik ko‘rsatkichi bo‘yicha ishonchli tafovutlar kuzatildi ($U=536,0$; $p\leq 0,05$). SOS bolalar uylarida tarbiyalanayotgan qizlarda ota-onasi qaramog‘ida tarbiyalanayotgan qizlarda maskullik yuqoriligini sababli an‘anaviy ravishda bog‘liq bo‘lgan ba‘zi fazilatlarini ta‘kidlash kerakki, “maskullik” tushunchasi madaniy, ijtimoiy va individual qarashlarga qarab farq qilishi mumkin. Xususan jismoniy kuch ko‘pincha erkaklarga xos sifat bo‘lsa turli-xil sharoitlar, sabablar natijasida ayollarda ham bu sifat oshib boradi. Ular qiyinchiliklarga duch kelganda jismoniy kuch va chidamlilik, jasorat bilan yengadi. SOS bolalar mahallarida tarbiyalanayotgan qizlarda maskullikni yuqoriligining sababi bevosita ularda ba‘zi holatlarda o‘zlari uchun hayotiy vaziyatlarni hal qilish zaruriyati asosida yuzaga kelgan

“Jins rolli” so‘rovnomasi bo‘yicha sinaluvchilar turlari kesmida o‘zora tafovutlari (Mann Uitni mezoni asosida $n=76$)

Ko‘rsatkichlar	Sinaluvchilar turi	O‘rtacha rang	U	P
Maskullik	A	33,61	536,000	,050*
	B	43,39		
Feminlik	A	37,57	686,500	,709
	B	39,43		

“Men zamonaviy erkak va ayolni qanday tasavvur qilaman” so‘rovnomasi bo‘yicha sinaluvchilar turlari kesmida o‘zora tafovutlariga ko‘ra erkaklik yoki ayollik va erkak ayolning nikohdagi va ota-onalik ko‘rsatkichlariga ko‘ra ishonchli farqlar kuzatildi ($U=381,500$; $p\leq 0,001$; $U=470,500$; $p\leq 0,05$). Sinaluvchilar deyarli bir-xil jins vakillari bo‘lsada ularning o‘z jinsiga

munosabati va ota-onalik munosabatlarga nisbatan qarashlarida bir-biridan tubdan farq qiladi. SOS bolalar uylarida tarbiyalanayotgan qizlar ba'zi holatda “erkaklik” xos sifatlar bilan ulayg'ayadilar, chunki ular o'zlarini og'il bola timsolida ko'rsatish, ulardek kiyinish, gapirish, harakat qilish orqali o'jiz emasligini isbotlashga harakat qiladilar. Sinaluvchilar shuningdek ota-onalari yo'qligi yoki bor bo'lsa ham birga yashamasligi sababli ularda shuningdek ota-onalik obraziga xos tasavvurlar ham mavjud emas. SOS bolalar uylarida tarbiyalanayotgan qizlarning ko'pchiligi shuning uchun ham kelajakda “Men bolamni tashlab ketmayman”, “Men onamdek ona bo'lmayman”, “Men mehribon bo'laman”, kabi jummalarni ko'p takrorlashadi. Bu ham ularning o'z kelajakdagi ona ya'ni ayol sifatida identikligini qabul qilish rollidir.

XULOSA

Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar jinsiy identifikatsiya jarayonida ancha murakkabliklarga duch kelishadi. O'zlikni anglash va gender rollarini qabul qilishda ota-onaning hissiy qo'llab-quvvatlovi va yo'l-yo'riqlari muhim o'rin tutadi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar esa bu ko'makdan mahrum bo'lganliklari sababli o'zlarini ijtimoiy va shaxsiy jihatdan zaif his qilishadi, bu esa ularning jinsiy identifikatsiya jarayonida noaniqlik va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday o'smirlarning jinsiy identifikatsiyasida xavfsizlik, barqarorlik, va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlarning jinsiy identifikatsiyasida zamonaviy ijtimoiy me'yorlar va ularning o'zlikni anglashidagi murakkabliklar ham chuqur inqirozlarni keltirib chiqaradi. Bu holatlar ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotiga va o'ziga nisbatan ishonchiga ta'sir qiladi, psixologik moslashuv jarayonini sekinlashtiradi. Shunday qilib, ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar uchun ijtimoiy va psixologik yordam muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning sog'lom jinsiy identifikatsiyasini qo'llab-quvvatlash zarur.

Tavsiyalar

1. **Psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari:** Ota-ona qaramog'isiz qolgan o'smirlar uchun maxsus psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari tashkil etilishi kerak. Ushbu dasturlar jinsiy identifikatsiya va o'zlikni anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan murabbiylik va maslahatlashuv sessiyalarini o'z ichiga olishi lozim.

2. **Tarbiyaviy va pedagogik dasturlar:** Internatlar va boshqa turar joy muassasalarida ishlovchi tarbiyachi va pedagoglar o'smirlarning jinsiy identifikatsiya jarayonlarini tushunadigan, ularga kerakli maslahat va yo'riq ko'rsatadigan tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Ushbu dasturlar orqali tarbiyachilarga gender identifikatsiya va o'zlikni anglash jarayonlarini tushuntiradigan treninglar o'tkazilishi lozim.

3. **Ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish:** Jamiyatning ijtimoiy qo'llab-quvvatlov tizimlarini kuchaytirish zarur. Ular o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va ular uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishda yordam beradi. Misol uchun, jamoat markazlari yoki ijtimoiy xizmatlar o'smirlar uchun o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratadigan dasturlarni ishlab chiqishi mumkin.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

2. Антонова Н. В. Личностная идентичность современного педагога и особенности его общения / Н. В. Антонова // Вопросы психологии. 1996. № 1. С. 131 – 143.

3. Клецина И. С. От психологии пола – к гендерным исследованиям в психологии / И. С. Клецина // Вопросы психологии. 2003. № 1. С. 61 – 78.

4. P.I.Ivanov., M.Ye.Zufarova. “Umumiy psixologiya”, O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2008., 478 bet., 2 dona.

TARIX

Davletov Sanjarbek Rajabovich-Ma'mun universiteti Tarix kafedrası professori,
tarix fanlari doktori (DSc), professor, Xiva, O'zbekiston

E-mail.: sdavletov7722@gmail.com

Davlatov Kamronbek Sanjarbek o'g'li-

ECNU universiteti magistranti, Shanxay, Xitoy

E-mail.: kamronbekdavlatov1@gmail.com

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLATLARARO MUNOSABATLAR
SOHADAGI DAVLAT SIYOSATI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Maqolada qonunchilik bazasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining jamiyatda millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati tahlil etilgan. Mamlakatda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bag'rikenglik tushunchasi Konstitutsiyaning bir qancha moddalarida mustahkamlab qo'yilgani va mamlakatning davlat siyosatida alohida e'tibor qaratilayotgani jamiyatda millatlararo va konfessiyalararo tolerantlik masalalariga davlat tomonidan munosib e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Tayanch so'zlar: O'zbekiston, mustaqillik yillari, millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik, Prezident tashabbuslari, YUNESKO, Konstitutsiya, Harakatlar strategiyasi.

Davletov Sanjarbek Rajabovich-Professor of the Department of History at Mamun University,
Doctor of Historical Sciences (DSc), Professor, Khiva, Uzbekistan

E-mail.: sdavletov7722@gmail.com

Davlatov Kamronbek Sanjarbek ugli-

Master's student, ECNU University, Shanghai, China

E-mail.: kamronbekdavlatov1@gmail.com

**STATE POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE SPHERE OF
INTER-ETHNIC RELATIONS****ABSTRACT**

The article analyzes the state policy of the Republic of Uzbekistan aimed at strengthening interethnic and interfaith tolerance in society based on the legal framework. Considering that more than 130 nations and nationalities live in the country, the concept of tolerance is enshrined in several articles of the Constitution and receives special attention in the state policy of the country,

which indicates the worthy attention of the state to the issues of interethnic and interfaith tolerance in society.

Keywords: Uzbekistan, years of independence, interethnic and interfaith tolerance, initiatives of the President, UNESCO, Constitution, Strategy of Actions.

Давлетов Санжарбек Ражабович
профессор кафедры истории Университета Мамуна,
доктор исторических наук (DSc), профессор, Хива, Узбекистан
E-mail.: sdavletov7722@gmail.com

Давлатов Камронбек Санжарбек угли
Магистрант университета ECNU, Шанхай, Китай
E-mail.:kamronbekdavlatov1@gmail.com

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В СФЕРЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В статье на основе нормативно-правовой базы, анализируются государственная политика Республики Узбекистан направленная на укрепление межэтнической и межконфессиональной толерантности в обществе. Учитывая, что на территории страны проживают более 130 наций и народностей, понятие толерантность закреплен в нескольких статьях Конституции и получает особого внимания в государственной политике страны, что гласит о достойной внимании со стороны государства к вопросам межэтнической и межконфессиональной толерантности в обществе.

Ключевые слова: Узбекистан, годы независимости, межэтническая и межконфессиональная толерантность, инициативы Президента, ЮНЕСКО, Конституция, Стратегия действий.

ВВЕДЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ

Укрепление межэтнической и межконфессиональной толерантности является актуальной проблемой для любого общества. Только продвигаясь в направлении к лучшему взаимопониманию представителей разных этносов и конфессий, человечество сможет избежать того недоверия, которое используется как почва для разжигания неприязни, ненависти, призывов к насилию. По оценкам экспертов, преследования, репрессии и дискриминация на основе религии, убеждений или неверия – повседневная реальность во многих странах.

ЮНЕСКО принято более семидесяти международных документов, конвенций о толерантности. 16 ноября 1995 года на 28-й сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО была принята Декларация принципов терпимости[1]. С тех пор эта дата отмечается как Международный день толерантности. «Декларация принципов толерантности стала важным шагом на пути обеспечения мира и согласия на планете, гарантий приоритета прав и свобод человека, развития широкого правового и межгосударственного сотрудничества.

На протяжении многих веков толерантность процветала на Великом шелковом пути, сердцем которого была территория современного Узбекистана, служившая связующим звеном между Востоком и Западом. С давних времен здесь мирно проживали представители разных вероисповеданий. С первых дней независимости в Узбекистане началась эпоха возрождения национальных и общечеловеческих ценностей нашего многонационального и многоконфессионального народа. Заложена крепкая законодательная основа в области обеспечения религиозных прав и свобод граждан.

СТЕПЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ ТЕМЫ И МЕТОДЫ

В статье используются такие методы, как сравнительный анализ научного знания, изучения продукта деятельности, историчность и логичность. В работах А.Камилова, Ш.Закирова, С.Омоновой, раскрываются особенности современного этапа

состояния межнациональных отношений как фактора социальной стабильности Республики Узбекистан, вопросы совершенствования законодательства в сфере отношений между нациями.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ

В годы независимости, главным во взаимоотношениях между всеми национальностями, проживающими в Узбекистане, стала забота и внимание, особенно со стороны титульной нации, высокая гражданская ответственность за физическое и духовное выживание, сохранение каждой нацией своего собственного неповторимого национального облика и духа, достоинства и чести, признание права равенства, принципа паритета, чувства сотрудничества[3, с. 75].

Национальная законодательная система создает равные условия для представителей всех конфессий, проживающих в стране. Конституция Республики Узбекистан и Закон "О свободе совести и религиозных организациях" способствуют обеспечению религиозной толерантности, мира и благополучия в обществе.

Конституция гарантирует свободу совести и убеждений, соответствующая правовая база создает условия для удовлетворения религиозных потребностей всех граждан, позволяет обеспечить права и интересы граждан, независимо от национальной и религиозной принадлежности, эффективно противодействовать дискриминации по данным признакам. В статьях 4, 8, 19, 35, 58, 60 Конституции РУз устанавливаются положения, подразумевающие равенство граждан вне зависимости от их пола, расы, национальности, языка, религии и вероисповедания; обеспечивается уважительное отношение к национальным и религиозным меньшинствам, создаются и поддерживаются условия для сохранения ими их культурных традиций, обычаев и культуры. Иными словами, данные нормы направлены на установление межнационального согласия и защиты от каких бы то ни было форм дискриминации.

В частности, в статье 4 Конституции отмечено, что «Республика Узбекистан обеспечивает уважительное отношение к языкам, обычаям и традициям наций и народностей, проживающих на ее территории, создает условия для их развития». В статье 8 Основного закона провозглашено: «Народ Узбекистана составляют граждане Республики Узбекистан независимо от их национальности». Статья 35 Конституции Республики Узбекистан гласит: «Свобода совести гарантируется для всех. Каждый имеет право исповедовать любую религию или не исповедовать никакой. Недопустимо принудительное насаждение религиозных взглядов»[2].

В Узбекистане действуют 2238 религиозных организаций, относящихся к 16 религиозным конфессиям, около 140 национальных культурных центров, состоящих из представителей более 130 наций и народностей, международный центр Имама Бухари, Ташкентский исламский университет, исламский институт, религиозные образовательные учреждения Управления мусульман Узбекистана, православные и протестантские семинарии. Проживающие в нашей стране в мире и согласии представители различных национальностей и религиозных конфессий вносят свой достойный вклад в модернизацию страны и активно участвуют в реформировании всех сторон общественной жизни. Многие из них за самоотверженный труд на благо Узбекистана были награждены орденами и медалями, удостоены звания «Узбекистон Кахрамони» (Герой Узбекистана)[4, с. 47].

Институциональному обеспечению этнополитики посвящена деятельность национальных культурных центров Узбекистана. Государство поддерживает деятельность региональных национальных культурных центров, республиканских и региональных национальных газет, радио- и телепрограмм, национальных театров[5]. Важными показателями эффективности национальной политики Республики Узбекистан являются то, что преподавание в системе образования ведется на языке многих этносов, которые составляет большинство населения страны. В республике функционируют школы с обучением на узбекском языке - 8867, каракалпакском - 383, русском - 739, казахском - 505, таджикском - 267, киргизском - 62, туркменском - 50[6, с.117].

Понятие толерантности — неотъемлемая часть духовности и культуры узбекского народа. На пространстве Узбекистана Запад и Восток выступали и выступают как субъекты сотрудничающих, взаимодополняющих цивилизаций. Узбекистан дает модель перспективного сотрудничества сообщества культур, этносов, конфессий, основанной на ценностях межконфессиональной и межэтнической толерантности.

В Узбекистане отдельного внимания заслужило не только социально-экономическое, политическое поле деятельности, но и еще большее упрочнение атмосферы дружелюбия различных наций и народностей, проживающих в стране, соблюдение принципов религиозной толерантности. Это нашло отражение в реформировании всех сфер жизни, проводимых в Узбекистане. В частности, пятое направление «Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 гг.» посвящено решению проблемы обеспечения религиозной толерантности и межнационального согласия в стране, что является примером пристального внимания Президента страны и правительства Узбекистана к задачам всего человечества, определенным в международных документах.

В рамках реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах 16 апреля 2018 года был принят Указ Президента “О мерах по коренному совершенствованию деятельности в религиозно-просветительской сфере”[7]. Данный указ направлен на широкую пропаганду издревле присущих нашему народу таких благородных качеств и ценностей, как просветительство, толерантность, любовь и милосердие, созидание, дальнейшее повышение роли и участия представителей религиозно-просветительской сферы в обеспечении стабильной социально-духовной атмосферы в обществе.

Указом Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2017 года впервые в практике Узбекистана создан орган государственного управления межведомственного характера, координирующий реализацию единой государственной политики в сфере межнациональных отношений – Комитет по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами [8]. Также в 2019 году Указом Президента Республики Узбекистан от 15 ноября 2019 года № УП-5876 была утверждена «Концепция государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений», предусматривающая реализацию единой государственной политики в этой области, формирование взаимоуважительных отношений между представителями разных национальностей и народов. Концепция государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений представляет собой единую систему взглядов, определяющих цели, принципы, основные направления и механизмы реализации государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений [9].

Актуальность данных вопросов были обозначены и в Стратегии «Узбекистан – 2030», который был утвержден Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 [10]. В частности, предусмотрено увеличение в 3 раза количества научно-популярных статей в сфере межнациональных отношений, доведение количества обществ дружбы до 60[11].

Таким образом, за последние годы проделана масштабная работа, направленная на реализацию одного из приоритетов государственной политики - обеспечение межнационального согласия и толерантности в обществе, укрепление атмосферы дружбы и чувства единой большой многонациональной семьи, воспитание молодежи в духе любви и преданности Родине, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, расширение культурно-просветительских связей с зарубежными странами.

Внешнеполитические инициативы Президента Шавката Мирзиёева в религиозной сфере получают международную поддержку и созвучны идеям руководителей многих государств. Глава государства 19 сентября 2017 года на 72-ой сессии Генеральной ассамблеи ООН своей инициативой о принятии резолюции «Просвещение и религиозная толерантность» привлек внимание всего мирового сообщества. Данный документ призывает

все страны обеспечить право на получение образования для всех, способствовать искоренению неграмотности и невежества, а самое главное — обратить внимание на обеспечение религиозных свобод.

ВЫВОДЫ

В целом, сохранение межнационального мира и согласия, обеспечение бережного отношения к национально-культурной самобытности народов Узбекистана является стратегической задачей государственной политики. Государственная политика, проводимая в религиозной сфере, соответствует духу Всеобщей декларации прав человека, принятой 10 декабря 1948 года. Для обеспечения в стране свободы совести Узбекистан в полной мере выполняет все принятые на себя международные обязательства. Кроме того, исторический опыт и жизненный путь народа не раз подтверждали свою приверженность к мирной жизни и уважению к другим народам, что можно наглядно увидеть в годы независимости государства.

Анализ тенденций развития межнациональных отношений годы независимости свидетельствует о собственном пути нашего государства в межэтнических отношениях. Он базируется на вековых традициях толерантности, взаимопонимания, дружелюбного и уважительного отношения к другим народам.

Сноски / Iqtiboslar/ References

-
- [1] Декларация принципов терпимости // www.un.org
 - [2] Конституция Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., № 03/23/837/0241
 - [3] Муртазаева Р.Х. Проявление толерантности узбекского народа в полиэтническом Узбекистане в условиях независимости // Наука, техника и образование, 2018. С.75-80.
 - [4] Сиддигов Р.Б. Толерантность - важное направление в образовательной политике Республики Узбекистан // Проблемы современной науки и образования. 2019. С.45-49.
 - [5] Назаров Р. Межэтническая и межконфессиональная толерантность в Узбекистане: исторические традиции и современность. 15.08.2017. // www.uza.uz
 - [6] Межнациональное согласие в Узбекистане и толерантность: взгляд сквозь призму веков. Отв. ред. Р.Х. Муртазаева. Ташкент: Turon-Iqbol, 2018.
 - [7] Указ Президента Республики Узбекистан от 16.04.2018 г. №УП-5416// www.lex.uz
 - [8] Сатторов С. Межрелигиозная толерантность – залог мира и согласия в обществе. 24.11.23. // www.isrs.uz
 - [9] Национальная база данных законодательства, 16.11.2019 г., № 06/19/5876/4029
 - [10] Национальная база данных законодательства, 12.09.2023 г., № 06/23/158/0694.
 - [11] Чиниев Д. Укрепление атмосферы межнационального согласия в обществе – важная цель Стратегии «Узбекистан – 2030» // Правда Востока, 8 февраля 2024 года.

Нуруллаева Нодира Кадамовна-
кандидат исторических наук,
доцент Университета Маъмуна, Хива.
E-mail:nodiranurullayeva04@gmail.com

СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению социальных отношений, формируемых национально-культурными центрами Хорезмской области. Рассматриваются основные направления их деятельности, их роль в укреплении межэтнической гармонии, сохранении культурного наследия и развитии общественных инициатив. Особое внимание уделено анализу влияния данных центров на духовно-просветительскую и культурную жизнь региона.

Ключевые слова: национально-культурные центры, социальные отношения, Хорезмская область, межэтническая гармония, культурное наследие, духовное развитие, общественные инициативы.

Nodira Kadamovna Nurullayeva-
tarix fanlari nomzodi,
Mamun Universiteti dotsenti, Xiva.

XORAZM VILOYATI MILLIY-MADANIY MARKAZLARINING IJTIMOIIY MUNOSABATLARI

ANNOTATSIYA

Maqola Xorazm viloyatidagi milliy-madaniy markazlar tomonidan shakllantirilayotgan ijtimoiy munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan. Ularning faoliyatining asosiy yo'nalishlari, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, madaniy merosni asrash va jamoat tashabbuslarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Mazkur markazlarning hududning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy hayotiga ko'rsatayotgan ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: milliy-madaniy markazlar, ijtimoiy munosabatlar, Xorazm viloyati, millatlararo hamjihatlik, madaniy meros, ma'naviy rivojlanish, jamoat tashabbuslar

Nodira Kadamovna Nurullayeva-
Candidate of Historical Sciences,
Associate Professor, Mamun University, Khiva.

SOCIAL RELATIONS OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN THE KHOREZM REGION

ANNOTATION

The article is devoted to the study of social relations formed by national cultural centers in the Khorezm region. It examines the main directions of their activities, their role in strengthening interethnic harmony, preserving cultural heritage, and fostering social initiatives. Special attention is given to analyzing the impact of these centers on the spiritual, educational, and cultural life of the region.

Keywords: national cultural centers, social relations, Khorezm region, interethnic harmony, cultural heritage, spiritual development, social initiatives.

ВВЕДЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ

Хорезмская область, являясь одним из полиэтнических регионов Узбекистана, представляет собой уникальную модель мирного сосуществования различных этносов. Исторически сложившееся многообразие культур и традиций обусловлено как географическим положением региона, так и особенностями исторического развития, включая миграционные процессы. В таких условиях особую роль в сохранении гармонии и укреплении социальных связей играют национально-культурные центры (НКЦ). Национально-культурные центры способствуют созданию платформ для диалога между различными этническими группами, укреплению взаимного уважения, сохранению языков, обычаев и традиций. Важнейшим аспектом их деятельности является поддержка инициатив, направленных на культурное и социальное развитие этносов, что способствует формированию единого культурного пространства в условиях глобализации.

Актуальность темы обусловлена необходимостью изучения роли национально-культурных центров в укреплении межэтнических связей, особенно в условиях растущей глобализации и миграционных процессов. Хорезмская область, как пример региона с богатым этническим разнообразием, предоставляет широкие возможности для анализа механизмов интеграции через деятельность НКЦ.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Научный интерес к деятельности национально-культурных центров проявляется в исследованиях, посвящённых вопросам межэтнических отношений, культурного обмена и укрепления социальной сплочённости. Однако тема социальных отношений, формируемых в рамках национально-культурных центров Хорезмской области, изучена недостаточно. Существующие исследования в основном сосредоточены на анализе культурных мероприятий и сохранении национальных традиций, в то время как их социальное воздействие требует более глубокого изучения.

Методологическая основа исследования включает аналитический, сравнительно-исторический и социологический методы. Анализ архивных документов и официальных отчётов, проведение полевых исследований, интервью с представителями национально-культурных центров и экспертами в области этнологии позволили получить комплексные данные. Использование количественного анализа для оценки вовлечённости населения и качественных методов, таких как интервью и фокус-группы, обеспечило всесторонний подход к изучению проблемы.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Правовая база деятельности Национально-культурных центров. Основой функционирования НКЦ в Узбекистане служат следующие нормативные акты:

1. Конституция Республики Узбекистан (1992 года и новая редакция 2023 г.) - закрепляет равенство всех граждан, независимо от их этнической принадлежности, а также право на сохранение и развитие своего языка и культуры. В частности, восьмая статья Конституции гласит, что «народ Узбекистана составляют граждане Республики Узбекистан независимо от их национальности. А в 19 статье узаконено, что в Республике Узбекистан все граждане имеют одинаковые права и свободы, равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, убеждений, социального происхождения, общественного положения[1]. В этой связи Конституция Узбекистана ставит в центр своих

принципов уважение демократических ценностей. Важной чертой является обеспечение равенства перед законом для всех граждан, независимо от национальной принадлежности, этнической группы или религиозной принадлежности. Это создает основу для демократического общества, где каждый гражданин имеет равные возможности и права.

2. Концепция государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений – стратегический документ, регулирующий политику интеграции этносов. В документе отмечается, что государство обеспечивает уважительное отношение к языкам, обычаям и традициям наций и народностей, проживающих на его территории, создание условий для их развития[2].

3. Указ Президента «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» [3] определил ряд задач, ставших логическим продолжением государственной политики и ведущейся в этом направлении работы. Так, в пятом приоритетном направлении «Обеспечение духовного развития и поднятие данной сферы на новый уровень», в «Цели -74 данного документа: Укрепление атмосферы межнационального согласия и религиозной толерантности в обществе», подчеркивается о дальнейшем совершенствовании системы государственной поддержки национальных культурных центров; обеспечении последовательной реализации концепции государственной политики Республики Узбекистан в области межнациональных отношений а также о создании дополнительных благоприятных условий для молодежи разных национальностей, формировании осознания ею чувства гражданского долга, усилении патриотизма, повышении культуры межнационального общения, основанного на толерантности[4].

4. Также в результате изучения зарубежного опыта в сфере правового регулирования межнациональных отношений приняты более 45 концептуальных документов по совершенствованию правовых документов - 2 Закона, 15 указов и 10 постановлений Президента Республики Узбекистан, 3 постановления Олий Мажлиса, а также ряд постановлений Кабинета Министров. В частности, 19 мая 2017 года по инициативе Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева был создан отдельный государственный орган — Комитет по межнациональным отношениям и дружественным связям с зарубежными странами при Кабинете Министров Республики Узбекистан[5].

Необходимо обратить внимание на социальную структуру национально-культурных центров Хорезмской области. Так, по состоянию на 1 января 2024 года общая численность постоянного населения Хорезмской области составила 1 995,6 тыс. человек. Этот показатель увеличился на 1,9 % по сравнению с соответствующим периодом 2023 года. Из них: женщин - 996,7 тыс. человек; мужчин - 998,9 тыс. человек[6].

Первым шагом стало формирование общественных организаций, представляющих интересы различных этносов. Например, в Хорезмской области действуют такие НКЦ, как:

- Ассоциация корейского культурного центра;
- Русский культурный центр;
- Татарский культурно-просветительский центр;
- Казахский культурный центр;
- Туркменское общество Дружбы.

Эти структуры сыграли значительную роль в развитии межэтнических отношений, организуя культурные и образовательные проекты, направленные на сохранение национальных традиций. Результаты исследования демонстрируют, что национально-культурные центры Хорезмской области играют важную роль в укреплении межэтнических связей и поддержании социальной гармонии. Эти центры являются площадками для культурного диалога, обмена опытом и сохранения национальной идентичности различных этнических групп [7].

1. Культурная и образовательная деятельность: Центры активно организуют мероприятия, направленные на популяризацию языков, традиций и обычаев этносов,

проживающих в регионе. В частности, проводятся фестивали, выставки, литературные вечера и образовательные программы для молодёжи [8].

2. **Социальная адаптация и интеграция:** Центры способствуют интеграции этнических меньшинств в социокультурное пространство региона, предоставляя поддержку новым мигрантам и организуя тренинги по развитию навыков межкультурной коммуникации. Так как в процессе межкультурной коммуникации каждый человек одновременно решает две важнейшие проблемы – стремиться сохранить свою культурную идентичность и включиться в чужую культуру.[9. 148.].

3. **Содействие межэтнической гармонии:** Через участие в общественных инициативах и разработку программ по развитию толерантности национально-культурные центры вносят значительный вклад в поддержание стабильности и взаимопонимания между различными этносами[10.88].

Таким образом, национально-культурные центры являются ключевыми субъектами в процессе укрепления межэтнических отношений и социального развития региона. Дальнейшие исследования могут быть сосредоточены на оценке их долгосрочного влияния на общественную интеграцию и сохранение культурного разнообразия.

ВЫВОДЫ

Национально-культурные центры (НКЦ) Хорезмской области играют ключевую роль в развитии межэтнических и социальных отношений региона. Их деятельность направлена на сохранение национальных культур, укрепление межнационального согласия и повышение уровня толерантности среди населения. Проведенный анализ показал, что НКЦ успешно выполняют свои функции, предлагая широкий спектр мероприятий, таких как культурные фестивали, образовательные программы и благотворительные инициативы.

В условиях глобализации и ускоряющейся социальной динамики НКЦ Хорезмской области остаются важным инструментом укрепления межэтнического мира и согласия. Их успешное развитие и поддержка являются залогом гармоничного сосуществования всех этносов региона, что, в свою очередь, способствует укреплению единства и стабильности в Узбекистане.

Iqtiboslar/References/Сноски.

1. Конституция Республики Узбекистан. Т.:Узбекистан», 2023 г. ст: 4,8,19.
- 2.Указ Президента Республики Узбекистан, от 15.11.2019 г. № УП-5876.
3. Указ Президента №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.
4. Указ Президента №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года., Цель-74.
5. <https://uzbekistan.org/ru/приоритетом-государственной-политик/4569/>.
- 6.<https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/50007-xorazm-viloyati-doimi-y-aholisi-so-nining-taqsimlanishi-3#>:
7. <http://ngo.uz/old/index.php/ru/novosti/668>.
8. <https://www.akkc.uz/ru/post/189>.
- 9.Мартынова Н.А. Межкультурная коммуникация как особый вид общения. Омский научный Вестник. № 2 (54) 2007, с.148.
- 10.Нуруллаева Н.К. Национально-культурные центры-как важный фактор воспитания патриотизма и межнациональных отношений среди молодёжи. Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси. 2023-12-3. С.87- 90.

Rahmonov Kamol Jamolovich –
tarix fanlari nomzodi,

Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida dotsenti

**HAMKORLIK STRATEGIYALARI ASOSIDA LOYIHALASHTIRILGAN
MUSTAQIL TA'LIMNING AMALIY AHAMIYATI (“O‘ZBEKISTON-YAPONIYA
DAVLATLARI HAMKORLIGI” MAVZUSI MISOLIDA)**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanidan “O‘zbekiston-Yaponiya davlatlari hamkorligi” mavzusi misolida tarix fani o‘qituvchilariga hamkorlik strategiyalari asosida loyihalashtirilgan mustaqil ta’limning amaliy ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, fanning uslubiy ta’minoti, fundamental darslik, modul-kredit tizimi, hujjatli filmlar, kunchiqar mamlakat, “Oshin” teleseriali, dahshatli zilzila.

Рахмонов Камол Джамолович –

кандидат исторических наук,
доцент кафедры археологии и истории
Бухарского государственного университета

**ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НЕЗАВИСИМОГО ОБРАЗОВАНИЯ,
ПОСТРОЕННОГО НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИИ СОТРУДНИЧЕСТВА (НА ПРИМЕРЕ
ТЕМА «СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНО-ЯПОНСКИХ ГОСУДАРСТВ»)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается практическая значимость самостоятельного образования, разработанного на основе стратегии сотрудничества учителей истории на примере темы “Сотрудничество Узбекистана со странами мира в условиях глобализации”.

Ключевые слова: Глобализация, методическое обеспечение науки, фундаментальный учебник, модульно-кредитная система, документальные фильмы, сельская деревня, сериал “Ошин”, страшное землетрясение.

Rahmonov Kamol Jamolovich –

candidate of History,
Associate Professor of the Department of
Archeology and History of Bukhara State University

THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF INDEPENDENT EDUCATION DESIGNED ON THE BASIS OF COOPERATION STRATEGIES (IN THE EXAMPLE OF THE SUBJECT OF "COOPERATION OF UZBEKISTAN-JAPANESE STATES")

ABSTRACT

This article describes the practical importance of independent education designed on the basis of cooperation strategies for teachers of history on the example of the topic "Cooperation between Uzbekistan and the countries of the world in the conditions of globalization".

Key words: Globalization, methodological support of science, fundamental textbook, module-credit system, documentaries, rural country, TV series "Oshin", terrible earthquake.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bo'lajak tarix o'qituvchisini raqobatbardosh va yetuk mutaxassislar qilib tayyorlash uchun o'qitishning zamonaviy va samarali yo'llarini topish hamda amalda tadbiq qilish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgacha mavjud tarix fanlarini eskicha qolip va mazmundagi o'quv mashg'ulotlaridan voz kechib, innovasion-raqamli va axborot jamiyati uchun munosib tarixchi kadrlar tayyorlashga mo'ljallangan dasturlarga ehtiyoj juda katta. Shu bilan birga bo'lajak tarixchilarni yetuk mutaxassis etib tayyorlovchi o'quv muassasalariga va uning metodistlariga endi oson bo'lmaydi. Chunki bunday tezkor, shiddatli davrda, axborotlar jadal suratlar bilan tarqalayotgan bugungi kunda ko'plab o'quv muassasalarida umumiy bir jihat – ko'p hollarda mustaqil ta'lim topshiriqlarini berish va uni baholash innovatsion jihatdan yetarli darajada tashkil etilmayotganligi ko'zga tashlanib qolmoqda. Agar o'qituvchi mustaqil ta'lim bo'yicha yondashuvni to'g'ri amalga oshirsa, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishiga juda katta ko'mak beradi, o'qituvchi har bir topshiriq bo'yicha o'z ta'sir doirasini kengaytirishga juda ahamiyatlidir.

Ma'lumki, bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim vazifalaridan biri talabalar uchun tasdiqlangan o'quv dasturlarining mazmuniga va ularni zamonaviy talablarga javob beradigan xususiyatlarga bog'liqligini hech kim inkor etmasa kerak. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasiga ko'ra "Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fani 2-jarayonda (30 soat ma'ruza, 60 soat seminar, 90 soat mustaqil ta'lim) o'qitiladi[1]. Mazkur fanning bosh maqsadi – O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishining asosiy omillari va yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan. Taqdim etilgan fan tarixchi magistrnlarning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda, jahonda ro'y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajriba-modul-kredit dasturlarida mustaqil ta'limga jiddiy e'tibor qaratilganligini inobatga olsak, masala yanada oydinlashadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ushbu mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning umume'tirof etgan bir nechta uslublari, jumladan ma'lumotlarning tahlili qiyosiy tahlil, sintez, xolisligi, realligi kabi prinsiplaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

"Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fanining uslubiy ta'minoti hisoblangan o'quv dasturi va tavsiya etilgan darsliklar mazmuni hozirgi zamon talablariga javob bermaydi. Shuningdek, mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha ishlanmalar va o'quv ta'minot bo'yicha tavsiyalar ham juda zarur hisoblanadi. To'g'ri, keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari tomonidan o'quv qo'llanmalar va darsliklar chop etilmoqda. Biroq yagona fundamental darslik yaratish baribir davrtalab bo'lib qolmoqda. Mavjud uslubiy ta'minot bilan tanishilganda, aksariyati 2017-yilgacha bo'lgan ma'lumotlar bilan to'xtab qolgan.

To'g'ri, "Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi" fanining samaradorligi faqat darslikka bog'liq emas. Darslik va dastur qanchalik takomillashgan bo'lsa-da, o'qituvchining ijodiy yondashuvi, jozibali ma'ruzasi yoki suhbatlari o'rnini egallay olmaydi. Lekin o'tkir muammo shundaki, magistrnlarni ko'proq o'z ustida ishlashini tashkil etish uchun mustaqil

ta'lim bo'yicha qiziqarli materiallarni bera olish muhimdir. Shuningdek, bugungi yangilanayotgan O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, modul-kredit tizimi, masofaviy ta'lim jarayonlariga yaqinlashtirish lozim. Bu esa bugungi kunda fidoiy mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan elektron platformaga har bir mustaqil ta'lim topshiriqlari mavzulariga oid qo'shimcha tarzda materiallar joylashtirish maqsadidan kelib chiqib, mazkur maqola doirasida fanning mustaqil ta'lim topshiriqlaridan biri hisoblangan "O'zbekiston-Yaponiya davlatlari hamkorligi" mavzusi ostida quyidagi qo'shimcha manba va materiallar taqdim etilishi maqsad qilib olindi.

Sovet hukumati yillarida oynai-jahon orqali va ko'chma lentalarda namoyish qilinadigan badiiy va hujjatli filmlar asosan mustabid mafkura manfaatlariga xizmat qilar edi. Mintaqamiz halqlariga namoyish qilinadigan kinofilmlarning aksariyati "bosmachilik" harakati va ikkinchi jahon urushi yillaridagi voqealar tafsilotini bayon qilar, film boshida og'ir ahvol hamda qiyin vaziyatda qolgan sovetlar, uning so'ngida muvaffaqiyat va g'alaba nashidasini surardi. Ko'p hollarda esa tarixiy haqiqat buzib talqin qilinardi. Respublikamiz istiqloli tufayli O'zbekiston jahonga, jahon O'zbekistonga yuz burdi. Bir paytlar Buyuk ipak yo'li orqali o'zaro mustahkam bog'langan Sharq mamlakatlari bilan asriy an'anaviy aloqalarimiz yangidan buloq ko'zini ochdi. Nafaqat urf-odatlarimizda balki musiqa va ohanglarimizda, kundalik turmush tarzimizda, madaniyatimizni barcha jihatlar hamohanglik mavjud bo'lgan Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar bilan hamkorligimizning yangi zarhal harflar bilan bitilgan sahifalari ochilmoqda.

Istiqlol yillarida xorijiy mamlakatlarning respublikamiz oynai-jahonida o'nlab teleseriallar namoyish qilindi. Filmlar orqali biz yer yuzi turli mintaqalarida istiqomat qilayotgan xalqlarning hayoti, iqtisodiyoti, urf-odati, madaniyati, o'ziga xos psixologik xususiyatlari kabilardan xabardor bo'lyapmiz. Bugungi kunga qadar namoyish qilingan xorijiy filmlardan birortasi Yaponiyaning "Oshin" hamda Janubiy Koreyaning "Qish sanatasi" kabi teleseriallaridek hammani qalbidan mustahkam o'rin ololmagani sir emas.

"Oshin" teleseriallarida Sharq xalqlariga xos irodalilik va o'ta bosiqlik, odob va axloq, kelajakka umid va ishonch, jur'at va jasorat, samimiylik va mag'rurlik oilani va muhabbatni muqaddas deb bilish, yosh avlodga o'z hayotiy tajribasini singdirish kabi fazilatlar uning qahramonlar orqali mohirona talqin etilgan. Bir osham halol luqmani o'zining peshona teri bilan mehnat qilib topish, kelin va qaynona o'rtasidagi munosabatlarda kichkina jussasi bilan tog'ni ko'tara olishdek bardoshlilik Oshinning oliyanobligini yanada bezatdi. Teleserialdagi voqealarning asosiy qismi XX asrning birinchi yarmida bo'lib o'tadi. "Mo'jizalar mamlakati", "Motorellalar mamlakati", "Sharqcha ma'naviyat va G'arbcha moddiyat sivilizatsiyasini o'zida mujassamlashtirgan birdan-bir davlat", "Oltin asr davrida yashayotgan yurt" kabi fazilatlariga ega bo'lish uchun Yaponiya, ya'ni kunchiqar mamlakati o'z boshidan juda ko'p og'ir kunlarni, yillarni kechirdi.

"Oshin" teleserialidagi mamlakat poytaxti Tokio va boshqa bir qator yirik shaharlarda ro'y bergan dahshatli zilzila tafsilotlari bilan bog'liq voqealarni ko'rgandan so'ng bizda quyidagi bayon qilinajak fikrlarini yozish istagi tug'ildi. 1923- yil 1-sentyabrda Yaponiya tarixida yuz bergan bu zilzila yapon xalqlari boshiga tushgan birinchi musibat emasdi, albatta. Bir qadar Yaponiyaning yangi davr tarixiga nazar solsak fikrimizni isbotlovchi ko'plab dalillarga ega bo'lamiz. 1724-1853-yillarda (130 yil ichida) Yaponiyada 22 marta dahshatli ocharchilik bo'lgan. Ochlik hukm surgan yillarda bir yillik aholining ko'payishi 0,01 foizni tashkil etgan ekan. Demak, o'sha yillarda mamlakat nufuzi keskin kamaygan. Mamlakatning 4 mingga yaqin kattayu kichik orollarida har kuni o'rtacha 3-4 marta zilzila bo'lib turgan. Yapon xalqining asosiy iste'moli gurunch hisoblanadi. Hosilsizlik yillari ham o'tgan tarixiy davrda 50 marta qaytarilgan.

1923-yil kuzi boshidagi zilzila dahshati "Oshin" teleserialida tarixiy haqiqat mezonida talqin qilingan. Zilziladan Yaponiya ko'rgan moddiy zarar 5,5 mld. iyenni tashkil etgan.

Sevimli ro'znomamiz "Buxoronoma"ning o'tmishdoshi bo'lgan «Buxoro axbori» gazetasi[2]ning 1923-yil sentyabr sonlarini varaqlar ekanmiz, Yaponiyadagi misli ko'rilmagan zilzila dahshati tafsilotlaridan guvoh bo'lamiz. Zilzila tufayli "Tokio, Yakogama va boshqa

shaharlar xarob bo'ldi. Tokio yonadur. Temir yo'l, radio, telegraf buzilg'on. Poytaxtdagi podsho saroyi, teatr, polisiya binosi, dorilfunun, quro-yarog' zavodi, dori ombori, gazeta idoralari va 20 ming qadar uy yemirildi. Shaharga quruqlik orqali boriladigan yo'l kesildi... Sumigava daryosi teskari qarab oqmoqqa boshladi", deb yoziladi gazetaning 1923-yil 9-sentyabrda chop etilgan 199-sonida. Yaponiyada uylar 1920-yillarga qadar cho'p qoziqlar ustida mustahkam qilib yog'och va taxtadan bir qavatli qilib qurilgan. O'sha paytda endigina 3-4 qavatli uylar qurish rasm bo'lgan edi. Yer silkinishi shu qadar yuqori ball bo'lganki, unga bir qavatli uylar ham bardosh bera olmagan. 2 million aholili poytaxt fuqarolari boshpanasiz qolgan.

Kelajakda orzu-umidlar bilan yashayotgan Oshin va Rizo Tanakuraning barcha sa'y-harakatlari bir kunda sarobga aylanadi. Ular mashaqqatlar bilan qurgan zavod vayron bo'ladi. Uy-joylari ham qulab kultepaga aylanadi, sadoqatli Jeremon yong'inda, tom ostida qolib halok bo'ladi. Rizo Tanakura, Oshin va ularning o'g'li Takeshi ko'chada boshpanasiz, hech vaqosiz qoladi.

Teleserialda namoyish qilinganidek, Tokioni yong'in qamrab olgan, "poytaxtda zilzila tufayli kelib chiqqan yong'in 200 chaqirim uzoqdan ko'rinadur, harbiylar yong'in bilan natijasiz kurashadur", deb yozilgandi "Buxoro axbori"da. Dengiz suvi ko'tarilib, suv toshqini kelib chiqqanligi ham ayni tarixiy haqiqat. O'sha paytda Tokio "leman" (poroxod va kemalar to'xtaydigan joy)da 200 ming aholi yashagan. Dengiz toshqinining o'zi 120 ming kishining hayotiga zomin bo'lgan.

Filmda tasvirlangan voqealardan biri: Tanakuralar xonadoni dengiz portidan suv yo'li orqali Sagoyaga jo'nab ketganligi quruqlik yo'llari yopilganligidan edi.

Tokio, Yakogama, Osaka-zilzila yuz bergan asosiy shahar va viloyatlar bo'lib, bu hududlarda aholi zich yashagan. Zilzila oqibatida millionlab yaponlar sarson-sargardorlikda, qashshoqlik va notavonlikda uzoq yillar ko'chib yashashga majbur bo'ldilar.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1923-yil 1-2-sentyabrda Yaponiya hududida 1 ming 29 marta yer qimirlagan. Poytaxtdagi markaziy davlat idoralari Yakogava shahriga ko'chirilgan. Tartibsizliklar ham kelib chiqib, ba'zan aholi bilan polisiya o'rtasida to'qnashuvlar yuz bergan.

Ma'lumki, 1920-yillarda Sovet Rossiyasining Uzoq Sharq hududida Chor Rossiyasi zobitlari bolsheviklarga qarshi kurash olib borgan edi. Jumladan, admiral Kolchak, ataman Semyonov kabilar harbiy harakatlardagi mag'lubiyatlardan keyin o'n minglab safdoshlari bilan Xitoy va Yaponiyada 100-150 ming sonli «oq muhojirlar» yashashi bilan bog'liq ma'lumotlar beriladi. «Yakogamada zilzila bo'lg'on vaqtda rus muhojirlaridan ataman Semyonov butun tarafdorlari bilan halok bo'lgan. Merkulov ham halok bo'lg'ondur, deb gumon qilinadur. Yakogamada Rossiya telegraf agenturasi o'ltirg'on bino ham vayron bo'lg'on» deb yozadi[3] «Buxoro axbori» o'zining 1923- yil 14-sentyabrdagi 201-sonida.

Yaponiyada ofatdan zarar ko'rganlarga jahon xalqlari ma'naviy va moddiy darddoshlik ko'rsatdi. Jumladan, Buxoro xalqi ham bu xayrli, mehr-muruvvati chetda turgan emas. O'sha davr matbuot organlarini varaqlar ekanmiz fikrimizni isbotlovchi dalillar guvohi bo'lamiz. Buxoro respublikasida Yaponiya mehnatkashlariga yordam berish uchun "iona to'plash komissiyasi" tuzildi. Komissiya a'zolari bir yil davomida faol ish olib bordilar. Xabarlardan birida; "23 sentyabr Zirabod qishloq yachykasi bilan dehqonlar ittifoqi a'zolarining qo'shma majlisida Kaydani Og'ayev o'rtoqlarining hozirgi baynalminal ahvol va Yaponiyadagi falokat to'g'risidagi ma'ruzalari eshittirilgandan so'ng majlisda ishtirok qilgan 70 kishi bir og'izdan Yaponiya mehnatkashlariga yordam bermakni qaror berdilar", deb yozilgandi[4]. 1923-yil sentyabr zilzila dahshatini boshidan kechirgan Oshin va Rizo Tanakura kabi katta yoshli aholining asosiy qismi olamdan o'tgan. Lekin ularning farzandi va nabiralari bugungi kunda Yaponiyani jahon shoh supasidagi karvonboshchilik darajasiga olib chiqdilar. Ajdodlarimiz o'rtasigi madaniy va iqtisodiy aloqalar, bir-birini qo'llab-qvvatlay, og'ir damlarda darddosh bo'lish bizga azaldan meros bo'lib qoldi. Ortda qolgan XX asrda ko'plab mashaqqatli voqealarni boshidan kechirgan Yaponiya bugungi kunda iqtisodiy qudrati bilan barchani lol qoldirmoqda. Mamlakatda har yili 12 mln dona avtomobil ishlab chiqariladi, 11 mln tonna baliq ovlanadi. 372,2 ming kv km, 46 prefektura va hokkydo gubernatorligidan iborat hududda 160 mln ga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mamlakatning eng yirik orollaridan Hokkaydo, Xonsyu, Kyusyu kabilarning gavanlarida o'nlab xorijiy mamlakatlarning

yuzlab savdo kemalari langar tashlaydi. Mustaqil O'zbekiston ham moddiy va madaniy taraqqiyot pillapoyalaridan jadal ko'tarilib kelayotganligi bizni quvontiradi, kezi kelganda ayrim yo'nalishlarni taqqoslashni lozim topdik, Yaponiya hududi 372,2 ming kv km bo'lib, nufuzi 160 millionga yaqin. O'zbekistonda 447,4 ming kv. km. li maydonda 26 millionli aholi istiqomat qiladi. Yurtimiz yer osti boyliklariga boy, Yaponiyadagi tabiiy boyliklar bizga nisbatan 5 foizni tashkil qiladi. Muhojir vatandoshlarimizdan biri ta'kidlaganidek, mamlakatimizdagi yer usti ne'matlaridan oqilona foydalanilsa, 120 million kishini boqish mumkin ekan.

Yaponiyalik, fitratshunos olim Xisau Kumasu: «Sizda paxta, pilla, tilla, gaz, shirin-sharbat mevalar, qovun, tarvuz bisyor, xalqingiz mehnatsiz turolmaydi, shuning uchun yurtigingiz kelajagi porloq», degandi.

Bugungi kunda ekin ekiladigan yerlar Yaponiyada 5,5 million gektar bo'lsa, O'zbekistonda 4,7 million gektar atrofida.

Aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishdagi ko'rsatkichlar jamiyat a'zolari farovonligining barometri hisoblanadi.

Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishda o'zaro farqlarimiz unchalik katta emas. Jumladan, go'sht iste'moli ikkala mamlakatda ham har bir kishiga 30 kilogramdan to'g'ri keladi. Shakar-23,9 kg-21,8 kg; non-127 kg-164 kg; sut-75 kg-180 kg; yog'-12 kg-12,5 kg; sabzavot-129 kg-124 kg; baliq-34 kg-4,5 kg. yuqoridagi raqamlarning mahsulot nomidan keyingi birinchisi Yaponiya, ikkinchisi esa, O'zbekiston uchun tegishlidir. O'zbekiston Yaponiya bilan iqtisodiy, seysmologik, ilmiy-texnologik sohalarida keng hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik talablar asosida yo'lga qo'yish uchun o'nlab yapon firmalari bilan hamkorlik qilinmoqda. Yapon kinorejissyorlarining «Oshin» singari tarixiy haqiqat ila uyg'unlashgan teleseriallari esa xalqimiz ma'naviyatini yanada boyitishga xizmat qilishiga shubha yo'q. «Oshin» teleserialidagi ijobiy qahramonlar singari mehr-oqibatli va muruvvatli bo'lish esa bizning azaliy odatimiz ekanligini hech qachon unutmaylik[5].

XULOSALAR

“Globallashuv sharoitida O'zbekiston va jahon mamlakatlari hamkorligi” fanidan “O'zbekiston-Yaponiya davlatlari hamkorligi” mavzusi misolida magistr'larga hamkorlik strategiyalariga asosida loyihalashtirilgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini samarali bajarishlari uchun yuqoridagi kabi qiziqarli va tarixiy ma'lumotlarga boy materiallar taqdim etilsa, qo'yilgan maqsadning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yanada oshadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. O'zbekistonning boshqa mamlakatlar (Fransiya, Angliya, AQSH) bilan aloqalarini o'rganish doirasida o'qituvchi tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini mustaqil ta'lim topshiriqlari mavzularini yangilab borsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

2. 2018-2024-yillarda taxminan 50 dan ortiq doktorlik, 200 dan ortiq tarixning turli yo'nalishlari bo'yicha himoyalar amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqotlar ilgarilab ketmoqda. O'zbekistonning eng yangi tarixi davriga oid, qolaversa, xorijiy davlatlar bilan hamkorligi tarixi masalalariga doir ilmiy ishlar qilinmoqda. Mazkur tadqiqotlarning yangiligi darslik va metodik qo'llanmalarda aks ettirilmayapti. Qolaversa, tarix fani o'qituvchilarining aksar foizi bu fan yangiliklaridan mutlaqo xabarsiz. Shuning uchun ilmiy yangiliklarni ta'limga olib kirish uchun muvofiqlashtiruvchi maxsus bir kengash tuzish kerak. Kengash faoliyati monitoring qilib borilishi zarur.

3. Keyingi yillarda yozilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, hatto dissertasiyalar ham rasmiy hisobotlar va statistik ma'lumotlar jamlanmasiga o'xshaydi, ayrimlari dalil va raqamlar bilan to'ldirib tashlangan. Rejalarda ham uzviylik, davomiylik yo'q, yarmidan voqealar uzilib qolganga o'xshaydi. Ko'pgina mavzularini, hatto rejalarni ham darsliklardagi mavjud matyeriallardan tashqari qo'shimcha manbalar asosida o'tish zarur, shundagina magistr istiqbolda o'zini bo'lajak tarix fani o'qituvchisidek tasavvur qila boshlaydi.

4. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi boyicha) magistratura mutaxassisligi o'quv rejasiga ko'ra “Globallashuv sharoitida O'zbekiston va

jahon mamlakatlari hamkorligi” fani bo'yicha barcha mavzulardan mustaqil ta'lim ishlanmalarini tuzish muhim hisoblanadi.

Iqtiboslar/References/Сноски.

1. Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 29-avgustda imzosi va muhri bilan 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun tasdiqlangan ishchi o'quv rejasi nazarda tutilmoqda.
2. “Buxoro axbori” gazetasi BXSР Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920-yil 9-sentabrdan 1923-yil oktabrgacha chop etilgan. Gazeta o'zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg'ish rangli o'rtacha sifatdagi qog'ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923-yil 16-oktabrdan “Ozod Buxoro” nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930-yil oktabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to'liq taxlamlari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda.
3. “Buxoro axbori”, 201-son. 1923-yil 14-sentabr.
4. “Buxoro axbori”, 209-son. 1923-yil 30-oktabr.
5. K.Rahmonov. “1918-1939-yillarda Yaponiya” mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi. Metodik qo'llanma. Buxoro – 2022. – B. 12-14.

Salayev Umrbek Kadambayevich-
Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar fakulteti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi

**JANUBIY OROLBO'YI HUDUDI BRONZA DAVRI TURAR-JOYLARIDA
ARXEOLGIK IZLANISHLAR NATIJALARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada Janubiy Orolbo'yi hududi bronza davri jamiyati manzarasini tasvir qilgan manzilgohlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tolstov S.P., G'ulomov Ya.G'., Itina M.A., Quyi Amudaryo, Oqchadaryo Volga-Don, Qozog'iston Tozabog'yob, Andronova, Jonbos-6, Qavat-3, Ko'kcha-3, Ko'kcha 15,16, 21, 22, Jonbos 33, 34.

Салаев Умрбек Кадамбаевич-
преподаватель кафедры
«История» факультета
социально-экономических наук

**НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К РЕЗУЛЬТАТАМ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ НА ПОСЕЛЕНИЯХ БРОНЗОВОГО ВЕКА ЮЖНОЙ
ТЕРРИТОРИЙ АРАЛЬСКОГО РЕГИОНА**

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются результаты проведенных археологических исследований, отображающих ландшафт общества поселений бронзового периода Нижовья Приаралья.

Ключевые слова: Толстов С.П., Гулямов Я.Г., Итина М.А., Нижовья Амударьи, Акчадаре, Волга-Дон, Казакистон, Тозабагяб, Андронова, Жанбас-6, Жанбас-33, 34, Кават-3, Кокса-3, Кокча-15, 16, 21, 22.

Salayev Umrbek Kadambayevich-
teacher of the Department of "History"
of the Faculty of Social and Economic Sciences of
Urgench State University

**SOME REMARKS ON THE RESULTS OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH AT
BRONZE AGE SETTLEMENT SITES IN THE SOUTHERN ARAL REGION**

ABSTRACT

The article analyzes the results of archaeological research that reflect the landscape of the Bronze Age settlements of the Lower Aral Sea region.

Keywords: Tolstov S.P., Gulyamov Ya.G., Itina M.A., Lower Amu Darya, Akchadar, Volga-Don, Kazakiston, Tozabagyab, Andronova, Zhanbas-6, Zhanbas-33, 34, Kavat-3, Koksa-3, Kokcha-15, 16, 21, 22.

KRISH VA DOLZARBLIGI

O'zbekiston hududining shimoliy-g'arbida, Qizilqum va Qoraqum oralig'ida joylashgan. Quyi Amudaryo hududi neolit davridan boshlab Jonbos-4 manzilgohi urug' jamoalari etnik jarayonlarni olib borgan ishi Amudaryo minglab yillar davomida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarini yotqizilishi natijasida tarkib topgan sernam va serunum tekislikda toshqin suvlarga ko'nikib, eneolit davrida olib borgan kundalik faoliyati natijalarini bronza davrida davom ettirganlar. SHu bilan birga, mil.avv. II ming yillik birinchi yarmida Volga-Don, Ural tog'i janubiy hududlarida xo'jalik sohalarni olib borgan yog'ochband aholi vakillari Qozog'iston shimoli-g'arbiy hududida Andronova aholisi ko'chmanchi qabilalar kelib joylashib, mahalliy aholi bilan chatishib, yangi xo'jalikka ya'ni "Tozabog'yob" va "Andronova" madaniyatlari tarix saxnasidan o'rin olgan. Mazkur maqolada mahalliy aholi, Suvyorgan, Tozabog'yob va Andronova aholisi turar-joylari, ularni arxeologik jixatidan o'rganilishini yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLIL

1937-yildan Xorazm ekspeditsiyasi Xorazm vohasida o'troq aholi va chorvador qabilalar tomonidan qoldirilgan yodgorliklarni topish, ularni ro'yxatga olish ularda qisman arxeologik izlanishlarni olib borishdan boshlaganlar. Ekspeditsiya hodimlari aholining binokorlik bilimi asosida bunyod qilingan Ko'zaliqir, Qalaliqir (Sariqamishbo'yi havzasi, Amudaryo Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoliy hududi) To'rtko'l tumani hududida Yonboshqala balandligida joylashgan shu atamada yodgorlikda hamda ushbu yodgorlikdan 1,5 km shimoli-g'arbidan Jonbos-4 manzilida qazishma ishlari olib borilgan [1, 2, 3]. Shu tariqa, Xorazm vohasida ilk bor arxeologik izlanishlar neolit davri urug' jamoalari turar-joylaridan boshlangan, olingan ashyolar esa, o'z navbatida ushbu tarixiy davrda kechgan tarixiy jarayonlarni yoritishda asosiy manba bo'lib




Рис. 2. Стоянка Ангка-5. Такырный останец над домом № 1.

hisoblanadi.

Xorazm ekspeditsiya hodimlari asarlarida bronza davriga oid yodgorliklarda qazishma ishlari 50 yillargacha olib borilmagan. Nihoyat 1950-yildan boshlab, Amudaryo o'ng sohili hududida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish boshlangan. 1953-yilda Xorazm ekspeditsiyasi Angqa-5, Dingildja-1 manzilgohlaridan moddiy ashyolar olingan. Chunonchi, Angqa-5 to'g'riburchak yarim erto'la 5x10 m uzun. Kirish qismi manzilgoh madaniy qatlamidan oilgan ashyolar mil. avv. XIII-XII asrlarga oid bo'lgan [4].

XX asrni 70-80-yillarida Xorazm ekspeditsiyasi Oqchadaryo havzasida bronza davri yodgorliklarni o'rganishda davom etgan [5]. Mazkur tarixiy davrda Kukcha 15, 16, 21, 22, Jonbos 33, 34 kabi turar-joylarda qazishma ishlari olib borilib, ulardan olingan ashyolar Tozabog'yob madaniyatiga mansub bo'lgan.




Рис. 6. Стоянка Ангка-5. Дом № 1. Керамика

Angqa-5 plan ashyosi. Ya.G'.G'ulomov Xorazmning sug'orilish tarixini o'rganish jarayonida Jonbosqal'a antik davr yodgorligi atrofida joylashgan Jonbos-6 turar-joyida qazishma ishlari olib borishi davrida (63x43 m) xajmga ega bo'lgan. Manzil taqirda joylashgan manzilgoh joylashish geografik o'rnini 31 dan iborat bo'lgan ustunlar belgilab bergan. Madaniy qatlamdan toshdan ishlangan yorg'uchoq qoldig'i topilgan, bu esa aholi ziroatchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi [6].

1956-1957 va 1958-yillarda M.A.Itina Angqa-5, Qavat-3, Ko'kcha-3 bronza davri aholi turar-joylarida arxeologik izlanishlarni olib borib, bronza jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar va etnik jarayonlar tarixini yoritadigan noyob ashyolar olingan [7].

Ko'kcha-15-13 km manzilgohlari Ko'kcha tog'tizmasida kengligi 13-15 m taqirda joylashgan. Manzilgoh joylashishi holati janub-g'arbiy va shimoliy-sharqqa yo'nalgan. Manzilgoh ichki tuzilishi 2-uydan iborat №-2 uniing geografik o'rni 10,8 x 12 m. Kirish janubiy tomonda to'g'riburchak shaklda yarim erto'la [8] XX asr 70-80-yillarida M.A.Itina Janubiy Oqchadaryo havzasida Ko'kcha-

15, 16, 21, 22, Jonbos 34, 34 manzilgohlarida qazishma ishlari olib borilishi natijasida bronza

bavriga oid moddiy ashyolar olingan [9] 400 dan ziyod tarixiy davr, uning turli bosqichlariga mansub arxeologik yodgorliklar ro'yxatga olingan, ularning ba'zilarida arxeologik izlanishlar olib borilgan. Xususan, 1939-yilda Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari Xorazm vohasi janubiy chegarasiga ulangan Sariqamishbo'yi havzasi Amudaryoni Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoliy tomon yunalgan Charmanyob sug'orish magistral kanalidan sharqiga chiqarilgan shaxobcha sohili etagiga ulangan balandli aholi bunyod qilgan turar-joy Ko'zaliqir etnotoponomikasi arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan. Yodgorlikning mudofaa devorida olib borilgan qisman qazishma ishlari natijasida pastki qismi paxsa, keyin esa to'g'riburchak hom g'ishtdan tiklangan devor o'rab olgan u uch yo'lakdan iborat bo'lgan. Yo'lak o'rtasida odamlar istiqomat qilgan, otashgoh joylashgan, mudofaa devor, uning yon qismi bo'ylab to'g'ri burchak burj u o'z navbatida nayza o'qli shinaklarga ega bo'lgan.

Xorazmga qo'shni hudud Ustyurt hududida Birinchi tarixiy davr mazmuni Jonbos-4 manzilgohi urug' jamoalari shimolida eneolit davri aholisi vakillari bronza davri tabiiy resurslar zaxirasidan unumli foydalanib etnik jarayonlarni olib bergan hududlarida o'troq ziroatkor aholi tomonidan bino qilingan qal'alardan olingan ashyolar antik davr tarixida yuz bergan jarayonlarni ayrim sahifasini yoritishga xizmat qiladigan manbalar olingan. Darhaqiqat, Toshkent, O'rta va Janubiy Zarafshon, Farg'ona viloyatlarida aholi turar-joylarni arxeologik jixatidan o'rganilish ishlari olib borilishi munosabati bilan bronza davri yodgorliklari arxeologik ishlari o'rganilgan quyi Zarafshonda Zamonbobo, Toshkent vodiysida Burganli, Farg'ona vodiysida (Chust), Ko'kcha-3 qabristonlari topografik tuzilishi to'rtburchak chuqurlardan iborat bo'lgan. Marhumlar oyoqlari bukchaytirilgan holda yonboshlab joylashtirilgan. Qabrlarda juft (ayol, erkak), yakka hamda kichik hajmli qabrlarga marxumlar jasadlari qo'yilgan. Marxumlar boshi atrofida sopol ashyolari, ayollar atrofida zeb-ziynat buyumlari (bronza bilaguzuk, tosh munchoqlar) qo'yilgan. Mazkur manbalar bronza davrida kechgan ijtimoiy munosabatlar hamda diniy e'tiqodlar, ajdodlarimiz ma'naviyatida yuz bergan o'zgarishlarni yoritishda ilmiy ahamiyati beqiyos.

1972-1975-yillarda M.A.Itina Xorazm viloyati Janubiy hududida Pitnak qishlog'i hududida Tuyamo'yin suv ombori qurilishi munosabati bilan arxeologik tekshirish ishlarini olib borishi natijasida bronza davriga mansub manzilgohlarni ro'yxatga oldi, ularda qazishma ishlarini olib borganlar. Jumladan, mazkur hududda Qo'shbuloq, Qarriqizil va Sulton Sanjar manzilgohlarida qazish ishlari olib borilib, mil.avv.II ming yilliklarga oid ashyolar olingan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Obyektivlik, tarixiy-xronologik taxlil, munozara, asoslash, umumlashtirishi, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanish.

TAHLIL VA NATIJALAR

XX-XXI asr adabiyotlarda qayd qilingan axborotlar geografiyasi asosida Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida bronza davri aholi turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tahlil qilingan.

Tahlil asosida bronza davri jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanish, turar-joylar tuzilishi, joylashishi masalalariga doir natijalar qayd qilinadi.

XULOSA

Xorazm ekspeditsiyasi hodimlarining Janubiy Orolbo'yi hududida bronza davri aholisi turar-joylarida istiqomat qilib, xo'jalikning barcha sohalarida erishgan natijalari asosida quyidagi hulosalarni qayd qilish mumkin.

- Eneolit davri urug' jamoalarini xo'jalik sohalarida erishilgan natijalari bronza davrida kechgan rivojlanishiga asos bo'lgan.

- Mil. avv. II ming yillik birinchi yarmi va o'rtalarida shimoli-g'arbdan va shimoli-sharqdan ko'chmanchi qabilalar Janubiy Oqchadaryo hududiga (hozirgi To'rtkul tumani) kelib joylashib, etnik munosabatlar geografiyasini kengaytirganlar.

- Mil. avv. II ming yillik o'rtalari va ikkinchi yarmida Xorazmda Tozabog'yob va Andronova qabilalari turar - joylari arxeologik jixatidan o'rganilgan (Qavat-3, Jonbos-6, 15, 16, 21, 22, Jonbos 33, 34). Suvyorgan aholisi manzilgohi-Jonbos-6, Qo'shbuloq, Sulton-Sanjar, Qarriqizil).

- Ko'kcha-3 qabristondan olingan antropologik ashyolar Xorazm vohasida etnik munosabatlarni, aholining olamdan o'tganlarni qabrlarda joylashtirish kabi diniy e'tiqodlarini yoritishda ilmiy ahamiyati beqiyos.

Takliflar quyidagicha izohlandi: - O'zbekiston tabiiy-geografik iqtisodiy hududlarida aholining moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanishi jarayonida notekis rivojlanish omillari ilmiy echimini topish hozirgi davr talabi.

- Xorazm vohasida bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlar rivojlanishida Farg'ona va Surxondaryo aholi erishgan xo'jalik sohasida zafarlaridan bir qadam orqada qolishiga bo'lgan omillarni izohlash;

- Bronza davri aholisi turar-joylari geografik o'rinni tez-tez almashtirib turishini aholi davom ettirgan, bunga bo'lgan tarixiy jarayonga e'tibor berish va shu asosda turar-joylarning geografik holatini izohlash zarurati mavjudligi ilgari suriladi.

Iqtiboslar/References/ Сноски

1. Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма-М. МГИ, 1948-с 59-65.
2. Толстов С.П. По следам древнехорезмий ерей цивилизаций – М, -Л.: Наука – 1948 – с 65-67.
3. Низовая Амур-Дарьи. Сарикамыш Узбай – М.: Наука 1960. Вып-3-с. 67-68 рис. 33.
4. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого – этнографической экспедиций АН СССР в 1949-1953 гг// ТрХА –М.: Наука, 1958. Т. // с 90, 94. Рис-43.
5. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи – Тошкент,: Фан; 1959-Б. 54-56.
6. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагыбской культуры (работы 1956 г.) // МХЭ-М.: Наука, 1959. Вып – с. 52-150.
7. Итина М.А. Раскопки стоянки Кават-3 в 1958// МХЭ,: М,Наука, 1963. Вып-6- с. 103-106.
8. Итина М.А. Раскопки мобилника тазабагыбской культуры Кокча-3// МХЭ-М.: Наука, 1961. Вып-5-с. 3-96.
9. Итина М.А. Раскопки стоянки Тазабагыбской культуры Кўкча-3//МХЭ-М.: Наука, 1961. Вып-5-с. 3-96.
10. Итина М.А. Раскопки стоянки Тазабагыбской культуры в 1957 г.// МХЭ-М.: Наука, 1960, Вып – 4-с. 82-105.

Yakupov Aydos Kiyasatdinovich-

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish

UNESCO kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: yakupovaydos508@gmail.com

**QORAQALPOQ XALQIDA OILADA KELINLARGA TEGISHLI ODOB VA
AN'ANALAR** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>**ANNOTATSIYA**

Maqola Qoraqalpoq xalqining shaxsiy hayotida kelinlarning ahamiyatini va ular bilan bog'liq marosimlar hamda an'alarini ko'rib chiqadi. Kelinlar jamoada muhim o'rin egallaydilar, ularning huquq va majburiyatlari turli marosim va urf-odatlar orqali ifodalangan. Shuningdek, bu an'alar zamonaviy madaniyatga mos ravishda qanday o'zgarayotgani va bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola ushbu an'alar milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi o'rni haqida ham mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq etnosi, oilaviy urf-odatlar, kelinlar, an'alar, jamiyaviy me'yorlar, madaniy amaliyotlar, marosimlar, zamonaviy ta'sirlar, milliy identitet, huquqiy tuzilmalar, huquqlar, tashkilotlar.

Якупов Айдоc Киясатдинович-докторант базовой докторантуры кафедры ЮНЕСКО по религиоведению и
сравнительному изучению мировых религий Международной исламской академии
Узбекистана**НОРМЫ ПОВЕДЕНИЯ И ТРАДИЦИИ, КАСАЮЩИЕСЯ НЕВЕСТОК В
СЕМЬЯХ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА****АННОТАЦИЯ**

Статья рассматривает значение невест в личной жизни народа каракалпаков, а также связанные с ними ритуалы и традиции. Невесты занимают важное место в сообществе, их права и обязанности выражены через ритуалы и обычаи. Кроме того, анализируется эволюция этих традиций в соответствии с современной культурой и их актуальность сегодня. В статье также рассматривается значение этих традиций в сохранении и развитии национальной культуры.

Ключевые слова: этнос каракалпаков, семейные обычаи, невесты, традиции, общественные нормы, культурные практики, ритуалы, современные влияния, национальная идентичность, правовые рамки, права, организации.

Yakupov Aydos Kiyasatdinovich-

Doctoral candidate at the UNESCO Department of

ETIQUETTE AND TRADITIONS CONCERNING BRIDES IN KARAKALPAK FAMILIES

ANNOTATION

The article examines the significance of brides in the personal lives of the Karakalpak people, along with the rituals and traditions linked to them. Brides hold a significant position within the community, with their rights and responsibilities articulated via rituals and customs. Additionally, the evolution of these traditions in accordance with contemporary culture and their relevance today is examined. The essay examines the significance of these traditions in the conservation and advancement of national culture.

Keywords: Karakalpak ethnicity, familial customs, brides, traditions, societal norms, cultural practices, rituals, contemporary influences, national identity, legal frameworks, rights, organizations.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Nikoh marosimlari haqida gap ketganda kelin tushirish haqida ham aytib ketish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yosh kelinni erining uyiga aravada olib kelishgan. Nikoh to'yining aravasi Samarqandlik qoraqalpoqlarda – kapeli-arava, Xorazmlik qoraqalpoqlarda – bo'gekli-arava deya nomlangan. Nurotali qoraqalpoqlarda kelinni otga mindirib olib kelgan. Demak, ularda ko'chmanchi qozoqlarning ta'siri kuzatilgan. Lekin, qishloqqa yaqinlashgan zahoti kelin yangalari bilan birgalikda otdan tushib, yayov kelganlar.

Yigit uyiga olib borayotganida yo'l-yo'lakay to'lovlar talab qilingan (yaxta-jiyda, mato va b.). Bu rusm yo'l to'sish deb nomlangan. "Cho'ntak tekshirish" odati ham bajarilgan, ya'ni qaynisingillar qalliqning cho'ntagini tekshirib, uzuklar olishgan.

Nikoh to'yining aravalarini kuyovning qishlog'ining qiz-kelinlari kutib olishgan. Kuyovning yangasi yoki murindiq ene (tutingan ona) kelinga ro'mol yopgan yoki kiymeshek kiydirgan.

Qishloq ayollari to'y karvonini qarshi olib, "shashu" (harxil shirinliklar, mayda o'yinchoqlar kabi narsalar) sochgan. Kelinnig yuzi maxsus mato bilan yopilib, qaynotasining uyiga kirgizishdan avval tovaga isiriq tutatilib, kelinning boshidan uch marta aylandirilgan. Kelinni uch marta egildirib dunyodan o'tgan marhumlar uchun va qaynota-qaynonasi uchun salom bergizilgan. Shundan so'ng kelinning qo'liga yog' quyilgan idishni taqdim qilib, olovga yog' quydirilgan. Shu marosimdan so'ng, kelinning o'ng oyog'i bilan ostona xatlattirilgan va ichkariga kiritilgan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Kelinning tagiga yangi so'yilgan qo'yning terisi to'shalgan. O'rta Osiyo xalqlari uchun qo'y muqaddas hisoblanganligi uchun nafaqat uning o'zi, balki terisi ham o'sib-unish ramzi va balo-ofatlardan saqllovchi, qo'riqllovchi vosita sifatida qaralgani A.T.Toleubaevning mehnatida qayd etilgan. Qo'y terisini shunday e'tiqod bilan yangi tushgan kelinning tagiga to'shish Tog'li Dog'istonliklarda ham uchraydi. Ularning e'tiqodiga ko'ra, qo'y terisini yangi tushgan kelinning tagiga uyda baraka va boylik bo'lishi uchun to'shaydilar".

L.Y.Shternberg o'z mehnatlarida buning kelib chiqishi to'g'risida shunday yozadi: "Premitiv davrda chorvachilar uchun mol chorvachiligida jonivorlarning son jihatdan ko'payishini sehrli kuchlarga bog'lashgan." Ilk qo'lga o'rgatilgan echkilarning ko'payishi kuch sifatida ko'rilganligidan, uning shu xususiyatini o'ziga o'tkazish maqsadida ayollar echki terisidan kiyim to'qib ham kiyishgan. Echkilardan so'ng sahnaga qo'y va qo'chqorlar chiqishib, baxtli yashash kalitining roli ularga bog'liq deya ishonilgan. Qadimiy Misr shaharlari Fiva va Mendesda xudolar Nut va Ptaxning o'g'li Osiris qo'chqor shaklida tasvirlanadi va hattoki o'sha davr ayollarning uning haykalining oldida yechinib, farzand ko'rishni, oilasining gullab-yashnashini so'rab, unga sig'inishi odat tusiga kirgan.

Qirg'izlarda yangi uylanganlarga uloqning o'pkasi bilan dam solish marosimi mavjud. Uning ma'nosi – kelajakda ularni baxtsizlik va balo-ofatlardan qutqarish, shuningdek oilasini gullab-yashnashi va serfarzand bo'lishi uchun yo'l ochish bo'lgan.

Yosh kelin olovni aylanishiga to'g'ri kelgan. So'ng "shashu" marosimi amalga oshirilgan. Kelin egilib salom berib, barmoqlarini ostonaga tekkizgan va qo'llarini peshonasiga tekkizgan. Qaynonasi kelinining peshonasiga irim qilib yog' yoki un surtgan.

O'sha kunning o'zida ikki tomonning qarindoshlari yig'ilib "Ulug' to'y" boshlangan. Bu to'y odatda ikki kungacha cho'zilgan. To'yda mo'l dasturxon yozilib, baqshilar qo'shiq kuylashgan, ot poyga tashkillashtirilib, uloq o'yinlari bo'lib o'tgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kuyovning uyidagi to'yning asosiy marosimi "bet ashar" ("kelin salom") bo'lgan, ya'ni kelinning yuzini ochishgan. Ungacha kelinning yuzi hechkimga ko'rsatilmagan. "Bet ashar"ni odatda bo'lajak kuyovning do'st-jo'ralari amalga oshirgan. U kelinni qaynota-qaynonasi bilan, kuyovning yaqinlarini qo'shiq aytish orqali tanishtirgan. Kelin qo'shiq aytilgan odamlarga egilib salom bergan Masalan "Bet ashar"ning quyidagi namunasi mavjud:

"Dárwazası dañqı ketken,

Dañqı samarqanğa jetken,

Isaq babamızğa bir sálem".

"Darvozasini dongi chiqqan,

Nomi Samarqandga yetgan,

Ishoq bobomizga bir salom".

Yoki hazil-mutoyiba ko'rinishida qo'shiq aytish usuli quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

"Tambasında paqal joq,

Siypalasa saqal joq,

Abdullağa bir sálem".

"Tomida poqol yo'q,

Silasa soqol to'q,

Abdullohga bir salom".

"Bet ashar"dan so'ng bir nechta irim-sirimlar qilingan. Masalan, kelin badavlat bo'lishi uchun qo'lini unga botirishgan. N.A.Kislyakov: "un nafaqat boylik, balki tozalik va mo'l-ko'lchilikning ramzidir" – deya yozgan. Bu odatlardan keyin olovga yog' quyilgan (qiziq tomoni bu odat to'qqiz marotaba takrorlangan). Qoraqalpoqlarning irim-sirimlarida "to'qqiz" sonining ko'zga tashlanishi tasodif emas. Tadqiqotchi D.Banzarovning ma'lum qilishicha 9 sonini mog'ullar ham muqaddas sanashgan. Bunga misol, Chingizxon qo'shinida guruhlar soni 9 ta bo'lsa, guruhning bayrog'iga tulpor qilidan yasalgan 9 ta tugun qistirilgan.

Masalan, XV asr birinchi yarmida Venetsiya elchisi tatar xoniga, tatarlarning an'alariga muvofiq, 9 turdagi moddiy sovg'alar yuborgan.

Jumladan, yakutlar, buryatlar, nanayliklar, evenklar 9 sonini muqaddas bilishgan. Masalan, yakutlar Djogogoy piriga (yirik qoramolning piri) 9 buyum qurbonlik qilishgan.

"Ulug' to'y"da qalliqning otasi quda-andalariga o'z sovg'alarini tortiq qilgan. Shu "Ulug' to'y" yakunlanishi bilan qoraqalpoqlarning to'yi ham yakunlangan.

Nikohning yana bir turi levirat nikoh hisoblanadi. Agarda nikohlashib, oila qurilganidan so'ng kelin olamdan o'tib eri yolg'iz qolsa, u holatda kelin tomonga "saukele" va ayirim qimmatli narsalar qaytarib berilgan. Erkaklar beva qolgan xotinlar kabi motam tutib, bir yil o'tishini kutib o'tirmagan. Beva ayollar esa, eri o'lganidan so'ng qora kiyim kiyib, uning o'limiga bir yil aza tutgan. Motam marosimi tugab, osh berilishida ayol eng so'ngi marta "joqlav" qo'shig'ini aytib marhum eri bilan xayrlashgan.

Erining qarindoshlari orasida beva ayolga mos keladigan erkak topilmasa yoki harqanday holatda ayol turmush qurishni rad etsa, marhumning mol-mulki "tarika" ya'ni, "egasiz, xo'jayinsiz qolgan mol-mulk" ayolniki deb e'lon qilingan. Bu mulkning katta qismi marhumning dafn marosimiga sarflangan. 1/8 qismi beva ayolning voyaga yetgan qizi bo'lsa, unga sep qilib berilib, ortib qolganini beva ayol o'z tasarrufiga olgan.

Beva ayolning o'g'illari bor bo'lsa, vasiylik an'ana (levirat) majburiy turda bajarilgan. Beva ayol boshqa urug'ning odamiga faqat marhum erining akasining roziligi bilan turmushga chiqqan. U farzandlarini marhum erining qarindoshlariga tashlab ketishi lozim edi. Levirat – ayol uchun o'ta og'ir an'ana hisoblangan. Gohida vasiylik an'anasiga muvofiq yoshi yetgan ayol o'zidan yoshi kichik odam bilan turmush qurishga majbur bo'lgan. Hattoki ayol yillar davomida yangi “eri”ning voyaga etishini kutib, qarib qolishi ham mumkin edi.

Masalan, qoraqalpoqlarga qo'shni joylashgan Farg'onalik o'zbeklarda M.Nalivkinlarning aytishicha XIX asr oxiri XX asr boshida levirat mavjud bo'lmagan: “Eri olamdan o'tsa, xotiniga tamoman erkinlik berilgan. Faqat xotiniga tezda turmush qurishiga yo'l qo'yilmagan. Beva ayolning xohishiga ko'ra o'z farzandlari bilan boshqa joylarga ko'chib ketishga ham haqli bo'lgan. Marhum erining qarindoshlari qarshilik qilishmagan”.

Shunday qilib, qoraqalpolarda beva ayolning erining qarindoshlari farzandlarning ketib qolishiga, beva ayolni boshqa joylarga yubormaslikka qo'ldan kelgancha harakat qilishgan. (“bevamizni boshqaga bermaymiz”).

Sororat – marhum opasining o'rniga kichik singlisining turmushga chiqishi (yoki akasi ham bo'lishi mumkin). Lekin bu an'ana Qoraqalpog'istonning hechbir hududida deyarli mavjud bo'lmagan. L.Tolstovanning ma'lum qilishicha, faqatgina, farg'onalik qoraqalpolarda: “Agar unashtirilganidan so'ng katta qizi olamdan o'tsa, o'rniga kichik singlisi uzatilgan. Agarda uzatishni qarindoshlar xohlashmasa, qalin pulini qaytarib berishgan”.

Oila-nikoh munosabatlarida er-xotin uchun ba'zi bir ijtimoiy va oilaviy odoblar mavjud bo'lgan. L.Y.Shternbergning taxmin qilishicha oila-nikoh tartibidagi odoblar quyidagi ikki maqsadni o'zida birlashtirgan:

1. Er-xotin o'rtasidagi rashk qilish tuyg'usini zaiflashtirishga qaratilgan har qanday harakatni qilmaslik.

2. Bir-biri bilan nikolashish ta'qiqlangan odamlar o'rtasida jinsiy aloqaga yo'l qo'ymaslik.

Birinchi turdagi odoblar aslida bitta ajdodning avlodlari hisoblangan yaqin qarindoshlar orasida bo'lgan.

Ikkinchi turdagi odoblar barcha uchun bir xil amal qilgan. Qoraqalpolarning oila-nikoh munosabatlaridagi odoblarini katta uch guruhga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. qalliqlarning bo'lajak kuyov bilan orasidagi odoblar,
2. kelin bilan uning erining qarindoshlari o'rtasidagi odoblar,
3. eri bilan kelinning qarindoshlari o'rtasidagi odoblar.

Etnograf N.P.Dirkenova odoblarning o'zini quyidagicha tasniflashni taklif qilgan:

1. Yuzma-yuz uchrashganda yuzini ko'rsatmaslik.
2. Tana a'zolarini ochiq-sochiq ko'rsatmaslik (masalan, kelin to'pig'ini ochiq ko'rsatmagan).
3. Odob-axloqqa zid gaplashishni ta'qiqlash.
4. O'z ismi bilan chaqirishni ta'qiqlash.

O'rta Osiyo xalqlarida bo'lajak er-xotinlar o'rtasidagi odob va ta'qiqlar aslida quda tushish paytidan boshlangan. Quda tushish, ikki yoshni unashtirganida, qalin puli to'g'risida kelishib olishganidan so'ng qalliqni yigitga ko'rsatishmagan. Hatto, nikoh to'yida ham kelinning yuzi ro'mol bilan yopilgan.

Aslini olganda, qalliq bilan kuyov o'rtasidagi bunday ta'qiqlar – unashtirish va nikoh to'ylarining oralig'idagi vaqtlarda yigitning yashirincha kelishiga to'siq bo'la olmagan. Bu holda qizning ota-onasi, ayniqsa, otasi o'zini bilmaslikka olgan.

Kelin bilan erining qarindoshlari o'rtasidagi odob va ta'qiqlar ham mavjud bo'lgan. Kelin va qaynotasining o'rtasidagi odob, ayniqsa eng qat'iy odob hisoblanadi.

Begona ostona xatlagan kelin ilk kunlarda qaynotasiga umuman ko'rinmaslikka harakat qilgan. Agar yosh juftliklar alohida o'tovda yashashsa, kelinga qaynotasining o'toviga kirishga to'liq ta'qiq qo'yilgan. Qaynotasi yosh kelin-kuyovlarning o'toviga kirgan holatda, kelin tashqariga chiqib ketgan. Agar ikki yosh qaynota-qaynonasi bilan birga yashasa, qaynotasi bor paytda kelin chimildiqning ortida o'tirgan. Tongda kelin qaynotasidan avval uyg'onib, ertaroq tashqariga chiqib ketgan va kechqurun qaynotasi kelgan paytda, ertaroq chimildiqning ichiga kirib ketgan.

Bu ta'qiqlar faqat birinchi farzand dunyoga kelguniga qadar amalda bo'lgan. Kelin va qaynotasi o'rtasida bunday ta'qiqni olib tashlash uchun "o'tovga kirgizish" marosimi bo'lib o'tgan. Yuzy mato bilan yopilgan kelin qaynotasining o'toviga kirgizilgan.

Kelinning yuzini odatda kichik o'g'il ochgan. Kelin olovga yog' quyib, qaynotasi kelinga o'z fотиhasini bergan.

Kelin va qaynotasining o'rtasidagi navbatdagi odoblardan biri, kelin qaynotasining ko'z oldida boshi ochiq holda yurmagan, qaynota-qaynonasi turadigan katta uyning to'riga o'tmagan. Bu odat qaynota-qaynona yashaydigan katta o'tovni hurmat qilishning ramzi bo'lgan. Qaynotasi ham keliniga tizzasini ko'rsatmagan. Kelin ko'rpachasiga o'tirmagan. Kelin va qaynotasi bir-biriga hazil qilmagan. Shuningdek, kelin qaynotasining yana qaynog'alarining ismini aytib chaqirmagan va hattoki ularning ismi bilan bog'liq narsalarni nomi bilan aytmagan. Odatda qaynotasini kasbi bo'yicha (usta, domla) yoki ismini o'zgartirib chaqirgan.

Qoraqalpoqlarda keyingi davrlarda hazilga aylangan shunday qissa mavjud: "Yosh kelinning qaynog'alarining ismlari Qamishboy, Daryoboy, Bo'riboy va Pichoqboy ekan. Bir kuni eri daryoning bo'yida bo'ri qo'yga hujum qilganini ko'rib, xotini pichoq olib kelishga yuboradi. Ayol shoshganidan shunday deydi: "sharsharaning narigi tomonida, soyning orqasida, irillaydiganlar qo'ylarga hujum qilmoqda, qayraladiganni olib borishim kerak", – deya tushundirgan". Bu oddiy hazil-hangomadan oila-nikoh munosabatlaridagi ta'qiqlarning rolini tushunish mumkin.

Analogik holat qozoqlarda ham uchraydi. Bu haqida I. Altinsarin ham qayd etgan.

Yangasi qaynukasini erkalab, boshqa ism bilan chaqirgan. Masalan, Nurotadagi qoraqalpoqlarning nikoh to'yining qo'shig'i "Bet ashar"dan parchaga nazar tashlasak:

"Anaw otirgan qayin iniñ,
Anovi o'tirgan qayinukang,
Oganda ber bir salem,
Unga ham ber bir salom,
Eger atın sorasañ,
Agar ismini so'rasang,
Ol sen ushın mirzağa
U sen uchun Mirzog'a"

Shuni ko'rimishimiz mumkin, kelin hattoki yoshi kichik qayin-ukasining ismini aytib chaqirmagan. O'xshash an'ana qozoqlarda ham bor ekanligini N.S. Sabitov bayon qiladi: "Qozoqlarda kelin erining qarindoshlarini ismi bilan emas, o'zi ism qo'yib, erkalab chaqirgan".

XULOSA

Kelinni yangi qarorgohiga kutib olish marosimlari, masalan, "bet ashar" yoki kelinning yuzini ochish, kelinni sharaflashga xizmat qiladi, shu bilan birga jamoani yangi o'rnatilgan oilaviy aloqalarni mustahkamlashga jalb qiladi. Hurmat va bayramga asoslangan bu amaliyot belgilangan madaniy standartlarga rioya qilish orqali hamjamiyatning birdamligi va uzluksizligini targ'ib qiluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida ishlaydi.

Bundan tashqari, ishda bir nechta Markaziy Osiyo an'alarida ramziy ahamiyatga ega bo'lgan hayvonlarning, ayniqsa qo'ylarning ushbu marosimlarda jiddiy ishtirokiga e'tibor qaratilgan. The incorporation of sheepskin in wedding rites highlights its symbolic importance and its believed capacity to repel malevolence and guarantee success. Ushbu amaliyot kengroq madaniy tizimni aks ettiradi, unda hayvonlar ham ma'naviy, ham amaliy borliqning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalqining nikoh marosimlari qadimgi urf-odatlarini saqlab qolish orqali madaniy o'ziga xoslik va uzluksizlikni saqlab qolish namunasidir. Ushbu marosimlar jamoaviy aloqalarni mustahkamlaydigan va shaxsning ijtimoiy to'qimaga singishini osonlashtiradigan ramziy jihatlar bilan sug'orilgan bo'lib, shaxsiy hayot va jamoaviy an'alar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ta'kidlaydi.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Толстова, Л. С. (1963). Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX – начале XX века. Нукус-Ташкент: 132.
2. Косвен, М. О. (1961). Этнография и история Кавказа. Москва: 29.
3. Гаджиев, Г. А. (1991). Доисламские верования и обряды народов нагорного Дагестана. Москва: Наука, 58.
4. Штенберг, Л. Я. (1933). Семья и род у народов Северо-Восточной Азии. Ленинград: 43.
5. (1975). Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. Москва: 310.
6. Кисляков, Н. А. (1969). Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Ленинград.
7. Банзаров, Д. (1955). Черная вера и шаманство у монголов. В Собрание сочинений. Москва: 60.
8. Зеленин, Д. К. (1930). Табу слов у народов Восточной Европы и Северной Азии. В Сборник М.А.Э. Ленинград, Т. 9: 313.
9. Наливкин, В., & Наливкин, М. (1886). Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: 231.
10. Толстова, Л. С. (1963). Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX – начале XX века. Нукус-Ташкент: 152.
11. Толстова, Л. С. (1963). Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX – начале XX века. Нукус-Ташкент: 155.
12. Штенберг, Л. Я. (1933). Семья и род у народов Северо-Восточной Азии. Ленинград: 95.
13. Кисляков, Н. А. (1969). Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. Ленинград: 175.
14. Жданко, Т. А. (1962). Каракалпаки. В кн. Народы Средней Азии и Казахстана, Т. 1. Москва.
15. Сабитов, Н. (1950). Культура и быт казахского колхозного аула. Алма-Ата: 59.

Atamuratova Dilafruz Rashidovna-

Urganch davlat universiteti

“Tarix” kafedrası dotsenti v.b., PhD

atamuratovadilafruz@gmail.com

Madaminov Jayxunbek Xushnudbekovich-Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy
fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi**1940-YILLARDA XORAZM MATBUOTIDA IJTIMOY MASALALAR BAYONI
(DAVRIY NASHRLAR ASOSIDA)** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Maqolada 1940-yillarda Xorazm viloyatidagi ijtimoiy muhit viloyatning doimiy davriy nashrlari hisoblangan “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” hamda tuman gazetalarida e’lon qilib borilgan maqolalar, xabarlar, e’lonlarni tahlil qilish orqali ochib berildi. Maqolada qishloq xo’jaligi, madaniy haot, maorif tizimi, din masalariga oid maqolalar tahlil ostiga olinib, asosiy e’tibor viloyatdagi ijtimoiy muhit va jarayonlarni ochib berish vazifasi ustuvorlik qildi.

1940-yillarda, qolaversa Ikkinchi jahon urushi arafasida viloyatning markaziy nashrlari hamda tuman gazetalarining faoliyati, “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” redaksiyasilarining ham ish tartibi, redaksiya muharrirlari, ishlash tartibi, davrga xos muammo va kamchiliklar ochiqlandi. Qolaversa, davriy nashrlarning shakli va tuzilishi masalasi ham tahlil ostiga olindi.

Kalit soʻzlar: davriy nashr, matbuot, gazeta, ijtimoiy masala, Xorazm viloyati, ikkinchi jahon urushi, maqolalar.

Атамуратова Дилафруз Рашидовна-

Ургенчский государственный университет

и.о. доцента кафедры "История," PhD

Мадаминов Жайхунбек Хушнудбекович-

Ургенчский государственный университет Социально-экономический

студент 3 курса факультета

**СОЦИАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ В ПРЕССЕ ХОРЕЗМА В 1940-Е ГОДЫ (ПО МАТЕРИАЛАМ
ПЕРИОДИЧЕСКИХ ИЗДАНИЙ)****АННОТАЦИЯ**

В статье социальная ситуация в Хорезмской области в 1940-е годы раскрыта путем анализа статей, сообщений и объявлений, опубликованных в региональных газетах «Хорезм хакикити» и «Хорезмская правда», являющихся регулярными периодическими изданиями региона. В статье были проанализированы статьи, связанные с сельским хозяйством,

культурной средой, системой образования, религиозными вопросами, а также отдана приоритетная задача раскрытия социальной среды и процессов в регионе.

В 1940-е годы, а также накануне Второй мировой войны были выявлены деятельность областных центральных изданий и районных газет, порядок работы, редакций, порядок работы, проблемы и недостатки, характерные для данного периода. Кроме того, был проанализирован вопрос о форме и структуре периодических изданий.

Ключевые слова: периодическое издание, пресса, газета, социальный вопрос, Хорезмская область, Вторая мировая война, статьи.

Atamuratova Dilafruz Rashidovna-

Urgench State University

Acting Associate Professor of the Department of History, PhD

Madaminov Jayxunbek Xushnudbekovich-

Urgench State University

3rd year student of the Faculty of Social and Economic Sciences

SOCIAL ISSUES IN THE PRESS OF KHOREZM IN THE 1940S (BASED ON MATERIALS FROM PERIODICALS)

ABSTRACT

The article reveals the social situation in the Khorezm region in the 1940s by analyzing articles, messages and announcements published in the regional newspapers “Khorezm Khakikiti” and “Khorezmskaya Pravda”, which are regular periodicals of the region. The article analyzes articles related to agriculture, cultural environment, education system, religious issues, and gives priority to the task of revealing the social environment and processes in the region. In the 1940s, also on the eve of World War II, the activities of regional central publications and district newspapers, the order of work, editorial offices, the order of work, problems and shortcomings characteristic of this period were identified. In addition, the issue of the form and structure of periodicals was analyzed.

Key words: periodical, press, newspaper, social issue, Khorezm region, World War II, articles.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ikkinchi jahon urushi davrida Xorazm viloyatida 2 ta viloyat, 5 ta tuman gazetasi faoliyat olib borgan. 1942-yilda ba'zan dushanba kunlari “Xorazm haqiqati” gazetasi nashr etilmagan, mas'ul muharrir lavozimida O'skan O'rozov faoliyat olib borgan. 1942-yilning 5-iyul sonidan hamda shu yilning 29-, 30-, 31-oktyabr sonlarida vaqtinchalik mas'ul muharrir lavozimida Amin Rajabov faoliyat olib borgan. Ushbu yilning 1-noyabr oyidan boshlab O'.O'rozov muharrirlik lavozimini davom ettiradi. Bundan tashqari 1942-yilning 11-dekabridan 27-dekabriga qadar ham A.Rajabov vaqtincha mas'ul muharrir lavozimida ishlagan, 29-dekabrda O'.O'rozov faoliyatini davom ettirgan. Gazetada O'.O'rozov asosan front va chet el xabarlarini haqidagi maqolalarga mualliflik qilganligini kuzatamiz. Harakatdagi armiya haqidagi ma'lumotlar Informbyurosidan hamda TASS xabarlaridan olingan ma'lumotlar asosida gazetaning har bir sonida berib borilgan. “Xorezmskaya pravda” gazetasida 1942-1943-yillarda O'.O'rozov, G.Gulshin, A.Zelikovich, M.Xudayberganov, S.Buzrukova, A.Xalmatov, M.Masharipov, L.Ayupov, I.Raximov, Y.Arkipova, X.Xasanov, T.Gulshina, M.Urmanseva, A.Putilina, R.Xaliullina, R.Matniyazova, A.Xaliullin, R.Aytbayeva, I.Kislov, A.Yakubova, Sh.Sabirova, A.Radjabovlar faoliyat olib borgan. A.Radjabov biroz vaqt “Bo'l tayyor” viloyat gazetasining redaktori bo'lib ishlagan. Jahon urushi arafasida B.Bekchanov “Xorazm haqiqati” redaksiyasida qishloq xo'jalik bo'limida ishlagan, bosmaxonaning muqovachilik sexiga B.Otajanov boshchilik qilgan, M.Qalandarova savdo-sanoat bo'limida faoliyat olib borgan. Bosmaxonaning teruvchilar sexiga esa I.P.Zigilev bosh bo'lgan. “Xorazm haqiqati”ning 1940-yildagi sonlarida O'zkitob yangi chop etilgan asarlar ro'yxatini berib brogan [1, b. 4].

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Maqolada 1940-yilda chop etilgan maqolalar orqali viloyat ijtimoiy hayoti ko'rsatilgan. 1940-yilda A.Abdullayev, M.Qozoqboyevlar mas'ul muharrir bo'lgan. Mazkur yilda o'z maqolalari bilan B.Boboyev, O.Serjanov, O.Avezov, R.Karimovlar faol bo'lishgan. Maqolada qishloq xo'jaligi, maorif, madaniy hayot va din masalalariga oid maqolalar asosiy manba vazifasini bajaradi. Tadqiq qilinayotgan masalada asosiy e'tibor ijtimoiy jarayonlarning davriy nashrlarda yoritilishi xronolik va qiyosiy-tarixiy tahlil ostiga olingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1939-1940-yillar O'zbekiston SSRda kanal qazish ishlari respublika bo'ylab amalga oshirilgan. Bir vaqtning o'zida Janubiy Farg'ona kanalining qayta qurilish ishlari, Toshkent kanalidagi qazuv jarayonlari, Xorazmda Toshsaqo kanalining 2-navbatidagi qurilish ishlari buning yaqqol dalilidir. Toshsaqoda qurilish ishlari 1940-yil davomida davom etgan. Kanalning 2-navbatini qurishdan maqsad esa, qurilishga rahbarlik qilgan oblast soveti ijroiya komitetining raisi R.Mahmudova ta'kidlaganidek Xorazm viloyatining foydalanilmay yotgan yerlarini o'zlashtirish orqali paxtadan yuqori hosil olish bo'lgan [6, b. 1], albatta. Qurilish ishlari bilan bog'liq jarayonlar gazetaning barcha sonlaridan o'rin olgan deyish mumkin. Qurilish davrida nafaqat ish jarayoni balki ma'naviy-madaniy hayot bilan bog'liq xabarlar ham chop etib borilgan. Jumladan, "Xorazm haqiqati"ning 1940-yil 2-apreldagi sonida Toshsaqo kanalining ikkinchi navbat qurilishida ishlayotgan ishchilarning yozgan xati shoirlar M.To'lash, Aminzoda, Ayyomiy, Kamoliy, N.Jaxshim, S.Niyazova, V.Hakimlar tomonidan chop etilgan. Xatga Xazarasp, Xiva, Yangiariq, Xonqa, Shovot, Gurlan, Urganch, Qo'shko'pir, Mang'it qurilish uchastkalarida ishlayotgan 15 ming kanalchi qo'l qo'ygan [2, b. 1-2]. Hatto savodsizlikni tugatish maqsadida maktablar tashkil etilgan, 5-qurilish uchastkasida 43 o'rinli savodsizlikni tugatish hamda 43 o'rinli to'liq maktab ta'limini olmaganlar uchun maxsus kurslar tashkil etilgan [8, b. 3]. O'qishlar ikki soat davom etib, savodsizlikni tugatish kursida 968 nafar, to'liqsiz maktab ta'limini olmagan (chalasavodlar) kursida 566 nafar kolxozchi-quruvchilar tahsil olgan. Bundan ko'rinadiki, kanal qazish ishlari juda katta masshtabda tashkil etilgan. Kanalning kunlik qazilgan hajmi gazetaning deyarli barcha sonlarida aks etgan. Respublikada bo'lgani kabi viloyatda ham "agitprogramma" kuchaytirilgan tartibda olib borilgan. Toshsaqo kanalining 2-navbati qurilishida ishchilar uchun 9 joyda "Kanalchilar avazi" devoriy gazetasi tashkil etiladi [5, b. 3]. Matbuotda "VKP(b) ustavi va programmasini o'rganayotirlar" sarlavhasida kursning joylardagi faoliyati, bu ishning borish jarayoni to'liq aks etgan. "Komsomollarning mukaddas burchi" sarlavhali xabarda "Shovot haqiqati" gazetasi redaksiyasida "VKP(b) tarixi kiska qursi"ni o'qish e'tiborsizlik bilan tashkil etilgani tanqid qilinadi [4, b. 2]. Bu jarayon deyarli barcha sohani qamrab olgan, hatto madaniyat xodimlari ham jalb qilingan [3, b. 2].

Partiya faoliyati bilan bog'liq barcha jarayonlar matbuotning asosiy e'tiborida bo'lgan. Gazeta sonlari ba'zan to'liq SSSR Oliy Soveti majlislarini qamrab olardi. "Xorazm haqiqati"da Xitoyda kechayotgan urush harakatlari haqida doimiy xabarlar berib borilgan. Xorij xabarlari "Telegram xabarlari" sarlavhasi bilan chop etilgan. 1939-yilgi SSSR va Germaniya hukumatlari o'rtasida imzolangan shartnomaga asosan, Yevropada boshlangan 2-jahon urushi bilan bog'liq jarayonlar Germaniya hukumati nuqtai nazarida, ya'ni Germaniya Oliy qo'mondonligi taqdim etgan ma'lumotlar asosida Sobiq Ittifoq matbuotida yoritilgan, o'lka matbuoti ham bundan mustasno emas edi, albatta. Xorijiy xabarlar, albatta, TASS taqdim etgan ma'lumotlarga asoslangan.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan yer haydash hamda chigit ekish ishlarining borishi kabi masalalar matbuotda yetakchilik qilgan. Siyosiy hayot gazetaning birinchi varag'ida aks etgani holda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq masala ham shu varag'dan joy olgan. Qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan dehqonlar orasida "Xorazm haqiqati"ning tuman muxbirlari ham bo'lgan. Ularning zimmasida asosan ushbu sohani keng qamrovda yoritish masalasi turgan. Joylardagi muhbirlardan Gurlan tumanidan R.Karimov, S.O'razmatov, R.Eshmatov, A.Babanyazovlar, Xazaraspdan I.Bobajanov, O'.Qodirov, Darveshovlar, Urganchdan Y.Rajabov, Matkarimov, H.Yusupov, Yangiariqdan S.Masharipov, Q.Jumaniyozovlar faoliyati haqida "Xorazm haqiqati"ning 1940 yil 14 apreldagi sonida qayd etib o'tilgan [7, b. 4].

Madaniy hayot bilan bog'liq masalalar ham davriy nashrlarda aks etib borgan, jumladan 1940-yili viloyat teatri repertuaridan "Maysaraning ishi" [9, b. 2] komediyasi joy egallaydi. Bu postanovkani sahnaga chiqarish ishlariga rejissyor Z.Qobulov boshchilik qiladi, obrazlar N.G'afurjanova, A.Xudoyorova, K.Rahimov, M.Safayev, V.Poyozov, A.Ro'zimatovlar tomonidan ijro etiladi. 1940-yil O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan artist G.Rahimova rahbarligida tashkil etilgan Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazmda 45 ta konsert tashkil etishni rejalashtirgan [10, b. 3] Garmonchi qiz-juvonlar ansambli gastrol safarlari bilan viloyatda bo'lishadi. Bu ansambl Xorazm garmonchilar ansambli edi. "Xorazm haqiqati"da ansambling respublika bo'ylab gastrol-safarlari, Toshmaqodagi konsert dasturlari, garmonlarning Moskvadan maxsus buyurtma asosida olingani, ansamblning tashkil etilishida M.Sheroziyning ham o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlangan. Ansambl tarkibida Turg'un Fayziyev (childirma), Lizaxonim Roziyeva (yakkaxon ashulachi), S.Allaberganova va Zuhaxon Fayzievalar bo'lgan. "Xalq ishonchi va olqishiga sazovor bo'lgan ansambl" maqolasida ansamblning repertuari juda boy ekanligini ko'ramiz, T.Fayziyev "Sadr", "Ufari soxta", G.Rahimova va L.Roziyevalarning ozarbayjoncha "Sovet qizi", ruscha-beloruscha "Mily moy jivet v Kazane", S.Allaberganovaning "Ul pari" bilan "Jo'jim aylansin" ashulalari, "O'zbekiston", "Ey nozanin" xor va laparlari joy olgan, raqsida R.Otajonova, S.Allaberganovalar bo'lishgan [16, b. 3]. 1940-yilning 22-aprelida viloyatga 14 kishidan iborat Armen Kaxurov rahbarligida Kavkaz etnograf ansambli gastrol-safari doirasida tashrif buyuradi. Ularning orasida Margo Anisonyan bo'lgan [14, b. 4].

Maorif tizimida ushbu davr matbuotining "kommunizm ideologiyasi"ga qaram ekanligi ming yillik tarixga ega bo'lgan millatni "savodsiz"ga chiqarib qo'yganligining guvohi bo'lamiz. Siyosiy qarashlardan kelib chiqqan holda butun xalqqa "savodsiz" degan tamg'a bosilib, "Savodsizlikka qarshi kurash bo'yicha izchillik bilan olib borilayotgan ishlar" matbuotda doimiy yoritib borilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari har bir tuman ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllantirilgan. Jumladan, Xazarasp tumani maorif bo'limi qoshida 3 oylik yasli hamda 2 oylik bog'cha murabbiylarini tayyorlash kursi ochilgan, yasli kursini 62 nafar bog'cha kursini esa 60 nafar xotin-qiz bitkazgan. "Chalasavod" maktablarini bitkazgan o'quvchilar uchun esa yangi tipdagi maktab ochilgan [11, b. 4], bu haqda "Xorazm haqiqati" ma'lum qiladi, maktab Urganch tumani Qoramon qishlog'ining Narimanov kolxozida ochiladi [12, b. 4].

Ushbu davr matbuotiga xos jihatlardan biri davriy nashrlarda doimiy tarzda diniy bag'rikenglik tushunchalari tanqid ostiga olingan yoxud butunlay qoralanganligidir. Bu jarayonni o'lkaning o'ziga xos jihatlari inobatga olib islom dini misolida ko'radigan bo'lsak, "Dinga qarshi bolshevistik propagandani kuchaytiraylik" maqolasida "Din-kommunizm dushmani bo'lib, reaksiyon sinflarning manfaatlarini himoya qiluvchi, mehnatkashlar ommasini revolyusion kurashlardan chetga tortuvchi va ommani zaharlovchi jirkanch vositadir. Hamma dinlar singari islom dini ham, uning xurofotlari ham eksplatator sinflarning ommani ezishda ishlatadigan quroldir" O'zKP(b)ning IX syezdi dinga qarshi targ'ibotni yanada kuchaytirish masalasini o'rta qo'yadi. Yuqoridagi maqolada Xorazmda "Kurashchan xudosizlar soyuzi" harakati o'z faoliyatini yanada yaxshilashi, bunda soyuz rahbari Atayev, Shovot tumani bo'limi raisi Sodiqova tanqid qilinadi. Kutilgan natijaga erishi uchun esa dinga qarshi propaganda ishlarida intellengensiya katta kuchligi, undan unumli foydalanish zarurligi uqtirilgan [15, b. 1].

XULOSA

Umuman olganda, Har bir qishloq soveti qoshida devoriy gazeta faoliyati yo'lga qo'yilgan, maorif tizimida ya'ni o'rta maktablarda ham devoriy gazetalar tashkillashtirilgan edi. Devoriy gazetalar faoliyati, tuman hamda viloyat tahririyatlari tomonidan yoki gazetxonlar talabiga muvofiq doimiy nazorat qilingan, faoliyati sustlashgan yoki butunlay to'xtagan devoriy gazeta mas'ullari viloyat hamda tuman matbuotida qattiq tanqid qilingan, bunday holat Mang'it tumanida kuzatilgan. Shunga o'xshash tanqid ostiga olingan gazetalaridan biri Xiva tumani partiya komiteti organi gazetasi "Kommunaga" bo'lib, "Xorazm gazetasi"ning 1940-yil 24-apreldagi sonida "Partiya turmushi" rukni ostida Matbuot obzori taqdim etilgan, unda partiya hayotini yaxshi yoritmayapti, "VKP (b) Tarixi qisqa kursi" da tahsil olayotganlarning "tajribasini" yoritishni mas'ul redaktor Zahidov o'ylab ham ko'rmagan deya qayd etiladi [13, b. 2]. Sovet Ittifoqi agitatsiya hamda

propaganda ishlarida matbuot bir qurol vazifasini o'taganligini inobatga olsak, "sotsilizm ideologiyasi"ni o'zida qamrab olmagan gazeta-yu ro'znomalarning qilmishlari o'zlaridan yuqori turuvchi tuman, viloyat, respublika hatto ittifoq miqyosida matbuotda ochib tashlangan.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Xorazm haqiqati. Hurmatli oquci ortaqlar! № 75. 1940 yil 1 aprel. B.4.
2. Xorazm haqiqati. Ta'ssaqa kanalini ikkinchi navbat qurulişida ishlatgan kanalcilardan xat! № 76. 1940 yil 2 aprel. B.1-2.
3. Xorazm haqiqati. Aktjorlar partiya tarixini qunt blan oqumaqdalar. № 77. 1940 yil 3 aprel. B.2.
4. Xorazm haqiqati. Komsomollarni muqaddas burci. № 77. 1940 yil 3 aprel. B.2.
5. Xorazm haqiqati. Madaniy xizmat. № 80. 1940 yil 6 aprel. B.3.
6. Xorazm haqiqati. Ta'ssaqada sajl. № 84. 1940 yil 11 aprel. B.1.
7. Xorazm haqiqati. 10 balali ana. № 84. 1940 yil 11 aprel. B.4.
8. Xorazm haqiqati. Trassada savad maktablari. № 85. 1940 yil 12 aprel. B.3.
9. Xorazm haqiqati. Məjsərəni işi (Oblast teatrida qojilişi munasabati blan). № 88. 1940 yil 16 aprel. B.2.
10. Xorazm haqiqati. Ordenli ozbek davlat filarmonijasini qiz-çuvanlar ansambli Xorazmda (Garmonci qiz-ç(buni tepadagi shapkasi bo'lmisligi kk)uvanlar ansambli). № 88. 1940 yil 16 aprel. B.3.
11. Xorazm haqiqati. Namunali baqca. № 91. 1940 yil 20 aprel. B. 4.
12. Xorazm haqiqati. Qisqa xabarlar. № 91. 1940 yil 20 aprel. B. 4.
13. Xorazm haqiqati. Partiya hajatini jarqin jaritajlik. № 95. 1940 yil 24 aprel. B.2.
14. Xorazm haqiqati. Kavkaz etnograf ansambli Xorazmda (Zavqli konsert). № 96. 1940 yil 26 aprel. B.4.
15. Xorazm haqiqati. Dinga qarşi bolşevistik propagandani kucajtirajlik. № 96. 1940 yil 26 aprel. B.1.
16. Xorazm haqiqati. Xalq işanci va alqışiga sazavar bolgan ansambl. № 106. 1940 yil 10 may. B.3.

Muborak Madrimovna Matyakubova-
UrDU, Tarix kafedrası dotsenti
Nazokat Farhod qizi Ahmedova-
UrDU, Tarix kafedrası doktoranti
E-mail: nazokat.ahmedova27@mail.ru

XIVA ADABIY JARAYONLARIDA TARJIMONLIK, XATTOTLIK VA KITOBAT SAN'ATINING RIVOJI (XIX ASR IKKINCH YARMI XX ASR BOSHLARI)



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Xiva xonligida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida ulkan adabiy muhit yuzaga keldi. Adabiy muhit ko'pgina shoir va ijodkorlarni kamol topishiga sababchi bo'ldi. Bu davrda tarjimonlik, xattotlik, kitobat san'atining taraqqiy qilishi, yuksalishi esa adabiy muhit maydonini yanada kengaytirdi. Ushbu maqolada tarjimonlik va xattotlik san'ati va kitobatchilikning adabiy jaroyonlarda turgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, madaniy hayot, tarjimonlik, tarix ilmi, Xiva xoni saroyi, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, kitobat san'ati, xattotlik.

Муборак Мадримовна Матьякубова-
УрГУ, доцент кафедры истории
Назokat Фархадовна Ахмедова-
УрГУ, докторант кафедры истории

РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА ПЕРЕВОДА, КАЛЛИГРАФИИ И ЛИТЕРАТУРЫ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ ХИВЫ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX, НАЧАЛО XX ВЕКА)

АННОТАЦИЯ

В конце 19 – начале 20 века в Хивинском ханстве создавалась огромная литературная среда. Литературная среда стала причиной взросления многих поэтов и художников. В этот период развитие и подъем искусства перевода, каллиграфии и литературы еще больше расширили поле литературной среды. В данной статье анализируется роль искусства перевода, каллиграфии и книгописания в литературных процессах.

Ключевые слова: литературная среда, культурная жизнь, перевод, история, дворец Хивинского хана, Шермухаммад Мунис, Мухаммад Реза Огахи, книжное искусство, каллиграфия.

Mubarak Madrimovna Matyakubova,
UrSU, associate professor of the
Department of History

Nazokat Farhad daughter AhmedovaUrSU, Doctoral student of the
Department of History**THE DEVELOPMENT OF TRANSLATION, CALLIGRAPHY, AND
BOOKMAKING IN THE LITERARY PROCESSES OF KHIVA (SECOND HALF OF THE
19TH CENTURY - BEGINNING OF THE 20TH CENTURY)****ANNOTATION**

In the Khiva Khanate at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, a great literary environment emerged. The literary environment was the reason for the development of many poets and creative people. During this period, the development and rise of translation, calligraphy, and the art of bookmaking further expanded the field of the literary environment. This article analyzes the place of translation, calligraphy, and bookmaking in literary processes.

Keywords: literary environment, cultural life, translation, historical science, the palace of the Khiva Khan, Shermuhammad Munis, Muhammad Riza Ogahiy, the art of bookmaking, calligraphy.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xiva xonligida ulkan adabiy muhit yuzaga keldi. Bunda hukmdor Muhammad Rahimxon II Feruzning o'zni katta. Bu muhit ko'plab shoirlar, xattotlar, tarjima ustalari va boshqa ko'plagan adabiy muhit vakillarining shakllanishida muhim omil bo'ldi. [1, b. 3].

Jumladan, Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Komil Xorazmiy (1825-1899) [2, b. 224], Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Ahmad Tabibiy (1869-1911) [3, b. 228], Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Muhammad Yusuf Chokar (1872-1951), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Safo Mug'anniy (1882-1938), Komiljon Devoniy (1887-1938), Muhammad Rahim Rog'ib (1918 y. vafot etgan) kabi so'z sohiblarining ijod namunalari hozirgi kunga qadar yetib kelgan.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Mustaqillikdan keyin Xiva xonligida XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi madaniy va adabiy muhitni yoritib beruvchi bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bular qatoriga D.Rahim, Sh.Matrasul, K.Xudoyberganov, A.Abdurasulov, M.Matniyozov, A.Sotliqov, D.Bobojonov, M.Abdurasulovning tadqiqotlarini, shuningdek O.Mutalov, F.Ernazarov, Yu.Rahmonova, M.Matyakubovalarning nomzodlik dissertatsiyalarini hamda S.Matkarimovanning monografiya va ilmiy maqolalaridagi ma'lumotlarini qayd qilish mumkin.

Xiva xonligi XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi adabiy jarayonlarda tarjimonlik, xattotlik va kitobat san'atining o'zni katta. Chunki ularning mashaqqatli mehnati tufayli ko'plagan kitoblar tarjima qilindi, qo'lyozmalar ko'chirildi va ular xonlik kutubxonlarini to'ldirib turdi. Shu sababdan mazkur davrda bu sohalarga hukmdorlar tomonidan katta e'tibor qaratilib, yanada taraqqiy qildirilgan. Ayniqsa, xonlikda Muhammad Rahimxon II Feruz rahbarligida bir qancha mumtoz adabiyotning nodir asarlari fors, tojik, arab va turk tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Hukmdor saroyga o'z davrining yetuk tarjimonlarini to'plagan va o'ziga xos tarjimonlik maktabiga asos solgan. Bir so'z bilan aytganda bu davrda Xorazm tarjima maktabi bir pog'ona oldinga siljidi.

Feruz yaratgan adabiy muhit sabab, Xivada ko'plab ijodkorlar va tarjimonlar yetishib chiqqan. Buni raqamlarda ko'rib chiqsak, saroy atrofida eng ko'zga ko'ringan 180 ga yaqin shoir va Xivaning o'zida 80 ta tarjimon bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida xonlikning mashhur tarjimonlari Munis, Ogahiy, Bayoniy, Dilovarxo'ja, Said Homid to'ra Komyob, Bobojon to'ra Azizov, Sodiq Rahmonquli, Ahmadjon Tabibiy, Nadimiy, Domullo Muhammad, Bobojon Sanoyi, Domullo Abdulqodir ibn Muhammad Nazar, Domullo Bekmuhammad, Domullo Otojonxo'ja mahdum,

Muhammad Rasul Mirzo, Muhammad Sharif Oxund, Hamdamiy, Tolibxo'ja kabilar bo'lib, ular Xiva tarjima maktabida samarali xizmat qilganlar [4, b. 154].

Shu bilan bir qatorda B.Sanoiy, Rojiy, M.Rafe', Habibiy, Mag'furxo'ja kabi ko'pchilikka uncha tanish bo'lmaganlari ham bor edi. Tabiiyki, ularning mehnat va san'at darajalari ham turlicha bo'lgan. Ularning samarali mehnati tufayli xonlikda tarixiy, badiiy, axloqiy, falsafiy - didaktik asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Xon tarjima qilinishi kerak bo'lgan asarlarning ro'yxatini tuzdirib, turli tarjimonlarni bu ishga jalb etgan. Natijada XIX asr oxirida xonlikda "Xorazm tarjima" maktabi vujudga kelgan. Mutaxassislaming aniqlashicha, XIX asming o'rtalarida Xivada saksondan ko'proq kishi tarjimonlik ishi bilan muntazam shug'ullangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, shu davrda jami 120 asar tarjima qilingan. Ayrimlari 2-5 marta o'zbekchaga o'girilganini ko'rishimiz mumkin. Ularning aksariyati fors-tojik tilidan o'girilgan. Bu asarlar janrlariga ko'ra ham xilma-xil edi. Ular orasida badiiy didaktik asarlar, ishqi-sarguzasht qissalari katta o'rin egallagan edi. Bu davr tarjimonlari tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan qator tarixiy, badiiy, ilmiy-falsafiy asarlar madaniyatimizning nodir durdonalari bo'lib qolgan.

Tarixan o'zbek adabiyotida Navoiy an'analari ijodiy davom ettirgan katta iste'dod egasi Shermuhammad Munis o'zbek tilida ajoyib adabiy va tarixiy asarlar yaratgan va fors tilidagi ko'pgina tarixiy va adabiy asarlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima etishda tashabbus ko'rsatgan va husnixat maktabini yaratgan olimdir. U "Munisul-ushshoq" devoni, ma'rifiy-tarbiyaviy "Savodi-ta'lim" risolasi, "Firdavs-ul-iqbol" solnomasi hamda o'zbek tiliga o'girgan "Ravzat-us-safo" (Mirxond) asari bilan o'zbek xalqi madaniyati tarixi xazinasiga munosib hissa qo'shgan. Munis Mirxondning "Ravzat us- safo" asarining 1-jildi va 2- jildining yarmini tarjima qilgan.

Shu davrning mashhur tarjimonlaridan biri Muhammad Rizo Ogahiy manbalarda ko'rsatilishicha, yigirmadan ortiq asarni fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilgan. Ogahiy yilnomalardan tashqari badiiy, falsafiy, didaktik yo'nalishdagi asarlarni ham tarjima qilgan. Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Xusrav Dehlaviyning "Haft Paykar", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Jomiyning "Yusuf va Zulayho" va boshqalar tarjimalari shular jumlasidandir. Bizgacha uncha ma'lum bo'lmagan "Miftoh at-tolibin", "Shoh va gado", "Zubdat al-hikoyat", "Sharhi daloyil al-hayrat"ning o'zbekcha tarjimalari ham saqlanib qolgan.

Ogahiy o'zining devoni muqaddimasida quyidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilganini yozadi: "Faqrning turkiy til bilan tarjima qilgan kitoblari: "Ravzat us - safo" ning ikkinchi daftaridan "Chahor yori uzzom voqeasi" va uchlamchi daftari va "Nodirnoma" va "Zafarnoma", "Zubdat ul-hikoyot" va "Miftox ut-tolibin" va "Axloqi Muhsiniy" va Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" va "Nasihatomayi Kaykovus" va "Salomon va Absol" i Jomiy, "Guliston" i Sa'diy va "Bahoriston" i Jomiy va "Ravzat us-safoy" i Nosiriy"ning birinchi daftari va "Daloyil ul-xayrot" sharhikim Rum turkiysidin chig'atoy tiliga o'tkirildi. Va "Tazkirayi Muqimxoniy" va "Tabakoti akbarshohiy" va "Haft paykar" i Nizomiy va "Hasht bihisht" i Xusraviy va "Yusuf va Zulayxo" yi Jomiykim, manzum bo'ldi va "Shoxu gadoy" i Hiloliykim manzum bo'ldi" [5, b. 73].

Muhammad Yusuf Bayoniy - shoir va tarixchi olim, tarjimon va xattot, tibbiyot ilmining bilimdoni, qomusiy bilim egasi sifatida Xorazm adabiy, ijtimoiy-madaniy muhitida shakllangan, kamol topgan siymodir. "Xorazm tarixi", "Shajarai Xorazmshohiy" kabi asarlari orqali xonlik tarixi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirdi. Muhammad Yusuf Bayoniy tarjima san'atida sezilarli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, fors tilidan "Vomik va Uzro" dostonini, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarini o'zbek tiliga o'girgan. Bayoniy tarjimalariga yana Atoulloh ibn Fayzullo Sheroziyning "Ravzat ul-ahbob", Mavlono Darvesh Ahmadning "Sahoyif al-axbor" asarining birinchi va ikkinchi qismlarini, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Tarixiy Tabiriy", Mavlono Kamoladdin Ali ibn Muhammad Binoiy Hiraviy Holiyning "Shayboniynoma" asarlarini kiritish mumkin. Bayoniy "Tarixi Tabariy" kabi nasriy asarlar qatorida Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" singari masnaviyda yozilgan tarixiy-badiiy asarlariga ham qo'l urdi. Mavlono Darvesh Ahmadning arab tilidagi "Sahoyiful-axbor" ("Xabarlardan

sahifalar”, 1-2-jildlari) nomli tarix kitobini mahorat bilan tarjima qildi. Atoulloh ibn Fazlulloh Husayniyning “Ravzatul-ahbob”i (“Do’stlar bog’i”) o‘zbekcha tarjimasini tahrir etdi. Ogahiy yilnomalardan tashqari badiiy, falsafiy, didaktik yo‘nalishdagi asarlarni ham tarjima qilgan. Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Xusrav Dehlaviyning “Haft Paykar”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” va boshqalar tarjimalari shular jumlasidandir. Bizgacha uncha ma’lum bo‘lmagan “Miftoh at-tolibin”, “Shoh va gado”, “Zubdat al-hikoyat”, “Sharhi daloyil al-hayrat” ning o‘zbekcha tarjimalari ham saqlanib qolgan.

Shuningdek, bu davrda xonlikdagi tarjimonlardan Dilovarxo‘ja Zayniddin Mahmud ibn Abduljalil Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe’” asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. E’tiborga molik bu tarixiy asar XIX asrning birinchi yarmida xon buyrug‘iga ko‘ra tarjima qilingan. Tarjimon domulla Muhammad Ya‘qub oxund Beshariqiyning tarjimalari ham alohida ahamiyatga ega. Tarjimon tomonidan Muhammadtohir ibn Muhammadtayib Xorazmiy qalamiga mansub “Xujjat us-solikin va rohat ut-tolibin” (Haqiqat yo‘lida yuruvchilar uchun dalil va haqiqatga intiluvchilar uchun rohat) asari 1911-yil tarjima qilingan qo‘lyozma tarjimonning o‘z dastxati bilan rus fabrika qog‘oziga nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Xiva tarjimonlaridan yana biri “Sanoiy” taxallusli mulla Bobojon ibn Xudoyberdibekdir. U fors tilidan “Qissai Mehr va Mox” asarini tarjima qilgan. Ushbu tarjima 1876-1877 yillarda amalga oshirilgan, nasta’liqda yozilgan [6, b. 78].

Xiva tarjima maktabining yirik namoyondalaridan Mulla Sayidnazarbek ibn Davlatnazarbek tomonidan Shamsiddin Somiyning “Durr ul-majolis” (Majlislar injusi) asari fors tilidan Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon II Feruz buyrug‘iga binoan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Bu kabi tarjimonlar amalga oshirgan ishlar natijasida Xiva tarjima maktabi salmog‘i yanada taraqqiy qildirilgan.

Tarixiy kitoblar va qo‘lyozmalarning yaratilishida, albatta xattotlarning salmoqli o‘rni bor. Xonlikda xattotlar mehnati juda qadrlangan va ularga nodir asarlarni ko‘chirish vazifasi muntazam topshirib turilgan. Tadqiqotchi A.Murodov XIX asrda Xivada yashab o‘tgan 87 xattot haqida ma’lumot beradi [7, b. 90].

Tadqiqotchi E.Ismoilovanning yozishicha: “XIX asrning ikkinchi yarmidagi Xiva qo‘lyozmalari o‘zining go‘zal arxitektonikasi, hajmi, matn va hoshiyalarining uta mutanosibli, yozuvining toza, tekis, hushxatligi, misralarning bir-biriga mosligi va varaqdagi barcha lozim elementlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Xiva qo‘lyozmalarining boshqa qo‘lyozmalardan farqli tomoni ular tashqi qiyofasida namoyon bo‘lib, bu qo‘lyozma kitoblar salobatli naqsh bosilgan qora charm muqovalari bilan ajralib turadi. Butun O‘rta Sharqda ularning monandi o‘sha davrda yo‘q edi”. [8, b. 60].

Aytish mumkinki, Xiva qo‘lyozmalarining Buxoro va Qo‘qon qo‘lyozmalaridan ajralib turuvchi, o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan.

Muhammad Rahimxon II davrida xattotlar uchun maxsus sharoit yaratilgan. Saroydagi xattotlar bo‘lmasi birinchi qavatdagi ikkita yorug‘ xonada bo‘lib, ularga gilamlar to‘shalgan, undan saroy bog‘iga chiqish yo‘li bo‘lgan. Guldor naqshlar bilan bezalgan pastakkina maxsus xontaxta ustida xattotlarga mushki anbar ufuruvchi atirlar solingan idishchalar terib qo‘yilgandi. Xattotlar tomonidan matn yozilgan varaqlar hoshiyasi oltin suvi yoki boshqa rangli bo‘yoqlar naqshin qilib bezatilgan. Asarning birinchi sahifasi (unvoni) har xil gul, g‘uncha va anvoi gulchin naqshlar bilan ziynatlangan. Ba’zida asarning nodirligiga qarab birinchi sahifa unvoni naqshlariga ham tilla suvi yurgizilgan. Unvon gardishi gul barglari, o‘simlik novdalari bilan (islmiy usulda) jimjimador barglari va o‘simlik novdalari bilan bezatilgan. Xiva xonligida xattotlar go‘zal xat bilan ko‘chirgan qo‘lyozmalar sahhoflar tomonidan sahifalanib, kitob shakliga keltirilgach, ularni muqovasozlar muqovalashgan. Muqovaga botiq va bo‘rtiq qilib tushirilgan tamg‘a uch xil bo‘lib, shundan ikkitasi kichikroq, bittasi yirik bo‘lgan. Yirik tamg‘a an’ana bo‘yicha muqovaning o‘rtasiga, kichik tamg‘alarning bittasi yuqori qismiga va ikkinchisi yirik tamg‘aning pastki qismiga joylashtirilgan. Bu tamg‘alar bo‘rttirilgan chiziqlar yordamida turli shakllar soyasida yanada salobatli tus olgan. Muqovaning chetlari ham bo‘rttirilgan to‘g‘ri chiziqli yoki jimjimador hoshiya bilan o‘ralgan. Ba’zan muqovasoz-sahhof tamg‘a ichidagi naqshiga o‘z nomini ham bo‘rttirib yozib qo‘ygan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Xonlikdagi xattotlardan Mulla Muhammad Sharif ibn Mulla Muhammadpanoh “Devoni Husayniy”ni, Mulla Xo‘ja Niyoz ibn Eshbobo So‘fi Xorazmiy “Devoni Favjiy”ni, Mulla Jumaniyoz “Devoni Husayniy”ni, Inoyatulloxo devon ibn Muhammad Safo “Devoni Xoqon”ni, Mulla Xudoybergan ibn Muhammad Nazar “Devoni Sodiq”ni, Muhammad Yoqub “Devoni Yakdil” va “Ruboiyot” asarlarini, Domla Ollobergan Maxdum “Devoni Visol”ni, Domla Eshmuhammad ibn Otaniyoz “Tarjimai muxtasari g‘uduriy” asarini chiroyli nasta‘liq xati bilan ko‘chirdilar. Mazkur qo‘lyozmalar sahhoflar tomonidan go‘zal muqovalarda Feruz kutubxonasi uchun kitobat qilingan. Hozir bu qo‘lyozmalar O‘z FA sharqshunoslik instituti jamg‘armasida saqlanmoqda [9, b. 56].

Xonlikda bir qator mohir xattotlar yetishib chiqqan. Saroydagi xattotlardan Xudoybergan muhrkan ham ana shunday xattotlardan bo‘lgan. Xudoybergan muhrkan xon saroyida devon lavozimida ishlagani uchun “devon”, davlat zarbxonasida tanga pullar uchun qoliplar va muhrlar yasagani uchun “muhrkan” nomlariga sazovor bo‘lgan. U xon saroyi kutubxonasidagi kitoblarning asosiy qismini (qo‘lyozmalari markazida saqlanayotgan Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang” asarini “Silsilat uz-zahab”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho” dostonlari va boshqa asarlarni) chiroyli nafis yozuvlarda ko‘chirgan [10, b. 191].

Bundan tashqari u marmar taxtalar, o‘ratoshlarni chiroyli yozuv va nafis naqshlar bilan, she‘riy tarixlarni marmar toshga o‘yib yozgan va gullar bilan bezagan. Uning ishlaridan namunalar Xorazmdagi ko‘pgina me‘moriy obidalarda saqlangan. U nafaqat xattot balki musiqaga ixlosi baland shaxs bo‘lganligi sababli taniqli maqomchi darajasiga ko‘tarilgan. Musiqasi asboblarini ham yasagan va nafis naqshlar bilan bezagan. Muhrkan Komil Xorazmiyning “tanbur chizig‘i” nota kitobini ko‘chirgan va kuy bastalagan. U ko‘plab shogirdlarni (Sobirjon Xudoybergan o‘g‘li, Karimbergan Rahmonberganov, Komil Devoni va boshqalar) tarbiyalab yetishtirgan [10, b. 191]. XIX oxiri - XX asr boshlari xonlikdagi xattotlik va kitobat san‘ati, xon qo‘lyozma kutubxonasi, amaldorlar va shaxsiy kutubxonalardagi kitoblarning mazmun mohiyati, kodikologik jihatlari tahlil qilinganda qo‘lyozma asarlar xati nasta‘liq yozuvida ekanligi ko‘riladi. Qisman nasx, ba‘zan nasta‘liqda shikasta xati elementlari mushtaraklikda ishlatilish kezlari ham uchraydi [11, b. 41].

Xiva adabiy muhiti va xattotlik maktabi namoyandalari bu xat turlarini yaxshi egallagan bo‘lib, husnixatda mashxur bo‘lganlar va nasta‘liq xatining Xorazm turiga asos soldilar. (bu xat harflarning kattaligi bilan ajralib turadi, shu bois Xivada ko‘chirilgan kitoblarning hajmi ham boshqa hududlarda yaratilgan qo‘lyozmalar hajmidan kattaligi bilan farq qiladi). Ayniqsa, Komil Xorazmiy va uning o‘g‘li Muhammadrashul Mirzolar soha rivojiga katta hissa qo‘shdilar [6, b. 55].

Kitobat san‘atining rivoji - Insoniyat tamaddunining markazlaridan biri bo‘lmish Xorazm o‘zining madaniy hayotida uzoq o‘tmishga borib taqaladigan kitob va kutubxonalar tarixiga ega. XIX asrning ikkinchi yarmida ham bu an‘ana davom etib, xonlik hukmdorlari tomonidan kitobat san‘atiga katta e‘tibor berilib, kutubxonalar tashkil qilina boshlangan. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon II shoir tabiat va san‘atga ixlosi baland nozik didli kishi bo‘lganidan Tozabog‘dagi saroyida va Ko‘hna Arkda shaxsiy kutubxonasi bo‘lgan, u yerda dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan noyob kitoblar saqlangan [12, b. 6]. 1908-yili Xivaga tashrif buyurgan taniqli rus sharqshunos olimi A.N.Samoylovich (1880-1898) safari davomida Muhammad Rahimxon II tomonidan saroyda tashkil etilgan Tozabog‘dagi kutubxonada bo‘ladi va bu kutubxona unda katta taassurot uyg‘otadi. N.Samoylovich saroydagi madaniy muhit, xon kutubxonasidagi kitoblar bilan tanishganligi, ayniqsa, arkdagi va Tozabog‘dagi xonning maxsus kutubxonasida ajoyib kitob va qo‘lyozmalar mavjudligini alohida ta‘kidlagan [13, b. 82]. Ilm-fan va san‘atning ma‘rifatparvar homiysi Feruz o‘z saroyida kutubxona qoshidagi ustaxonaga katta e‘tibor qaratib, tez-tez buyurtmalar bergan [14, b. 19].

Xonning Tozabog‘dagi kutubxonasida 200 atrofida bosma va qo‘lyozma kitoblar mavjud bo‘lgan. Har bir qo‘lyozmaning muqovasi chetiga oppoq qog‘ozda yorliqcha yopishtirilgan. Unga kitob nomi, jildi hamda qo‘lyozma va bosma asar ekanligi va mavzusi, ya‘ni nasr yohud nazmda bitilganligi qayd qilingan. A.N.Samoylovich Arkdagi kutubxonada kitoblar katalogi bo‘lgani holda Tozabog‘dagi kutubxonada katalog yo‘qligi to‘g‘risida yozadi [15, b. 65].

Uning e'tirof qilishicha, qo'lyozmalar orasida forsiy manbalar ko'pchilikni tashkil etadi. Yana u qishki kutubxona Arkning g'arb tomonidagi binoning yuqori qavatida, chog'roqqina xonada joylashgandi. Xonaning shimol taraf devorida yopiq javon, kunbotar tarafida esa ikkita oynavand eshikchali javon turardi. Javonlarning birida kichkinagina qo'lyozma katalogda 500 ta qo'lyozma va kitoblarning nomi hamda raqamlari ko'rsatilgan. Kunbotar tarafdagi javonda esa tibbiyotga oid ko'plab kitoblar mavjud. Orqadagi javonda bo'lsa, tarixiy, tasavvuf hamda siyosatga oid asarlar, har xil qo'lyozma va bosma kitoblar bor edi. Kitoblar asosan fors tilida, arabchasi kamroq. Turkiy tilidagi adabiyotlar esa chig'atoy turkiysi, usmonli (rumli) hamda qozoniy-tatar (no'g'oy) cha edi [16, b. 74]. A.Yazberdiyev bu kutubxonada 550 ta kitob mavjud bo'lgan degan [17, b. 290]. ma'lumotlarni qayd qilsa, A.I. Kormilitsin esa ushbu kutubxonalarda 1200 ga yaqin kitoblar bo'lganligini yozadi [18, b. 178].

Muhammad Rahimxon II hukmronlik yillarining oxirgi davrlariga kelib, saroy kutubxonasidagi jami qo'lyozma va toshbosma kitoblar 914 ta (shulardan 604 tasi qo'lyozma, 310 tasi toshbosma asarlar)ni tashkil etgan. Bular 1911-1912 yillarda yozilgan saroy kutubxonasining fehristi-katalogi orqali ma'lum bo'lgan. Bu davrda xonning kutubxonasidan tashqari, uning qarindoshlaridan Abdullohjon to'ra hamda Nosirjon to'ralarning ham o'z shaxsiy kutubxonalari mavjud bo'lgan. Bu fikrlarni Samoylovich ham o'z estaliklari orqali tasdiqlaydi. Jumladan u xonlikdagi kutubxonalar haqida "men tanishgan kutubxonalaridan tashqari, Xivada taxt merosxo'rlining, shahzodalar va ruhoniylarning ham boy shaxsiy kutubxonalari mavjudligini aniqladim [19, b. 145]. Tarixiy manbalarda yoritilishicha, haqiqatan ham, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Muhammad Sodiq qozikalon, Muhammad Rasul Mirzo, mullo Bekjon Rahmonov, xon Feruz avlodlaridan Isfandiyor to'ra, Otabek to'ra (Oqil), Sayyid Nosirjon to'ra, Sayyid Abdulloh to'ralarning ham boy kutubxonalari bo'lgan. Hozirda bu qo'lyozmalarning ko'pchiligi O'zRFA SHI fondida va Sankt-Peterburg kutubxonalarida saqlanmoqda. Sankt-Peterburgdagi Rossiya FAgA qarashli Qo'lyozmalar institutida mavjud qo'lyozmalarning kimga mansubligini shaxsiy muhrlar, qo'lyozma asarlarning birinchi varaqlariga yozilgan qaydlar orqali bilib olish mumkin. Bugungi kunda O'zbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida Feruz kutubxonasining qo'lyozma fehrist-katalogi saqlanadi. [20]

XULOSA

Xiva xonligidagi kitobat san'ati tarixi, xonlikda yaratilgan xattotlik maktabi tarjima ishlari tahlil qilinib, quyidagi xulosaga kelindi. Xivada kitobat san'ati asrlar osha rivojlanib, shakllanib XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida o'z taraqqiyotining yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu davrda Sharq mamlakatlarida qo'lyozma kitoblar hajmi kichrayib, ixcham holatga keltirilgan, muqovalari esa yarim charm yoki boshqa ashyolardan ishlangan bir paytda xonlikda qo'lyozmalar hajmi kattalashgan salobatli, ko'rkam kitoblar qilinganligi ko'riladi. Xorazm xattotlari, naqqoshlari, rassomlari, zarhal bilan bezovchi muzahhiblari, qog'oz tayyorlovchi hunarmandlari hamda muqovasozlarning yuksak badiiy mahorati va san'ati natijasida bebaho, nodir kitoblar vujudga kelgan va mashhur bo'lgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshida Xiva xonligida an'anaviylikka ergashgan va ayni paytda yangi davr bilan bo'ylashgan madaniy hayot mavjud bo'lgan. Xiva xonligi an'anaviy sharq adabiyoti va san'ati qadriyatlarini ham, yangilanish bilan bog'liq jihatlarni ham o'ziga xos tarzda turmushga tadbiq qilish yo'lidan borgan. Bularning barchasida Muhammad Rahimxon II ning o'rni katta bo'lgan. Feruz davri adabiy muhiti barcha shoir va ijod ahli uchun sermahsul davr bo'la oldi. Xiva xonligida tarjimonlik, xattotlik va kitobat san'atining rivoji (XIX asr ikkinch yarmi XX asr boshlari) natijasida adabiy muhit maydoni yanada kengaydi va Feruz rahbarligidagi ijodiy muhit xonlik tarixida munosib iz qoldirdi.

Iqtiboslar/References/ Сноски

[1] Husanova D. XIX asr 2-yarmi Xiva adabiy muhiti. Muhammad Rahimxon Feruz va Komil Xorazmiy. //Universal international scientific journal 2024, 1(3).

- [2] Komil. Devon (Nashrga tayyorlovchilar: A.Хайитметов, V.Мо‘minova). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi ASN, 1975. – 224 b.
- [3] Tabibiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. – 228 b.
- [4] Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. фан. ном....дисс. автореф., Тошкент, 2008, 154-бет.
- [5] Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. моног..Тошкент, 2012, 73-бет.
- [6] Матёкубова М.М. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. моног..Тошкент, 2012, 78-бет.
- [7] Исмоилова Е. Қўлёзма китобат санъати // Хива минг гумбаз шаҳри. Тошкент: "Шарқ", 1997, 90-бет. Тадқиқотчи. Ҳамидулла Аминовнинг аниқлашича, аниқлашича, кейинги тўрт аср мобайнида Хоразмда 200 дан ортиқ хаттот фаолият олиб борган.
- [8] Исмаилова Э. Искусство оформления среднеазиатской книги XVIII-XIX вв. Тошкент: «Узбекистан», 1986. - С.60.
- [9]Эрназаров Ф.Н. XIX аср охири - XX аср бошларида Хива хонлигида маданий ҳаёт. Тарих фан. номз... дисс., Тошкент, 2005, 56.бет.
- [10] “Ўзбекистон обидаларидаги битиклар хива ичан қалъа. Тошкент. "Ўзбекистан тодай". 2015. 191-бет.
- [11] Эркинов А.С. Матншуносликка кириш.- Б. 41
- [12] Абдурасулов А. Хива. – Б. 98. Яна қаранг: // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1991. – № 4. – Б. 6.
- [13] Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. №9. Санкт-Петербург, 1909. С.21-22; Шу муаллиф. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе II. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня. // Известия Академии наук Туркменской ССР. Серия общественных наук. 1981, №1. С.74-82
- [14] Эркинов А. Полвонов Н. Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон ИИ-Феруз кутубхонаси фехристи. Т.: 2010.-Б.19.
- [15] Эшмуродов М. Бекмуҳаммад У. Шарққа талпинган шарқшунослар. мон... - Бухоро.: "Дурдона". 2023, 65-бет.
- [16] Самойлович А.Н. Материалы по среднеазиатско-турецкой литературе II. Хивинские придворные книгохранилища и книгопечатня // Известия Академии наук Туркменской ССР. Серия общественных наук. 1981, №1. С 74.
- [17] Язбердиев А. Гундогар метбелчилиги ва қоне туркмен басма китоплары. Ашгабат: 2002, 290-бет.
- [18] Кормилицын А.И. Рукописные коллекции и библиотеки на территории Узбекистана эпохи средневековья. Ташкент, 1993. С. 35.
- [19] Erkinov A., Vahidov. Sh. Une source tysoppie pour l'«ftude de la production de livres a la cour de Muhammad Rahim II (Khiva, fin XIXe. s). P. 178.
- [24] УРШИ-3, №269. Мазкур қўлёзма 1978-1998-йилларда фаолият олиб борган Ҳ.Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти фондида сақланган. Ҳозирда бу институт фонда 1998-йилдан Шарқшунослик институтига «3-фонд» номи остида қўшиб юборилган.

Xujamatov Intizom-

Urganch davlat pedagogika instituti

Tarix va geografiya kafedrasida o'qituvchisi

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA AGRAR
SOHADAGI O'ZGARISHLAR**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida agrar sohani rivojlanishi, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha viloyatlar shu bilan birga Xorazm viloyatida ham yangi mazmunga ega bo'lgan islohotlar boshlanganligi, davlat va jamoa xo'jaliklarining fermer xo'jaliklariga aylantirish jarayonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, agrar soha, islohot, shirkat xo'jaliklari xo'jaliklari fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari.

Хужаматов Интизом-Ургенчский государственный педагогический институт
преподаватель кафедры истории и географии**ИЗМЕНЕНИЯ В АГРАРНОЙ СФЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРВЫЕ
ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье описывается развитие аграрного сектора Хорезмской области в годы независимости, начало реформ с новым смыслом во всех регионах и Хорезмской области после обретения независимости Узбекистана, процессы трансформации государственного и коллективного хозяйства в фермерские хозяйства.

Ключевые слова: сельское хозяйство, аграрная отрасль, реформа, кооперативные хозяйства, фермы, крестьянские хозяйства.

Khujamatov Intizom-

Urgench State Pedagogical Institute

Lecturer at the Department of

History and Geography

**CHANGES IN THE AGRARIAN SECTOR IN KHOREZM REGION DURING THE
EARLY YEARS OF INDEPENDENCE****ABSTRACT**

This article describes the development of the agricultural sector in the Khorezm region during the years of independence, the reforms that had a new meaning in all regions and the

Khorezm region after the independence of Uzbekistan, and the processes of transformation of state and collective farms into farms.

Key words: agriculture, agrarian sector, reform, cooperative farms, farms, peasant farms.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Globalashuv sharoitida rivojlanayotgan davlatlar agrar sohani rivojlantirish mamlakat iqtisodiy quvvatini oshirishning muhim garovi ekanini anglab yetdilar. Darhaqiqat, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida agrar soha nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda, balki qayta ishlash sanoatini homashyo bilan ta'minlashda ham o'ziga xos o'ringa ega. Asrlar davomida takomillashib kelgan agrar sohadagi mulkiy munosabatlar va xo'jalik yuritishning turli xil shakllarini amaliyotga tatbiq etish bugungi kun jahon hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin fermerlik harakatiga e'tibor kuchaydi. Mustaqillikning dastlabki 4 oyi ichida dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-noyabrda PF-295-sonli "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida"gi[1] qarori chiqdi.

Shu bilan birga agrar sohaning huquqiy asosi sifatida "Yer to'g'risida[2]", "Mulk to'g'risida[3]", "Kooperatsiya to'g'risida", "Ijara to'g'risida[4]", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida", "Dehqon (fermer) xo'jaligi to'g'risida[5]", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Mazkur Qonunlar, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi Qarorlarida agrar sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilan birga, mulkiy masalalarga e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarga ko'ra, yer umummilliy boylik va O'zbekiston Respublikasining mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining o'ziga xos tomoni davlat yer egaligini o'z qo'lida saqlagan holda turli mulkchilik shakllarini qo'llab-quvvatladi. Dastlab kolxoz va sovxozlar faoliyati tanqidiy o'rganilib chiqildi. Zarar ko'rib ishlayotgan kolxoz va sovxozlar jamoa va davlat tasarrufidan chiqarilib, mulkchilikning turli shakllariga aylantirildi. Bu davrda yer egaligining ko'plab shakllari amaliyotga tatbiq qilinib, sinab ko'rildi. Jumladan, kolxozlar, sovxozlar va jamoa xo'jaliklari tarkibida oila pudrati, ijara pudrati, brigada pudrati shakllari joriy qilindi. Chorvachilik fermalari xususiylashtirila boshlandi.

1991-yilning oxiriga kelib, dehqon (fermer) xo'jaliklari soni respublika bo'yicha 1868 tani tashkil qilib, ularga 13,7 ming gektar yer ajratilgan[6]. Dehqon (fermer) xo'jaliklarining deyarli 98 foizi jamoa xo'jaliklari tarkibida ijara pudrati asosida, qolgan 2 foizi esa yerga egalik qilish huquqiga ega bo'lganlar. Dehqon (fermer) xo'jaliklariga ajratilgan yer uchastkalarining o'rtacha kattaligi 10,2 gektarni tashkil qilgan. Dehqon (fermer)larning 80 foizi yerni 5 yil muddatga, qolgan qismi esa 15 yil muddatga olgan. Dehqon (fermer) xo'jaliklarining 67 foizi chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lgan[7].

1998-yilga kelib O'zbekiston Respublikasida, agrar soha rivojlanishining ikkinchi bosqichi, ya'ni faol institutsional o'zgarishlar davri boshlandi. Chunki agrar soha bilan bog'liq bo'lgan bir qancha me'yoriy hujjatlar qaytadan ishlab chiqildi. Jumladan, 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" hamda "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi Qonunlari qabul qilindi.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etish shartlari qonunda aniq ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra, chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etilgan. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda, Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan

yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi[8]. Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi[9].

1999-yildan boshlab agrar sohada mulkiy munosabatlar o'zgara boshladi. Chunki istiqbolsiz, iqtisodiy jihatdan nochor, zarar ko'rib ishlayotgan xo'jaliklar tugatilib, ularning negizida fermer xo'jaliklarini tashkil etishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 13 maydagi "1999-2001-yillarda Xorazm viloyatida bozor islohotlarini chuqurlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish dasturi to'g'risida"gi 243-sonli Qaroriga asosan Xorazm viloyatidagi 8 ta: jumladan, Bog'ot tumanidagi Ogahiy, Urganch tumanidagi Amir Temur, Shovot tumanidagi "Manoq", "Mustaqillik", Yu.Hamadoniy, Hazorasp tumanidagi B.Mashrab, "Tuproqqala", B.Nurullaev nomli jamoa xo'jaliklari tanlov asosida fermer xo'jaliklariga aylantirildi[10]. Tugatilgan 8 ta jamoa xo'jaligi negizida 531 ta fermer va 2 mingga yaqin dehqon xo'jaliklari tashkil etilgan[11]. Natijada 1999-2001-yillarda viloyatda 18 ming dehqon va 871 ta fermer xo'jaliklari tashkil etilib, ularda yangi 40 ming ishchi o'rinlari yaratildi.

2003-yilda Xorazm viloyatida 92 jamoa va 20 dehqon xo'jaliklari tugatilib, ularning asosida 133 shirkat, 13 hissadorlik, 1300 dan ortiq ijara va fermer va xususiy dehqon xo'jaliklari tuzildi.

2005-yilda mavjud 232076 ga ekin maydonlaridan 129407 ga qishloq ho'jalik shirkatlari, 68966 ga yer fermer va 33703 ga yer dehqon xo'jaliklari ixtiyoriga berildi. Davlat ehtiyojlari va buyurtmalarini hisobga olgan holda viloyat dehqonlari 102313 ga maydonlarga paxta va 86008 ga yerga don ekinlarini ekkanlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda nodavlat sektorining hissasi yildan yilga oshib borishida dehqon fermer ho'jaliklari salmog'i sezilarli darajada o'sdi. 2005 yilga kelib Xorazm viloyatda mavjud bo'lgan 14479 fermer xo'jaliklari 195,6 ming ga sug'oriladigan yer maydonlarida dehqonchilik qilganlar. Ayrim fermer ho'jaliklari o'z texnikasi, yordamchi mahsulotlarni qayta ishlash korxonalari, omborxona va ma'muriy binolariga ega bo'lganlar.

2003-yil 23-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2004-2006-yillarda fermer ho'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori[12] va 2004-yil 24-dekabrda Respublika Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan "2005-2007-yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 607-sonli Qaror[10] ham fermerchilik harakatini yanada kuchaytirish uchun muhim tayanch bo'ldi.

Mazkur qarorlar Xorazm viloyat dehqonlari uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratdi. Natijada viloyatda yana 15 ta jamoa xo'jaliklari tugatilib, ularning yerlarida 1055 ta fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Yangi fermer xo'jaliklariga 160,5 ming gektar yer ajratib berildi va ular bilan shartnoma muddatlari 50 yil qilib belgilandi. Yangi mulkchilik munosabatlari shakllanayotganligini e'tiborga olgan holda faoliyati tugatilgan shirkat xo'jaliklariga qarashli mol-mulk kim oshdi savdosi orqali 5 mlrd. so'mga sotildi. Natijada 31 ta chorvachilik fermasi, 3 ta issiqxona va 106 ta uy-joylar yangi egalari ixtiyoriga o'tdi.

Fermer xo'jaliklari infratuzilmasi uchun viloyat tumanlarida 12 ta mashina-traktor parki (MTP), 11 ta neft mahsulotlari shaxobchalari va yana shuncha mineral o'g'it sotish markazlari tashkil etildi. Fermerlar uchun ochilgan "Mini bank"lar uzoq muddatli va 3 foizli kredit ajratish bilan bir qatorda, o'z hisob-raqamlariga ega mijozlarga moliyaviy yordam bera boshlaganlar. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2006-yil 1-yanvarga fermer xo'jaliklari soni 14479 taga yetkazildi (2004 y. ular soni 8678 ta edi, xolos) va ularda band bo'lgan mehnat qilayotganlar soni 91359 nafarni tashkil qildi. Fermer xo'jaliklaridan 7415 tasi paxtachilik, 691 tasi donchilik, 846 tasi kartoshkachilik va sabzavotchilik, 625 tasi chorvachilik, 61 tasi baliqchilik, 1251 tasi qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatgan[13].

XULOSA

Shuni ta'kidlash kerakki, shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, shirkat xo'jaligi davridagiga nisbatan fermer xo'jaliklarida moddiy resurslar sarfi 15-20 foizga kamayganligi va hosildorlik paxtada 5-7 sentner, g'allada 10-12 sentner ko'payganligi kuzatildi[14]. O'tgan yillar tajribasi fermer xo'jaliklarining shirkat xo'jaliklariga nisbatan ancha yuqori rentabelli faoliyat yuritishini yaqqol isbotladi.

Iqtiboslar/References/ Сноски

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг “Республикада Деҳқон фермер хўжаликларини янада ривожлантириш ва мустаҳкамлаш чоралари ҳақида”ги 315-сон Қарори, 1991 йил 30 декабрь // Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати Қарорлари тўплами, 1991 й., 12-сон, 41- модда.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ер тўғрисида”ги Қонуни, 1990 йил 20 июнь // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1990 й., 16-18 сон, 294-модда.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Мулкчилик тўғрисида”ги Қонуни, 1991 йил 19 ноябрь // www.lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ижара тўғрисида” Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 1-сон, 45-модда.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги Қонуни, “Ўзбекистон овози”, 1992 йил 14 август.
6. Ўзбекистон Миллий архиви, М-110 фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 11-варақ.
7. Қурбониезов Р. Қишлоқ хўжалик иқтисодиёти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 137.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги Қонунининг 5-моддаси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6 сон, 86-модда.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “1999-2001 йилларда Хоразм вилоятида бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни жадаллаштириш дастури тўғрисида”ги 243-сонли Қарори, 1999 йил 13 май // www.lex.uz.
10. “Халқ сўзи”, 1999 й, 14 декабрь.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2004-2006 йилларда фермер хўжаликларини ривожлантириш концепциясини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 476-сонли Қарори, 2003 йил 30 октябрь // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2003 й., 20-сон, 100-модда.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2005-2007 йилларда фермер хўжаликларини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 607-сонли Қарори, 2004 йил 24 декабрь // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 52-сон, 521-модда.
13. Махмудов М. Хоразм тарихи Истиқлол кўзгусида.– Урганч 2013. – Б.130
14. ЎзР ФХУ идоравий архиви Ўзбекистон Фермер хўжаликлари уюшмасининг 2007 йил 1 декабрь ҳолатига амалга оширилган ишлар бўйича ҳисоботи. – Б. 4.

Salimov Matyusuf Kodirberganovich-
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

XIVA XONLIGINING 1900-1916-YILLARDAGI QOZIKALONI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada taxminan 1825-yilda Xiva xonligining Gurlan bekligida tugʻlib, 1916-yilgacha Xiva xonligida yashab, mudarris, mutavalli, rais, mufti, qozi askar va qozikalon lavozimlarida faoliyat olib borgan, Xorazmda xattotlik maktabini davom qildirgan, madrasalarda mudarris boʻlib dars bergan, Xiva xonligining qozikaloni domla Muhammad Salim oxun hayoti haqida soʻz yuritimiz.

Kalit soʻzlar: Mutavalli, rais, mudarris, mufti, qoziaskar, qozikalon, xattot, oxun, Gurlan, madrasa, vaqf, sahhof.

Салимов Матюсуф Кодирберганович-
независимый исследователь Ургенчского
государственного педагогического института

КАЗИКАЛ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В 1900-1916 ГОДАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о жизни кази-калона Хивинского ханства, домла Мухаммад Салим ахуна, который родился около 1825 года в Гурленском бекстве Хивинского ханства и жил до 1916 года в Хивинском ханстве, занимая должности мударриса, мутавалли, председателя, муфтия, кази-аскара и кази-калона, продолжил школу каллиграфии в Хорезме, преподавал в медресе в качестве мударриса.

Ключевые слова: мутавалли, председатель, мударрис, муфтий, казиаскар, казикалон, каллиграф, охун, Гурлен, медресе, вакф, саххоф.

Salimov Matyusuf Kodirberganovich-
independent researcher at Urgench
State Pedagogical Institute

KAZIKAL OF KHIVA KHANATE IN 1900-1916

ABSTRACT

This article talks about the life of qazi kalon of Khiva khanate, domla Muhammad Salim akhun, who was born around 1825 in Gurlen bek of Khiva khanate and lived until 1916 in Khiva khanate, holding the positions of mudarris, mutawalli, chairman, mufti, qazi-askar and qazi kalon, continued the school of calligraphy in Khorezm, taught in madrasa as a mudarris.

Keywords: mutawalli, chairperson, mudarris, mufti, qaziaskar, qaziqalon, calligrapher, ohun, Gurlen, madrasa, wakf, sahhhof.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Xorazmda Muhammad Rahimxon-Feruz davrida, ya'ni 1900-yilda Muhammad Salim oxun qozi askarlik lavozimidan xonlikning qozikalonlik lavozimiga tayinlangan. Qozilik faoliyati bilan birgalikda Xiva shahridagi Muhammad Aminxon, Muhammad Rahimxon II, Ollohqulixon va qozikalon madrasalarda talabalarga ta'lim bergan. Xonning buyurtmasiga ko'ra kitoblardan nusxa ko'chirib, xattotlik ishlari bilan ham shug'ullangan. Xiva shahrida 1905-yilda o'z hisobidan madrasa va qorixona bino qildirib, 1906-yildan madrasa faoliyatini yo'lga qo'ygan. 1916-yil umrining oxirigacha qozikalonlik vazifasida faoliyat olib borgan davlat arbobi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYALAR

Qozikalon Muhammad Salim oxunning hayoti va faoliyati shu kungacha to'liq o'rganilmagan. Trixchi olimlarimizdan J.Rahimov, K. Xudayberganovlarning kitob va maqolalarida qisqa ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Ayniqsa Umid Bekmuhammad va B.Irzoeyvlarning izlanishlari natijasida maqolalar va kitoblar chop qilindi va kengroq yaratilib berilgan. Muhammad Salim oxun faoliyati ayrim tarixiy qo'lyozmalarda ham juda kam ma'lumotlar uchraydi. Hozirda Muhammad Salim oxunning avlodlari Gurlan tumanida istiqomat qilishmoqda. Avlodlari shaxsiy arxivida saqlanayotgan tarixiy kitob va hujjatlarni tahlil qilish natijasida ko'plab yangi ma'lumotlar olish mumkin.

MUHOKAMA

1825-1827-yillarda Xiva xonligining Xiva shahridan 60 kilometrcha shimolida joylashgan Gurlan bekligida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Chunki Muhammad Salim oxund avlodlarining shajarasida bobolari ismiga oxun, mullo, domla, maxdum qo'shib keltirilgan. Muhammad Salim oxundning shajarasiga qarasak uning Muhammad Sa'id maxdum, Abduqodir maxdum, Ollohshukur oxund va Musulmon quli oronli degan bobolari ko'rishimiz mumkin[1]. Yana katta buvilari avlodlarida ham maxdumlar, oxundlar uchraydi[2]. Shayx-ul islom, a'lam, oxund, domla, maxdum, eshon laqablari islom dunyosida, ayniqsa markaziy osiyoda diniy unvon, lavozim, martaba, ulug'lash sifatida qaralgan.

Muhammad Salim oxund dastlab o'zi tug'ilib katta bo'lgan Gurlan bekligidagi Polvon mushruf masjid qavmida, keyinchalik Gurlan bekligi qal'asida joylashgan Qutubi zamon Abdulloh eshon madrasasida tahsil olgan. Gurlan bekligidagi madrasani tugatib Xiva shahriga borib zamonasining mashhur, katta madrasalaridan biri bo'lgan Ollohqulixon madrasasida o'qishni davom qildirgan. Shu bilan birgalikda Xiva shahrida xattotlik ham qilgan. Shu kungacha yetib kelgan o'z qo'li bilan nusxa ko'chirgan tarixiy kitoblardan hijriy 1270-yil, milodiy 1853-yilda Ollohquli xon madrasasida Bahodirxon Muhammadaminxon davrida, Abdurahmon Jomiyning "Sharhi mullo", hazrat Jomiyning yana bir devonini va hijriy 1317-yil milodiy 1899-yilda ko'chirilgan Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai turk" tarixiy asarlaridir. Hozirda "Shajarai turk" nusxasi fanga "Gurlan" nusxasi va tayanch nusxalardan biri bo'lib kirdi.

Shu o'rinda bu tarixiy hujjatni misol keltirsak: "Ma'rifat nishon Muhammad Salim oxund eshonga ulkim Ismoil xo'janing yozib yurgan Bedil kitoblaridan yozilgani necha qag'oz bo'lsa berib yuborsinlar, mazkur kitobdin yozilmay turg'oni nechog'lik bo'lsa, oni ham xat qilib yuborsinlar, o'zlari ham, zarurati ishlarin bo'lg'an bo'lsalar kelsinlar, sizga ham xon hazrat kitob buyurmoqchidurlar deb mohi shabonda xat bitildi, 1298-yil". Bu sana milodiy 1881-yil iyun oyiga to'g'ri keladi. Bu tarixiy xujjatning varag'i orqa tarafining pastki chap burchagida ovolsimon shaklda diametri 2 sm lik muhr bosilgan. Muhrda Pahlavon Mirzaboshi ismi qayd etilgan. Demak bu tarixiy hujjatdan bilish mumkinki, Muhammad Salim oxund 1880-yillar xattotlik bilan ham faoliyat olib borgan va o'ziga yarasha xattotlik maktabini, yoki bir qancha xattotlarning guruhini nazorat qilib o'zi bosh bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Salim oxun yoniga yo'ldosh topib, hijriy 1274-yilda (milodiy 1857 -yil) Buxoroi Sharif shahriga ta'lim olish uchun jo'nab ketadi. Buxoro shahriga borib, Ko'kaldosh madrasasida ta'lim olishni boshlaydi. Shu bilan birgalikda madrasada talabalarga ta'lim berib, mudarris bo'lib faoliyat

olib boradi. Bu madrasa tarixidan ma'lumki bu madrasani tamomlagan talabalar ko'pchiligi oxun unvonini olib, davlatning ko'plab yuqori diniy lavozimlariga ta'yinlangan. Shu bilan birgalikda bu Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ko'plab Xiva xonligi talabalari tahsil olgan. Misol tariqasida shu yillarda Buxoroda Muhammad Salim oxund bilan birga tahsil olib, vaqtincha ta'tilga chiqib, yurtiga Gurlan bekligiga qaytib kelib, Buxorodagi do'stlariga yozilgan Mullo Muhammad Rizo tamonidan bitilgan maktubini keltirsak: "Domla Ne'matulloh eshon, va Salim maxdum eshon va jami birodarlarga duoi salomlar. Bukim hazrat mavlano Sharifda hujramiz bor turur, oni ustoz shafaqat panoh marhamat ogoh Salim eshon va domla Muhammad Ziyo va mullo Said Murod hamma itfoq birla bahosi kelsa sotib, hujra vajidin qilgan qarzlarmizni ado qilg'aylar, va agar sotilmasa, tursun, insho Olloh Ta'lo o'zimiz tez bu mohda borib, har narsa qarz xohlarimizg'a javob ayurmiz, va yana bu kim "Sharhi mullo" va bir muxtasar qolib erdi, har na ojiz va asbob bo'lsa, hujrada bo'lsa hammalarin yig'nab, Salim maxdum eshonimiz birla domla Muhammad Ziyo jam qilib qo'ysalar, va yana bu kim mullo Said Murod hujrada qolib erdi, bo'lsalar biz borg'uncha bo'lsinlar, va agar bo'lmasalar, ag'ma valiy odamg'a topshursalar, va yana bu kim, domla Abdulloh va mullo Said Murod va Salim maxdum eshon har qaysilarining uylariga borib ko'rdik. Hammalarining yaqinlari sihat va salomat tururlar. Bu tarafidin xotir jam bo'lsalar va yana maxfiy qolmasunkim, mullo Abdullohnin qarindoshlari Qutlug'murod va Nurmuhammad va Jumanioy va Muhammadniyoz va Muhammadmurod va Bobonioy va Berdimurod va Ibrohim va Xo'janiyoz va O'g'ulbika hammalari sihat tururlar. Va mullo Saidmurodning qarindoshlari mullo Otaniyoz va onasi va inisi hammalari sihat tururlar. Va maxdum eshonimizning (Muhammad Salim oxund nazarda tutilayapti) inisi Vaisniyoz va Bobojon maxdum va mullo Muhammadnazar sahhof (kitob muqovachi) hammalari sihat va salomat tururlar deb salom marqum bo'lindi. Va yana maxfiy qolmasunkim sadoqat panoh muhabbat ogoh Salim maxdum eshon janoblarga, bu kim bizlar hamma Gurlan yaronlari birla hamisha duoi xayiringizda tururmiz. Sizga karomimizdin ham duoi xayrdin o'zga iltimosimiz yo'q turur, al-duoi Avazmuhhammad Qongli va mullo Safarnioy va jami muridkalon,- deb maktubning orqa tarafida maktub egasi ismi keltirilgan,- al-duoi mullo Muhammadrizo bechora".

Demak, bu maktubdan ko'rinadiki, Muhammad Salim oxund Buxoroda nafaqat o'zi, balkim Gurlan bekligidan mullo Abdulloh, mullo Saidmurod va maktub egasi mullo Muhammadrizolar bir vaqtda ta'lim olishganlar va yana Muhammad Salim oxundning ota-onasi haqida xabar uchramaydi. Bu vaqtga kelib ular vafot qilgan bo'lgan. Bu vaqtda Chor Rossiya imperiyasining Markaziy Osiya davlatlarini bosib olish vaqtiga to'g'ri keladi. Dini, tili bir bo'lsada, o'zga davlatda, yana Chor Rossiyaning bosqinchilik siyosati vaqtida ta'lim olishning, bu yurtda istiqomat qilish mashaqatlarini tushunish qiyin emas deb o'ylayman.

Hijriy 1286-yilda (milodiy 1869-yil) madrasadagi o'qishni va ta'lim berishni to'xtatib, Buxorodan Xorazmga kelgan. Xiva shahri madrasalarida mudarrislik qilgan. Keyinchalik Xiva shahri raislikka ta'yinlangan.

Quyidagi tarixiy hujjatga qarasak: "Tarix hijriy ming ikkiyuz to'qson uchda sha'bon oyining a'zosinda (milodiy 1876-yil avgust-sentabr oylari) erdikim, nazarimizda bu mazmun zohir va yahir bo'ldikim, Omonquli oxund marhumining valid irshodi Adham maxdum marhumi vafotidin so'ngra maxdum mazkurning vorislari hamki va tamomi ikki qit'a yerlarin kim koinadur. Gurlan movzesinda, avvalgi qit'asi taxminan, besh tanobdurkim Xizir eli yofi bo'yninda Pahlovon Mashruf masjidi qavmindadur. Ikkinchi qit'asi ham besh tanob bo'lib, Eshimjiron masjid qavminda, Qipchoq yopi bo'ynindadur. Maxdum marhumining masjidiga vaqf etib berulg'ondur. Vaqvnomasinda tayin qiling'on erkan va mazkur ikki qit'a yerning avvalg'i qit'asining orqa tarafida, taxminan bir tanob yer kim Yusuf maxdum marhumining muqavafasi turur. Va muqavafot mazkurotning mutavallisi vafot bo'lg'ani jihatidin jami sharoitlariga halil yetushub masjidida namozg'a imom va muazzin va xatm kalom sharif bo'lmag'oni jihatidan Muhammad Salim oxundning insof va diyonati sadiq va iymoni ravshan bo'lg'anidin va marhumning sahih avlodi va asadiq ihfodi bo'lg'oni uchun viloyat qozisi bila masjid mazkurning muqavafa mazkuralarning va vaqfnomalarin olib har nechuk shart va sharoiti bo'lsa onga loyiq amal qilib har bobda shar'i sharif ahkomini ilgari tutg'oy, toki zohira dunyo va oxirat bo'lib, ...bo'lg'ay. Surat

vaqiya bu erdikim ...(duo)". Varaqning pastki qismida 2 ta muhr bosilgan. 1-muhrda Qoziul quzot Abdurahim ibn qozi Muhammadsharif eshon marhumi, hijriy 1290-yil, 2-muhrda qoziaskar Muhammad Latif oxun ibn Eshniyoz oxun deb qayd qilinga.

Bu tarixiy hujjatdan ma'lum bo'ladiki Muhammad Salim oxund 1876-yil Gurlan bekligida Eshimjiron masjid qavmida mutavallilik qilgan, hamda shu masjid qavmida imomlik ham qilgan bo'lishi mumkin. Boshqa bir tamoni borki, Xivada ish faoliyati bilan birgalikda bir qancha, ayniqsa o'zi to'g'ilib, katta bo'lgan Gurlan bekligidagi qishloq va ovullar masjidining mutavallisi qilib tayinlangan bo'lishi ham mumkin.

Hijriy 1305-yilgacha (milodiy 1887-1888-yil) masjidlarning mutavallisi, Xiva shahrining muftiysi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 1305-1306-yillarda qoziaskar bo'lib xizmat qilgan bu qisqa muddat davom qilgan bo'lishi mumkin. Bunga misol tariqasida tubandagi tarixiy hujjatni keltiramiz: "Domla Muhammadsharif valad mullo Ortuqning insof va diyonati va salohiyati ma'lum va huvayda bo'lg'ani jihatidin Qo'shko'pruk va Oyri tom va Qatag'on va Ma'sud va Yangi yof va Oyronko'l mavzedag'i o'lturumli qoziaskarg'a ta'lluqli jamoalar o'zbekiya va tojikiya va ularning muvaliylariga o'z tarafimizdin noib qozi qilib tayinladik. Endi kerakkim jamoa mazkurular noyib mazkurni o'zlariga noyib qozi bilib, qadim dasturida izzat va hurmatin bajo qilib, ne vajlari bo'lsa, onga arz qilib, nikoh bokiralari bo'lsa, oning izni bila qilib nikohxonasin onga topshursinlar. Va taqsimu tarki va oning iborasi bo'lsa, majlis qazog'a (qozixonaga) kelsinlar. Noyib mazkur ham jamoa mazkurular bila navi maosh qilsinkim...(duo). Deb zulqa'da oyining uchlanchisi, seshanba kuni xat bitildi. Hijriy 1306-yil (milodiy 1889-yil)".

Muhr: Qoziaskar domla Muhammad Salim oxund ibn Muhammad Sa'id marhumi 1305- yil.

Bu tarixiy hujjat lavozimga ta'yinlav hujjati bo'lib, qozi askar tamonidan qishloq va ovullarga qozi noiblikka tayinlangan.

Kundaligida [3] keltirishicha, hijriy 1304-yil (milodiy 1886-yil) nikohxonadin bir tanga kam yeti tillo soliq puli olg'anligi, qozi Muhammadnazarining odami Said Yusuf yigirma tillo soliq puli berganligi, yana ramazoni sharifning o'n uchlanchisi, juma kuni yigirma besh tillo kelturib berilganligi, yana bir yarim tanga kam o'n tillo berdi. Xati bilan rajab oyining beshlanchisi, shanba kuni erdikim qozi Muhammadnazar Gurlandagi hovliga uch tanga kam yeti tillo berganligi qayd etilgan. Yana qozi eshondan o'n ikki yorim tillo olduq nikoh xonadan, zul qa'da oyinda, yana to'rt nikoh xonadan olduq, zul qa'da oyinda deb qayd qilingan. Maxfiy qolmasinkim Gurlan mavzesinda hijriy 1304-yildag'i nikoh xonaning majmuai yuzda sakson ikki nikoh bo'ldi deb qayd qilingan. Shu bilan birgalikda Nurullohbekning madrasasi majmuai yeri ming yuz ellik tanob, va ming va yeti yuz va yigirma besh botmon bug'doy va jug'ori (makka jugari) va har biridin tuliya haqqi saksan olti botmon unsira va mudarris haqqi yuzda ellik besh botmon unsira bo'ldi deb keltirilgan.

Demak, yuqoridagi keltirilgan misollarga xulosa qilsak Muhammad Salim oxund 1886-1887-yillar qisqa muddat xonlikda qozi askar bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Qozi askar vazifasi qozikalonningning yordamchisi sifatida ish olib borish bilan birgalikda, unga tegishli hududlardagi beklilik, qishloq va ovullardagi qozixona, nikoh xonalarni nazorat qilgan va o'ziga berkitilgan madrasa va masjidlarning ham mutavallilik vazifasini bajargan. Qolaversa boshqa mutavallilik ishlarini nazorat qilib turgan. Yana o'ziga tegishli hududlarda oldi-sotti, qarzdan voz kechish, nikoh, taloq, meros tahsimlash, yer va buyumlarni, dastgohlarni ijaraga berish va boshqa turdagi shartnomalarni rasmiylashtirish ishlari bilan shug'ullangan. Yana dehqonchilik yerlarni, ijaraga olingan jihoz va dastgohlarning ijara pullarini, naqd pul ko'rinishidagi mablag'ni masjidlarga, madrasalarga va maqbaralarga vaqf qilingan hujjatlarini rasmiylashtirib o'z muhri bilan tasdiqlab berishgan. Shu o'rinda keltirish joizki, tarixiy hujjatlarda naqd pul ko'rinishidagi pullarni masjid, madrasa, maqbaralarga vaqf qilish Markaziy Osiyodagi xonliklarda XIX asr o'rtalariga kelib, Xiva xonligida ko'proq uchraydi.

Tarix fanlari nomzodi K.Xudoyberganovning fikrigacha, beklilikdagi, qishloq ovullardagi qozilar har yili suhbatdan (sinovdan) o'tib yana qayta tayinlanganlar. Agar suhbatdan o'ta bilmasa, o'rniga boshqasi tayinlangan. Qozikalonlar va qoziaskarlar har uch yilda bir marotaba suhbatdan (sinovdan) o'tkazilib turgan.

Muhammad Salim oxund haqida tarixiy hujjatlarda keltirilishicha, hijriy 1305-1306-yillar (milodiy 1887-yil) va yana 1315-1318-yillar (milodiy 1897-1900-yillar) qoziaskar bo'lib faoliyat olib borgan. Hijriy 1307-1315-yillar davomida muftiy vazifasida ishlagan. Bunga misol tariqasida bir qancha tarixiy hujjatlarni qisqacha keltirsak: “Hijriy 1315-yil mohi rajabning o'n birinda (milodiy 1897-yil 6-dekabr) shanba kuni Nurmuhammad Gurlanli Pahlovon Masharuf masjid qavmidin valad Ernazar Shayx valad Shermuhammad Shayx, sotdim faqohat panoh domla Muhammad Salim mufti eshon valad Muhammad Sa'id maxdumg'a, taxminan ikki tanob yerimni, mablog' to'qson tillo, har biri to'qqiz tanga”.

Guvohlar domla Xudoybergan, domla Sobir, domla Yaxshimurod kotib, muhrda qozi askar Muhammad Amin maxdum ibn domla Rahmatulloh oxund. Hijriy 1308 –yil (milodiy 1891-yil) deb qayd qilingan.

O'zining kundaligida[3] keltirilishicha, hijriy 1318-yil 5-mohi ramazonda(milodiy 1900-yil 27-dekabr) Xiva xonligining qozikaloni bo'lib ta'yinlanadi va umrining oxirigacha faoliyat ko'rsatadi. Qozikalonlik muhrida qozi-ul- quzot domullo Muhammad Salim oxund bin Muhammad Sa'id maxdum marhumi 1318-yil deb yozilgan. Qozikalon Muhammad Salim oxund , o'g'li Nizomiddin oxund kundaligida[4] keltirishicha, hijriy 1334-yil rabi-ul- soniyning 12-kuni vafot qilgan. Bu sana milodiy 1916-yilning 17-fevral kuniga to'g'ri keladi. Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda 92, 96 yil umr ko'rganli keltiriladi. Oldin Xiva xonligi vaqtidan to Xorazm Respublikasi vaqtigacha yil hisobi, hujjatlar yil va sanalari hijriyda qayd qilingan. Shu bilan birgalikda insonlarning umri ham hijriyda hisoblangan, buni e'tiborga olsak hijriyda 96 yil taxminan 92-93-milodiy yilga to'g'ri keladi. Bu hijriy yil hisobi ayrim tarix va voqelikni yozishda , maktub yozishda XX asrning 60-70 yillarigacha saqlanib qolgan ,yoki ham hijriyda , ham milodiyda sanalar, yillar qayd qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Shunga asoslanib Muhammad Salim oxund hijriyda 96 yosh umr ko'rgan bo'lsa , milodiyda 92, 93 yil umr ko'rgan bo'ladi. Agar hijriyda 92 yil umr ko'rgan bo'lsa , milodiyda 89-90 yil umr ko'rgan bo'ladi. Demak 89- 90 yil umr ko'rgan bo'lsa, 1826, 1827-yillar, 92, 93 yil umr ko'rgan bo'lsa, 1823, 1824 – yillar tug'ilgan bo'ladi.Muhammad Salim oxund milodiy 1823-1827-yillar tug'ilib(taxminan o'rta hisobda 1825-yil) 1916-yil 17-fevralda vafot qilgan.

Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasul tahriri ostida 1991-yil Toshkentda chop qilingan “Shoh va shoir qismati ” kitobining 111-betida Muhammad Rahimxon Soniy -Feruz vafot qilganda , uning o'g'li Asfandiyor to'rani xon qilib saylashganda qozikalon Muhammad Salim oxun ham qatnashganini, hamda 1910-yil 18-avgustda Muhammad Rahimxon Soniy -Feruzning janoza namozini qozi Muhammad Salim oxund boshliq ulamolar o'qigani keltirilgan.

Xulosa. Demak, qozikalon Muhammad Salim oxun 90 yildan ortiq umr ko'rgan, u 42-45 yoshigacha o'z yurtida va undan keyin Buxoroi sharifda ta'lim olib musofirlik mashaqqatini ham boshdan kechirgan. Chor Rosssiyasining ikki marotaba bosqinchilik siyosati (Buxoro 1868-yil, Xiva 1873-yil) guvohi bo'lgan . O'z yurtiga kelib Haq yo'lida , xonlikka , xalqqa xolisona xizmat qilgan. Xiva shahrida madrasa oliy bino qildirib, mudarrislik qilib, mingga yaqin shogirdlar yetishtrib chiqqan, xattot, mutavalli, rais, mufti, qozi askar va 16 yil maboynida xonlikning qozikaloni bo'lib xalqqa xizmat qilgan va zamonasining ulamolaridan biri bo'lgan.

Iqtiboslar/References/ Сноски

1. Davlatyor Rahim. Shixnazar Matrasul. Shoh va shoir qismati. Toshkent 1991-yil.
2. Уринбаев А. и др. “Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв”. Тошкент – Киото 2001.
3. Salim oxun. Xotira kundaligi.Qo'lyozma. Shaxsiy arxiv.
4. Nizomiddin oxun . Xotira kundaligi. Shaxsiy arxiv.
5. Boltayev A. “Xiva tarixiga doir materiallar”.11-daftar. Qo'lyozma. Shaxsiy arxiv.
6. Umid Bekmuhammad.Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. “Milleniumus print” nashriyoti. Urganch 2024-yil.
7. K. Xudoyberganov. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a. Toshkent 2012-yil

Matyakubova Shahodat Xamidjanovna-

Urganch Ranch texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

**ARXEOLGIK TADQIQOTLARDA XORAZM DAVLATI IJTIMOY TURMUSH
TARZINING YORITILISHI (AFRIG'IYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRI
MISOLIDA)**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>**ANNOTATSIYA**

305-yilda Xorazmda Afrig'iylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Afrig'iylar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar rivojlanib, aholining etnomadaniy qiyofasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Xorazm davlati ilk o'rta asrlarda xiyoniyar, kidariylar, eftallar, Turk xoqonligi tarkibida ham bo'lmadi, o'z siyosiy mustaqilligini saqlab qoldi. VIII asrda Arab xalifaligi O'rta Osiyoga yurish qilib, o'z hukmronligini o'rnatdi. Lekin bu bosqin O'rta Osiyo xalqlari, jumladan Xorazm davlatining madaniyatiga kata talofot yetkazdi, yozma manbalar deyarli yo'q qilindi. Maqolada shunday sharoitda Afrig'iylar davrida Xorazm davlati madaniyatining moddiy ashyolarda aks etishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Afrig'iylar, Burgutqal'a, Teshikqal'a, donjon, Tuproqqal'a, Uyqal'a, Anqaqal'a, Qumbosganqal'a.

Matyakubova Shahodat Khamidjanovna-

Teacher at Urgench Ranch Technology University

**ILLUMINATION OF THE SOCIAL LIFESTYLE OF THE KHOREZM STATE IN
ARCHAEOLOGICAL RESEARCH (EXEMPLIFIED BY THE PERIOD OF THE
AFRIGHID DYNASTY'S RULE)****ABSTRACT**

In 305, the rule of the Afrighid dynasty began in Khwarazm. During the reign of the Afrighids, socio-economic and political processes developed, influencing the ethnocultural identity of the population. In the early Middle Ages, the Khwarazmian state was not part of the Khionite, Kidarite, Hephthalite, or Turkic Khaganate domains, but retained its political independence. In the 8th century, the Arab Caliphate invaded Central Asia and established its rule. However, this invasion caused great damage to the culture of the peoples of Central Asia, including the state of Khwarazm, and written sources were almost completely destroyed. The article analyzes how the culture of the Khwarazmian state during the Afrighid period is reflected in material artifacts under such conditions.

Keywords: Afrighids, Burgutkala, Teshikkala, donjon, Tuprakkala, Uykala, Ankakala, Kumboskankala.

Матякубова Шаходат Хамиджановна –

Ургенчский Ранчский технологический университет-

ОСВЕЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ХОРЕЗМСКОГО ГОСУДАРСТВА В АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРИОДА ПРАВЛЕНИЯ ДИНАСТИИ АФРИГИДОВ)

АННОТАЦИЯ

В 305 году в Хорезме началось правление династии Афригидов. В период правления Афригидов развивались социально-экономические и политические процессы, которые также оказали влияние на этнокультурный облик населения. В раннем средневековье Хорезмское государство не входило в состав владений хионитов, кидаритов, эфталитов и Тюркского каганата, сохранив свою политическую независимость. В VIII веке Арабский халифат совершил поход в Среднюю Азию и установил свое господство. Однако это нашествие нанесло огромный урон культуре народов Средней Азии, в том числе государству Хорезм, письменные источники были практически уничтожены. В статье проанализированы вопросы отражения культуры Хорезмского государства в материальных предметах в таких условиях в эпоху Афригидов.

Ключевые слова: Афригиды, Бургуткала, Тешиккала, донжон, Топраккала, Уйкала, Анкакала, Кумбосганкала.

ANNOTATSIYA

305-yilda Xorazmda Afrig'iylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Afrig'iylar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar rivojlanib, aholining etnomadaniy qiyofasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Xorazm davlati ilk o'rta asrlarda xiyoniyar, kidariylar, eftallar, Turk xoqonligi tarkibida ham bo'lmadi, o'z siyosiy mustaqilligini saqlab qoldi. VIII asrda Arab xalifaligi O'rta Osiyoga yurish qilib, o'z hukmronligini o'rnatdi. Lekin bu bosqin O'rta Osiyo xalqlari, jumladan Xorazm davlatining madaniyatiga kata talofot yetkazdi, yozma manbalar deyarli yo'q qilindi. Maqolada shunday sharoitda Afrig'iylar davrida Xorazm davlati madaniyatining moddiy ashyolarda aks etishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Afrig'iylar, Burgutqal'a, Teshikqal'a, donjon, Tuproqqal'a, Uyqal'a, Anqaqal'a, Qumbosganqal'a.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ilk o'rta asrlar Xorazm va butun O'rta Osiyo tarixi uchun eng murakkab voqealarga to'la davr bo'ldi. Xiyoniylar, Kidariylar, Eftallar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligining yurishlari, davlat birlashmalarining o'zgarishlarga yuz tutishi, feodal munosabatlarning o'rnatilishi, tashqi dushman hujumlariga qarshi xalq qo'zg'olonlari kabi xususiyatlar Xorazm davlatiga xos xususiyatlar hisoblanadi. Xorazm davlatining islomgacha bo'lgan tarixi qorong'u davrlardan biri hisoblanadi. Chunki arablar bosqini davrida moddiy va ma'naviy ashyolarning aksariyat qismi yo'q qilinganligi bois bu davr haqida ma'lum bir yozma manbalarda juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shu sababdan nafaqat saqlanib qolgan yozma manbalarni o'rganish va tahlil qilish, balki arxeologik-etnografik, numizmatik manbalarni ham o'rganish va tahlil qilish ilk o'rtalarda Xorazm davlatida kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy turmush tarzini baholashga imkon beradi. Maqolada V-VIII asrlarda Xorazm davlati tarixining arxeologik manbalarda aks etishi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklarni arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning 40-50-yillarida S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan. XX asrning 40-yillarida ilk o'rta asrga oid yodgorliklar Burgutqal'a vohasi hududidan topilgan. Burgutqal'a vohasi eni tor bo'lgan 17 km uzunlikda joylashgan bo'lib, Katta Qirqqiz kanali bo'yidan janubda Qumbosganqal'agacha, shimolda Uyqal'agacha borgan [1. 65.c]. Burgutqal'a vohasi qadimgi davrda ham aholi zich joylashgan. Ilk o'rta asrlarda ham bu hududda aholini istiqomat qilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk o'rta asrlarga oid 100 ga yaqin yodgorlik aniqlangan [2. 34-44 c]. Bu davrga oid qadimgi aholi manzilgohlari hajmi, joylashuv xususiyatlari va binolarning tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biridan tubdan farq qilgan [3. 59.c]. Ularning ba'zilar katta hajmda 100x100 m² bo'lsa, kichiklari 30-40 m² bo'lgan, undan kichik hajmdagilari ham

aniqlangan. Ular bir-biridan 100-200 metr masofada joylashgan. Qo'rg'onlarning qurilish uslubi bir-biriga yaqin bo'lib, kvadrat shaklida qurilgan. Har bir qo'rg'onda baland qilib, donjon, ya'ni turar joy minorasi-ko'shk qurilgan. Yirik qo'rg'onlarda donjon-ko'shk 6-8 metr baland qilib, kichiklarida 3-4 metr baland qilib bunyod etilgan. Donjonda ikkita yonma-yon bo'lgan uzun xonalar bo'lib, ularning usti arksimon tarzda yopilgan. Yuqori qavatning markazda ochiq hovli bo'lib, atrofida kichik xonalar qurilgan, ular binoning tashqi tomonidagi kichik hajmdagi burjlar bilan bog'langan. Burjlarning bunday qurilishi antik davrdagi burjlardan tubdan farq qilgan. Bugutqal'a vohasida bunday qo'rg'onlar Qizilqal'a, Qo'ziqirilganqal'a, Teshikqal'a, Qumbosganqal'a kabi yodgorliklarni o'rganish asosida aniqlangan. Bu davrga oid qasr Yakka-Porson yodgorligida tadqiq qilingan. Uning markazida yirik donjon qurilgan. U baland mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, yarimustun shaklidagi bezak bilan ishlangan. Uch qator kvadrat shakldagi devorlar bilan o'ralgan. Uning qurilishi Abu Rayxon Beruniy tomonidan Fir qasrining qurilishiga o'xshaydi. Qo'rg'onlarda erkin dehqonlar katta oilalari bilan birgalikda istiqomat qilganlar. Donjonlar tinchlik vaqtida omborxonalar vazifasini ham o'tagan. U yerda qamalda qolgan vaqtda foydalanishlari uchun donlar va suv g'amlab qo'yilgan. 1937 yilda A.I.Terenojkin tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasida bir qo'rg'onning 13 m² maydoni 3 ta katta va 2 ta kichik xonalarga ajratilganligi va 5 ta xonadan 4 tasi yo'lakka chiqqan. Bir xonada o'choq izlari aniqlangan. Qolgan barcha xonalarda sul, quritilgan nok, qovoq aniqlangan. №2 bilan belgilangan xonada 14 ta katta hajmdagi xum aniqlangan. Ularda suv saqlangan. №4 xonaga kirish eshigining ikkita tomonida ko'plab loy bo'laklari topilgan. Ularda o'tirgan odam tasviri tushilgan [4. 132.c].

Katta Burgutqal'a kanali atroflaridan antik davrda va milodiy eraning boshlarida o'zlashtirilganligi aniqlangan. Ilk o'rta asrlardagi Uyqal'a, Qirqqizqal'a, Ayayoqal'a, Qumbosganqal'a yodgorliklarning quyi bosqichlarida ko'plab qadimgi davrga oid moddiy manbalar topilgan. Bu yodgorliklar ilk o'rta asrlarga kelib, butunlay yangidan qurilgan va bunda ilk o'rta asrlarga oid qurilish uslubi qo'llanilgan. VII-VIII asrlarga kelib Burgutqal'a atroflaridagi qal'alarda hayot yanada rivojlangan. Uning markaziy va janubiy tomonlaridagi qal'alarning qayta qurilishi shu davrga to'g'ri keladi. V-VI asrlarda qurilgan qal'alarning qurilish uslubida o'zgarishlar kam kuzatiladi. Bu davrga oid Uyqal'a atrofida №9 qo'rg'on va Burgutqal'adan shimoli-sharqda joylashgan №9 va Teshikqal'adan shimolda joylashgan №32 qo'rg'onlarning qurilishida ilk o'rta asrlarga xos baland donjonlar qurilmagan va bu yerlardan topilgan sopol idishlar va qurilish texnikasi ham antik davrga xos bo'lgan [5. 11.c]. Tadqiqotchilar Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan sopol idishlar bilan o'xshashlikni kuzatishgan.

Burgutqal'a vohasidagi kanalning alohida tarmog'i bo'yida yirik qo'rg'on va uning atroflarida bir necha kichik kichik qo'rg'onlar guruhi jamlangan. Katta qo'rg'onlar kanal tarmog'ining bosh qismida qurilgan. Janubdan shimol tomonga kanal bo'ylab borishda, uning chap tomonida Qumbosganqal'a, uning atrofida yana yettita qal'a joylashgan. O'ng qirg'og'ida №41 katta qo'rg'on, uning atrofida 2 ta qo'rg'on joylashgan. Ulardan keyin Teshikqal'a joylashgan, uning atrofida 16 ta qo'rg'on aniqlangan. Chap qirg'og'ida yirik №32 qo'rg'on va uning atrofida 8 ta qo'rg'on bo'lgan. Qal'alar balandligi 4-8 m bo'lgan mustahkam tagkursi ustiga qurilgan. Burgutqal'a katta Burgutqal'a kanali bo'yidagi eng katta qo'rg'on bo'lib, u kanalning to'rtta tarmog'idagi butun vohani boshqargan. Uning atrofida 25 ta qo'rg'onlar bo'lib, kanal tarmoqlari bo'ylab, ular 4 ta guruhga bo'lingan. Qal'alarning qurilish hajmi o'z navbatida hududning boshqaruv shakli haqida ma'lumot beradi. Burgutqal'a VI-VII asrlarda qurilgan. Unda ikkita qurilish bosqichi aniqlangan. Birinchi qurilish bosqichida ichki devorning burjlari doira shaklida bo'lib, ikkinchi qurilish bosqichida u ko'shkning markaziy qismida qurilgan arkning ostida qolib ketgan, u loy bilan berkitilgan. Tadqiqotchilar Burgutqal'a vohasi hududdan topilgan yirik qo'rg'onlarni raqam bilan belgilashgan, bular: 8,7,6 va 4 chi qo'rg'onlar bo'lgan [3. 48.c]. Kanal tarmoqlari bo'ylab aniqlangan qal'alarning markaziy qal'asini aniqlash ba'zi tadqiqotchilarga qiyinchilik tug'dirgan. Sababi har bir tarmoqda yirik qurilgan qal'alar soni ko'proqni tashkil qilgan. Jumladan №7 deb belgilangan qo'rg'on atrofida 9,10,11 va 13 raqami belgilangan qo'rg'onlarning hajmi deyarli bir xil bo'lgan. Kanalning har bir tarmog'ida shunday jihatni kuzatish mumkin bo'lgan. Katta Burgutqal'a kanalining quyi qismida Uyqal'a yodgorligi aniqlangan bo'lib, uning

atrofida 14 ta qo'rg'on aniqlangan. Tadqiqotchilar tomonidan 8 dan 13 gacha bo'lgan qo'rg'onlar guruhi aniqlangan, ularning hammasi ma'lum kanal tarmog'i atrofida joylashgan bo'lib, hudud bir qal'a tomonidan boshqarilgan. Bular esa, o'z navbatida hududda aniqlangan 4 ta yirik qal'aga bo'ysungan. Bular Qumbosganqal'a, Teshikqal'a, Burgutqal'a va Uyqal'a. Bu hududdagi aholining tabaqalanish jarayonini ko'rsatadi. Urug'chilik jamoasining yirik oilalardan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin.

Burgutqal'a vohasidagi hayot arablar bosqinidan keyin to'xtagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududdan faqat antik va afrig'iylar davriga oid moddiy manbalar topilgan. Arablar bosqinidan keyingi davrga oid moddiy manbalar aniqlangan emas. Ba'zi qo'rg'onlardan jumladan №8, №61 qo'rg'onlarda hayot IX -XII asrlargacha davom etgan. Ular Xorazm davlatining chegara qal'alari vazifasini bajargan. Bu qal'alar quyi Sirdaryo bo'yida joylashgan Janddan va Buxoro tomonini himoya qilishgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida arxeologlar tomonidan ilk o'rta asrlarga oid Xorazm davlatining chegara hududlari aniqlangan. Bular Eresqal'adan boshlanib, Qo'ziqirilganqal'a, Anqaqal'adan Burgutqal'a yaqinidagi №8 qo'rg'ondan, Qirgizqal'adan o'tib, g'arbga tomon yo'nalib, Ayoqzal'a hududidagacha borgan. Ayoqzal'a 1 kushonlar davrida qurilgan bo'lib, XII-XIII asrlarda ham hayot bo'lgan, lekin atroflarida hech qanday moddiy manbalar topilmaganligini uchun tadqiqotchilar uni harbiy punkt sifatida faoliyat olib borgan bo'lishi kerak degan fikrni ilgari suradilar.

Teshikqal'a VI-VII asrlarda qurilgan bo'lib, 1 gektar maydonni egallagan. Teshikqal'a mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan [6. 167-175.c], oval shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Mudofaa devorining yuqori qismi tishsimon tarzda ishlangan, bunday bezaklar shinaklarning ustida ham kuzatiladi. Mudofaa devorlari paxsadan tiklangan. Qal'a burjlari oval shaklida bo'lib, ularning asosi qal'a devori diagonalini davom qildirgan. Burjlar baland emas, tepa qismi tekis qilib yopilgan, ular jang uchun mo'ljallanmagan. Antik davr yodgorliklaridagi burjlarning qurilishidan tubdan farq qiladi, antik davrda burjlar jang qilishga to'liq moslashtirilgan bo'lgan. Tashqi devorning ichki tomonidan yana bir devor qurilgan bo'lib, u tashqi devorga nisbatan ensiz, lekin balandligi bir xil bo'lgan [4. 138.c]. Buni tahlil qilgan tadqiqotchilar devor mudofaa jihatdan ahamiyatga ega bo'lmagan deb ko'rsatadilar. Qo'rg'onning janubi-g'arbiy qismida donjon qurilgan. Donjon bu qo'rg'onlarning turar joy majmuasi hisoblangan. Donjon-ko'shk asosi mustahkam baland qilib, paxsadan qurilgan va u shakl jihatdan kesilgan piramida shakliga o'xshaydi. Arkning balandligi ichki hovlidan 6,5 metrni tashkil qilsa, tashqi hovlidan 8 metrni tashkil qilgan. Arkda qo'rg'on egasining turar-joyi joylashgan. U yerda yashash uchun xonalar bilan birgalikda omborxonalar ham qurilgan. Arkning devori xom g'ishtdan bunyod etilgan, uning o'lchami 35x35x8 sm. bo'lib, antik davrga nisbatan kichik hajmda bo'lgan. Arkning tashqi tomonida g'ishtlar yirik yarim ustun tarzda ishlanib, tepaga qarab yarim doira shaklida arkasimon qilib birlashtirilgan. Har bir yarim ustunning tepa qismi uchta yo'g'on burj bilan bezatilgan. Tashqi devorlari g'afri tarzda qurilgan. Bunday uslubning kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar turli xil g'oyalarni ilgari suradilar. Bunday uslub dastlab Marv, Qizqal'a, Rabati Malikda aniqlangan. E.Diez uni ossuriya-bobil me'morchilik uslubiga va hind yog'och me'morchiligiga qiyoslagan. Jalol Asad uni Radkandagi mavzoley, Koniyadagi Jaloliddin Rumiy mavzoleyiga o'xshatadi. Shu bilan birga uni ko'chmanchi chorvadorlarning o'toviga o'xshashligi ham aytgan. A.I.Terenojkin uni mahalliy ildizga ega deb, afrig'iylar davriga oid Ayoqzal'a 1 yodgorligining old qismining ishlanishi bilan bog'laydi. S.P.Tolstov esa, "gafrili" me'morchilik bezagining ikkita asosi bo'lgan deb hisoblaydi. Birinchisi bu Tuproqqal'a va Qizilqal'ada qo'llanilgan uslublar bevosita afrig'iylar me'morchiligi uslubining davomiyligini ko'rsatadi. Ikkinchidan arkali galereyalar sug'd ostodonlarida ham ishlangan. Teshikqal'ada qurilgan bu bezak bevosita Qizilqal'aning fasadining yechimi va Tuproqqal'ada ishlatilgan arklar qurilishiga o'xshash bo'lib, bu shularning vorisi bo'lishi mumkin deb ko'rsatadi olim [4. 139.c]. Teshikqal'a ko'shkining ichki qismiga kirish shimoli-g'arbiy tomondan bo'lgan. Ko'shkka ko'tarma ko'priq orqali kirilgan. Ko'shkka kirgach uzun yo'lak bo'lib, yo'lakning o'ng va chap tomonlarida xonalar joylashgan. Yo'lakning chap tomonidagi bir xona devoriga xom g'ishtdan supa ishlangan. Shu xonaning tashqi tomonidan g'ishtdan ikkita ko'tarma qurilgan bo'lib, uning o'rtasida katta axlat

o'rasi joylashgan. Supaning burchagida ikkita loydan ishlangan kvadrat shaklidagi qurilma topilgan. Ularning ichida xamir qoldiqlari aniqlangan. Bu xonalar ko'shkning tashqi tomonida joylashgan bo'lib, turar joy va xo'jalik omboxonasi vazifasini bajargan. Tadqiqotchilar fikricha, bu xonalarda urush xavfi tug'ilganda xizmatkorlar yashagan bo'lishi ehtimoli bor yoki ularda ko'shk mudofaasiga mas'ul qo'riqchilar yashagan bo'lishi ham mumkin degan fikrni beradilar.

Kirish yo'lagingning o'ng tomonida katta hajmdagi № 8 xona joylashgan. Uning markaziy qismi vayron bo'lgan, devorlari bo'ylab keng supa qo'yilgan. Xonalarning devorlari bo'ylab ko'plab loydan ishlangan binoning tepa qismini bezatib turgan frizlar topilgan. Supa yonidagi poldan gilamning katta bo'lasi topilgan. U gobelen texnikasi asosida to'qilgan bo'lib, bezaklari bor. U ko'rinishi jihatdan ko'shk egasining qabulxonasi bo'lishi mumkin. Kirish yo'ligidan keyin uchtalik eshikdan o'tib, ko'shkning markaziy xonasiga (№2) o'tilgan. Xonaning tom qismi kichikroq hajmdagi qutisimon arklar bilan qoplangan, ular qo'shilgan xonalarning devorlari bilan birlashtirib ketgan. Xona markazida chuqur quduq izlari aniqlangan. U xom g'isht bilan ishlangan. Bu xonadan chap va o'ng tomonga qarab, uchtalik eshiklar orqali yonidagi xonalarga chiqilgan. Chap tomonidan №3 chi uzun xona joylashgan, polining yuza qismi go'ng bilan qoplangan. Tadqiqotchilar fikricha, bu yerda yoqilg'i ombori bo'lgan. Uning qarama-qarshi tomonidan hokim xonasi bo'lib, unga pandus orqali chiqilgan. Uning bezaklari qabulxonaga o'xshash bo'lgan. U yerda baland supa va markazida xom g'ishtdan qurilgan o'choq bo'lgan. Xona devorining tepa qismi loydan doira shaklda ishlangan friz bilan bezatilgan. Frizda sakkizta nurli rozetkalar va besh bargli palmalar aks ettirilgan. Bu friz bugungi kunda Ermitajda saqlanmoqda. Ular o'sha paytda S.P.Tolstov tomonidan Ermitajga topshirilgan. Markaziy xonaga kirish eshigidan qarama qarshi tomonda ikkita eshik joylashgan. Chap tomondagi eshikdan katta xonaga (№7) kirilgan. U xona ko'shkning sharqiy burchagida joylashgan. Xonaning kirish eshigi yonidan katta xum topilgan. Xona devorlari bo'ylab xumning siniqlari aniqlangan. Xumlarning soni 10 dan ko'p bo'lgan. Poldan o'simliklarning danaklari, urug'lari topilgan. Uzun danaklari va ko'p miqdorda tariq topilgan. Bu xona don va suv saqlashga mo'ljallangan omborxona bo'lishi mumkin.

Markaziy xonaning birinchi eshigiga ham pandus orqali chiqilgan. U xona (№6) ning chap tomonida g'ishtdan qurilgan supa bo'lib, kirish eshigining chap tomonida o'choq qurilgan. Bu xona orqali ko'shkning janub tomonidagi xonalarga o'tilgan. Bu xonaning bittasi bo'sh bo'lgan, ikkinchisidan esa, g'ishtdan qurilgan yuza qismi sopol bilan suvalgan o'tish yo'lasi topilgan. Yo'lakning old tomonida bir necha o'ralar bo'lgan. Bu xona ham xo'jalik xonasi bo'lgan.

Tadqiqotchilar Teshik qal'a yodgorligidagi ko'shkni tadqiq qilishda xonalar qurilishining o'ziga xos belgilarini aniqlaganlar. Yodgorlikning dastlabki bosqichida yashash xonasi atrofi bo'ylab supalar qurilib, markazda o'choq bo'lgan, so'nggi bosqichiga kelganda keng supa faqat bitta devor yoniga qurilgan [5. 11-13.c]. Dastlabki qurilish an'anasi faqat №8 xonada saqlanib qolgan. Teshikqal'a vayron bo'lgan davrda ham bu xonaning atrofi bo'ylab qurilgan supalar saqlanib qolgan.

Teshikqal'ada olib borilgan tadqiqotlar natijasida aholining diniy tasavvurlari bo'yicha ham ma'lumotlar olingan. №7 va №6 xonalarning devorlarini tekshirish jarayonida devorning shimoli-sharqiy tomonidagi pastki g'ishtlarning uchinchi qatori orasidan qurilishida hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan kichik sopol sharchalardan 3-4 donasi topilgan. Bu sopol sharchalar diniy e'tiqod bo'yicha uyning buzulishidan saqlovchi tumor bo'lgan ekan. Hozirgi kunda ham shu hududlarda iste'qomat qiluvchi qozoqlarda bu odat saqlanib qolgan bo'lib, sopol sharchalarni diniy ulamolar o'qib, keyin devorga qo'yar ekan. Bunday sharchalar ham buzilish jarayoni boshlangan devorlarga solinar ekan. Teshikqal'aning ham aynan mustahkam bo'lmagan devorlaridan bunday sopol sharchalar topilgan.

Ichki hovlining atrofida uzun tor xonalar bo'lib, ular qutisimon gumbaz bilan yopilgan va ichki hovliga qaratilgan. Ularning qurilish uslubi o'rta asrlardagi madrasa yoki karvonsaroylarning qurilishiga o'xshab ketadi. Har bir uzun tor xona ikkita: old va orqa xonalarga ajratilgan. Xonalardan bittasida nihoyatda ko'p tegirmon toshlari topilgan, boshqasi esa, xumlar bilan to'ldirilgan. Ba'zi xonalarning markazida o'choq bo'lib, devor bo'ylab g'ishtdan supa qo'yilgan.

Hovli o'rtasida alohida izolyatsiya qilingan uycha bo'lgan. Uning devorlarni g'ishtdan nihoyatda mustahkam va qalin qilib qurilgan. Kirish burchakdan bo'lgan. Uning atrofi kichik ariqcha bilan o'rab olingan, tadqiqotchilar fikricha bu diniy inshoot bo'lgan. O'zga xos olovga e'tiqod qiladigan mehrob hisoblangan.

Bu davrdagi madaniy hayot qanday bo'lganligi ham Teshikqal'a yodgorligidan topilgan moddiy manbalar orqali aniqlash mumkin. Uylarni loydan ishlangan frizlar orqali bezatishgan. Xonalardan birida katta loy bo'lagiga ishlangan uchta muhr topilgan. Ikkita muhrda to'rtqo'lli ma'budning tasviri berilgan, uchinchisida ov sahnasi tasvirlangan. U nihoyatda mohirona ishlangan bo'lib, chavondoz undan qochib borayotgan yovvoyi echkiga kamondan o'q otayogan jarayoni aks ettirilgan. S.P.Tolstov fikricha, bu tasvir sosoniylarning idishlari tushirilgan tasvirdan qolishmaydi. Otning tasviri ham VIII asrga oid Mug' tog'idagi Divashtichning saroyidan topilgan sug'd qalqonidagi tasviriga o'xshash bo'lgan [4. 142.c]. S.P.Tolstov bu topilmalarni tahlil qilib, ular ikkita g'oyani asoslaydi deb hisoblagan. Birinchidan, Ermitaj va Britaniya muzeyida saqlanayotgan to'rtqo'lli ma'bud tasvirlangan kumush kosalar xorazm san'atiga oid degan g'oyani va ilk o'rta asrlarda Xorazm madaniyatiga hind-buddizm san'atining ta'siri bo'lgan degan g'oyani asoslagan. S.P.Tolstov tomonidan bu g'oya numizmatik material asosida ham ilgari surilgan edi. Bu yana Teshikqal'adagi № 36 xonadan topilgan nosorog haykalchasi ham asoslaydi. Bu esa, buddizm dinining Xorazm hududigacha kirib borganligini yana bir isbotlaydi deb ko'rsatadi S.P.Tolstov [7. 13.c].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Teshikqal'a arablar bosqinidan keyin biroz vaqt o'tib, VIII asrning oxirlarida o'z faoliyatini to'xtatgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Teshikqal'a unga bo'lgan bosqinchilik hujumi natijasida vayron bo'lgan va qayta tiklanmagan. Qo'rg'onning aksariyat xonalari, asosan tadqiqotchilar tomonidan belgilangan №1 va №8 xonalari katta yong'in izlari aniqlangan. Teshikqal'aning "xizmatkorlar xonasi" bo'lgan joyda Sulton Uvays tog'idan olingan katta hajmdagi amfibolitlardan bir nechasi topilgan. Ulardan biri shu xonadagi supaga chuqur kirib ketgan. Tadqiqotchilar bunday amfibolitlar faqat harbiy qurollar natijasida kelgan degan xulosani berashadi. Bunday amfibolitlar ko'shkning boshqa joylaridan ham topilgan.

Ikkinchi qurilish bosqichida qal'ada hayot uzoq davom etmagan. Faqat ikkita hukmdor faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu davr mobaynidan qo'rg'on bir necha bor ta'mirlangan va qayta tiklangan. Teshikqal'aning ikkinchi qurilish bosqichi milodiy VIII asrning boshlarida boshlangan. Bu davrda u ilgari qal'aning ustiga baland platforma qilinib, keyin tiklangan. Birinchi qurilish bosqichi qachon boshlanganligi haqida ma'lumotlar mavjud emas, bu davrga oid tangalar ham aniqlangan emas.

Antik davrning yirik shahri Tuproqqal'a milodiy V-VI asrlarda inqirozga uchragan bo'lsada, uning atrofida afrig'iylar sulolasi hukmronligining oxirgi davriga hayot davom etgan. VII asrga kelib Tuproqqal'a shahrida odamlar istiqomat qilmay qo'yadi. Bu yer keyinchalik dahmaga aylangan [4. 124.c]. Bu esa, ilk o'rta asrlarda hayot shahardan qishloqlarga ko'chgan degan xulosani beradi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu davrda yerga egalik munosabatlari shakllangan. Aholining aksariat qismi shaharlardan qishloq joylarga ko'chgan va yirik yer egalari aylangan. Hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida IV-VI asrlarda quyidagi o'zgarishlar kuzatilgan va bu davr VII-VIII asrlardagi ijtimoiy hayotdan tubdan farq qilgan: qal'adagi donjon antik davr g'ishtlarining hajmidagi g'ishtlardan qurilgan. Tashqi devori esa, paxsadan bunyod etilgan. Donjonlar qal'a markazida qurilgan, keyingi davrda esa, qal'a burchagida yoki darvoza yonida bunyod etilgan. Qal'a ko'rinishi jihatdan bir-biri ichiga qurilgan kvadrat shakldagi 2 ta yoki 3 ta hovli ko'rinishida bo'lgan. Ichki va tashqi hovlilari atrofga nisbatan 1,5-2 metr balandlikda qurilgan va ular donjon bilan bog'langan. Ark binosi markazida katta maydon bo'lgan, uning atrofi xonalar bilan o'ralgan. Uning devoriga ko'plab shinaklar o'rnatilgan. Shinaklar nayzasimon bo'lmasdan usti gorizontaal yopilgan. Bunday shinaklar afrig'iylar davriga mos bo'lgan.

Xorazmdan ilk o'rta asrlarga oid shahar va mustahkamlangan qo'rg'oncha qoldiqlari topib o'rganilgan. Fir saroyi, Burgutqal'a, Teshikqal'a, Yakkaporson, Kuyukqal'a, Mizdahkon, Xazorasp, Sadvar kabi yirik qal'alar o'rganilgan. VI-VII asrlarda jamiyatdagi ijtimoiy tuzumning o'zgarishi

natijasida qishloqlarda katta oilalar yashaydigan mustahkamlangan qasr-qo'rg'onlar qurilgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan erkin aholi mustahkamlangan kichik qo'rg'onchalarda istiqomat qilganlar. Xorazmda ana shunday qo'rg'onlarning 200 dan ortig'i topilgan.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

-Xorazmning ilk o'rta asrlardagi tarixiga oid yozma manbalarning aksariyati Xorazmni arablar tomonidan bosib olingan vaqtda yo'q qilinganligi bois, Xorazm tarixining islomgacha bo'lgan davrini ko'proq darajada numizmatik, arxeologik, epigrafik, etnografik manbalar asosida o'rganishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

-Tarixiy manbalar asosidagi ma'lumotlarga ko'ra V-VIII asrlarda Xorazmda mavjud bir qancha qal'a va shaharlar antik davrda bunyod qilingan qal'a va shaharlarning aynan o'zi yoki o'rnida tashkil qilingan.

-Afrig'iylar davlati davrida Xorazmda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnik jarayonlar rivojlanib, bu narsa ko'proq moddiy madaniyatida o'z aksini topdi.

-Xorazm shaharlarining muhim savdo yo'llarida joylashganligi, davlat iqtisodiy qudratini yuksaltirgan omillaridan biriga aylangan.

-Arablar bosqinigacha Xorazm madaniyati hech qanday tashqi ta'sirga uchramagan va o'z qiyofasini saqlab qolgan.

Iqtiboslar/References/ Сноски

1. Болелов С.Б., Коврижкина М.М., Никифоров М.Г. Количественная оценка топографии Беркут-калинского оазиса (Хорезм) применительно к целям историко-археологических исследований. Восток (Oriens). 2022. №3.
2. Итина М.А., Левина Л.М., Незарик Е.Е., Рапопорт Ю.А. К 60 – ти летию Хорезмской археолого – этнографической экспедиции. // Этнографическое образование, 1996, – №6, – С. 34 – 44.
3. Неразик Е.Е. Селское жилище в Хорезме (I-XIV вв)-М,: “Наука”, 1976. 59 с.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. -С.132.
5. Неразик Е.Е. Селские поселения афригидского времени.-М,: 1966 – С 11-13.
6. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме//СА-М,: Наука, 1940. Вып-6. – С 167-175.
7. Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит.

Qurbonov Abdullajon Atanazarovich-
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

**QUYI AMUDARYO XUDUDI ILK O'RTA ASR TURAR-JOYLARIDA
ARXEOLGIK IZLANISHLARNI O'RGANISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola S.P.Tolstov rahbarligida olib borilgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining Amudaryo hududida ilk o'rta asrlarda olib borilgan arxeologik qazishma ishlari haqida ma'lumot beradi. Ushbu tadqiqotlar turli tarixiy davrlarda, jumladan XX asrning turli o'n yilliklarida qazib olingan arxeologik topilmalar orqali o'sha davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy tuzilishini yoritadi.

Kalit so'zlar: arxeologiya, Xorazm, ilk o'rta asr, S.P.Tolstov, Amudaryo, turar-joylar, etnik-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, qazishma ishlari.

Abdullajon Atanazarovich Qurbanov -
Independent Researcher
Urgench State University

**SOME URGENT ISSUES IN STUDYING ARCHAEOLOGICAL RESEARCH IN
THE RESIDENTIAL AREAS OF THE LOWER AMU DARYA REGION DURING THE
EARLY MIDDLE AGES**

ANNOTATION

This article provides information about the archaeological excavations conducted by the staff of the Khorezm Archaeological-Ethnographic Expedition under the leadership of S.P. Tolstov in the Amu Darya region during the early medieval period. These studies, using archaeological findings excavated during various decades of the 20th century, shed light on the socio-economic and ethno-cultural structures of the society of that era.

Keywords: archaeology, Khorezm, Early Middle Ages, S.P. Tolstov, Amu Darya, dwellings, ethno-cultural processes, socio-economic relationships, excavation works.

Курбанов Абдуллажон Атаназарович -
Независимый исследователь
Ургенчский государственный университет

**НЕКОТОРЫЕ АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ В ЖИЛЫХ РАЙОНАХ НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ АМУДАРЬИ В
РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о археологических раскопках, проведенных сотрудниками Хорезмской археологическо-этнографической экспедиции под руководством С.П. Толстова на территории Амударьи в раннем средневековье. Эти исследования, используя археологические находки, извлеченные в различные десятилетия XX века, освещают социо-экономическую и этнокультурную структуру общества того времени.

Ключевые слова: археология, Хорезм, раннее Средневековье, С.П. Толстов, Амударья, жилища, этнокультурные процессы, социо-экономические отношения, археологические раскопки.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya - etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining Xorazm vohasida keng qamrovli arxeologik qazishmalari natijalarini asos qilib olgan nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar ilk o'rta asrlar jamiyatining rivojlanishini namoyon qilgan turar-joylarida kechgan jarayonlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr adabiyotlar xamda milliy mustaqillik yillarida o'troq aholi tomonidan qoldirilgan arxeologik yodgorliklarida olib borilgan qazishma ishlari natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin:

1 – tarixiy davr XX asr 20 yillari oxiri-40 yillari.

2- tarixiy davr XX asr 40 yillar o'rtalari-1990 yillar.

3-tarixiy davr 1991-2023 yillari.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

S.P.Tolstov monografiyasida Xorazmda ilk o'rta asr tarixi davrlashtirilishi ikki arxeologik madaniyatga ajratilgan, ya'ni kushan-afriqiy va (IV-Vv.n.e) va Afriqiy milodiy IV-V asrlar yoki III-V asrlar, ikkinchisi milodiy VI-VIII asrlar. S.P.Tolstov xulosasiga ko'ra, qadimgi va o'rta asr jamiyatida kechgan jarayonlar bir-biridan farqlanish xolatiga e'tibor bergan. Birinchi tarixiy davrda o'troq aholi hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan turar-joylarda arxeologik izlanishlar 1929 yilida A.Yu.Yakubovskiy rahbarligida arxeologik guruh Xodjeyli shaxridan 8 km uzoqlikda joylashgan Mizdaxqon yodgorligida qazishma ishlarini olib borishi munosabati bilan milodiy VII-VIII asrlarga mansub moddiy ashyolarni olgan. Mizdaxkon yodgorligidan olingan arxeologik ashyolar Xorazm vohasida ilk o'rta asrlar jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik-madaniy jarayonlarni o'rganishda xizmat qiladi. 1937 yilda A.I.Terenojkin Sho'raxon va Sulton Uvays tog'i oralig'ida olib borgan arxeologik dala amaliyoti davrida 20 ta aholi turar-joylarini ro'yxatga olib, ularni joylashish xaritasiga ishlab chiqqan, bu esa S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya - ekspeditsiyasini tashkil qilinib, Amudaryo o'ng va so'l sohili xududlarda aholi turar-joylarida arxeologik izlanishlar olib borilishiga kalit vazifasini bajargan. Tadqiqotchi Burgutqala yaqinida joylashgan № 4 burjda qazishma ishlarini olib borishi natijasida 4 ta uy-xonasi ichki qismi tuzilishi oydinlashtirgan, № 2 uy-xonasida 6 ta qator xumlar qo'yilgan, № 4 uy-xonasida esa 4 ta xum qoldig'i o'rganilgan № 4 uy-xonasiga kirish qismida loydan yasalgan muxr, uning orqa tomonida o'tirgan erkak boshida gul rasmi tushirilgan. Shu bilan birga, Norinjon yodgorligi № 1 uy ichki qismida 4 ta uy-xonasida qazishma ishlari natijada, mil.VI-IX asrlarga oid manbalar olingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1938 yilda S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo o'ng va so'l xududlarida arxeologik qidiruv ishlarini olib borib, aholi turar-joylarni ro'yxatga olgan, Xorazm arxeologiya xaritasiga joylashtirgan. Ekspeditsiyaning dastlabki faoliyati Shuraxon va Sulton Uvays tog'i ulanib ketgan xududlarda joylashgan Ayozkala I,II,III, Dumanqala, Jildiq qalalarni ro'yxatga olish, kelgusida maqsadli ravishda arxeologik izlanishlarni olib borishi ilmiy rejaga jalb qilingan. 1939 yildan e'tiboran, Xorazm ekspeditsiyasi uch yo'nalishda arxeologik qidiruv ishlarini olib borgan. Birinchi yo'nalish Amudaryo Chordjuy shaxridan To'rtkulgacha bo'lgan xududda Ustin, Tuprokkala, so'l sohil xududida Qo'shqala-I, Tuproqqala, Doya, Jigarband, Hazarasp, ikkinchi yo'nalishi Amudaryo va Qizil qul xududda

Jonbosqal'a, Ayozaqal'a-1, Burliqal'a, Bozorqal'a, Quyqrilganqal'a, Angkaqal'a, Pilqal'a, Ayozaqal'a-3, uchinchi yo'nalishda esa Charmanyob magistral sug'orish inshooti sohili xududi bo'ylab Ko'norliqal'a, Dovdanqal'a, Qalaliqir-1,2, Zamaxshar, Govurqal'a-1-2 yodgorliklari ro'yxatga olingan, ularning geografik joylashishi, me'moriy uslublari tasviri berilgan. Xorazm xududida ko'psonli arxeologik yodgorliklari ro'yxatga olindi, ular arxeologik yodgorliklar rejaviy tuzilishi, mudofaa tizimi rasmlari S.P.Tolstov uchta monografiyasida aks etgan. Shu bilan birga, arxeologik izlanishlar natijalari XVI tomida, to'plamlarda, dala ishlari natijalarida o'z ma'nosini topgan. Geografik kenglikda olib borilgan dala amaliyoti natijasida ro'yxatga olingan, ularning ba'zilarida olib borilgan qisman qazishma ishlari natijalari aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda maqsadli ravishda arxeologik izlanishlarni olib borish istiqbolini belgilab berganligini alohida qayd qilish joiz.

XX asrning 40 yillari o'rtalaridan Xorazm arxeologiya- (etnografiya) ekspeditsiya Amudaryo o'ng va so'l xududlarida keng qamrovli arxeologik izlanishlarni olib borishi munosabati bilan aholi turar-joylari madaniy qatlamlaridan milodiy V asrdan - XV asrgacha ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarni rivojlanish tarixini o'rganishga xizmat qiladigan manbalar ikkinchi tarixiy davrda olingan. 1948 yilda N.N.Vakturskaya Ustyurt platosi sharqiy qismida, Ko'xna Urganchdan 50 km g'arbiy tomonida joylashgan Shemaxaqal'a yodgorligining topografik joylashishi, mudofaa devorida xamda ichki qismida qazish ishlarini olib borishi natijalarini inobatga olib, unda xo'jalik-madaniy xayot ilk o'rta va rivojlangan o'rta asrlarga oid manbalar olingan. 1950 yildan boshlab, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo o'ng sohilida joylashgan aholi turar-joylarida qazishma ishlarini davom ettirganlar. Jumladan, 1946-1949 yillarda M.A.Orlov Baraktam-1 da qazishma ishlarini olib borib, ilk o'rta asrga mansub manbalarni olgan. Baraktam 1,2 (20x20 m) xajmga ega, taqirda, bir-biridan 1 km uzoqlikda joylashgan. Yodgorliklar konstruktiv tuzilishi jihatidan ikki qavatdan iborat, uy-xonalariga ravoq uslubida birlashtirilgan, asosiy qurilish ashyosi paxsa. Tadqiqotchi Baraktam 1,2 dan olingan ashyolar milodiy V-VI asrlarga oid degan xulosaga kelgan.

1956 yilda Ye.Ye.Nerazik, M.S.Lapirova-Skoblo Baraktam-1 da arxeologik izlanishlarni davom ettirdilar. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Baraktam-1 topografik joylashishi kvadrat rejaviy tuzilisha yaqin, hajmi 18,0 x 17,4 m. Yodgorlik markazida hajmi (100x100m) inshoot joylashgan, uning atrofi paxsa devor bilan o'rab olingan. Yodgorlikka kirish qismi janubiy devor o'rtasida joylashgan. Shimoliy, sharqiy va janubiy devorga qo'shimcha paxsa va xom g'ishtdan qurilgan qalinligi 1,5 m. G'arbiy, shimoliy va sharqiy devor oldinga chiqqan 15-20 sm to'g'riburchak pilyastr shaklga ega. Baraktam-1 ikki qavatdan iborat bo'lgan me'moriy uslubi, xom g'ishtdan qurilgan, xonalari ravoqlari rivojlangan o'rta asrlarda saqlanib qolgan. Uy-xonalar kirish yuqori qismi ravoq bilan birlashtirilib, g'ishtdan tiklangan, yodgorlikning shimoli-g'arbiy burchagida katta xajmli № 9 uy-xonasi joylashgan qazish ishlari natijasida olingan moddiy ashyolar milodiy V-IX asrlarga oid bo'lgan.

1953-1956 yillarda Ye.Ye.Nerazik Burgutqala vohasida aholi turar-joylarida arxeologik tadqiqotlarni davom ettirgan. Tadqiqotchi Burgutqal'a dexqonchilik vohasi yirik shaxri Burgutqal'a, uning atroflarida turar-joylar vazifasini bajargan kvadrat shaklda bir-biridan 100-200 m uzoqlikda taqirda qad ko'tarilgan "Ko'shk", "Qurg'on" va "Qala" larni o'rganishga e'tiborni qaratgan. Burgutqal'a asosiy devor paxsadan tiklanib, mil.avv.IV asrda o'troq aholi tomonidan bunyod qilingan, umumiy maydoni 6 ga. Mil.avv-gi IV asr oxiri - V asr oxirida janubi-sharqiy xududi qisqargan, faqat shimoli-sharqiy qismi (100x100m) paxsa devorlari saqlanib qolgan, balandligi 10,50 m. Nazarimizcha, antik davrda ark vazifasini bajarishi ilk o'rta asrda davom etgan. Arxeologik izlanishlar mazkur inshootda uch tomonini paxsa devor o'rab olgan, janubiy qismida paxsa devorlari qoldiqlari saqlanib qolgan xolos. Inshootning paxsa devorlari pastki qalinligi 2,5 m, yuqori tomon qisqarib borgan. Paxsa qurilishida pastki qismida 13x 0,7 (0,8 m), yuqorida esa 0,7 (0,8x0,8 (0,9) rombi shaklida bloklardan tiklangan to'rt tomonini o'rab olgan devor yoni bo'ylab ikki, burchaklarida yarim aylana burjga ega, ular ikki qavatli, ikkinchi qavatga pandus orqali kirilgan. Devor o'z navbatida paxsa devor balandligida 1 m, kengligi 0,13-0,17 m shinaklarga ega. Nerazik asarlarida qayd qilinishicha Burgutqal'a qurilish va atrofidagi ko'shklarda xom g'isht

ishlatilgan xajmi 37x37x10 sm, 34x34x14 sm . Ye.Ye.Nerazik Burgutqal'a shahar sifatida Burgutqal'a madaniy-xo'jalik markazi tarkibiga Qumbosgan-qala, Uy-qal'a, Teshikqal'ani jalb qilgan xamda № 36, 16, 33. Shu bilan birga, 92, 19, 59, 18, 32, 30, 115 kabi "ko'shk" larda qazishma ishlari olib borilgan. Milodiy VI-IX asrlarga oid "Ko'shk" uy-xonalaridan olib borilgan qazishma ishlari natijalarni yoritishga xarakat qilamiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ko'shk № 92-kvadrat shaklida (18x18 m) poy devori paxsa, to'rt tomoni paxsa devor bilan o'rab olingan, tashqi paxsa devor to'g'riburchakli "Pilyastr" me'moriy uslubga ega. Paxsa devori saqlangan balandligi 6 m, ikki qavatdan iborat tashqi devori, nayza o'qli shinaklarga ega, yuqori qismi tish shaklida ochiq yo'laklar mavjud, "Ko'shk" o'rtasida "quduq" joylashgan. Asosiy uy-xonolari janubiy qismida joylashgan (№ 2,3,4). To'rtinchi uy-xonasi sharqida "Supa" joylashgan. Janubi-sharqiy burchagida ikki qavatli shaklda inshoot ikki qavatli, pastki qavatli devorida 2 ta shinak joylashgan. Yuqorida qayd qilingan ko'shklar topografik joylashishi jihatida bir-birini takrorlaydi, ammo ichki xususiyatlari jihatidan bir-biridan farqlanish xolati mavjud. 19-Ko'shk ichki qismi tuzilishini aks ettirgan uy-xonolari shimoli-sharqiy qismida joylashgan (1,2,3,17,18 va x.k.). Ko'shk № 18 kvadrat shaklda, o'rta qismida esa kvadrat shaklda inshoot bino qilingan.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Толстов С.П. Древний Хорезм-М МГУ, 1948-с 33.Ўша муаллиф. Периодизация древний истории Средней Азии //КСИИМК,-М, Наука, 1949, Вып XXVIII-С.27-28.
2. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта-М, Наука, 1962-с252.
3. Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан //ЗКВ-Л, Т-V, 1930-С-10-25.
4. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме-М,Наука, 1940, Вып. VI-С.180-181 рис 9-10,- С.186. рис 15.
5. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.:МГУ 1948. Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации М-Л, Наука, 1948. Ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарта-М, Наука 1962.
6. Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г на средневековом городище Шемахакала Туркменской ССР //Археологические и этнографияеские работы Хорезмской экспедиции 1945-1948 гг-М, 1952.Т. I-С. 175-176. Рис 1,2.
7. Орлов М.А. Барак-там Новые памятники поздне античной архитектуры Северо-Восточного Хорезма //ТрХАЭЭ-М, Наука 1952-Т.1.-С. 136-152. Рис 1,2.
8. Неразик Е.Е, Лапиров-Скобло М.С. Раскопки Барак-там-1 в 1956 //Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1954-1956 гг.-М.Наука, 1959-С.81-95. Рис-3,5,7.
9. Неразик Е.Е.Раскопки в Беркут-калинском оазисе в 1953-1956 гг //Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1954-1956 гг-М.:Наука, 1959. Вып-Л-С. 99-101. Рис 1,7. С.102- рис 3.
10. Неразик Е.Е. Кўр.асар-Б.112, рис 8.
11. Неразик Е.Е. Кўр.асар.-Б.115 а 126.
12. Неразик Е.Е.Кўр.асар. С.119.рис 14.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000